

UO'K 373.3/5
ISSN: 3060-4788

ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

August, 1/2024



Активация W
Чтобы активировать

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2024-yil,
1-son

Toshkent – 2024



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi



Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat
milliy instituti

Bosh muharrir:

ISMAILOV

Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

YULDASHEV

Maksudjon Abdullayevich

Tahrir hay'ati:

RADJABOV

Sardor Baxtiyorovich

BAXRAMOV

Anvar Axrarovich

PIOTR

Fokich Borovski

GUNDA Tire

KOVALEVA

Galina Sergeyevna

QODIROV

Umarali Do'stqobilovich

IBRAGIMOV

A'lamjon Amrilloevich

XALIKOVA

Moxira Kundibaevna

ERGASHOVA

Malohat Tursunovna

IBRAGIMOV

Abdumalik Gapparovich

ALKAROV

Elyor Maxmudovich

BADALOVA

Maqsuda Umarovna

BOTIROV

Xamid Hakimovich

OTAMURODOV

G'olibjon Ruzimurodovich

XURRAMOV

Isroil Abdurashidovich

YUSUPOVA

Dilnoza Fayzullayevna

Mas'ul muharrir:

DAMINOVA

Shoxista Kabulovna

Mas'ul kotib:

AZAMATOVA

Dilafruz Saydig'aniyevna

Adabiy tahrirchi:

MIRZOXIDOVA

Laylo Baxtiyorovna

Badiiy muharrir:

MIRZOHI DOVA

Laylo Baxtiyorovna

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and

educational-methodical journal

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS


UO'K 373.3/.5

ISSN: 3060-4788

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi

pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning
saodati, davlatning tinchi
va rohati yoshlarning yaxshi
tarbiyasiga bog'liqdir”.**

MUNDARIJA

- 5 Umarova Xilola Uktamovna.
Ta'lim poydevorining mustahkamligi
mamlakat taraqqiyotining asosidir
- 7 Ismailov Abduvali Abdumalikovich.
Zamonaviy sharoitda o'qituvchilarning
uzluksiz malakasini oshirish tizimini
transformatsiyalash
- Umumiy o'rta ta'limning
dolzarb muammolari*
- 14 Odiljanova Gulasal Ilhomjon qizi,
Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna.
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda
tashkil etish
- 20 Yakubova Naima Urazboyevna.
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
ta'lim sifat samaradorligini oshirishda
zamonaviy yondashuv
- 26 Mamataliyev Alisher Rustamovich.
Umumiy o'rta ta'lim maktablari tarix
darsliklarida o'zbek xalqining shakllanish
masalasining yoritilishi (Milliy o'quv dasturi
7-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligi misolida)
- Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi*
- 31 Eraliyeva Sadoqat Xusanboyevna.
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini
metodik tayyorgarligini takomillashtirish
muammosining pedagogik zaruriyati
- 39 Yo'ldosheva Zuxraxon Xolmirzayevna.
"Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi
bosqichi"da ta'lim sifatini oshirishda
yangicha yondashuvlar va
innovatsiyalardan foydalanish
- 44 Abdullayeva Zulfiya Fayzullayevna.
Ta'lim mazmuni va sifatini
takomillashtirish va boshlang'ich sinf
matematika darslarida zamonaviy
metodiklardan foydalanishning ahamiyati

CONTEKST

- 49 Burxonova Hulkaroy Dexqonboyevna.
Boshlang'ich ta'lim mazmunini
takomillashtirishda tajriba va
amaliyotning o'rni
- 52 A. Jabborov
STEAM – ta'limi asosida aniq fanlarni
o'qitishda bilimlarni mustaqil egallash
va ijodiy munosabatni shakllantirish
- 58 Ibragimova Nilufar Yuldashovna.
4K modeliga asoslangan shaxsga
yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan
foydalanib dars jarayonlarini tashkil qilish
- 65 Muminova Mavjuda Muxtorovna.
O'quvchilarda kreativlik kompetensiyani
rivojlantirishning pedagogik, psixologik va
didaktik omillari
- Kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari*
- 69 Amonov Xolmuhammad Normurotovich.
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini
innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorgarligini takomillashtirishda
"tabiiy fanlar" (science)
integrasiyasini o'rni
- 78 Xurramov Sanjar Ravshanovich.
Zamonaviy ta'lim tizimida boshqaruv
kadrlarni tanlash mexanizmini
takomillashtirishning ba'zi masalalari
- 89 Ilmurodova Feruza Shakirovna.
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy
faoliyatga tayyorlashning asosiy jihatlari

Ta'limda boshqaruv faoliyatini baholash

- 96** Muxamedov Sherzod Nurmuxamedovich, Najmiddinov Ulug'bek Abdurashid o'g'li. **Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslari** (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari misolida)

Ta'limda menejment

- 103** Saidqulov Sodiqjon Botirovich. **Sharq mutafakkirlarining boshqaruv faoliyatiga xos ijtimoiy-psixologik qarashlari**

- 107** K.O. Matnazarova. **Zamonaviy maktab rahbarining funksiyalari**

Ilg'or milliy va xalqaro tajribalar

- 111** Axmedova Zulnura Allayarovna. **Xalqaro tadqiqotlarda matematik savodxonlikni baholash bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar mazmuni**
- 118** Qurbonova Saodat Ismatqulovna. **Xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari**
- 124** Botirov Hamid Xakimovich. **Maktab ta'limida raqobat muhitini yaratish bo'yicha xitoy tajribasi**
- 129** Badalova Maqsuda Umarovna, Azamatova Dilafruz Saydig'aniyevna. **Tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirishda xalqaro tajriba**

Ta'lim sifati va xalqaro baholash tadqiqotlari

- 134** Muradov Ikrom Turdiboevich, Ostanova Xurshidabonu Gafurovna, Niyozova Ra'no Maxmudovna. **Ta'lim sifati: bugun va erta!**

Inklyuziv ta'lim

- 138** Qodirova Dilafruz Odiljonovna. **Inklyuziv ta'limdagi o'quvchilarining ta'limdagi faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy metodlari**
- 142** To'xtamatova Maftuna Ismonjanovna, To'yqulova Gavharoy Mavlonovna. **Inklyuziv ta'lim – muvaffaqiyat ta'limi**

Kasb-hunarga yo'naltirish masalalari

- 146** Mahkamova Dilafruz Aliyevna. **Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning metodik ta'minoti**

Malaka oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish

- 153** Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna. **Malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni steam ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy usullardan foydalanish**
- 159** Tojiboyeva Iroda Tursunbayevna. **Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodik ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari**
- 163** Alkarov Elyor Maxmudovich. **O'qituvchi malakasi yuqori bo'lgan joyda zakiy avlod voyaga yetadi**

Ustoz-shogird

- 169** Sobirova Shahnoz Shavqiddinovna. **Ustoz-shogird an'analari – ta'lim sifat va samaradorligi kafolati**

TA'LIM POYDEVORINING MUSTAHKAMLIGI MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIDIR

Umarova Xilola Uktamovna,
*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va
maktab ta'limi vaziri i.f.f.d., (PhD)*

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, olib borilayotgan islohatlar hech shubhasiz, birinchi navbatda maktab ta'limiga qaratilayotgani sir emas. **"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi"**, degan ezgu shior va oldinga harakat qilishga undovchi g'oya hukumat darajasida barcha ta'lim fidoyilarini bir maqsad atrofida birlashtirmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlarning salmog'ini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'plab yangi zamonaviy maktablarning qad rostlayotgani, o'qituvchilarning maqomi yuqori cho'qqiga olib chiqilgani, ularning mehnati qadrlanayotgani, yaratilayotgan shart-sharoitlarning yaxshilanayotgani, jamiyatdagi nufuzining oshib borayotgani bilan alohida e'tiborga sazovordir.

Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar ayni vaqtda ta'lim xodimlarini yosh avlodga sidqidildan ta'lim-tarbiya berishga, dunyo tamaddunida o'quvchilarimizning turli fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda munosib ishtirok etib eng nufuzli o'rinlarni egalashlariga o'z mehnatlarini ayamasdan harakat qilishga undamoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchilik kasbi eng sharafli kasb ekanligi bilan boshqa barcha sohalardan mutloq aj-

ralib turadi. Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy **"Har bir millatning taraqqiyoti va tolei yoshlarning ilm va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir"**, degan edi. Bugungi kunda har bir pedagog-o'qituvchining mehnati millatning, jamiyatning, mamlakatning taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Biz oldimizga qo'ygan ulkan maqsadlarimizning natijalarini ta'lim sohasining ana shu jonkuyarlari bilan birgalikda amalga oshirgan ishlarimiz orqaligina ko'ra olamiz.

Joriy yilning o'zida o'quvchilarimizning xalqaro va nufuzli olimpiadalarda erishgan yutuqlari bizni juda quvontirmoqda. Jumladan, Angliya davlatida dunyoning 110 ta mamlakatidan 600 dan ortiq iqtidorli yoshlar ishtirok etgan 65-Xalqaro matematika olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi 2 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Saudiya Arabistonida tashkil etilgan dunyoning 87 ta davlatidan 340 nafardan ortiq iqtidorli o'quvchilar ishtirok etgan 56-Xalqaro Kimyo olimpiadasida o'zbekistonlik o'quvchilar 1 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Joriy yilning 26-31-iyul kunlari Hindistonda bo'lib o'tgan 30 ta davlatdan 576 nafar iqtidorli o'quvchilar ishtirok etgan Xalqaro matematika musobaqasida o'quv-

chilarimiz tomonidan 3 ta oltin, 4 ta kumush va 11 ta bronza medallari qo'lga kiritildi. O'zbekistonning 8 nafar iqtidorli yoshlardan iborat terma jamoasi olimpiadada faol ishtirok etib, ularning barchasi sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Bu ishlarni amalga oshirishda ko'plab xorijiy davlatlar, xususan, Singapur, Germaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari umumta'lim maktablarining o'qituvchilari chet davlatlarida tajribalarini oshirib, ularning tajribalari, yutuqlarini o'rganib kelmoqdalar.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan maktab ta'limi tizimi xodimlarining malakasi oshirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlar ham o'z samarasini bermoqda. Xususan, AQSHning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Finlandiya Milliy ta'lim agentligi, Singapur, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya Respublikasining "Ta'lim akademiyasi" davlat ta'lim muassasasi bilan o'zaro memorandumlar imzolangan.

Ta'lim sohasi, xususan, maktab ta'limida olib borilayotgan ishlarimizning ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy natijalari A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida ta'xis etilgan jurnalda keng miqyosda yoritib boriladi.

"Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" jurnali mamlakatda maktab ta'limi va ta'lim uzluksizligi

yo'nalishlarida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining yaratilishi va ularni keng tatbiq etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, jahonda mazkur sohalarida ro'y berayotgan jarayonlar va so'nggi yangiliklardan keng ommani xabardor qilib borish, maktab ta'limiga oid yagona milliy axborot makonini yaratish hamda umumiy o'rta ta'limning nazariy-amaliy jarayonlariga iqtidorli yoshlar hamda tajribali ustozlarni faol jalb etish maqsadida turli mavzudagi ilmiy-amaliy maqola va ilmiy ijodning eng ilg'or namunalarini chop etib borish, xalqaro tendensiyalar va ilmiy izlanishlar bilan muvofiklikni ta'minlash maqsadida maktab ta'limining dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda amalga oshilayotgan xalqaro ilmiy-tadqiqotlar tahlilini yetkazib borish, maktab ta'limi tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, maqsad va dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilovchi masalalarni muhokama qilish, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, qayta tayyorlash, ta'lim menejmenti, boshqaruvga doir dolzarb muammolar, xalqaro tajriba, amalga oshirilayotgan ishlarning ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini tahlil qilishga doir amalga oshirayotgan innovatsion ishlarini yoritishga xizmat qiladi.

Mazkur jurnal faoliyati nafaqat respublika, balki xalqaro darajadagi yuqori Impakt faktorli jurnallar qatoridan joy olishiga ishonch bildiramiz.

ZAMONAVIY SHAROITDA O'QITUVCHILARNING UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASH

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektori, p.f.f.d., (PhD)

Annontatsiya: ushbu maqolada so'nggi yillarda pedagoglarga bo'lgan e'tibor, pedagoglarning malaka oshirish tizimining asosiy transformatsiya bosqichlari, maxsus elektron platforma orqali pedagoglarning diagnostika natijalari tahlili, PISA xalqaro tadqiqot natijalari tahlili, shuningdek, kelgusida malaka oshirish tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, kasbiy rivojlantirish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi, diagnostika, xalqaro tadqiqot, davriylik va uzluksizlik, PISA, transformatsiya, integratsiya, "Kasbiy rivojlanish kuni", "Kasbiy rivojlanish soati".

Трансформация системы непрерывного профессионального развития учителей в современных условиях

Исмаилов Абдували Абдумаликович,
Ректор Национального исследовательского института имени А.Авлони
д.ф.п.н., (PhD)

Аннотация: в данной статье рассмотрено внимание, уделяемое педагогам в последние годы, основные этапы трансформации системы профессионального развития педагогов, анализ результатов диагностики педагогов посредством специальной электронной платформы, анализ результатов международных исследований PISA, а также освещены вопросы совершенствования системы повышения квалификации в будущем.

Ключевые слова: повышение квалификации, профессиональное развитие, электронная платформа "Непрерывное профессиональное образование", диагностика, международные исследования, PISA, трансформация, интеграция, периодичность и непрерывность, "День профессионального развития", "Час профессионального развития".

**Transformation of the system
of continuous professional development
of teachers in modern conditions**

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
*Rector of the National Research Institute
named after A.Avloni, Ph.D.*

Abstract: the attitude towards teachers in recent years, the main transformation stages of the teachers' In-Service Training system, the analysis of the diagnostic test results of teachers delivered through the special online electronic platform, analysis of the results of the PISA International study, as well as the issues related with the improvement of In-Service Training system in future have revealed in this article.

Keywords: in-service training, professional development, the electronic platform continuous professional education, diagnostics, international studies, PISA, transformation, integration, periodic and continuous, Professional Development Day, Professional Development Hour.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim olish tendensiyalarining global-shuvi dunyo miqyosida eng dolzarb muammo sifatida o'rganilishda davom etmoqda. Insoniyat yaratilibdiki, yangidan yangi bilimlar sari intilish, ularni qulay sharoitda oson o'rganish uchun malakali, o'z faninig yetuk mutaxassisi bo'lgan ustozlarning ko'magiga ehtiyoj sezadi.

Dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchining maqomini oshirish va salohiyatini rivojlantirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir mamlakatda xalqning savodxonlik darajasining yuqori bo'lmog'i bu jamiyatning rivojlanishi uchun har tomonlama yetuk shaxslarni yetishtirish bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida doimiy ishlashi, malaka oshirishi, tajriba va mahoratini muntazam rivojlantirib borishi lozim.

S.I.Miropolskiyning qariyb 100 yil oldin **“Kimki ustoz mehnatiga mehr va muhabbatni his qilmasa, unga da'vatni anglamasa, bu ishni tark etsin. O'zingizni qiynamang, bolalarni qiynamang, maktabni buzang, boshqa ish qidiring. Ishtiyoqsiz o'qituvchi azoblovchi, o'quvchilar esa uning qurbonidir”** [10], deb o'qituvchi kasbining naqadar sharaflili va mas'uliyatli ekanligi, unga layoqati va muhabbati bo'lgan shaxslargina ushbu kasb bilan shug'ullanishlari lozimligi haqida aytilgan fikrlar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Buyuk ma'rifatparvar bobokalonimiz Abdulla Avloniyning **“Ilm-u ma'rifat sohibi bo'lmak uchun sa'y va g'ayrat kerak o'ldig'i kabi zehn va idrokning ham salomat bo'lmog'i shartdur”** [9, 18-bet], degan qarashlari bugungi kun pedagoglarini bo'sh vaqtlaridan unumli foydalangan holda muttasil ilm egallashga, doimiy ravishda yangiliklarga intilib,

ularni o'rganib, o'zlarining zehnlari yana-da charhlab yosh avlodga ziyo tarqatishga undaydi. Zero, barcha ma'rifatparvar allomalar o'z davrida ilmi kishilarning qadr-qimmatini ularning tinmay izlanishda bo'lishlari natijasida kamolot cho'qqisini egallashlari bilan o'lchanishini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida ilk marotaba o'qituvchiga oid modda kiritilib, unda **“Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi”** (52-modda) belgilab qo'yildi [1].

Bundan tashqari, **“Pedagogning maqomi to'g'risida”** qabul qilingan qonunda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si bilan birga, o'qituvchining malaka oshirish va qayta tayyorlash orqali salohiyatini rivojlantirib borishga oid huquqlari mustahkamlab qo'yildi [2].

Eslatib o'tish joizki, O'zbekiston maktab ta'limi tizimida 525 ming nafar o'qituvchilar 10163 ta maktablarda faoliyat olib bormoqda. Bu raqamlar jamiyatimizda mavjud kasblar ichida salmog'i jihatdan yuqori o'rinlardan biri bevosita maktab o'qituvchilariga tegishlilikini ko'rish mumkin.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, tahlil qiladigan bo'lsak o'qituvchilik kasbini tanlagan inson 4 yil davomida oliy ta'limni oladi va pedagoglik kasbini egallaydi. Uning qolgan 30-35 yillik faol mehnat faoliyati davomidagi kasbiy rivojlanishi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi tomonidan amalga oshiriladi.


Mazkur o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun mas'ul sifatida A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamda

14 ta hududlarda joylashgan pedagogika markazlari belgilangan [3].

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida amalga oshirilgan transformatsiya jarayonlarini shartli ravishda 5 ta bosqichga ajratish mumkin.

va qayta tayyorlashning eng kam hajmi 576 soat etib belgilandi [7].

To'rtinchi bosqichda (2020-2024-yillar) ta'lim tizimidagi intensiv o'zgarishlar, axborotlarning ortib borishi va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mazkur o'zgarishlarga mos ravishda ta'min-



Birinchi bosqichda (1991-1997-yillar) O'zbekistonda ilk mustaqillik yillarida o'qituvchilarning malakasini oshirishga oid dastlabki me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan, turli muddat va davriylikdagi malaka oshirish kurslari, kompyuterlarni o'zlashtirish kurslari tashkil etilgan hamda ilk marotaba kompyuterlashtirilgan diagnostika qo'llanilgan.

Ikkinchi bosqichda (1997-2006-yillar) "Ta'lim to'g'risida" qonun [3] va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [4] qabul qilindi, qayta tayyorlash kurslari joriy etildi, sayyor va ko'chma kurslarni tashkil etish yo'lga qo'yildi, malaka oshirish kurslari mazmunini shakllantirish erkinlashtirildi.

Uchinchi bosqichda (2006-2020-yillar) malaka oshirish turlari va shakllari belgilandi, malaka oshirish hajmi 144 soat

lash hamda malaka oshirish jarayonlarini raqamlashtirish [6, 8] zarurati davriy ravishda amalga oshiriladigan malaka oshirishdan uzluksiz tarzda kechadigan kasbiy rivojlantirish tizimiga o'tishni taqozo qildi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda ta'limga doir yangiliklarni o'qituvchilarga imkon qadar tez yetkazish maqsadida "hayot davomida ta'lim olish" tamoyiliga asoslangan va har yili malaka oshirishni ko'zda tutadigan **uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etildi**.

Pedagogning kasb standarti tasdiqlandi, davriylikdan har yili 36 soat o'quvga asoslangan malaka oshirish tizimiga o'tildi, kredit-modul tizimi joriy etildi, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi [4] joriy etildi. Shu-

ningdek, sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari va nodavlat ta'lim tashkilotlariga ham davlat hisobidan o'qituvchilarning malakasini oshirishga ruxsat berildi.

Mazkur imkoniyatlardan foydalangan holda pedagoglar uchun 44 ta yo'nalishda qisqa muddatli (36 soatlik) malaka oshirish kurslari tashkil qilinib, ularga har yili 450 mingdan ziyod pedagog kadrlar jalb qilinishi amaliyoti joriy qilindi.

Aytish joizki, 2021-2024-yillar davomida amalda bo'lgan mazkur tizim o'zining qator ijobiy natijalarini namoyon qildi. Umumta'lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari ta'limdagi yangiliklardan har yili, o'z vaqtida xabardor bo'ldilar, elektron platformada malaka oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishdi, ya'ni zamonaviy AKT imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rganishdi, o'z xohishiga ko'ra malaka oshiradigan joy va shaklni tanlash imkoniyatidan erkin foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirdilar.

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi dan foydalangan holda malaka oshirgan xodimlarning ma'lum ma'noda individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish asosida ularga o'quv

modullarini taklif etish imkoniyati ham yaratildi.

Mazkur platformada malaka oshirgan pedagog xodimlarning kurs mashg'ulotlari boshlanishidan oldin va keyin bilimlaridagi dinamikani kompetensiyalar kesimida aniqlash imkoniyati ham o'ziga xos yutuqlardan bo'ldi.


Diagnostika:

Shunday bo'lsada, o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, malaka oshirish kurslari dasturlarini takomillashtirish maqsadida 2023-yil dekabr oyida 405 ming nafardan ziyod o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari diagnostikadan o'tkazildi.

Diagnostika jarayoni test shaklida o'tkazilib, undagi savollarning 90 foizi mutaxassislik fani, 10 foizi dars berish metodikasi va psixologiyaga oid belgilandi.

Testlarni topshirgan o'qituvchilarning umumiy natijalari o'rtacha **53,7%**ni tashkil qildi. Asosiy fanlar bo'lgan **ona tili** (55,8%), **matematika** (44%), **fizika** (43,8%), **kimyo** (48,4%) va **biologiya** (40,7%) fanlari o'qituvchilarining o'z fanlari bo'yicha kasbiy diagnostika natijalari ularda o'z fanlari bo'yicha bo'shliqlar borligini ko'rsatdi.


Bundan tashqari, PISA 2022 xalqaro tadqiqoti natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi o'quvchilarning matematik savodxon-



lik yo'nalishi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 364 ball (72 o'rin), o'qish savodxonligi yo'nalishida 336 ball (80-o'rin), tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi bo'yicha esa 355 ballni (80-o'rin) tashkil etdi.

O'quvchilarimizda vaziyatdan amaliy masalaning matematik yechimidan olingan natijalar ustida fikr yuritish, matematik yechimni real muammo mazmuniga ko'chirish va matematik masalada

Jarayon sohalari



Bu natijalar o'z navbatida OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichidan matematika yo'nalishida 108 ball, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishida 130 ball, o'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha esa 140 ballga past ekanligini ko'rsatdi [7, 41-b].

PISA tadqiqotining matematika yo'nalishi o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni "matematik ifodalash", "matematik qo'llash", "topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash" kabi faoliyat turlari orqali baholaydi. Qisqa qilib aytganda, o'quvchilarning matematika bo'yicha erishgan yutuqlari natijalari "Jarayon" sohalari ifodalash, qo'llash, talqin qilish va baholashni o'z ichiga oladi [7, 42-b].

PISA 2022 tadqiqoti natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 15 yoshli o'quvchilar "Talqin qilish" sohasi bo'yicha eng past o'rtacha ball (348)ga ega bo'lgan, eng yuqori ball esa bu sohada "Ifodalash" (372) bo'yicha qayd etilgan.

tasvirlangan real muammoga nisbatan uni talqin qilish va topilgan yechim muammoning haqiqiy yechimiga mosligini hamda yaqinligini baholash, shu bilan birga, matematik fikrni aniq, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan hamda kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish kabi ko'nikmalar yetishmayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

O'qituvchining salohiyati o'quvchining bilimida aks etishi lozim degan tamoyildan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'limda asosiy bo'lgan fanlardan nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarning ham bilimi bilan bog'liq muammolar borligini guvohi bo'ldik.

Amaldagi tizimni, kasbiy diagnostika va xalqaro tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali quyidagi muammolar aniqlandi:

malaka oshirish pedagoglarni ta'limdagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor qilish imkoniyatini bermaydi;

o'qituvchilarning 30-40 foizi o'zi o'qitayotgan fanlarga doir yangiliklarni bilmaydi;

qariyb 150–200 ming nafarining mavjud malaka oshirish tizimidan qoniqmasligi;

barcha fanlar bo'yicha maktab darsliklarini yangilanishi, tabiiy fan (Science) kabi yangi o'quv fanlarining joriy etilishi, xorijiy tillar va informatika fanining boshlang'ich sinflarda o'qitila boshlangani;

o'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarini o'zlashtirish zarurati bir haftalik kurslarning qisqalik qilayotgani;

36 soatlik kurs katta hajmdagi axborotlar bilan tanishish va ulardagi yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga kamlik qilayotgani;

kurslarning davomiyligini oshirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani;

elektron platformada joylashtirilgan kurslarda o'qigan pedagoglar bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish asosida emas, balki nazorat testlarini qayta va qayta topshirish hisobiga belgilangan kredit ballarini qo'lga kiritishayotgani;

o'qituvchilarda mustaqil mutolaa qilish ko'nikmasi shakllanmagani bois, platformada kurslarning natijadorligi pastligi;

malaka toifasi va kasbiy ehtiyojlaridan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar yagona o'quv dasturi asosida malaka oshirayotgani mazkur jihatlardandir.

Mazkur muammolar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etish tizimini takomillashtirish zarurati mavjudligini yaqqol ko'rsatdi.

Ta'limda trendlarning o'zgarishi, ya'ni ta'limning raqamlashuvi, globallasuvi, individuallasuvi, inklyuzivlashuvi va yangi o'quv fanlarining paydo bo'lishi o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirish ta'limini tashkil qilishda ham sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirishga turtki bo'ldi.

Beshinchi bosqichda (2024-yil sentyabrdan)

Yuqorida qayd etilgan muammoli jihat-

larni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tashabbusi bilan yana bir transformatsiya jarayonlariga start berildi.

Davriylik va uzluksizlik integratsiyasiga asoslangan yangi malaka oshirish tizimini joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi va rahbariyatga taqdim etildi.

Yangi tashabbusga ko'ra, qisqa muddatli uzluksiz malaka oshirish o'quvlarini saqlab qolgan holda davriy ravishda nisbatan uzoqroq davom etadigan malaka oshirish kurslarini ham tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Ya'ni, har 5 yilda 100 soat davomida ishdan ajralgan holda asosiy kompetensiyalar bo'yicha o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, fanga doir yangiliklar va o'qitish metodikalarini o'zlashtirish ko'zda tutiladi. Mazkur kurslarni tashkil etishda ishlab chiqiladigan tabaqalashtirilgan o'quv reja va dasturlar pedagog kadrlarning kasbiy, shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi, shuningdek, malaka oshirish kurslarining ta'lim mazmuniga xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) bo'yicha modullarni kiritilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, har yili 72 soat hajmda "Kasbiy rivojlanish kuni" (KRK) ishdan ajralmagan holda yashash joylaridagi tayanch maktablar negizida tashkil etiladigan seminar-treninglar orqali o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi, o'z ustida ishlashi kasbiy rivojlanishni boshqa turlari bilan shug'ullanishga sharoit yaratib berilmoqda.

Bundan tashqari, pedagogning bevosita ish joyi bo'lgan maktabda yiliga 72 soatdan iborat "Kasbiy rivojlanish soati"ni (KRS) joriy etish orqali ularning faoliyati-

ni baholash, dars tahlillarini amalga oshirish, ustoz-shogird tamoyili asosida o'zaro darslarga tashrif buyurish orqali shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilmoqda [5].

Malaka oshirish natijalarini pedagoglarning mehnat faoliyatiga ta'sirini baholash, jumladan, malaka oshirish tizimining malaka toifalarini berish va kasbiy sertifikatlash tizimlari bilan uzviyligini ta'minlash yo'lga qo'yilmoqda hamda kompetensiyalar tarkibi qayta shakllantirilmoqda.

Shu tarzda o'qituvchilarning har 5 yilda 460 soat o'qishini ko'zda tutuvchi

uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, demak, pedagoglarning malaka oshirish tizimini transformatsiyalash orqali ilg'or xorijiy tajribalar asosida kompetensiyalar bo'yicha o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini davriylik va uzluksizlik integratsiyasiga asoslangan malaka oshirish tizimi joriy etilib amaldagi mexanizm takomillashtiriladi. Bu esa o'z navbatida kurslarning jozibadorligini oshiradi, sog'lom raqobatni yuzaga keltiradi, amaliyot va tajribalarni o'rganish imkonini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida" qonuni. Toshkent sh., 2024-yil 1-fevral, O'RQ-901-son. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son).
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: "Sharq", 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ- 4963-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-sonli Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 6-7-son, 39-modda)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2022-y., 09/22/25/0033-son; 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son)
9. Turkiy Guliston yoxud axloq. Abdulla Avloniy. www.ziyouz.com kutubxonasi.
10. И.С.Мирополюский. Практические советы неопытному учителю. С приложением Катихисиса молодого педагога. М.: Индрик, 2023. – 72 с. 7 стр.
11. Milliy hisobot: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun./ tuzuvchilar guruhi Q.Kaimberdiyev va A.Ismailov. Toshkent. 2023-yil. – 176 bet. 41,42-bet.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH

Odiljanova Gulasal Ilhomjon qizi,

NamDU tayanch doktoranti

gulasal1993@gmail.com

Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna,

Namangan viloyati pedagoglarni yangi

metodikalarga o'rgatish milliy markazi,

Uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etish bo'limi boshlig'i

ozoda16111973@gmail.com

Annotatsiya: maqolada ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va samaradorligini ta'minlashda ularning o'zaro bog'liqligi, boshqariladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, qo'yilgan maqsadlarga erishishni aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik jarayon, innovatsion faoliyat, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlik, hamkorlik.

Организация и управление педагогическим процессом в средних общеобразовательных учреждениях

Одижнова Гуласал Илхомжон кизи,

Наманганский государственный университет, докторант

Худайбердиева Озода Джурабаевна,

Наманганский областной национальный центр подготовки педагогов новым методикам, начальник отдела

Аннотация: в статье отражена взаимосвязь обеспечения научно обоснованной организации и эффективности педагогических процессов в образовательных учреждениях, научно обоснованной организации управляемых педагогических процессов и достижения поставленных целей.

Ключевые слова: образование, педагогический процесс, инновационная деятельность, самостоятельное мышление, творческий поиск, инициатива, сотрудничество.

Scientific organization of pedagogical processes in general secondary education institutions

Odiljanova Gulasal Ilhomjon qizi,

Namangan State University, doctoral student

Khudaiberdiyeva Ozoda Jurabaevna,

Head of the Department for the Organization of Continuing Professional Education of Namangan Regional National Center for Teacher Training in New methods

Abstract: the article reflects the organization of pedagogical processes in educational institutions on a scientific basis and their interdependence in ensuring their effectiveness, the organization of controlled pedagogical processes on a scientific basis, and the achievement of the set goals.

Keywords: education, pedagogical process, innovative activity, independent thinking, creative research, initiative, cooperation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” mavzusida nutq so‘zladi va unda xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an‘ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi alohida qayd etildi [1].

Ta’lim har qanday jamiyatda mamlakat ijtimoiy-istisodiy rivojlanishining asosiy manbaidir. Chunki, jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan yosh avlodning intellektual salohiyatiga bo‘liq. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning ilm-hunar egallashi xalqimizning buyuk tarixiy an‘analari ham yangi shakl va usullar vositasida davom ettirib kelinmoqda.

Ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi kun ta’lim muassasalarida yaratilayotgan zamonaviy sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, o‘z ishiga nisbatan talabchan, ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘ya oladigan, chuqur bilimli hamda o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi rahbar va pedagog kadrining faoliyat ko‘rsatishi talab qilmoqda [2.243-b]. Uzluksiz ta’lim tizimidagi islo-

hotlar ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya’ni ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning an’anaviy metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta’lim boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida, eng avvalo, ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi. Ta’lim o‘z tarkibiga turli tashkil etuvchilarni qamrab olgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida uni boshqarishga alohida yondashishni talab qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining bir qismi sifatida, jamiyat boshqaruvining umumiy qoida va tamoyillarini ta’lim boshqaruvida ham qo‘llash imkoniyatini rad etmaydi. Shuning uchun ham ta’lim tizimini boshqarishga doir tadqiqotlarda ijtimoiy sohalarini boshqarishni tahlil qilishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan qator metodologik yondashuvlar mavjud: tizimli, ya’ni boshqariluvchi tizim tarkibiga kiruvchi obyekt va subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir butunligini ta’minlovchi; vaziyatli, ya’ni muassasa maqsadlariga samarali erishishga yo‘naltirilgan muayyan usullarning birikmasi sifatida; jarayonli, ya’ni boshqaruvni boshqaruv funksiyalarining uzluksiz zanjiri sifatida tushunishga asoslangan (V.G.Afanasev, V.P.Bespalko, V.P.Kuzmin, A.I.Prigojiy, V.A.Rozanova, V.P.Simonov va boshqalar).

Taniqli olimlar B.C. Lazarev, M.M. Potashnik, V.P. Simonov, P.I. Tretyakov, T.I. Shamovalarning izlanishlarida ta'lim boshqaruvining ilmiy apparati fan sifatida qaralgan. Ularning fikricha, ta'lim boshqaruvi fanining nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy-hududiy va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, olimlar tomonidan ta'lim tizimini boshqarish modellarini ishlab chiqishda qaysidir yondashuvlar alohida qo'llanilmasdan, ularning turli kombinatsiyalari ishlatiladi, chunki mazkur yondashuvlarning har biri ta'lim tizimidagi jarayonlar mohiyatini tushunib yetishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning muayyan bir jihatlarini yoritishga yordam beradi.

S.T.Turg'unov o'z ishida vaziyatli yondashuvni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqadi:

- muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlash maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish;

- turli pedagogik vaziyatlarda erishiladigan natijalarning samaradorligini aniqlash;

- ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishda mavjud bo'lgan vaziyatlar asosida pedagogik tizimning rivojlanishini oldindan belgilash. P.I.Tretyakov rahbarligidagi olimlar jamoasi ta'lim tizimlarini boshqarishga yana bir yondashuv – natijaga ko'ra boshqarishni taklif qilgan. Mazkur yondashuvning asosiy g'oyasi – tashkilot ma'lum natijalarga erishish maqsadida birlashgan shaxslardan iborat tartiblangan tuzilma. “Natijaga ko'ra boshqarish” deb tashkilotning barcha a'zolari tomonidan belgilangan va kelishilgan natijalarga erishishni

ta'minlovchi boshqarishga aytiladi. Bunda tashkilot rahbari va bo'ysunuvchi shaxs muayyan natijani belgilaydi, bajaruvchi esa mustaqil ravishda mazkur natijaga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarini tanlaydi. Natija sifatida erishish uchun zarur barcha resurslar bilan ta'minlangan muayyan maqsad tushuniladi [3.253-b]. S.T.Turg'unov o'rganilayotgan muammoga “natijalar bo'yicha boshqaruv” tushunchasini boshqaruv va rivojlanish tizimi sifatida qo'llab, uning yordamida ta'lim muassasasining barcha subyektlari bilan kelishilgan holda belgilangan natijalarga erishish mumkin deb hisoblaydi. Muallifning fikricha mazkur jarayonning vazifalari, mazmun va mohiyatini ta'lim-tarbiya jarayonining har bir ishtirokchisiga tushuntirish, ma'muriy buyruqbozlikni bartaraf etishda va shaxsning o'zini-o'zi anglashi hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondashuvini tashkil etishga xizmat qiladi.

Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvining asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo'nalishiga ko'ra boshqaruvining rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- pedagogik jarayonlarni rejalashtirish;
- subyektlar (ta'lim oluvchilar) uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash;
- subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish.

Shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashti-

rish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayon ishtirokchilari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlar yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilar faoliyatini takomillashtirish asosida samaradorlikka erishish uchun har bir ta'lim oluvchi haqida ishonchli va asosli axborotlarni to'plash hamda vujudga kelayotgan vaziyatlarni tahlil qilish zarur. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorlikka erishishda pedagogik jarayonlarning maqsadini, maqsadga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini, o'rganiladigan tushunchalarning zaruriyati, ahamiyati va mazmun mohiyatini ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalariga bog'liq holda tushuntirish, o'rganiladigan tushunchalarga nisbatan ta'lim oluvchilar qiziqishini rivojlantirish asosida vaziyatlarga ko'ra ularning faolligini ta'minlash va o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirib borish jarayonida o'qituvchilar tomonidan boshqaruvning maqsadli-motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi pedagog xodimlarning faoliyatining mazmun-mohiyati yuqorida keltirilgan funksiyalarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashti-

rishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining majmuini, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari-da pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoni subyektlarining turli ta'sir ko'rsatish vositalari majmuini pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari sifatida ko'rsatish mumkin. Chunki pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalari bir tomondan ta'lim vositalari (o'quv, dasturiy, informatsion, didaktik, tajribaviy-tashxis va) majmui hisoblansa, ikkinchi tomondan, u ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshiruvchi texnologik mexanizm hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish vositalarining nazariy-metodologik asoslari pedagogik jarayonlarning yangi shaklini vujudga keltiruvchi, ta'limning tarkibiy tuzilishining sifatlarini belgilovchi yangi g'oyalar hisoblanadi.

Shunga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari o'qituvchilarining pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi vositalarini tavsiflovchi integrativ xususiyatlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

innovatsion tartibda faoliyat ko'rsatishni tashkil etishning umumiy tamoyillari;

pedagogik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan g'oyalarning mavjudligi;

ijtimoiy organizm sifatida jamoani rivojlantirish va ta'lim oluvchi-ixtirochilar jamoasini vujudga keltirish bo'yicha tashkiliy metodik faoliyat;

yangi tarkibiy tuzilishga ega va mazmunan rivojlantirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

pedagogik jarayon subyektlarining ijodiy qobiliyatlarini psixologik-pedagogik jihatdan rivojlantirish;

pedagogik jarayonlarni takomillash-tirishda subyektlarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

yagona ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish va rivojlantirish uchun o'zaro birikkan ta'lim oluvchi, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorligini vujudga keltirish.

Uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o'qituvchilar tomonidan har bir ta'lim oluvchi haqida to'plagan ma'lumotlar, ya'ni ularning boshlang'ich tushunchalari, ehtiyojlari, qiziqishi va individual psixologik xususiyatlari yo'nalishidagi axborotlar o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabatlarini muvofiqlashtirishda, o'quvchilarning faolligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ta'lim oluvchilar haqidagi axborotlarning to'liq, ishonchli, aniq va sifatli bo'lishi o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ta'lim oluvchilar haqidagi axborotlar ishonchli va aniq bo'lishi zarur bo'lib, axborotlar pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini obyektiv baholash va rag'batlantirish omillari sifatida xizmat qiladi. O'qituvchilar tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq va ishonchli axborotlar to'plash va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- har bir ta'lim oluvchining yashash va mustaqil ta'lim olishi uchun mavjud shart-sharoitlar;

- har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyati, fanga va kasbga bo'l-

gan qiziqishi hamda ma'lum bir davrdagi ehtiyojlari;

- ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari;

- ta'lim oluvchining faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

- ta'lim oluvchining ta'lim olish yo'nalishidagi zaruriy ehtiyojlari hamda ta'minoti.

Mazkur yo'nalishlarda to'plangan axborotlar pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash yo'nalishida belgilangan maqsadlarga erishish mezonlarini belgilash, ta'lim oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, har bir ta'lim oluvchining faoliyati va faolligini obyektiv baholash asosida ularni rag'batlantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash uchun innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. [4.60-61-b].

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda sodadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimidir. Pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligini inobatga olib, uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etish, belgilangan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish va natijaviylikka erishishda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, obyektiv baholash va muntazam rag'batlantirib borish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi pedagog xodimlarning faoliyatini o'quvchi o'rta-sidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etgan holda, ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrga ega bo'lib, ijodiy faoliyat yurita olsalar, izlan-salar, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'qituvchi tomonidan esa ularning bун-day faoliyatlari uchun imkoniyat va sha-

roit yaratilsa, bularning barchasi, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyaga ega, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartib-dagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehti-yojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratil-gan pedagogik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
3. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna, Askarov Abror Davlatmirzayevich. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2019.
4. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M., Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent – 2014.
5. Rahimov M., & Shodmanov, Q. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga asosiy yondashuv texnologiyalari. Евроазиатский журнал академических исследований, 2(13), 1267-1271. 2022. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7932>.
6. Odiljanova G.I., SHodmanov Q.O. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Международный современный научно-практический журнал "Научный импульс" №15(100), част 1, ноябрь 2023. 483-489.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Yakubova Naima Urazboyevna,
Xorazm viloyati Gurlan tumani
44-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, boshlang'ich, o'rta, yuqori sinflar dars jarayonlarida interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi, pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar xarakter xususiyatlarida intellekt darajasi o'zgarishi, dars jarayonida innovatsion usullardan foydalanish, sinfda qulay iqlimni yaratish uchun psixologik trening mashqlardan foydalanish aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interaktiv metod, intellekt, interfaol o'yin, psixologik to'siq, innovatsiya, trening, didaktik o'yinlar.

**Современный подход к повышению
эффективности качества образования
в средних общеобразовательных
учреждениях**

Якубова Наима Уразбоевна,
Гурланский район Хорезмской области,
Психолог средней общеобразовательной
школы № 44

Аннотация: в данной статье рассматривается использование современных педагогических технологий для повышения качества образования в общеобразовательных средних учебных заведениях, эффективность использования интерактивных методов в учебном процессе в начальных и старших классах средней школы, изменение уровня интеллекта в чертах

характера, учащихся при использовании педагогических технологий, использовании инновационных методов в учебном процессе. Отражено использование психологических обучающих упражнений для создания комфортном климате в классе.

Ключевые слова: педагогическая технология, интерактивный метод, интеллект, интерактивная игра, психологический барьер, инновация, обучение, дидактические игры.

**A modern approach to improving the
effectiveness of the quality of education
in secondary educational institutions**

Yakubova Naima Urazboevna,
Khorezm region Gurlensky district,
Psychologist of secondary school No. 44

Abstract: this article discusses the use of modern pedagogical technologies to improve the quality of education in secondary schools, the effectiveness of using interactive methods in the educational process in primary and senior secondary school, and changes in the level of intelligence in character traits. Students when using pedagogical technologies, using innovative methods in the educational process, a comfortable climate in the classroom. The use of psychological training exercises to create, is reflected.

Keywords: pedagogical technology, interactive method, intelligence, interactive game, psychological barrier, innovation, learning, didactic games.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni ilgor pedagogik texnologiyalarga asoslanishni taqozo etmoqda, yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning aqliy zakovati, erkin fikrlashi, mustaqil faoliyat olib borishida muhim vosita hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda an'anaviy ta'lim metodlari ham o'z qiymatiga ega bo'lishlari tabiiy. Samarali ta'lim beradigan o'qituvchi bo'lish uchun bolalarga o'rgatish o'qitishga bo'lgan muhabbatning o'zi yetarli emas. Rag'batlantirish va o'quv qobiliyatini oshirish uchun ishtiyoq, qat'iylik zarur. Ta'lim olish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'rnatilgan pedagogik munosabat o'zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya'ni yangi bilimlar o'zlashtirgani sayin intellekt mustahkamlanadi.

Ta'limda joriy qilinayotgan yangi pedagogik texnologiyalardan asosiy maqsad shuki, o'quvchilarning o'z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo'ladigan xulq atvor shaklining o'zgarishiga ta'sir qilishdir. Pedagogik texnologiyalar keng o'lcamli hodisadir. Texnologiyalashtirish tushunchasini pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish borasida umumiy maqsadga erishish – ijobiy sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish tushuniladi. Yoki pedagogik texnologizatsiyani shaxsda yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lim-tarbiyani tashkil etish, boshqarish amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin. Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. Texnologiyalarni sinflarga

birlashtirish asosida yanada muhim o'ziga xos jihat va belgilar tushuniladi:

- 1) qo'llash darajasi;
- 2) falsafiy asos;
- 3) metodologik yondashuv;
- 4) shaxsni shakllantirishning yetakchi omillari;
- 5) tajribani o'zlashtirish va uzatish;
- 6) individ shaxsiy tuzilmasiga qarashiga tayanish;
- 7) ta'lim tarbiya jarayonini boshqarish;
- 8) amal qiladigan metod va usullar;
- 9) tashkiliy shakllar;
- 10) pedagogik ta'sir va bola shaxsiga yondashishga asoslanish;
- 11) pedagogik obyekt kategoriyalari kabi.

Umumta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchisiga ta'lim va tarbiya berish juda muhim jarayon bo'lib, zamonaviy yondashuvlardan, ya'ni didaktik o'yinlar, interfaol metodlardan foydalanish orqali tashkil qilingan dars o'quvchining darsga nisbatan mehri va qiziqishini orttiradi. Mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib rivojlanib boradi. Fanga nisbatan hurmat va muhabbat paydo bo'ladi. Bundan tashqari ko'rgazmali, og'zaki, yozma, rolli usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuza-tish solishtirish, xulosa chiqarish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi. O'rta va yuqori sinflarga kelib esa metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini

ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirishi lozim.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqqimot qilish", "Blits-so'rov", "Muzyorar strategiyasi" kabi metodlardan foydalanib dars tashkil qilish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Teskari test", "Aql charxi" "Test" metodlarini, qo'llash samarali bo'ladi. Yangi mavzuni tushuntirish qismida esa "Insert", "Zinama-zina", "Bumerang" "Mantiqiy chalkashlik zanjiri" texnologiyalarni, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Nilufar guli", "Menga so'z bering" strategiyasi, "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Munosabat", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak", metodlarini, uyga vazifa berishda esa "FSMU", "Klaster", "Bo'g'inlar zanjiri", "BBB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Darslarni samarali tashkil etishda quyidagi o'yinlardan ham foydala-

nish maqsadga muvofiq. "Baliq ovi", "Kim hakam", "Taqqimot-tadqiqot", "Piramida", "Matn tuzib ko'r, aqling bo'lar zo'r", "Raketa", "To'g'ri noto'g'ri", "Xatosini top", "Xotira mashiqi", "Bo'g'in", "Mo'jizalar maydonchasi", "Maqol", "So'zdan so'z yasash", o'yinlaridir.

Dars jarayonida didaktik o'yin texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtiradi va jadallashtiradi. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar turlari bo'yicha ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuza-tish, solishtirish xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa

tarkibida ishlash, axloq odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi. Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlariga ajratiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figura aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli kattadir. "Innovatsiya" so'zi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, "yangilik kiritish", "yangilik" degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taxminlanishi.

O'quvchi dars jarayonida mustaqil fikrini bildirar ekan, ta'lim jarayonining

subyekti sifatida ya'ni teng huquqli ta'lim dialogini vujudga keltiradi.

O'qituvchining yangi dars jarayonini o'quvchilarni fikrlashga undaydigan qilib tashkil qilishi sinfda ishlash uchun o'qituvchidan o'ziga xos psixologik yondashuvni talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hech qanday psixologik g'ov bo'lmasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. Psixologik g'ovni bartaraf etish uchun o'qituvchi psixologik tanishuv treningini o'tkazish tavsiya qilinadi. Tanishuv treningida har bir o'quvchi ismini, ismining ma'nosini aytishi, o'zida mavjud bo'lgan fazilatni ifoda etishi lozim. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Ta'lim jarayoniga o'ziga xos psixologik jihatdan yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon qilishga undaydi. Mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qilish uchun vaqt va imkoniyat berish zarur, chunki o'quvchi mulohaza qilishi uchun sharoit yaratiladi, har bir shaxsning o'z fikr mulohazalarini diqqat va hurmat bilan eshitishi, yangi fikr mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor turishi talab etiladi. Psixologik to'siq kuchli bo'lgan melanxolik xarakterdagi o'quvchilarda kuzatuvlar olib borilganda quyidagi natijalar kuzatilgan. 100 nafar o'quvchining 44 foizi melanxoliklar bo'lib, ularning 8 foizi yaxshi, qolganlari qoniqarli o'zlashtirgani holda, 56 foiz o'quvchi o'rtadan yuqori intellekt darajasiga ega bo'lgan darslar interfaol usullar va noan'anaviy tarzda tashkil etilganda, 15 foizi a'lo, 69 foizi o'rta darajada o'zlashtirishga, aqliy qobiliyatlar – intellekt dinamikasiga esa 84 foiz erishilgan. Bundan ko'rinib turibdiki aqliy o'sishda dars jarayonida qo'llaniladigan usullar ham katta ahamiyatga ega ekan. Zamonaviy ta'lim texnologiyala-

ri yoshi va ta'lim darajasidan qa'tiy nazar individuallashtirishga, o'quv jarayonining masofali va o'zgaruvchanligiga, o'quvchilarning akademik harakatchanligiga qaratilgan.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini joriy etish o'qituvchiga bilimining chuqurligi va mustahkamligini ishlab chiqish, faoliyatning turli sohalarida ko'nikma va malakalarni mustahkamlash imkonini beradi, texnologik fikrlashni, ta'lim o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish; o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda texnologik intizom talablariga qat'iy rioya qilish odatlarini tarbiyalashni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalarning keng ko'lamli qo'llanilishi o'qituvchining o'quv vaqtidan unumli foydalanishi va o'quvchilarning bilim olishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishning faol usullarini o'rgatishda yordam beradi;

- shaxsiy ijtimoiy faollikning yuqori darajasini o'zlashtirish imkoniyatini beradi;

- ta'lim jarayonida o'quvchilar o'rganmay qolmaydigan sharoitlarni yaratish;

- o'quvchilarning ijodiy faolligini rag'batlantiradi;

- o'qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirishga, fan bo'yicha nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda ta'lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, binobarin, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini

nazorat qilish usullaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan, o'qitishning faol shakllari va usullari, bularning barchasiga o'rganishga qiziqish mavjud bo'lgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'z faniga qiziqishini oshirish orqaligina bilim olishda yaxshi muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Buning uchun o'quvchilar tomonidan tayyor bilimlarni taqdim etish, ularni yodlash va takrorlash uchun emas, balki faol bilish jarayonida o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilgan usullar tizimidan foydalanish kerak. Texnologiyalar hissiy qulay muhitda o'quvchilarning faol ko'p bosqichli kognitiv faoliyati jarayonida fan va o'quv bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani rivojlantirish imkonini beradi. Albatta, har bir o'qituvchi o'z faniga o'quvchilarda chuqur qiziqish uyg'otishini, ular nafaqat o'ylanmasdan yozishni, balki aytilayotgan gaplarni tushunib yetishlarini, mantiqiy fikr yurita olishini, har bir dars yuk bo'lmasligini xohlaydi. Dars o'quvchi va o'qituvchi uchun quvonch bag'ishlashi kerak. O'qituvchi gapiradi, o'quvchi esa tinglaydi va o'rganadi, lekin tayyor ma'lumotni tinglash o'qitishning eng samarasiz usullaridan biri hisoblanadi. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o'tkazib bo'lmaydi (eshitilgan – o'rganilgan). Shuning uchun o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur. O'quvchi fanga qiziqish bilan faqat o'z faoliyatida ma'lumotni o'zlashtira oladi. Maktablar faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish va olib borishning ko'plab variantlari mavjud. Lekin ko'p texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni, qo'llanadigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega va ularni

shu umumiy belgilariga ko'ra tasnif qilish mumkin. Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi:

- qo'llanish darajasiga ko'ra;
- falsafiy asosi bo'yicha;
- asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- o'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha;
- shaxsiy belgi-sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;
- mazmun xususiyatlari bo'yicha;
- boshqaruv turi bo'yicha;
- bolaga yondashuv bo'yicha;
- ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha;
- ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

Xullas, pedagogik texnologiya – o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchi o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o'z navbatida, ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya'ni fan va texnika yangiliklarini o'zida mujassamlashtiradigan o'quv jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsoliyeva M. – Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik – Toshkent. O'UM – 2016.
2. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2017.
3. Djurayev Risboy Haydarovich. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent: 2010.
4. Mahoratli pedagog. Ma'naviy ma'rifiy ilmiy metodik nashr. 2021-iyul №07 (43) 3-bet.
5. Kasbiy fanlar metodikasi. Ilmiy metodik nashr. 2021-yil may № (117) 15-bet. – T.
6. Ro'ziyeva D., Usmanboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent: 2013. 112-bet.
7. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchanov E.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2009. 14-bet.
8. Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 144-bet.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI TARIX DARSLIKLARIDA O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISH MASALASINING YORITILISHI (MILLIY O'QUV DASTURI 7-SINF "O'ZBEKISTON TARIXI" DARSLOGI MISOLIDA)

Mamataliyev Alisher Rustamovich,
*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti,
Ijtimoiy fanlarni o'qitish va kasbga yo'naltirish metodikalarini
takomillashtirish ilmiy-tadqiqot bo'limi, katta ilmiy xodimi
e-mail:bogdod-2008@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha milliy o'quv dasturlarini amaldagi tahlili, xususan, tarix fanidan milliy o'quv dasturida yoritilgan o'zbek xalqining kelib chiqish masalasi "O'zbekiston tarixi" darslogi misolida aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'quv dasturi, O'zbekiston tarixi, etnogenez, etnik tarix, etnik birlik, antropologiya, etnik rivojlanish.

Освещение вопроса формирования узбекского народа в учебниках истории общих средних школ
(на примере учебника "История Узбекистана" 7 класс национальной учебной программы)

Маматалиев Алишер Рустамович,
Национальный исследовательский институт профессионального развития и обучения педагогов новым методикам имени А.Авлони, старший научный сотрудник

Аннотация: в статье представлен текущий анализ национальных учебных программ по социально-гуманитарным наукам, в частности, вопрос происхождения узбекского народа, освещенный в национальной учебной программе по истории, на примере учебника "История Узбекистана".

Ключевые слова: национальная учебная программа, история Узбекистана, этногенез, этническая история, этническое единство, антропология, этническое развитие.

Coverage of the issue of the formation of the uzbek people in history textbooks of general secondary education schools
(in the example of the textbook "History of Uzbekistan" grade 7 of the national curriculum)

Mamataliyev Alisher Rustamovich,
National Research of Professional Development and Teaching New Methodologies to Teachers named after the A.Avloni, Senior Researcher

Abstract: the article presents an ongoing analysis of national curricula in the social sciences and humanities, in particular, the issue of the origin of the Uzbek people, highlighted in the national curriculum on History, using the example of the textbook "History of Uzbekistan".

Keywords: national curriculum, history of Uzbekistan, ethnogenesis, ethnic history, ethnic unity, anthropology, ethnic development.

Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim sohasida tub islohotlar olib borilyapti. Bunda ayniqsa, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o'tish jarayoni dunyo tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o'sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan institutsional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi lozim [1].

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'quvchilarda ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash zarur.

O'quvchilarning insoniyat tarixi, jamiyat va davlatning vujudga kelishi, inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar, inson shaxs sifatida rivojlanishida jami-

yatning roli to'g'risidagi dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda, qonunlarni asoslab berishda ijtimoiy-gumanitar fanlar blok-moduliga kiruvchi o'quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinchoqsoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Ajdodlari, nasl-nasabi, o'zi tug'ilib voyaga yetgan Vatani tarixini bilishga intilish har bir sog'lom fikrli insonga xos fazilatdir. Shuning uchun ham o'zlikni anglash, avvalo, tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson, haqiqiy tarixni bilmasdan turib esa, kelajakni yaratib bo'lmaydi.

Dunyoning ayrim hududlarida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, odob-axloq, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin. Bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda.

Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun qurollantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mazkur fanlar orqali o'quvchilarda quyi sinflarda olgan bilimlari mustahkamlanib, Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalari kengaytirilib, hayotiy tushunchalar bilan bog'lab o'tiladi. Shu bilan birga Vatanimizning mustaqil-

lik yillaridagi taraqqiyoti, yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlar, mamlakatimiz yoshlarining yutuqlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, huquqiy madaniyat, daxldorlik hissi yanada rivojlantirilib, ijtimoiy faol fuqaro shakllantiriladi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan ta'limda oddiy maktablarga nisbatan Tarix fani keng qamrovda qo'shimcha manbalar asosida o'quvchilarga chuqurlashtirilgan holda o'rgatiladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yurtimizda yashayotgan har bir bolaning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini o'z vaqtida payqash, tarbiyalash va ro'yobga chiqarish – o'ta muhim vazifa" [6] ekanligi ta'kidlagan edi. Bu so'zlar hozirgacha o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori salohiyatli, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalaydigan va yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash kunning dolzarb masalasiga aylangan.

Shunga muvofiq yurtimiz ta'lim muassasalarida farzandlarimizning o'ziga xos qobiliyati va iste'dodini namoyon etish, rivojlantirib borish maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, imkoniyatlar eshigi kengaymoqda. Shunday imkoniyatlardan biri Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 315-son qarori [8] dan kelib chiqib respublikamizning bir qator, xususan, Toshkent, Buxoro va Xorazm shaharlarida tarix fani bo'yicha ixtisoslashtirilgan maxsus maktablar tashkil etish, ushbu maktablarning o'quv jarayoniga oliy o'quv yurtlarining malakali va tajribali pedagoglari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Tarix instituti mutaxassislari jalb etilishi ko'zda tutilgan edi. Bu jarayon ayniqsa, tarix fanining ertangi istiqboli naqadar yuqori marralarni egallashga zamin hozirlar edi. Shular inobatga olinib, hozirgi kunda etnografiya fani Buxoro shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 6-tarix faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 7- va 8-sinflarida o'qitilmoqda [7].

Atoqli olim, akademik K.Shoniyozov "Etnografiyani o'rgatishni maktabdan, ya'ni etnografiya to'garagi tashkil etishdan boshlash lozim, chunki bu fanni qisqa muddatda, ya'ni 4-5-yil ichida institut va universitetlarda o'rgatib bo'lmaydi", degan fikr-mulohazalari yaqin yillardan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-, 8-sinf "O'zbekiston tarixi" kitoblarida bir mavzu nuqtayi nazaridan o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, xalqning paydo bo'lishi va kelib chiqishi masalasi keltirib o'tilgan.

VIII asrdan arab va ajam xalqlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan bo'lsa-da, bu davrda Movarounnahrda o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, sugdiylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yagona islomiy e'tiqod birligi uyg'unlashdi.

IX asrda Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadal-lashgan. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayon o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi.

Shunday qilib, asrlar osha yurtimizda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vazi-

yatda, muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida IX-XII asrlarda o'zbek xalqi shakllandi. Uning asosiy, o'q ildizini o'lka-mizda muqim yashab kelgan o'troq ziroatkor va mirishkor chorvador tub yerli aholi tashkil etdi. Bunday ikki turli turmush tarzidagi aholi qadimdan ikki tilda: sug'd va turk tillarida so'zlashgan. Mazkur o'ziga xos ikki turkum tillar asosida "sug'd yozuvi" va "turkiy run bitik"lari imlosi yuzaga kelgan. Shubhasiz, asrlar davomida kengayib borgan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida o'zbek va qator qardosh elatlarning ota-bobolarini uyg'unlashib, birikishiga olib kelgan. Hali yozuv yuzaga kelmasdan avval boshlangan bunday ulkan etnogenetik jarayonning izlari yurtimizning joy nomlari ma'nosida o'z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan "O'zbekistan tarixi" (7-sinf) kitobidagi xalqning shakllanishiga oid ma'lumotlarda to'ldirish talab qilinadigan manbalar ham keltirib o'tilgan, xususan, "Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayon o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi. Aynan mazkur davrda o'zbek xalqiga xos etnik omillar shakllangan" [3]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oxirgi nashrdan chiqarilgan o'quv qo'llanma, fundamental monografiyalarda o'zbek xalqiga xos etnik belgi va alomatlar birma-bir sanab o'tiladi [4]. Masalan, akademik A.A.Asqarovning 2015-yil nashrdan chiqarilgan "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" monografiyasida "har bir xalqning etnik tarixi bilan shug'ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang'ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga xos etnik belgi va alomatlarni aniqlab, o'rganib borish talab etiladi. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, etnik birlik belgilari bir vaqtda

paydo bo'lmaydi, balki etnogenez jarayoni davomida bosqichma-bosqich tarkib topib boradi. Etnos belgilari orasida til birligi, etnomadaniy birlik va o'zlikni anglash birligi alohida ahamiyat kasb" etishini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan taqqoslagan holda keltirib o'tgan [5].

"O'zbekistan tarixi" darsligi (7-sinflar uchun) kitobi etnogenezning yakuniy bosqichi, ya'ni xalq shakllanayotgan davrda etnosga xos belgi va omillarni faqatgina o'zbeklarning umumelat tili qaror topganligi bilan chegaralanib qolmasdan, balki to'lig'icha keltirib o'tilganda o'quvchilarni etnografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirgan bo'lardi. Etnologiya fanida qabul qilingan ishlanmaga ko'ra, etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar, etnik omillar birin-ketin yuz berib, mujassamlashgan bo'ladi. Etnik omillar va belgilarni esa hududiy birlik, iqtisodiy-xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi, etnik nom, o'zlikni anglash, til birligi va nihoyat siyosiy uyushma (politicheskaya konsolidatsiya) birligi tashkil etadi.

2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori [2] nafaqat malaka oshirish tizimni takomillashtirish haqida so'z boradi, balki qaror bilan to'liq tanishib chiqish natijasida barcha fanlar singari tarix sohasida ham "fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilg'or xorijiy tajribalar"ni jalb etib o'qitish bugunning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Tarix darsliklarida nafaqat ilmiy bilimlarning so'nggi yutuqlari, balkim, ilmiy-tadqiqot natijalariga oid mavzular ham

kiritildi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar uchun yangiliklardan bahramand bo'libgina qolmay, bevosita ular bilan tanishish imkonini berdi. Shunday mavzulardan biri Milliy o'quv dasturida O'zbek xalqining shakllanishi masalasini ham yoritilishi bugungi tarix fanining dolzarb masalalaridan biri edi.

O'zbek xalqi etnogenez davrining boshlanishi va yakunlanishi, xalqning shakllanishi, millat darajasiga ko'tarilishi nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablari-da o'qiyotgan o'quvchilarda emas, yurtimizdagi har bir fuqaroda qiziqish uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida ommaviy axbo-

rot vositalari orqali ko'rsatilayotgan, turli matbuot nashrlarida hamda kitoblarda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asoslangan holda keltirib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yurtimizda ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarga imkoniyatlar ortib bormoqda. Shuni inobatga olib, "O'zbekiston tarixi" fani-ni pedagogik yo'nalishida tadqiqot olib borayotgan va himoya qilgan olimlar bilan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish va bu orqali tarix fanining sinflar kesimida o'qitilish sifatini rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/5073447>
2. 8 <https://lex.uz/docs/-5239538>
3. O'zbekiston tarixi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik / Zamonov A., Ismatova N. va boshqalar. – Birinchi nashr. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 139 b.
4. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарк, 2000. 86 б, Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. 19 б, Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. 58 б. Дониёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А. Марказий Осиё халқларининг этнографияси, этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Yangi nashr, 2011. 59 б. Аширов А.А. Этнология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Yangi nashr, 2014. 76 б.
5. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. 19 б.
6. Каримов И.А. "Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашда – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti" мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқидан. – Тошкент, 2012 йил 17-18 февраль.
7. Қурбонова М.Б. Ихтисослашган умумтаълим мактабларида этнография фанининг ўқитилиши // Ўзбекистон этнологиясининг назарий-методологик муаммолари. Илмий тўплам. – Тошкент: Navro'z, 2014. 94-95 б.
8. Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июлдаги 315-сон қарори.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK ZARURIYATI

Eraliyeva Sadoqat Xusanboyevna,
*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
16-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annontatsiya: maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning mohiyati va metodik tayyorgarlik tushunchasining mazmuni, o'qituvchini metodik jihatdan mahoratli bo'lib yetishishida zarur bo'luvchi omillar va pedagogik zaruriy shart-sharoitlar to'g'risida kerakli manbalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, metodika, intellektual salohiyat, rivojlanish, mustaqil fikrlash, pedagog.

**Педагогическая необходимость
проблемы совершенствования
методической подготовки учителей
начальных классов**

Эралиева Садокат Хусанбоевна,
*Наманганская область
Янгикурганский район, учитель
начальных классов школы № 16*

Аннотация: в статье представлены необходимые ресурсы для будущих учителей начальных классов о сущности совершенствования методической подготовки учащихся к интеллектуальному развитию и содержанию понятия методической под-

готовки, о факторах и педагогических условиях, необходимых для достижения учителем методической компетентности.

Ключевые слова: высшее образование, методика, интеллектуальный потенциал, развитие, самостоятельное мышление, педагог.

**Pedagogical necessity of the problem
of improving methodical training of future
primary school teachers**

Eralieva Sadokat Husanbaevna,
*Namangan region Yangikurgan district,
Primary school teacher at school No. 16*

Abstract: the article presents the necessary resources for future primary school teachers on the essence of improving the methodological preparation of students for intellectual development and the content of the concept of methodological training, on the factors and pedagogical conditions necessary for a teacher to achieve methodological competence.

Keywords: higher education, methodology, intellectual potential, development, independent thinking, pedagogue.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini yaxshilashni ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda, talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tegishli yondashuvlarni aniqlash maqsadida talabalarga ta'lim-tarbiya berishda bir nechta dasturlarni tahlil qilib, shular asosida hozirgi kunga qadar olib borilayotgan metodik faoliyatlarga alohida e'tibor qaratamiz. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish xislatlarini shakllantirishga erishishi lozim. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin:

birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohaslarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir;

ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi;

uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat, ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini

ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi;

to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi" [1].

Ta'lim sifatini yaxshilash va samardorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kun davr talablariga muvofiq kelajak avlod kadrlarini tayyorlashni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bunda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish uchun, ularda zarur pedagogik bilimlarni (o'qituvchi mehnati, uning pedagogik faoliyati xususiyatlari, muloqot, shaxs to'g'risida, o'quvchilarning psixik rivojlanishlari, ularning yosh xususiyatlari to'g'risidagi psixologik, pedagogik ma'lumotlar), ko'nikmalarni (yetarlicha yuqori darajada bajarilgan xatti-harakatlar) shakllantirish lozim. Ilmiy adabiyotlar tahlil shuni ko'rsatdiki, zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ikkita mustaqil yo'nalishi: intellektual rivojlangan maktab o'quvchilari o'qituvchisining psixologiyasi va o'qituvchini intellektual rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlash alohida ajratiladi.

O'quv jarayonidagi didaktik holatar (o'qituvchining xulqini belgilovchi, uning

Nazariy bilimlar	tegishli fan sohasiga doir nazariy ma'lumotlar to'plami;
Amaliy bilimlar	o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda qo'llash uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami;
Metodik bilimlar	o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni yosh avlodga o'rgatish uchun zarur bo'ladigan metodik bilim, tajribalardan iborat bo'ladi.

1-jadval. O'quv jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga zarur bo'lgan bilimlar.

o'z-o'ziga bahosi, didaktik qiziqishlari darajasini ifodalovchi, o'qituvchining motivatsiyasi, o'z mehnatining ma'nosini anglash bilan bevosita bog'liq uning o'quvchiga, hamkasblariga, o'ziga munosabatlarining barqaror tizimi), o'qituvchilarning o'z fanlari haqida chuqur bilimga egaligi kabi ko'nikmalar shakllantirilishi zarur. Har bir pedagogning motivatsion sohani rivojlantirishi, ya'ni maqsad qo'ya olishi, qiziqishlarini to'g'ri taqsimlay olishi, shaxsiy motivlarini qamrab oluvchi psixologik sifatlar majmui malakaga aylantirilishi lozim. A.K.Markova boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini "mustaqil va mas'uliyatli ishlashga imkon beruvchi psixik holat, inson mehnatining natijalaridan iborat bo'lgan, insonning ma'lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va ko'nikmasi" [2] sifatida e'tirof etadi. O'qituvchi kasbi ijodiy yondashuv talab etadigan kasb va o'qituvchi o'quvchining intellektini rivojlantirish bo'yicha ulkan imkoniyatlarga ega. Maktab o'quvchilarida intellektni intellektual fikrlovchi o'qituvchilar rivojlantirishi lozim. Biroq bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilarda ijodkor shaxsni rivojlantirish bo'yicha ishlari samarali kelishini ta'minlovchi metodik bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning juda muhim va istiqbolli qismi sanaladi. G.L.Lukankin bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik tayyorlash amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi haqi-

da fikrni qo'llab quvvatlaydi. Bunda olim boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash masalasini hal etishda talabalar o'qiydigan fanlar sonini oshirish yo'lidan emas, balki ta'lim va bo'lajak o'qituvchining mustaqil ishlarini samarali tashkil etishni individuallashtirish yo'lidan borish kerakligini, ya'ni ommaviy, yalpi ta'limdan individual yondashuvni kuchaytirish zarurligini qayd qiladi[8]. D.I.Yunusova o'zining doktorlik dissertatsiyasi ishida bo'lajak matematika o'qituvchisining rivojlanishidagi ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashish imkoniyatini beruvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarlik matematika o'qituvchisi innovatsion faoliyat mazmunini, pedagogika oliy ta'lim muassasasida o'qitiladigan matematika fanlari bilan uzluksiz matematik tayyorgarlik mazmuni uzviyligini, mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti, maxsus integrativ kurs, pedagogik amaliyot asosida talabalarda innovatsion pedagogik faoliyat motivatsiyasi, bu faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarlikni shakllantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tgan [3].

Sh.S.Sharipovning o'z ilmiy ishlarida kreativ axborot muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ekanligini va metodik tayyorlangan o'qituvchilar innovatsion rivojlangan bo'ladi va ta'lim siyosatining yangi yo'nalishlariga ham moslashuvchan bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Olim ilmiy ishlarida tahsil oluvchini qanday

o'qitish emas, balki qanday o'qishga o'rgatish kerak, degan g'oyani ilgari surgan [4].

N.L. Stefanova o'z tadqiqot ishida talabalar – bo'lajak matematika o'qituvchilarini metodik tayyorlash mazmunini yoritib bergan. Muallifning fikricha, unga nafaqat o'quv fani bo'yicha bilimlar, balki ushbu bilimlar qo'llaniladigan turli faoliyat turlari ham kiritilishi lozim. Shuningdek, kasbga tayyorlashning metodik tizimi N.L.Stefanova tomonidan matematika o'qitish jarayonini amalga oshirishning nazariy asoslari, haqiqiy bilimlari va metodlarini o'zlashtirishga yo'naltiruvchi maxsus tashkil etilgan ta'lim sifatida ko'rib chiqiladi. Kasbga metodik tayyorlash holati haqida yakuniy natijalari bo'yicha ham, uni shakllantirishda mavjud muammolar bo'yicha ham olim o'z mulohazalarini keltirgan [5].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligiga talablar o'zgarishi ikkita asosiy ta'lim paradigmasi: xususan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda namoyon bo'luvchi insonparvarlik va ta'limning ijtimoiylashuvi bilan belgilash mumkin.

M.E.Jumayevning fikricha, “bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematik metodik tayyorgarligi – matematikada ilmiy izlanishning metodologiyasi va tarixi, gumanitar yo'naltirilgan boshlang'ich matematika ta'lim komponenti sifatida o'quvchilarda izlanuvchan matematik faoliyati shakllanishini nazarda tutgan” [6].

B.S.Abdullayeva ilmiy ishlarida quyidagi mulohazalar keltirilgan: “Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zaruriy

ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, o'qitishning zamonaviy vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq” [7].

Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan mavzularini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim. Mazkur mulohazalar, albatta, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy yondashgan holda o'quvchilarni tayyorlashga o'rgatishda o'z samarasini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda fanlararo integratsiyaga e'tibor qaratish alohida ahamiyatga ega. Xususan, Sh.S.Abduraimov o'z ilmiy izlanishida shunday fikrlarni keltiradi: “Integratsiya, fanlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik, uzviylik kabi tushunchalar pedagogikada keng qo'llanilsa-da, biroq ko'plab o'qituvchilar ularni deyarli bir xil tushuncha deb tushunadilar. Holbuki, bu tushunchalar ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladi. So'nggi vaqtlarda predmetlararo aloqadorlik va integratsiya munosabatlarini talqin etish borasida yangi qarashlar kelib chiqmoqda. Pedagog kadrlarni tayyorlash va fanlar integratsiyasini amalga oshirishda umumkasbiy va ixtisoslik fanlar blokidan o'rin olgan fanlarning ulushi sezilarli darajada ahamiyatli. Bo'lajak o'qituvchilarning fanlar integ-

ratsiyasi bo'yicha o'zlashtiradigan nazariy bilimlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini shu fanlarni o'rganish jarayonida egallab boradilar. Umumkasbiy fanlar blokidagi psixologiya va pedagogika fanlarini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy sifat va kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish, yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka erishishi orqali ilmiy-metodik tayyorgarlikka asos yaratishni nazarda tutish zarur. Fanlarni o'qitishda kasbga yo'naltirish, fanlar integratsiyasini amalga oshirish va talabalarning ilmiy tayyorgarligini ilmiy metodik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish, matematika va umumkasbiy fanlar bilan integratsiyasini amalga oshirish orqali talabalarda muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va bog'liq ravishda metodik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bo'lgan g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga poydevor tayyorlanadi" [8].

Ushbu mualliflar tomonidan ilgari surilgan fikr va mulohazalarni qo'llashda, zero, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy bilimlarni egallashda, axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishda, pedagogik mahoratini oshirishda, xalqaro tajribalardan foydalangan holda o'quvchilar bilimlarini baholashda intellektual



qobiliyatlarini shakllantirishlari lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, avvalambor, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish matematika fani bilan ko'proq bog'liqligini inobatga olgan holda, bo'lajak o'qituvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.




Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi ustida ishlash jarayonida talabalarga ilmiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay, balki o'rganilgan bilimlarni amaliy jarayonda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini ham shakllantirib borilishiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, boshlang'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim hisoblanadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o'quv fani dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimla-

rini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, o'qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish hozirgi kun talabi sifatida o'rganilmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish borasida bir qancha vazifalar ajratib ko'rsatildi. (1.1-rasm)

- o'z fikrini og'zaki hamda yozma ravishda ravon bayon qila olishga yo'naltirishi;

- ta'lim falsafasi va tarixi bo'yicha kompetentli bo'lishi va fan doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izoh bera olishi zarur.

Mazkur ko'nikmalarni boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantirilishi bevosita o'quvchilarni kelajakda bilimli va intellektual rivojlangan kadrlar bo'lib yetishishida o'z samarasini ko'rsatadi.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning vazifalari.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlarni o'qitish jarayonidagi vazifalari quyidagilar:

- fan o'quvchini fikr yurita olishga undashi kerak;

- o'zgalar fikrini anglashga o'rgata olishi muhim;

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchilarni psixologiyasini bilishi zarur, chunki asosiy obyekt bu – o'quvchi. O'qituvchi darsga kirganda o'quvchi bilan qanday gaplashish zarurligini, qaysi metoddan foydalanib ta'lim berish yo'lini, "ta'limni qanday berganimizda o'quvchi

yengil qabul qila oladi” degan bir nechta savollarga javob olish uchun ham boʻlajak oʻqituvchilar bola psixologiyasini bilishi lozim. Chunki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻyinqaroq boʻladi, bu vaziyatda boshlangʻich sinf oʻqituvchilari dars oʻtish metodikasini tanlaganda turli xil oʻyinlarni tanlashi, oʻyin qandaydir taʼlim berishi lozim, shuning uchun ham taʼlimiy oʻyinlardan foydalanib, darsni tashkil qilish, oʻquvchilarni darsga qiziqtirish oʻz samarasini koʻrsatadi.

Yuqori sinf oʻquvchilari jamiyatga kirishishga tayyorlanayotgan jarayonda, oʻquvchilarni guruhda ishlatib taʼlim beriladigan boʻlsa, ular bir-biriga qiziqib rivojlanadi. Yuqori sinfda dars metodikasini tanlashda oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatishga qaratilgan usullardan foydalanish lozim. Dars oʻtish metodikasini tanlash juda muhim va ahamiyatli, zamonaviy axborot vositalari (kompyuter, proyektor...)ni qoʻllash darsni aʼlo darajada oʻtishni har doim ham taʼminlamaydi. Ammo ushbu vositalarsiz dars samarali boʻlmaydi degani emas, agar boshlangʻich sinf oʻqituvchisi dars oʻtish metodikasini toʻgʻri tanlasa bitta yozuv taxtasi (doska) va boʻr bilan ham samarali dars oʻtishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi shunday boʻlishi kerakki, qoʻlidagi bor narsalardan foydalanib zoʻr qilib darsni tashkil qila oladigan boʻlishi lozim. Hozirgi vaqtda boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, oʻquv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oʻz oʻrnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bogʻliq.

Bu, ayniqsa, matematika fanini oʻqitish jarayonida innovatsion taʼlim jarayonini tashkil etuvchi oʻquvchi va oʻqituvchi

shaxsiga oʻquv faoliyati subyekti sifatida yondashish;

oʻqituvchi va oʻquvchining taʼlim jarayoniga ijodiy yondashuvini oʻstirib, rivojlantirib borish;

oʻqituvchilarning fanlarni oʻqitishni takomillashtirilgan anʼanaviy va noanʼanaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish koʻnikmasi va malakasini oshirish;

dars loyihasining har bir bosqichi ustida ishlashni oʻrgatish;

oʻquvchilarning fanlarni amaliy oʻzlashtirishlari uchun mashq topshiriqlarini bajarish, taʼlim usullarini rivojlantirish;

oʻquvchilar faoliyatini, oʻzlashtirish darajasini doimiy oʻrganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olishni singdirib borish;

yondashuv sifatida xalqaro baholash dasturi asosida oʻqitishga asoslangan metodikaning yangi shakl, vositalaridan foydalanishda yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Bugungi kun boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga faqatgina tayyor bilimlarni beribgina qolmay, ularga elektron axborot resurslardan foydalanishni va xalqaro baholash dasturlari asosida oʻquvchilar savodxonligini baholashga oʻrgatish muhim masalalardan hisoblanadi. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi boʻyicha quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining individual qobiliyatlari va imkoniyatlariga yoʻnalganlik hisobiga matematika fanini oʻqitishning ijtimoiylashuv jihatlarini amalga oshirishni yoʻlga qoʻyish;

- ham mazmuni, ham faoliyat metodlariga koʻra oliy taʼlim muassasalari matematika oʻqitish metodikasi fanini oʻqitishda

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda boshlang'ich sinf matematika fanini o'qitish kursi o'rtasida o'zaro chambarchas aloqani shakllantirish;

- metodika kursini amaliy yo'nalganligiga e'tiborni kuchaytirib, pedagogik va metodik amaliyotdagi aloqalar, qisman qidirish, qidirish va tadqiq qilish tusidagi topshiriqlarni joriy qilish hisobiga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematika o'qitish metodikasini o'rganish samaradorligini oshirish;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikani o'rganishida uzviylikni amalga oshirish maqsadida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, bu boshlang'ich matematika kursidagi masalalarni rivojlantirishni ko'rsatadi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlanishga tayyorlash;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini to'garak, olimpiada, musobaqlar kabi faoliyat shakllarini yo'lga qo'yishda layoqatli shaxs darajasiga yetkazish. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun yuqorida qayd etib o'tilgan barcha nazariy asoslar, fikrlarni inobatga olib, ta'lim jarayonida ta'lim mazmuni, o'rgatish, o'rganishni bir-biri bilan uzviy aloqada ekanini inobatga olgan holda ulardan hech birini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni.
2. Маркова А.К., Матис Т.А. Формирование мотивации учения. – М.: изд-во "Педагогика". 1990. – С. 34-56
3. Yunusova D.I. Bo'lajak matematika o'qituvchisi metodik tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Darslik. – T.: Tafakkur qanotlari. 2018.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Pedag. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – T.: 2012. 46-b.
5. Stefanova N.L. Volkova T.S., Matematika o'qituvchisini tayyorlashning tuzilishi va mazmuni, uning fan kompetensiyasini shakllantirish. – M.: 2014.
6. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum". – T.: O'qituvchi, 2004, 328 bet.
7. Abdullayeva B.S va b. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. – T.: OOO "Jahon print", 2011, 146-b.
8. Abduraimov Sh.S. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya. Monografiya. – T.: Navro'z, 2014. – 120-b.

“YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICI” DA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

Yo‘ldosheva Zuxraxon Xolmirzayevna,
Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani
16-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalari, turlari, pedagogning innovatsion faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy fazilatlari, o‘z tafakkurining kasbiy rivojlanishi, ko‘nikma va malakasi shakillantirishi, ta’lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlar kabi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim innovatsiyalari, faoliyat, innovatsion faoliyat, pedagogik texnologiyalar.

Использование новых подходов и инноваций в повышении качества образования на “Новом этапе развития Узбекистана”

Юлдашева Зухрахон Холмирзаевна,
Наманганская область Янгикурганский район средняя общеобразовательная школа № 16, учитель начальных классов

Аннотация: в данной статье рассмотрены инновационные технологии, используемые в педагогическом процессе, образовательные инновации, некоторые виды образовательных инноваций, инновационная деятельность педагога, его профессиональные и личностные качества, про-

фессиональное развитие, его мышления, формирование навыков и квалификации.

Ключевые слова: инновации, образовательные инновации, деятельность, инновационная деятельность, педагогические технологии.

The use of new approaches and innovations in improving the quality of education at the “New stage of development of Uzbekistan”

Yuldasheva Zukhrakhon Kholmirzaevna,
Namangan region Yangikurgan district
Secondary school No. 16,
Primary school teacher

Abstract: this article discusses innovative technologies used in the pedagogical process, educational innovations, some types of educational innovations, innovative activities of a teacher, his professional and personal qualities, the professional development of his thinking, the formation of skills and qualifications, such issues. How reforms in the education system are covered.

Keywords: innovations, educational innovations, activities, innovative activities, pedagogical technologies.

Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda, "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'rganmiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning munosib e'tirofidir. "Yangi O'zbekiston"da Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish uchun ta'lim tizimidagi islohotlarni tubdan takomillashtirish zarur bo'ladi.

Vatanimizda kechgan buyuk sivilizatsiyalar xalqimiz milliy xarakteridagi bosh xususiyatlar yakdillik, hamjihatlik va hamkorlikdan kuch olgan. Ana shu o'zak fazilatlarimiz esa ichki va tashqi xavflarni daf etish, biqlikdan hamkorlik va integratsiyaga, ilm va ma'rifatga erishishning asosi hisoblangan mustahkam birlashishga bo'lgan intilishni kuchaytirgan. Prezidentimiz uchinchi Renessansga erishish uchun imkoniyatlarimiz yetarligini alohida ta'kidladi. Xususan, "oldimizga qo'rgan ulug' maqsadlarga erishish uchun barchamiz birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib, birlalikda harakat qilishimiz kerak" [1] ligiga alohida urg'u berdi. Birlashish darajasi qancha yuqori bo'lsa, yuz bergan vaziyatlarda maqbul yechimlarga kelish imkoniyati ham katta bo'ladi. O'zbekiston Prezidenti mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda aniq tartibot va tizim bo'lishini va har bir ish ilm-fan yutuqlariga asoslanmog'ini, milliy taraqqiyotimizni innovatsion texnologiyalar, raqamli bilimlar va raqamli iqtisodiyotga tayangan holda jadal yuk-saltirishning eng maqbul yo'llarini ko'rsatib berdi.

"Zamonaviy ta'lim bugungi kunning asosiy muammolaridan biridir. O'qitish usullarini o'zgartirish kerak, aks holda kelajakda bizni jiddiy muammolar kutmoqda. Ikki yuz yil oldin bizga hozirgiday o'rgatilgan. Bu bilimga asoslangan usul. Ammo bolalarga mashinalar bilan raqobatlasha

oladigan juda ko'p ma'lumot bera olmaymiz. Shuning uchun, biz ularga hech qanday mashina qila olmaydigan narsalarni o'rgatishimiz kerak...

Ta'lim va ilm sohasiga bunday yondashuv, albatta, mamlakat hayoti va turmushimizda o'z izini qoldirdi. Buning ta'sirini hayotimizda, kundalik turmushimizda ko'rib turibmiz. Shu ma'noda, bugun Prezident Sh.Mirziyoyevning yangi O'zbekiston kelajagini maorif va ta'lim hamda ilm-u fanda ko'rayotgani, Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarayotgani mamlakatimiz tom ma'noda yangi yo'lga o'tayotganini, tarixiy shavkati olamni larzaga solgan tuproqlarimizda yana qudratli bir davlat va dunyo sahna-sida o'z so'zini ayta oladigan, jahon ahlini o'ziga qarata oladigan buyuk bir millat kamol topishiga qo'yilgan dadil qadam bo'ldi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz... [2]

Dunyoda 2 milliardni tashkil etadigan jahon yoshlari muammolari yechimini topishga xalqaro maydonda hamkorlikda harakat qilishga da'vat etdilar hamda yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning ishlab chiqishni taklif etdilar: "Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablari-dan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlari-

ni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar kelajakda ham mehnat bozorida talab mavjud bo'ladigan zamonaviy mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash uchun pedagogning o'zi ham zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda, eng so'nggi ilm-fan yutuqlaridan, o'zi bilim berayotgan soha yangiliklaridan xabardor bo'lishi va eng yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi talab etiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;

- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;

- ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma, malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan. 1-jadvalda ta'lim innovatsiyalari turlari keltirilgan.

Faoliyat yo'nalishiga ko'ra	Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar
Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra	Radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar
O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra	Tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari
Kelib chiqish manbaiga ko'ra	Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar

1-jadval. Ta'lim innovatsiyalari turlari

Ta'lim innovatsiyalari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi (I.P.Podlasiy):

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- ta'lim oluvchi faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.


Demak, ta'limga kiritilgan innovatsiyalar natijasi tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'limidanoq o'quvchilarga innovatsion yondashuv asosida

ta'lim berish amaliyotga joriy etilmoqda. Innovatsion yondashuv o'qituvchi faoliyatining ma'lum bir tizimi sifatida muayyan o'quv muammolarini hal qiladi:

- innovatsion yondashuv asosida fanga oid tushunchalar yordamida o'quvchilarning bilim darajasini orttirish;
- o'quv materialini yetakchi g'oyalar nuqtayi nazaridan o'rganish, o'rganilayotgan muammolar o'rtasida tabiiy aloqalarni o'rnatish orqali intellektual faollik darajasini o'zgartirish;
- o'quvchilarning kognitiv, fikrlash faoliyatini, darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish.

Demak, ta'limdagi innovatsiyalar fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlovchi omil hisoblanib, bu fan yutuqlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bilan birga ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. O'qituvchining innovatsion faoliyati motivlari

O'qituvchining innovatsion faoliyatida kreativlik ham muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik ijtimoiy ahamiyatli ijodiy faollikni namoyon etish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan ijodkorlik, insonning ijodiy imkoniyatlari hamda uning alohida xususiyati sifatida qaraladi. Innovatsion faoliyatning texnologik komponenti refleksiv xususiyatga ega bo'lib, ta'lim oluvchilar jamoasi fikri va harakatini hamda o'z faoliyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tushunish va talqin qilish faoliyatini yoritadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar-

dan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi xalqi va Oliy Majlisiga Murojaatnomasi . "Xalq so'zi, 2022-yil, 21-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik – ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro'yobi yo'lida qudrat manbai. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil, 1-sentabr.
3. Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, "Nizomiy", 2003.
4. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". O'quv qo'llanma. – T.: 2013. 237-b.

TA'LIM MAZMUNI VA SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH VA BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY METODIKALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdullayeva Zulfiya Fayzullayevna,
*Namangan viloyati Yangi Namangan tumani
93-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi,
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika o'qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o'quvchilarga puxta bilim berish haqida yoritilgan. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llari, matematika o'qitish jarayonida mehnatni sevishtga, o'zining qadr-qimmatini, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarni tarbiyalashni ko'rsatib berish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: metod, metodika, taqqoslash, didaktik maqsadlar, malaka va ko'nikmalar, dars turlari, yangi maqsadlar, didaktik materiallar.

Использование современных методик на уроках математики в начальных классах

Абдуллаева Зульфия Файзуллаевна,
Наманганская область новый Наманганский район средняя общеобразовательная школа № 93, Учитель начальных классов

Аннотация: в данной статье описаны методы преподавания математики учащимся начальных классов, как их реализовать и дать учащимся глубокие знания. Обсуждались пути формирования мировоззрения учащихся, обучения любви к труду,

воспитания таких качеств, как самооценка и уважение друг к другу в процессе математического образования.

Ключевые слова: метод, методика, сравнение, дидактические цели, навыки и умения, виды уроков, новые цели, дидактические материалы.

The use of modern methods in mathematics lessons in elementary grades

Abdullayeva Zulfiya Fayzullayevna,
*Namangan region new Namangan district secondary school No. 93,
Primary school teacher*

Abstract: this article describes methods of teaching mathematics to primary school students, how to implement them and give students in-depth knowledge. Discussed were ways to shape students' worldview, teach a love of work, and cultivate qualities such as self-esteem and respect for each other in the process of mathematics education.

Keywords: method, methodology, comparison, didactic goals, skills and abilities, types of lessons, new goals, didactic materials.

Hozirgi globallashuv jarayonida pedagog kadrlarning oldiga qo'yiladigan asosiy talab fikrlash doirasi keng bo'lgan, ilmiy dunyoqarashi shakllangan, ma'lumotlar oqimidan o'ziga kerakli bo'lganlarini saralab olish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash vazifalarini qo'ymoqda.

Boshlang'ich matematika kursidan olingan bilimlar boshqa fanlarni o'rganishda ham foydalaniladi va bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, zaruriy matematik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchun mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o'qishga qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Xususan, matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi)

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'lim mazmuni o'quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak) ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?

4. O'qitish vositalari – darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv-texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish)

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish) [1].

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o'quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;

Asosiy miqdorlar va ularning o'lchov birliklari;

Arifmetik amallar;
 Matnli masalalar;
 Algebraik material (tenglik, tengsizlik va b.q.)

Geometrik material;

Maktabda matematikani o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir.

Dars – dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgar-mas soni bilan tashkil etilgan o'quv ishidir. Darsni tashkil qilish mohiyatidan kelib chiqib dars shakllari turlicha bo'ladi.

Dars shakli	Faoliyat
Individual	O'qituvchining har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashi
Frontal	O'qituvchining butun sinf bilan bir tomonlama ishlashi
Guruhiy	4-6 kishilik guruhlarda o'quvchilarning ishlashi
Jamoaviy	Sinf o'quvchilarining bitta jamoa bo'lib ishlashi

1-jadval. Dars shakllari va ulardagi faoliyat

Darsning butun sinf va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borilishi yuqori samara beradi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yarata-di va shu bilan bir qatorda boshqaruvchi-lik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Dars vaqtida o'quvchilar matematika-dan nazariy ma'lumotga, hisoblash mala-kasiga, masala yechish, har xil o'lchash-

larni bajarishga o'rganadilar, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi. Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shun-dan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra, geometriya elementlari ham o'rganiladi.

Matematika boshlang'ich kursining boshqa o'ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shu-ning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv ma-lakalar singdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o'zining “Язык обучения математики” kitobida “Maktab o'quvchilarining mate-matik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo'linadi”, – deb ta'kidlaydi. Birin-chi navbatda ular obyektiv tushunchalar-ning birgalikda tashkil etadigan mazmuni – *matematik reallikni* aniqlab oladilar. Bun-da obyektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik alo-hida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda *mate-matik reallik* jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ushbu reallikni o'quvchilar mate-matik hisob kitoblarning turmush jarayo-nidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida, ya'ni kundalik turmush bilan bog'liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagi-na his qiladilar. Demak, kundalik turmush bilan bog'liq holda matematika o'qitishni tashkil etish o'quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. *Kundalik turmush bilan bog'liq misollar yechish asosida o'quvchi ma-tematik bilimlar shunchaki o'zlashtiriladigan bilimlar emas, balki hayotiy zaruriyat sifati-da o'zlashtirilishi lozimligi to'g'risida xulosa qiladilar.*

Odatda darsda bir necha didakik bos-qichlar amalga oshiriladi: yangi material-ni o'tish; o'tilgan materialni mustahkam-lash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlar-ni umumlashtirish, tizimlashtirish; mus-

tahkam o'quv va malakalar hosil qilish va hokazo. Matematika darslarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu – o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi kabilarga ham bog'liq. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida moslik yuzaga kelsa, natijadorlik samarali bo'ladi.

2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.

3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.

5. O'quvchilar bilan ishlab chiqarish, ta'biatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir-birini to'ldiradi. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik qi-

O'qituvchining faoliyati:	O'quvchilar faoliyati:
1. O'quvchilarning bilimini so'rash, suhbat, hisoblash, masalalar yechish uchun amaliy topshiriqlar berish asosida o'quvchilar bilimini aniqlash.	1. O'qituvchi savollariga javob berish, o'lchash, hisoblash, masalalar yechish yordamida topshiriqlar bajarish.
2. Ko'rgazmali qurol va vositalarni namoyish qilish va kuzatishni tashkil qilish.	2. Tavsiya qilingan obyektlar ustida kuzatish, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, deduktiv xulosalar chiqarish
3. Suhbat, tushuntirishlarni bog'lagan holda bilimlarni bayon qilish, darslik bilan ishlashni uyushtirish.	3. O'qituvchining bayonini tinglash, darslikni o'qish, faktlarni umumlashtirish va eslash.
4. Mashqlarni ishlash: o'quvchilarning o'quv-amaliy va hayotiy-amaliy ishlarini tashkil etish.	4. Egallangan bilimlarini amaliy ishlarni bajarishda qo'llash, oldin egallangan bilimlarni o'zgargan sharoitda qo'llash.
5. So'rash va amaliy ishlarni bajarish bo'yicha topshiriq berish yo'li bilan o'quvchilarning bilimini tekshirish.	5. O'qituvchining savollariga javob berish, amaliy ishlarni bajarish.

2-jadval. O'qituvchi va o'quvchilar faoliyati orasidagi moslik.

Matematika darsida turli-tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'zlashni, hisoblash, o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil ishlar.

ladi, yo'naltiradi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi.

Bugungi kunda asoslanishi lozim bo'lgan holat – o'quvchiga pedagogik yordam ko'rsatish va o'quv biluv jarayonida uni pedagogik qo'llab quvvatlashning qulay shakl va imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir. O'quvchilar bilan har bir darsda bir nechta tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har bir tushunchani tushunish

uchun oldingi tushunchani takrorlab borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materialini rivojlantirgan holda olib boriladi, bu o'quv materialini o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir nechta darslarning o'zaro bog'lab o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib, matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o'quv tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzularga to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Unda o'quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustahkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta'minlashi kerak. Mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirish quyidagi asosiy bosqichlarga taqsimlanadi:

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash;
2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish;
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish;
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish;
5. Bilim va malakalarni tekshirish.

Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan yana biri o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir. Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, o'quv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o'shandagina sinf o'quvchilari jarayonda faol ishtirok etishadi. O'qituvchi faolligi o'quvchi faolligini va o'z navbatida, o'quvchilar faolligi o'qituvchi faolligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – T.: "Ilm-Ziyo", 2009.
2. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. – T.: "Ilm-Ziyo", 2003.
3. Mavlyanova R.A., Raxmankulova N.X. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya". – T.: TDPU 2007.
4. Jumayev M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" – T.: 2005, 312-b.

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAJRIBA VA AMALIYOTNING O'RNI

Burxonova Hulkaroy Dexqonboyevna,
*Namangan viloyati Norin tumani
9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi,
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishda zamonaviy innovatsion yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish usullari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqola ko'p yillik tajriba va ko'nikma natijasida ustozlar tomonidan orttirilgan amaliyot orqali ta'limni eng ilg'or, samarali yo'llarini ko'rsatib o'tadi va tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mehnat, tarbiya, texnologiya, islohot, pedagogik texnologiya, ilg'or-samarali yo'llar, pedagogik tahlil va tajriba.

**Роль опыта и практики
в совершенствовании содержания
образования в начальном образовании**

Бурхонова Хулкаррой Дехканбоевна,
*Наманганская область Нарынский район
средняя общеобразовательная школа № 9,
Учительница начальных классов.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются инновационные подходы к повышению эффективности начального образования в школах, пути эффективного использования современных педагогических технологий. В статье также показаны и проанализированы наиболее

эффективные способы обучения на основе многолетнего опыта, накопленного учителями.

Ключевые слова: начальное образование, труд, воспитание, технология, реформа, педагогическая технология, передовые и эффективные способы, педагогический анализ и опыт.

**The role of experience and practice
in improving the content of education
in primary education**

Burkhonova Hulkaroy Dekhkanbaevna,
*Namangan region Naryn district
secondary school No. 9,
Primary school teacher.*

Abstract: this article discusses innovative approaches to improving the effectiveness of primary education in schools, ways to effectively use modern pedagogical technologies. The article also shows and analyzes the most effective ways of teaching based on many years of experience gained by teachers.

Keywords: primary education, labor, upbringing, technology, reform, pedagogical technology, advanced and effective methods, pedagogical analysis and experience.

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullarini ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Maqolada o'quvchilarning BKM va kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda samarali interfaol usullar, didaktik o'yinlar namunalari keltirilgan. Bu o'yin mashqlaridan darslarda ta'limiy musobaqa tarzida ham foydalansa bo'ladi va ular 25-35 nafar o'quvchiga mo'ljallangan. O'quv-

chilarga dars-mashg'ulotlar davomida singdirilgan BKM, xususiylar va tayanch kompetensiyalar ularning hayotida, asqatadidegan umiddaman. Zero, bugungi kunda o'qituvchining qilayotgan mehnati, albatta, ertaga o'z samarasini beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari-da amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Aynan shu vazifa va topshiriqlarni amalga oshirish uchun "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" tashkil etildi va uning ta'limga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishlari sifatida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyalarni o'z tarkibiga oladi. "Ta'lim to'g'risida"-gi Qonun yosh avlodni tarbiyalashning



asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi.

“Innovatsiya” – bu yangilik demakdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga, innovatsion yondashuv asosida bilim berib borsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz degan umiddaman. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko'rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko'pincha darslarimda “Blits-so'rov” texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o'quvchilarning harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan narsaning ko'p xilma-xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni

o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga yetkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya yettita bosqichda amalga oshiriladi. O'quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g'oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o'qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o'qituvchilar har doim jajji o'quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo'lishimiz lozim va bu yelkamizga o'ziga yarasha mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022-yil 20-dekabrda Murojaatnomasi. “Xalq so'zi”, 2022-yil, 21-dekabr.
2. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
3. T.G'afforova. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2016.
4. “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
5. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.
6. Munavvarov Z. Yangi Renessans - daxldorlik sharafiga va mas'uliyati, “Yangi O'zbekiston”, 2020-yil 15-sentabr, 176 son, 3-bet.

STEAM-TA'LIMI ASOSIDA

ANIQ FANLARNI O'QITISHDA BILIMLARNI MUSTAQIL

EGALLASH VA IJODIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Jabborov A,

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, o'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: ushbu maqolada STEAM yondashuvining asosiy xususiyatlari, STEAM ta'lim texnologiyasi talablari asosida tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan loyiha ishi va uning ta'limdagi afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar. STEAM ta'limi, mustaqil, ijodiy yondashuv, bilim, ko'nikma, malaka, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya.

Самостоятельное приобретение знаний и формирование творческого отношения в преподавании точных наук на основе STEAM-образования

Джаббаров А,

Андижанский областной национальный центр обучения педагогов новым методикам, заместитель директора по учебно-методической работе

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные особенности подхода STEAM, проектная работа, направленная на решение задач естественно-научного направления на основе требова-

ний образовательной технологии Steam и ее преимущества в образовании.

Ключевые слова: STEAM-образование, независимый, творческий подход, знания, навыки, компетентность, математика, естественные науки, технологии.

Independent acquisition of knowledge and creative attitude formation in teaching exact sciences based on STEAM-education


Jabbarov A,

Andijan Region National Center for Teaching Pedagogues in New Methodologies, Deputy Director for Educational and Methodological Affairs

Abstract: this article describes the main features of the STEAM approach, project work aimed at solving natural-scientific problems based on the requirements of STEAM educational technology, and its advantages in education.

Keywords: STEAM education, independent, creative approach, knowledge, skills, competence, mathematics, natural sciences, technology.

“2018-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” II bo‘lim, 11- bandi: Umumiy o‘rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish qarorlari qabul qilindi [1].



Bugungi davr dunyo ta’limi oldiga ham katta vazifalarni qo‘ymoqda. Bunda qo‘yilgan asosiy talab yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishni o‘rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan. Yoshlarga shunday ta’lim berishimiz kerakki, ular olimlar kabi tajribalar o‘tkazsinlar, texnologlar kabi modellashtirsinlar, muhandislar kabi konstruksiyalar yaratsinlar, rassomlar kabi ijod qilsinlar, matematiklar singari analitik fikrlasinlar va bolalar kabi o‘ynasinlar.

Hozirgi kunda nimani o‘qitish emas, qanday o‘qitish muhimroqdir. XXI asr ko‘-

nikmalariga ega raqobatbardosh, vatanparvar, kreativ shaxsni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning keyingi avlodi ishchi o‘rinlarni izlamaydi, balki yaratadi va murakkablashib borayotgan dunyoda umumiy taraqqiyot yo‘lida birlashadi. Bu ulardan qiziquvchanlik, tasavvur, hamdardlik, tashabbuskorlik, sabr-matонатni va xatolardan xulosa chiqorish qobiliyatini talab etadi. Bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta fanni yagona ta’lim sxemasiga integratsiyalashuviga asoslangan [2].

STEAM atamasi ilk marta amerikalik bakteriolog olim tomonidan 1990-yillarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida yuqori texnologiyalarga ega kompaniyalar o‘zining ko‘pchilik kadrlarining yangi texnologiyalarni qo‘llashda yetarli malakasi yo‘qligi muammosi kelib chiqishi natijasida vujudga kelgan va bugungi kunda hukumat darajasida ta’lim tizimida joriy etilgan [4].

Hozirgi vaqtda STEAM ta’limiga katta e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda zamonaviy dunyoda ijodiy yoki intellektual ish bilan bog‘liq ko‘plab yangiliklar paydo bo‘ldi. Ko‘pgina tadqiqotchilar uning orqasida yosh avlodning haqiqiy kelajagi borligiga ishonishadi.

STEAM texnologiyasi – bu texnik va tabiiy fanlar, muhandislik, matematika va san’atni bir-biriga bog‘laydigan o‘qitishning innovatsion usuli. Unda olingan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirish yondashuvini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning g‘oyalari nafaqat ularning ongida qoladi, balki ularni hayotga tatbiq eta oladi. Bu amalda sinovdan o‘tgan bilimlarning eng qimmatidir. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi kelajakda

yuqori texnologiyalar bilan bog'liq kasblar eng mashhur bo'lishiga olib keladi: IT mutaxassislari, dasturchilar.

Ta'lim tizimi bunday ijtimoiy talabga ko'plab robototexnika, dasturlash, modeldashirish doiralari paydo bo'lishi bilan javob beradi. Biroq, ilmiy va texnik bilimlar kam degan fikr tobora ko'proq eshitilmoqda.

Kelajakda XXI asrning ko'nikmalari talab qilinadi. XXI asr ko'nikmalari hozirda turli darajalarda faol muhokama qilinayotgan alohida yo'nalishdir. Konsepsiyaning mohiyati quyidagicha: sanoat davrida savodxonlikni belgilaydigan asosiy ko'nikmalar o'qish, yozish va arifmetika edi. XXI asrda urg'u tanqidiy fikrlash qobiliyati, o'zaro ta'sir va aloqa qobiliyati, biznesga ijodiy yondashish tomon siljiydi. Shunday qilib, quyidagilarda bolalar kelajagining asosiy ko'nikmalari shakllanadi:

- kommunikatsiya;
- kooperatsiya;
- tanqidiy fikrlash;
- kreativlik.

Ushbu ko'nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma'lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish mumkin emas. Shuning uchun mutaxassislar STEAM fanlarini tobora ko'proq o'rganishlari kerak bo'ladi. Yuqori texnologik dunyoda yashashi kerak bo'lgan har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga erishish uchun nimani o'rganish va o'rgatish kerak. Har bir bola o'z vaqtida qaysi yo'nalish qiziqtirayotganini tushunishi, maktabdan olib ketishi va shu yo'nalishda rivojlanishini davom ettirishi kerak. Shuning uchun, zamonaviy dunyoda o'qituvchi oldida mas'uliyatli vazifa turibdi: bolalarning ongini rivojlantirishga yo'naltirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, mavjud muammolarni hal qilishdan iborat. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat

bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirish va tarbiyalashi ham zarur

Ma'lumki, bugungi kunda axborot oqimi shunchalik katta va o'yin-kulgi vositalari shunchalik xilma-xilki, kichkina bola ulkan raqamli dunyoda adashib qolishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiya berish uchun bolalarga tushunarli bo'lgan vositalarni tanlashi kerak, bu ularga turli xil vakolatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Zamonaviy texnologiya fanlararo va dizayn yondashuvini birlashtiradi, buning asosi tabiiy fanlarning texnologiya, muhandislik ijodkorligi va matematikaga integratsiyalashuvidir.

O'zlari uchun qiziqarli vazifani aniqlaydi, uni hal qilish usullarini tanlash va algoritm tuzish zarurati, natijalarni tanqidiy baholash qobiliyati-muhandislik fikrlash uslubini rivojlantiradi. Bolalarning faoliyatida jamoaviy ishlash mahoratini rivojlantiradi. Bularning barchasi bolaning rivojlanishining tubdan yangi, yuqori darajasini ta'minlaydi va kelajakda kasb tanlashda kengroq imkoniyatlar yaratadi.

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, bu –



atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas.



STEAM – mustaqil kompozitsiyalar emas, balki butun ish uchun barcha tarkibiy qismlarni integratsiyalashuvi va birlashtirilishidir. Buni qanday qilib amaliyotga qo'llash mumkin?

1. Dars boshida aqliy hujum uyushtirish. Mavzu yoki g'oya yuzasidan o'quvchilar bilan aqliy hujum o'tkazib, o'rganiladigan mavzuga diqqat jalb qilinadi. G'oyalar yuzasidan ro'yxat tuzing. Ro'yxat judayam uzun yoki judayam qisqa degan fikr bo'lmasligi kerak. Ro'yxatni o'qituvchining o'zi tuzishi mumkin, lekin bunga o'quvchilarni jalb qilsangiz yanada yaxshi.

2. Talablarni o'rganish uchun izlanish. Asosiy mavzu bilan bog'liq bo'lgan individual g'oyalarni ko'rib chiqing va qanday topshiriqlarni amalga oshirishingiz mumkinligini ko'ring. Qaysi g'oyalar o'zaro o'xshash? Qanday qilib alohida g'oyalarni birlashtirib yagona g'oyaga aylantira olasiz?

3. Qo'llash. STEAMning 4 ustuni – fan, texnologiya, injeneriya va matematikaga 5-ustun san'atni qo'shish imkoniyatlarini yarating. Ularning qaysi birini dars mazmuniga mos keladigan tarzda olib kirasiz?

Hamma darslar ham barchasi 5 ta ustunni qamrab olmaydi, biroq siz bir dasrda kamida 2 marta mavzuga oid kashfiyot qilishga harakat qilishingiz kerak.

4. Yaratish. Darsni yarating va o'tkazing. Darsda xatolarga tayyor turing. Tadqiqotga tayyor turing. Kashfiyotlarni sinab ko'-



rishga tayyor turing. STEAM so'rovlar va jarayonlarga asoslangan.

5. Aks ettirish. Har darsdan keyin nima yaxshi natija berdiyu, nima pand berganini o'ylab ko'ring. Vaqt o'tishi bilan yaxshiroq tahlil qila boshlaysiz: – Siz va o'quvchilaringizga qaysi texnika mos keladi? – Sizga ajratilgan vaqtda nima qilishingiz mumkinligini oldindan aytib bera oladigan bo'lasiz. – O'quvchilaringizni qiziqtiradigan va ularni h'ayratga soladigan narsalarni tushunasiz. Vanihoyat, hammasini keyingi darslarda qayta-qayta amalga oshiradigan bo'lasiz!

STEAM – bu jahon ta'limidagi tendensiyalardan biri bo'lib, uni aniq namoyish qilish talab etadi. O'quvchilar kundalik hayotda fan va san'atni qanday bog'lashni o'rganadilar va bunday ta'lim chet tili bu barcha fanlarning bog'lovchi bo'g'inini o'rganadilar. Shuning uchun yetakchi integratsiyalashgan ta'limdagi pozitsiyani chet el darslari muhim o'rin egallaydi.

Masalan: Xitoy matematiklari ilm-fan va san'atni uyg'unlashtirish muhimligi XI asrda ayitb o'tishgan. XX asrning oxirida bu birlikka erishish uchun zarurat tug'ildi.

Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash va tadqiqot o'tkazish keng ma'noda ijodkorlikka asoslangan ta'lim ekanligini yillar o'tib isbotladi. Aslida, shuning uchun biz STEAMni ta'lim deb aytishimiz mumkin- bu shunchaki boshqa tendentsiya emas, bu ilmiy jihatdan tasdiqlangan yondashuv, bu haqida o'tmishda yashab o'tgan olimlar ham ta'kidlashgan. Bular Leonardo da Vinchi, Galiley, Enshteyn, Beruniy, Farobiy, Ibn Sinolarni misol qilish mumkin [3].

Tabiatshunoslik, fizika va matematika darslarida asosiy ta'lim kurslarida yoki qo'shimcha darslarda STEAM yondashuvidan foydalanish ta'lim mantiqiy va amalga oshirish oson ilmiy farazlarni shakllantirish, fizik tajribalarni o'tkazish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini baholash, geometriya darslarida real vaziyatlarni modellashtirish, ish tamoyillarini o'rganish, maishiy texnika va boshqalarning ishlash prinsiplarini o'rganish muhim.

Zamonaviy tendensiyalarga mos keladigan ish turlarini kiritish ta'lim berish imkoniyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishi uchun nima va qanday o'qitish, o'rgatish kerak? Ushbu yondashuv darsning an'anaviy ko'rinishidan sezilarli darajada farq qiladi: o'quvchilar o'z-o'zini o'rganishga ko'proq vaqt ajratishlari kerak. Bu esa nazariy ma'lumotlarni tushunish va dizayn, ijodiy ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunda o'quvchi o'rgangan bilimi bilan o'rtoqlashishi, muammoning yechimini mustaqil ravishda topishni o'rgatish juda muhimdir.

STEAM o'qitishda o'qituvchining vazifasi esa o'quvchilarning bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va yordam berishdir. O'quvchi olingan bilimlarni amalda qo'llash, ishlash, o'rganilgan bu bilimlardan hayotda foydalanish uchun o'quvchi-

da irodani sifatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. STEAM ta'limida ijodkorlik, moslashuvchanlik va hamkorlik qilish qobiliyati rivojlantirish muhimdir. STEAM – ta'limida bir nechtasini birlashtirgan yangi ta'lim texnologiyasi fan sohalari, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi; tadqiqot qobiliyatlari va jamoada ishlash ko'nikmalari [4].

O'qituvchilar oldida informatika va axborot texnologiyalari ta'limini o'qitishda har doim juda ko'p muammolarga duch kelgan, ularni bartaraf etish yetti funktsiya uchun yetti vazifadan iborat matritsa sifatida ifodalanishi mumkin. Bularni boshqaruvi quyidagicha:

- ilmiy-uslubiy;
- tashkiliy;
- kadrlar;
- moddiy-texnikaviy;
- moliyaviy;
- motivatsion;
- huquqiy va normativ.

O'quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari ta'limini rivojlantirishning yetakchi vazifasi madaniy-ma'rifiy xususiyatlarni hamda moddiy-texnikaviy ta'limni takomillashtirish vazifasidir.

STEAM o'qitish – bu bolalarimizning mahoratini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradigan innovatsion usul. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo'lishimizga imkon beradigan ilg'or kadrlar bazasini shakllantirishimiz mumkin. STEAM ta'limining afzalliklari:

- mavzular bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan mashg'ulotlar;
- ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish;
- o'ziga ishonchni shakllantirish;

- faol aloqa va jamoada ishlash;
- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;
- loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar;
- har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish;
- dastlabki kasbiy rahbarlik.
- bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash;
- STEAM asosiy ta'lim dasturining majburiy qismiga qo'shimcha [5].

Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq eng mashhur kasblar: IT mutaxassislari, katta ma'lumot muhandislari, dasturchilar bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimi robototexnika, dasturlash, modellashtirish

doiralarning ko'plab soni paydo bo'lishi bilan bunday ijtimoiy talabga javob beradi. Biroq, ilmiy va texnik bilimlarning tanqisligi haqidagi fikr tobora ko'proq eshitilmoqda.

Kelajakda qisman 4K deb nomlanadigan XXI asrning ko'nikmalari talabga ega bo'ladi. XXI asrning ko'nikmalari bu alohida sohadir, hozir u turli darajalarda faol muhokama qilinmoqda. Konseptsianing mohiyati shundan iboratki, sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko'nikmalar o'qish, yozish va arifmetika edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, biz pedagoglar birlashib, tajribalarni o'rganib, barcha imkoniyatlarni ishga solib, farzandlarimizning kelajagini to'g'ri yo'lga qo'yishga qodir ekanligimizni yana bir bor amalda isbotlashimiz bugungi kunning dolzab masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PF-5712-sonli Farmoni.
3. Созонова С. Д. Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. – Чита: 2018. – С. 95-98.
4. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. dok. diss. – T.: 2017. – 7-b.
5. Safarova R. va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi // Fan va texnologiya. – T.: 2014. – 13-b.

4K MODELIGA ASOSLANGAN SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB DARS JARAYONLARINI TASHKIL QILISH

Ibragimova Nilufar Yuldashovna,
*Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori, sots.f.n.d.
guli.ibragimova.1975@mail.ru*

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim tizimida yangicha yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkillashtirishda 4K kompetensiyalarning mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari zamonaviy o'qituvchi shaxsining o'quvchi shaxsini hamkorlikda ishlash orqali o'zaro munosabatlarni yuzaga keltirish, ularning yangi bilimlarni egallash jarayonida kreativlik va tanqidiy tafakkurlarni shakllantiriladi. Shuningdek, ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar ta'lim paradigmalarning o'quv jarayonini va bevosita ta'lim amaliyotini qurishni belgilovchi nazariya ekanligiga to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, 4K kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchi, o'qituvchi, kolaborativlik, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, jamoaviy munosabat.

**Организация учебного процесса
с использованием личностно-
ориентированных образовательных
технологий на основе модели 4К**

Ибрагимова Нилуфар Юлдашовна,
*Национальный центр подготовки
учителей по новым методикам
Республики Каракалпакстан, профессор,
канд.соц.наук*

Аннотация: в данной статье говорит-

ся о сущности 4 К компетенций в организации учебного процесса на основе новых подходов в образовательной системе. Личностно-ориентированные образовательные технологии создают взаимоотношения через взаимодействие личности современного учителя с личностью ученика, в процессе получения новых знаний формируются творческие способности и критическое мышление. Также подчеркивается, что новыми подходами к образовательной системе являются теория, определяющая образовательный процесс образовательных парадигм и построение непосредственной образовательной практики.

Ключевые слова: образовательные технологии, компетентностный подход 4К, ученик, учитель, сотрудничество, коммуникативность, критическое мышление, креативное мышление, интерактивные методы, самостоятельное мышление, коллективное отношение.

**Organizing lesson processes using
personalized educational technologies
based on the 4K model**

Ibragimova Nilufar Yuldashovna,
*National Center for Teacher Training in New
Methods of the Republic of Karakalpakstan,
Professor, Candidate of Social Sciences*

Abstract: *this article will talk about the content of 4K competencies in the organization of the course process on the basis of anew approaches in the educational system. Personality-oriented educational technologies the emergence of interaction of the personality of a modern teacher by working cooperatively on the personality of a student, in the process of acquiring new knowledge of them, creativity and critical*

thinking are formed. Also, new approaches to the educational system will dwell on the fact that educational paradigms are a theory that determines the construction of the educational process and direct educational practice.

Keywords: *educational technologies, 4K competency approach, student, teacher, collaborativity, communicativity, critical thinking, creative thinking, interactive methods, independent thinking, collective attitude.*

O‘zbekiston Respublikasi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyat institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida ta‘lim tizimini isloh qilish ishlarini amalga oshirishni ko‘zda tutgan tizimli vazifalarni belgilab berdi. Mana shu maqsaddan kelib chiqib, bugungi ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirish uchun ta‘lim paradigmalarining o‘rni zarur ahamiyat kasb qiladi.

Zamonaviy ta‘lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta‘sir konsepsiyasiga asoslangan ta‘lim jarayonini tashkil etishda yangi yondashuvlarni joriy etuvchi insonparvarlik paradigmalarini shakllantirish tendensiyasi mavjud. Ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmalarini shakllantirishda innovatsion o‘qituvchilar katta rol o‘ynaydi. Bu borada V.F.Shatalov [1], E.N.Ilyin [2] faoliyati juda ahamiyatlidir.

Olimlar o‘zlarining pedagogik amaliyot modeliga asoslangan “XXI asr ta‘lim konsepsiyasi”ni yarata oldi va turli didaktik tushunchalarni kiritishga harakat qildilar: *muammoli ta‘lim, dasturlashtirilgan ta‘lim,*

ta‘limni optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta‘lim va boshqalar.

Ular yaratgan amaliyotga yo‘naltirilgan tizimlar aniqlik va yaxlitligi bilan ajralib turadi, tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi va o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqilligini ta‘minlaydi. Ularning asosiy usullarining tizimli omili o‘quvchi shaxsining o‘ziga xosligidadir. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning mazmuni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchini individual, mustaqil va ma’suliyatli, o‘z subyekt sifatida, doimiy ravishda tarbiyaviy ta‘sir ostida idrok etishdan iborat bo‘ldi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim metodologiyasida o‘qituvchi va o‘quvchining bevosita individual o‘zaro ta‘siri farqlanadi, uning maqsadi shakl va usullar vositalaridan foydalangan holda materialni o‘zlashtirishga yordam beradi [3].

Bunday o‘qitish metodikasida har qanday o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishi mavjud bo‘lib, u o‘qituvchidan o‘quvchiga yo‘naltirilgan holda shakllanmaydi, aksincha o‘quvchidan o‘qituvchiga yo‘naltirilishga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimida har bir o‘quvchini atrofdagi dunyoda o‘zi bilan bog‘lanishi kerak bo‘lgan muammolarni hal qilishga undash majburiy deb hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim ochiq insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, uning maqsadi – shaxs ongining tuzilmala-

rini (tanlash qobiliyati, qadriyatlar, munosabatlar, o'z-o'zini tartibga solish) shakllantirishdir. Bu maqsad ta'limning barcha tarkibiy qismlarini shaxsning shaxsiy va semantik mohiyatini, uning manfaatlarini, his-tuyg'ularini, istaklarini, faoliyat motivlarini rivojlantirish yo'nalishiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ta'limning dasturiy mazmuni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni sifatida qayta ko'rib chiqiladi va uning o'rniga ta'limning shaxs bo'lish, o'zini, inson qiyofasini topish jarayoni sifatida kengroq ko'rinishi bilan almashtiriladi: ma'naviyat, o'ziga xos individuallik, ijodkorlik. Shunday qilib, hozirgi zamonaviy o'qituvchining ta'lim faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurish zarurati tug'ildi [4].

O'quvchilarga insonparvarlik asosida shaxsiy yondashuv maktab ta'limi tizimida bola shaxsi, uning hali rivojlanmagan qobiliyatlari, "men"ligi ustuvor o'rin tutadi. Umumiy ta'lim tizimining maqsadi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy faoliyatga jalb etish va uni erkin rivojlantirishdan iboratdir.

Pedagogikaning yangicha yondashuvli konsepsiyasi asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'zaro ta'sirni amalga oshirish muammosiga konseptual yondashuvlarning xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishni talab qiladi: ta'lim faoliyati subyektlari ham o'qituvchi, ham o'quvchi; ularning o'zaro ta'siri jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini o'zi anglash va o'quv jarayoni subyektlarining madaniy qadriyatlarini o'rganishga yordam beradigan motivlar, ma'nolar, ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan usullar yaratiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayoni o'quvchilar uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lib, ularning kognitiv qiziqishlari va ehtiyojlariga

barqarorlik beradi, tashqi qo'yilgan maqsadlarni o'qituvchi va uning o'quvchi tomonidan ichki shaxsiy ongli maqsadlarga aylantiradi [5].

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, shaxsga yo'naltirilgan (rivojlantiruvchi) ta'lim texnologiyalari asosida 4K kompetensiyaviy yondashuv orqali darslarni tashkil qilish zamonaviy o'qituvchiga bir qancha o'z ustida ishlashni talab qiladi.

4K kompetentsiya asosida darslarni tashkil qilish bosqichlari quyidagicha:

Darsni tashkil qilishning motivatsion bosqichi;

Dars jarayonida bilimlarni faollastirish bosqichi;

Yangi bilimlarni o'rganish;

Yangi bilimlarni mustahkamlash;

Refleksiya.

Ta'lim tizimiga 4K kompetensiyaviy yondashuv ta'lim sifatini oshirishni maqsad qiladi. Shunday ekan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda dars jarayonida o'zaro birga ishlash, ya'ni jamoaviylik (kolaborativlik), kommunikativlik, o'zaro munosabatlarni shakllantirish, ya'ni fikrlarni erkin bayon qilish, jamoada birga ishlash orqali o'quvchilar yangi bilimlarni egallash uchun kreativlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchi zamonaviy pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak.

Darsni tashkil qilishning motivatsion bosqichi: O'qituvchi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rish bilan birga, darsni tashkil qilishda motivatsiyalarni qo'llay olishi kerak: masalan, bugun havo haroratiga bog'liqlik, yoki yil kunlarining ahamiyati va h. Bunda albatta sinf o'quvchilarining psixo-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Masalan, dars jarayonida o'quvchilarning motivatsion kayfiyatini tashkil qilishning quyidagi rasmdagi ko'rinishga e'tibor qaratish so'raladi.

- Sizni ertalab shirin uyqungizdan turib maktabga darsga kelishingizga nima majbur qiladi?



O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qilish orqali maktabda qaysi fanlarga qiziqishi va maktab ta'limida ijtimoiylashuv jarayonlar bilan bog'liq holatlarda javoblar berishadi.

Dars jarayonida bilimlarni faollashtirish bosqichi: Ko'pchilik o'qituvchilar darslarda bilimlarni faollashtirish uchun o'quvchilarning o'tgan mavzu bo'yicha tayyorgarlik ko'rganligiga ko'proq e'tibor berishadi. Shu orqali o'tilgan mavzuni o'zlashtirish sust natijalar bilan yakun topishi mumkin. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning dars jarayonlariga faol qatnashishini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlar bilan o'z mahoratini ishga solishi kerak.



Buning uchun o'qituvchi darsni har xil didaktik vositalar bilan faollashtirib, o'quvchilarning bor bilimlarini yuzaga chiqarish orqali yangi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Oldingi haftada yoki oldingi darsda o'tilganlarni ko'pchilik o'quvchilar yodidan chiqishi mumkin. Shuning uchun, avvalo, o'qituvchi o'zi oldin o'tgan mavzusiga tayyor bo'lib kirishi kerak darslarga. O'qituvchi bugungi kunda darslarni eng interfaol ko'rinishlaridan biri bo'lgan kichik guruhlarda tashkillashtirsa dars natijaliroq bo'ladi. Agar moddiy texnik bazasi taqchil maktablarda o'qituvchi tarqatma materiallarni nechta guruhda o'tishi va o'zi dars jarayonida foydalanishi mumkinligini e'tiborga olib taqsimlashi joiz. Bunda dars jarayonida illyustratsiyadan slaydlarsiz foydalanish imkonini beradi. Masalan, 6-sinf Texnologiya darsida o'tgan mavzuda **“Dasturxon va uni bezash texnologiyasi”** mavzusida quyidagi rasmlar orqali o'tilsa o'quvchilarning ijtimoiy me'yorlarini o'rganish madaniyati ko'nikmalari hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

– Siz quyidagi rasmda nimalarni ko'rdingiz?

– Dasturxonda servislar qanday joylashgan?

– Keling joylashuv tartibiga diqqatimizni qaratamiz. Dasturxonda pichoq, sanchqi, qoshiqlar bor. Nima uchun qoshiq va pichoq dasturxonda tarelkalarining o'ng qismiga, sanchqi chap qismiga qo'yilgan? Fikringizni guruhdosh jamoangiz bilan o'ylashgan holda bayon qiling.

– Dasturxonda pichoqdan tashqari sanchqi va qoshiqlar katta, kichik shakllarda taxlangan. Katta sanchqi va qoshiqlar nima uchun qo'llaniladi? Kichkina sanchqi va qoshiqlar esa nima uchun qo'llaniladi? Javobingizni guruhdosh jamoangiz bilan o'ylashgan holda bayon qiling.

– Endi e'tiborimizni tarelkalar ustiga qo'yilgan sochiqqa qaratamiz. Sochiqni ishlatish qoidalarini bilamizmi? Nima uchun ko'pchilik holatlarda ayollar sochiqni tizzasiga yoyib qo'yadi? Nima uchun

ko'pchilik holatlarda erkaklar ko'ylagining yoqasiga osib qo'yadi? Fikringizni guruhdosh jamoangiz bilan o'ylashgan holda bayon qiling.

– Nima uchun dasturxonda katta va kichik tarelkalar ustma-ust qo'yilgan? Bu tarelkalarda nimalar yeyish uchun mo'ljallangan?

– To'g'ringizda tarelka ustida pichoq keltirilgan. Ushbu holatga fikringiz qanday?

– Asosiysi ushbu dasturxon kimga atab bezatilgan? Va nima uchun bunday xulosaga keldingiz? Fikringizni guruhdosh jamoangiz bilan o'ylashgan holda bayon qiling.

– Mana, aziz o'quvchilar, oldingi darsda olgan bilimlarimizni yana bir bor mustahkamladik. Navbatdagi yangi mavzumiz ham ovqatlanish meyorlari va iste'mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarimizning ozuqaviy darajasi haqida bo'ladi.



Yangi bilimlarni o'rganish:

Dasturiy ta'limga moslashib ketgan o'qituvchilar yangi bilimlarni berish davomida o'qituvchi mavzu bo'yicha nazariy yoki amaliy bilimlarni tushuntirishga o'tadi. Yangicha yondashuvchi o'qituvchi yangi bilimlarni o'quvchilar bilan hamkorlikda o'rganishga intiladi. Buning uchun o'qituvchi savollarni o'rta tashlash, aqliy hujum usuli, debatlar tashkil qilish, matnlarni illyustrativ rasmlarda aks ettirishi



bilan yangi bilimlarni o'rgatishi mumkin. Amaliy darslarda esa amaliy mashqlarni o'quvchining kreativligini oshirish uchun mustaqil ishlashiga imkon beishi kerak bo'ladi.

– Ovqatlanish deganda nimani tushunamiz va nima uchun ovqatlanamiz?

O'quvchilar ushbu savolga mustaqil individual yoki guruhdoshlari bilan fikrlashgan holda javob berishi ham mumkin.

Ovqatlanish – bu organizm faoliyatini ta'minlash, inson salomatligi va ish faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan ozuqaviy narsalarni o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi.

– Siz kun davomida ovqatlanish rejimiga amal qilasizmi?

...

– Nima uchun?

...

Agar biz kun davomida ovqatlanish rejimiga amal qimasak, o'z immunitetimizni holsiz holatga olib kelaymiz. Natijada har qanday kasalliklarga kurasha olish qobiliyatimiz pasayadi. Nimjon, holsiz uyquchan, bosh aylanish, charchash holatlari kuzatila boshlaydi. Shuning uchun bolalar biz doim ovqatlanish rejimiga amal qilishimiz kerak. Bu esa kasalliklarga chalinganda ularni tez va oson yengish imkonini beradi.

– Siz guruhingiz bilan birgalikda ushbu rasmda keltirilgan inson organizmi uchun foydali va zararli mahsulotlarni aniqlashingiz kerak. Vaqt 2 daqiqa.

– Foydali mahsulotlardan boshlaymiz: non, bodring, sharbat, olma, sabzi, sut mahsulotlari, grechka.

– Zararli mahsulotlar: shirinliklar, har xil gazlangan suvlar, qand, chipslar, shokolad.

– Ushbu mahsulotlarni nima uchun foydali va zararli deb hisobladingiz?

...

Yangi bilimlarni mustahkamlash:

Kollaborativlik tamoyili asosida egallangan bilimlarning ishonchliligini aniqlash uchun ta'lim texnologiyalarining interfaol metodlaridan qo'llashimiz mumkin.

– Endi bolalar darsimiz davomida olgan bilimlarimizni mustahkamlash uchun sizlar bilan **“PMQ”** metodidan foydalanamiz.



Kun davomida yosh o'smirlar, yani sizlar kun davomida 4 mahal ovqatlanish rejimiga amal qilishingiz zarur. Agar kun davomida ovqatlanish rejimiga to'g'ri amal qilsak,

* tonggi ovqatlanish jarayonida organizmimizga 25%,

* tushlikda esa 35-40%,

* tushlikdan keyin 15%,

* kechki ovqatlanishda 20-25% ozuqaviy mahsulotlarni bera olishimiz kerak. Buning uchun sifatli ovqatlanish rejimiga amal qilish zarur.

– Ovqatlanish davomida organizm o'ziga qanday moddalarni olishi mumkin?

– Beloklar, yog'lar, uglevodlar, mineral-lar, vitaminlar

“PMQ” metodi orqali sizlar guruhingiz bilan birgalikda ovqatlanish rejimiga amal qilishning afzal tomonlari va salbiy tomonlarini aniqlash bilan birga guruhingiz bilan o'ylashgan holda qo'shni guruhlaringizga ovqatlanish haqida qiziqarli ma'lumotlar almashishingiz mumkin. Buning uchun ma'lumotni bayon qilishdan oldin savol ishlab chiqishingiz zarur. Savol puxta, lo'n-da, har bir sinfdoshlaringizga tushunarli bo'lishi kerak.

Refleksiya. Refleksiya bu orqaga nazar mazmunini anglatishidan kelib chiqib, har bir o'quvchi olgan baholarini dars jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari asosida o'zini o'zi baholash imkonini yaratib berishimiz kerak.

Ovqatlanish rejimining PMQ metodi

afzalligi	kamchiligi	menda ovqatlanish bo'yicha qiziqarli ma'lumot bor / savol bor

- **Men uchun darsda 3ta narsa qiziqarli bo'ldi.**

- **Men uyda oila a'zolarimga darsda olgan 2ta narsa haqida ma'lumot bera olaman.**

- **Meni dars davomida 1 narsa o'ylantirib qo'ydi.**

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilib, bugunning o'qituvchisi sifatli ta'limga erishish uchun, avvalo, o'zida pedagogik mahoratga ega bo'la olishi kerak. Shuningdek, har qanday ta'lim texnologiyalarini puxta egallashi va ularni kerakli o'rinda samarali qo'llana olishi kerak bo'ladi.

Xulosa: Jahon tajribasida sinalgan 4K modeli asosida darslarni tashkil qilish shaxsga yo'naltirilgan (rivojlantiruvchi)

ta'lim texnologiyalari o'quvchini umumiy ta'lim tizimida to'la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda subyekt sifatida; shaxsning rivojlanishi – ta'lim tizimining maqsadi har bir erkin, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim maqsadining asosi kabi g'oyalarlarni namoyon qiladi.

Shuningdek, individual yondashishning mazmuni o'quv fanini o'quvchiga emas, aksincha o'quvchini o'quv faniga yo'naltiriladi. Individual yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: ma'lumotlarni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko'ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шаталов В.Ф. Педагогическая проза. Из опыта работы школ Донецка. – М.: “Педагогика”, 1980. – С. 94.
2. Ильин Г. От педагогической парадигмы к образовательной // Высшее образование в России. – 2000. – №1. – С. 64-69.
3. Йулдошев Л. Глобализация мира и интерактивные методы учения и обучения // Народное образование (Халқ таълими). 2007. №6. – С. 76-78.
4. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Развития системного мышления и навыков исследовательской деятельности: Учебное пособие. – Т., 2007, – С. 300.
5. Бельдей В.А. Современные парадигмы субъективности: дис. ... канд. филос. наук. – СПб., 1996. – С. 175.
6. Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования // Педагогика. – 1997. – №4. – С. 64-69.

O'QUVCHILARDA KREATIVLIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA DIDAKTIK OMILLARI

Muminova Mavjuda Muxtorovna,
*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti, mustaqil izlanuvchi
e-mail: mykokand736@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik, psixologik va didaktik omillari va ushbu omillar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi, ularni yanada chidamli, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi bo'lishga yordam berishi bo'yicha fikr hamda tavsiyalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, pedagogik, psixologik, didaktik omillar, mustaqillik, o'sish tafakkuri, samaradorlik va ishonch, hissiy intellekt, moslashuvchanlik, divergent fikrlash.

**Педагогические, психолого-
дидактические факторы развития
творческой компетентности учеников**

Муминова Мавжуда Мухторовна,
*Национальный исследовательский институт
профессионального развития и обучения
педагогов новым методикам имени А.Авлони,
независимый исследователь*

Аннотация: в данной статье рассмотрены педагогические, психологические и дидактические факторы развития творческой компетентности учащихся общеобразовательных школ и то, что эти факторы имеют решающее значение в формировании творческих способностей учащихся, делают их более жизнестойки-

ми, гибкими и творческими. мыслители и рекомендации о том, как помочь.

Ключевые слова: творческие способности, педагогические, психологические, дидактические факторы, самостоятельность, мышление роста, эффективность и уверенность, эмоциональный интеллект, адаптивность, дивергентное мышление.

**Pedagogical, psychological and didactic
factors of development of creativity
competence in pupils**

Muminova Mavjuda Muxtorovna,
*National Research of Professional Development
and Teaching New Methodologies to Teachers
named after the A.Avloni,
independent researcher*

Abstract: in this article, the pedagogical, psychological and didactic factors of the development of creativity competence in high school students of general secondary schools are mentioned. It is also shown that these factors are of decisive importance in the formation of students' creative abilities, and that they help them become more resilient, flexible and creative thinkers.

Keywords: creative ability, pedagogical, psychological, didactic factors, independence, growth mindset, effectiveness and confidence, emotional intellect, adaptability, divergent thinking.

U mumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga didaktik, pedagogik va psixologik omillarning uyg'unligi ta'sir ko'rsatadi. Amaliy o'rganish imkoniyatlarini ta'minlash, izlanishni rag'batlantirish va turli manbalarni taklif qilish kabi didaktik omillar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [1]. Pedagogik omillar, jumladan, hamkorlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ochiq vazifalarni o'z ichiga olish o'quvchilarni ijodiy fikrlash jarayonlariga jalb qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda yordam beradi [2]. O'sish fikrlash, qiziquvchanlik, o'z-o'zini samaradorligi, moslashuvchanlik va hissiy intellekt kabi psixologik omillar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va ularni yanada chidamli, moslashuvchan va ijodiy fikrlovchi bo'lishga yordam beradi.



O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan bir qancha pedagogik omillar mavjud [3]. Ba'zi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

1. Mustaqillik va mustaqillikni targ'ib qilish: O'quvchilarga o'z bilimlarini egalash va vazifalarga qanday yondashish bo'yicha tanlov qilish imkoniyatini berish, mustaqil fikrlash, muammolarni mustaqil hal etish, o'z qiziqishlarini o'rganishga

undash ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ochiq va so'rovga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanish: O'quv dasturiga ochiq topshiriqlar, loyihalar va savollar-ni kiritish o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli imkoniyatlarni o'rganishga va innovatsion yechimlar topishga undash orqali ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi.

3. Jarayonni mahsulotga qaratish: O'quvchilarni yakuniy mahsulotga emas, balki yaratish jarayoniga e'tibor berishga undash ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tajriba, takrorlash va takrorlashning muhimligini ta'kidlab o'tish o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, xatolaridan saboq olishga yordam beradi.

4. Divergent fikrlash imkoniyatlarini ta'minlash: Divergent fikrlash muammoga bir nechta g'oyalar, istiqbollar va yechimlarni yaratishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga turli xil fikrlash mashqlari, aqliy hujum mashg'ulotlari va ijodiy muammolar bilan shug'ullanish imkoniyatini berish, ularni chegaradan tashqari fikrlashga va muqobil imkoniyatlarni ko'rib chiqishga undash orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [4].

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan bir qancha psixologik omillar ham mavjud. Ba'zi asosiy psixologik omillar:

1. O'sish tafakkuri: O'sish tafakkuri aql va qobiliyatlarni harakat, amaliyot va xatolardan o'rganish orqali rivojlantirish mumkinligiga ishonishni o'z ichiga oladi. O'sish tafakkuriga ega bo'lgan o'quvchilar ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi, muvaffaqiyatsizliklarga qarshi turishadi va muvaffaqiyatsizlikni o'sish uchun imkoniyat deb bilishadi. Ushbu fikrlash o'quvchilarni tavakkal qilishga, yangi g'oyalarni

o'rganishga va qulaylik zonasidan tashqariga chiqishga undash orqali ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Qiziqish va tajribaga ochiqlik: Qiziquvchanlik ijodkorlikning asosiy jihati hisoblanadi, chunki u odamlarni yangi ma'lumotlarni izlashga, savollar berishga va turli nuqtayi nazarlarni o'rganishga undaydi. O'quvchilarni qiziquvchanlikka va ularning qiziqishlarini o'rganishga undash ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. O'z-o'ziga ishonch va samaradorlik: O'z-o'zini samaradorlik shaxsning muayyan vazifalar yoki qiyinchiliklarda muvaffaqiyatga erishish qobiliyatiga ishonishini anglatadi. Ijobiy mustahkamlash, rag'batlantirish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari orqali o'quvchilarning o'z-o'zini samaradorligi va ishonchini shakllantirish ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Hissiy intellekt: Hissiy intellekt o'z his-tuyg'ularini, shuningdek, boshqalarining his-tuyg'ularini tan olish, tushunish va boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Hissiy intellektni rivojlantirish o'quvchilarning boshqalar bilan yaxshi ishlash, konstruktiv tarzda nizolarni boshqarish va o'z g'oyalarni samarali ifoda etishga yordam berish orqali ularning ijodiy kompetensiyasini qo'llab-quvvatlashi mumkin [5].



Ushbu psixologik omillarni hisobga olgan holda va o'quvchilarning o'sish tafakkurini, qiziquvchanligini, o'z-o'zini samaradorligini, moslashuvchanligini va hissiy intellektini rivojlantiruvchi qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari va ularni innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishlari mumkin [6].

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan bir nechta didaktik omillar mavjud:

1. Qiziqish va izlanishni rag'batlantirish: O'qituvchilar o'quvchilarni savol berishga, yangi g'oyalarni o'rganishga va o'ylashdan tashqari fikrlashga, ularni tajriba va tavakkal qilishga undash ham ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Qo'llab-quvvatlovchi va ochiq fikrli muhitni shakllantirish: O'quvchilarning hukmdan qo'rqmasdan o'z fikr va mulohazalarini erkin ifoda eta oladigan xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish ularning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar ham ochiq fikrli va turli nuqtayi nazar va yondashuvlarni ko'rib chiqishga tayyor bo'lishi kerak.

3. Hamkorlik va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini ta'minlash: hamkorlikdagi faoliyat va guruh loyihalari o'quvchilarga bir-biridan o'rganish, fikr almashish va o'z ishlari bo'yicha fikr-mulohazalarni olishga yordam beradi.

4. Fanlararo va real dunyo aloqalarini kiritish: o'quv dasturiga turli fan sohalarini va real dunyo kontekstlarini integratsiyalash o'quvchilarga o'z o'rganishlarining dolzarbligini ko'rishga va turli tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Bu o'quvchilarni cheksiz fikrlashga

va bilimlarini yangi va innovatsion usullarda qo'llashga undash orqali ijodkorlikni rag'batlantirishi mumkin.

5. Mulohaza yuritish va o'z-o'zini baholashni rag'batlantirish: o'quvchilarni o'z ishlari haqida mulohaza yuritish, kuchli tomonlari va yaxshilash yo'nalishlarini aniqlash hamda o'rganish uchun maqsadlar qo'yishga undash ularning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi [7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarda ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga didaktik, pedagogik va psixologik omillarning uyg'unligi ta'sir ko'rsatadi. Amaliy o'rganish imkoniyatlarini ta'minlash, izla-

nishni rag'batlantirish va turli manbalarni taklif qilish kabi didaktik omillar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim muassasalarida ana shu didaktik, pedagogik va psixologik omillarni bartaraf etish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi qulay muhitni yaratishi mumkin. O'quvchilarga muammolarni qabul qilish, yangi g'oyalarni o'rganish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish ularga innovatsion muammolarni hal qiluvchi va umrbod o'rganuvchi bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – 432 б.
2. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology. – Т.: Fan va Texnologiyalar, 2015. – 336-b.
3. Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013. – С.25-34.
4. Sketchley M. How to teach English to young learners. – LTC Eastbourne, 2017. – 72 p.
5. Джусупов М. Социоллингвистика, лингводидактика, методика (взаимосвязь и взаимообусловленность) // Русский язык за рубежом. – Москва, 2012. – № 1. – С. 22-28.
6. Slentz K.L., Krogh S.L. Teaching Young Children: Contexts for learning. – Mahwah. New Jersey. Lawrence Erlbaum Associates, Inc., 2001. – 388 p.3.
7. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2007. – С. 336.

BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA "TABIY FANLAR" (SCIENCE) INTEGRASIYASINI O'RNI

Amonov Xolmuhammad Normurotovich,
*O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
baxa7682@mail.ru*

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda fanlar integratsiyasining o'rne va ahamiyati hamda mavjud muammo va yechimlar bayon qilingan. Shu bilan birga tabiiy fanlarning rivojlanishi, fanlar o'rtasida differentsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi obyektiv qonuniyat sifatida tabiiy fanlar bo'lgan geografiya, biologiya, kimyo va fizika fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishni amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak geografiya o'qituvchilari, innovatsion pedagogik faoliyat, fanlar integratsiyasi, geografiya, biologiya, kimyo, fizika, "Tabiiy fanlar" (Science) blok-moduli.

Роль интеграции "Естественные науки" (SCIENCE) в повышении готовности будущих учителей географии к инновационной педагогической деятельности

Амонов Холмухаммад Нормуратович,
заведующий отделом контроля качества образования Национального института эстрадного искусства имени

*Ботура Закирова при Государственной консерватории Узбекистана,
доктор педагогических наук (DSc)*

Аннотация: в данной статье описаны роль и значение интеграции дисциплин в совершенствовании подготовки будущих учителей географии к инновационной педагогической деятельности, а также существующие проблемы и пути их решения. При этом в развитии естественных наук, возникновении процессов дифференциации и интеграции между науками, как объективной закономерности, внимание уделяется вопросам междисциплинарной связи географии, биологии, химии и физики, являющихся естественными науками, направленный.

Ключевые слова: будущие учителя географии, инновационная педагогическая деятельность, интеграция наук, география, биология, химия, физика, блок-модуль (Science).

The role of "Natural sciences" (SCIENCE) integration in improving the readiness of future geography teachers for innovative pedagogical activity

Amonov Kholmuhammad Normurotovich,
Head of the Department of Quality Control
of Education at the National Institute of Pop
Art named after Botir Zakirov under the State
Conservatory of Uzbekistan, Doctor
of Pedagogical Sciences (DSc)

Abstract: this article describes the role
and importance of the integration of discipli-
nes in improving the preparation of future ge-
ography teachers for innovative pedagogical
activities, as well as the existing problems

and solutions. At the same time, the develop-
ment of natural sciences, the emergence of
the processes of differentiation and integrati-
on between sciences, as an objective law, at-
tention is paid to the issues of interdisciplinary
connection between geography, biology, che-
mistry and physics, which are natural sciences.
directed.

Keywords: future geography teachers,
innovative pedagogical activity, science integ-
ration, geography, biology, chemistry, physics,
“Science” block-module.

Respublikamizda ta'lim sohasida
bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim-tar-
biya jarayonining samaradorligini oshirish,
kadrlar tarkibini sifat jihatdan yangilash,
yuksak malakali, yetuk va raqobatbar-
dosh pedagog kadrlar tayyorlashni taqozo
etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim
tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish
konseptsiyasida oliy ta'limni tizimli isloh
qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgi-
lash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-
axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlay-
digan yuqori malakali kadrlar tayyorlash
jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga
ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qi-
lish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asos-
langan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot
tarmoqlarini rivojlantirish vazifasi belgilab
qo'yilgan [1].

Jahon ta'lim muassasalarida innovat-
sion texnologiyalarni qo'llash, ta'lim, fan
va ishlab chiqarishning samarali integrat-
siyasini amalga oshirish vositasida pedago-
gik kadrlarni maqsadli tayyorlash model-
lari amaliyotga tatbiq etilmoqda. 2015-yil
Janubiy Koreyada o'tkazilgan butun jahon
forumida ta'limning barqaror taraqqiyo-
tini ta'minlovchi “Ta'lim-2030” Inchxon
deklaratsiyasi asosida o'qitish metodlarini
takomillashtirish, talabalarning kommu-

nikativ madaniyatini akmeologik yonda-
shuvlar asosida rivojlantirish, bo'lajak
o'qituvchilarni tayyorlashning didaktik
modellarini takomillashtirish bo'yicha
tizimli ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizi-
mini joriy etish va rivojlantirish yuzasi-
dan yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi
Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezi-
dentining ta'lim tizimini isloh etish yo'na-
lishidagi uchinchi Renessans haqidagi
ilmiy g'oyalari, Vazirlar Mahkamasining
umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'limni 2030-yil-
gacha rivojlantirish to'g'risidagi Konsep-
siyalari, Qarorlari, Oliy ta'lim vazirligining
buyruq va Nizomlari, mazkur muammoga
oid yetuk mutaxassis olimlar tomonidan
ilgari surilgan nazariyalar va qarashlar-
da bo'lajak mutaxassislarni yetuk, raqo-
batbardosh va kasb-hunar madaniyatiga
ega etib shakllantirishning ilmiy-nazariy
asoslaridan biri fan, texnologiya, ishlab
chiqarish va amaliyot bilan integratsiyasi
ekanligi qayd etilgan.

O'zbekistonning ijtimoiy yo'nalishida
ustuvor soha bo'lgan ta'lim tizimida ham
fan, texnologiya, ishlab chiqarish va ama-
liyot bilan integratsiyasi muhim ahamiyat
kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-
kamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq

ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-son qarorida xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash belgilangan. Mazkur qarorda O'zbekiston ta'lim tizimiga xalqaro baholash dasturlaridan biri The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash nazarda tutilgan.

Tabiiy fanlardan biri bo'lgan geografiyani o'qitishda o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlikni tarkib toptirish uchun mazkur fanlarning integratsiyasini amalga oshirish malakasiga ega bo'lishi lozim. Yuqoridagi fikrlar bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar integratsiyasini amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda qayd etilgan vazifalarni bajarish uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim maktablariga yuklatilgan bo'lib, mazkur ta'lim muassasalarida shaxsni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarur.

Geografiya, biologiya, fizika, matematika va kimyoning yaratuvchanlik roli faqat mahsulot ishlab chiqarish bilangina chek-

lanmasdan, balki mazkur fanlarning nazariyalari jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

Tadqiqot muammosiga doir manbalarining tahlili, tabiiy fanlarning rivojlanishi, fanlar o'rtasida differentsiya va integratsiya jarayonlarining vujudga kelishi obyektiv qonuniyat sifatida tabiiy fanlar bo'lgan geografiya, biologiya, kimyo va fizika fanlari o'rtasida fanlararo bog'lanishni amalga oshirishni talab etmoqda.



V.N.Maksimova [3] o'z tadqiqotlarida zamonaviy maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo bog'lanishni amalga oshirish muammosini didaktik nuqtayi nazardan ishlab chiqqan. Mazkur tadqiqotdan fanlararo bog'lanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqilgan va o'qitish jarayonida fanlararo bog'lanishning turlari, vazifalari, fanlararo bog'lanishni amalga oshirishga muammoli yondashuv mohiyati aniqlangan, fanlararo bog'lanishni amalga oshirish maqsadida o'qitish shakllarini takomillashtirish masalalari o'rin olgan.

Ushbu tadqiqotning ahamiyatga molik tomoni, o'qitishni tashkil etishda majmual (kompleks) darslardan foydalanish metodikasining ishlab chiqilganligi va o'quvchilarni kasbga yo'llashda fanlararo bog'lanish ahamiyatining aniqlanganligi sanaladi.

V.N.Fedorova, D.M.Kiryushkinlar tomonidan chop etilgan “Межпредметные связи” [4] monografiyasida fanlararo bogʻlanish – didaktikaning dolzarb muammosi sifatida koʻrib chiqilgan. Mazkur monografiyada kimyo, biologiya, fizika oʻquv fanlarini oʻqitishda fanlararo bogʻlanishni amalga oshirishning mohiyati, funksiyasi va metodikasi yoritilgan.

Taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquv fanlarini integrallash, yaʼni fanlararo bogʻlanishni amalga oshirish muammosi juda koʻp tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida oʻz aksini topgan.

Jumladan, M.N.Skatkin [5] oʻz tadqiqotlarida vaqtinchalik fanlararo bogʻlanishni uch turga, avval oʻzlashtirilgan bilimlar bilan oʻrganilayotgan bilimlar oʻrtasidagi, oʻrganilayotgan bilimlar bilan kelgusida oʻzlashtiriladigan bilimlar oʻrtasidagi, bir vaqtda oʻzlashtiriladigan bilimlar oʻrtasidagi bogʻlanishga ajratgan.

N.M.Cherkez-Zade [6] oʻz tadqiqotlarida fanlararo bogʻlanishning mantiqiy yoʻnalishi, tabiiy fanlarning oʻquv dasturida boʻlimlar, mavzular oʻzaro mantiqiy bogʻlanishlar asosida tuzilishi, oʻquvchilar ularni oʻzlashtirishda mantiqiy operatsiyalarni bajarishi lozimligini qayd etgan. Mantiqiy bogʻlanishlarga taqqoslash, sabab-oqibat bogʻlanishlari, induksiya, deduksiya, tahlil, sintez, umumlashtirishlar kiritilgan. Mazkur olim tadqiqotining eʼtiborga molik tomoni fanlararo bogʻlanish orqali B.Blum taksonomiyasidagi identiv oʻquv maqsadlar bilan uygʻunlikda ishlab chiqilganligi sanaladi.

Metodist olimlar N.M.Verzilin va V.M.Korsunskaya [7] fanlararo bogʻlanish ikki xil: gorizontal va vertikal boʻlishi mumkinligini koʻrsatgan. Olimlar gorizontal fanlararo bogʻlanish bir sinf, bir chorak, yarim yillikda oʻqitilayotgan fanlar

oʻrtasida, vertikal fanlararo bogʻlanish esa, avvalgi sinflarda oʻzlashtirilgan bilimlardan foydalanish orqali amalga oshirilishini qayd etgan.

Respublika metodist-olimlari tomonidan fanlar oʻrtasidagi fanlararo bogʻlanishni tadqiq etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, B.S.Abdullayeva [8] fanlararo aloqadorlikning metodologik – didaktik asoslarini, J.O.Tolipova [9] pedagogik kadrlarni tayyorlashda fanlar integratsiyasidan foydalanish muammolarini tadqiq etgan.

Keyingi yillarda fanlar oʻrtasidagi fanlararo bogʻlanishni integratsiya atamasi bilan yuritish odat tusiga aylangan.

Integratsiya – lotincha “integratio” soʻzidan olingan boʻlib, toʻliq, yaxlit, bir butun degan maʼnolarni bildiradi. Prof. E.Turdiqulov [10]ning fikricha, integratsiya – tarqoq, boʻlak-boʻlak, ayrim-ayrim holdagi narsalarning butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirishdir. Olim tadqiqotlarida tabiiy fanlarni integratsiyalagan holda oʻqitish muammosi ishlab chiqilgan boʻlib, u olam haqidagi bir butunlikni tashkil etishi nazarda tutilishi, taʼlim integratsiyasi fanlararo bogʻlanishning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beradigan vositasi ekanligi qayd etilgan. Akademik R.H.Joʻrayev [11] tadqiqotlarida taʼlimning eng muhim muammolaridan biri bilimlarni integratsiyalash va tabaqalashtirish masalalari ishlab chiqilgan. Jumladan, olimning fikricha integratsiya – turli bilimlar tizimi oʻrtasida tarkibiy bogʻlanishlarni oʻrnatish, ularni umumlashtirish, oʻquvchilarning tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotda fanlarning integratsiyasi quyidagi tarkibiy qismlarga ajratilgan:

obyektga doir integratsiya – bir obyektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo‘lim yoki kurslarga kiritiladi;

tushunchaga oid integratsiyada – umumiy tushunchalar mazmunni ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi;

nazariyaga oid integratsiyada – fizika, kimyo, biologiyadagi nazariyalar umumiy holatda o‘rganiladi;

metodologik integratsiyada – ilmiy bilishning alohida metodlariga oid integratsiyani amalga oshirish ko‘zda tutiladi;

muammoli integratsiyada – fanlararo muammolar qamrab olinadi va hal etish yo‘llari ishlab chiqiladi;

faoliyatga oid integratsiyada – muammoni hal etish yuzasidan munozara o‘tkazish, kichik guruhlarda ishlash, fanlararo tadbirlar rejasini tuzish, loyihalar tayyorlash kabilar ko‘zda tutiladi;

amaliy integratsiyada ahamiyatga molik bo‘lgan jarayonlar asosida texnik mahsulotlarni yaratish nazarda tutiladi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning tahlili, uzluksiz ta‘lim tizimida bu borada qator kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan:

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish konsepsiyasi mavjud emas;

tabiiy o‘quv fanlarini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish mazmuni, nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilmagan;

o‘qituvchilar tabiiy o‘quv fanlarini o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi nazariy bilimlarga ega bo‘lmaganliklari uchun mazkur jarayonning imkoniyatlarini tasavvur qila olmaydilar.

Respublika uzluksiz ta‘lim tizimiga jahonning rivojlangan mamlakatlarining

ilg‘or pedagogik tajribalarini amaliyotda qo‘llanishi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash uchun zamin yaratdi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 1-6-sinf o‘quv rejasiga integratsiyalashgan fan “Tabiiy fanlar” (Science) blok-moduli kiritildi. Bu holat bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar integratsiyasiga alohida e‘tibor qaratish zaruratini keltirib chiqardi.

Mazmunan “Tabiiy fanlar” (Science) blok-moduli mazmuni o‘z tarkibida o‘quvchilarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlari e‘tiborga olingan holda geografiya, fizika, kimyo biologiya va ekologiya o‘quv fanlari o‘quv materiallari qamrab olingan va spiral yo‘nalishda ularning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlagan. Mazkur blok-modul umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 7-10-sinflarida o‘qitiladigan geografiya darsliklari tarkibiga kiritilgan. Shu sababli bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda ham nazariy modulni o‘qitish, shuningdek, kasbiy-pedagogik, xususan, innovatsion pedagogik faoliyatni tarkib toptirishga zamin tayyorlaydigan “Geografiya o‘qitish metodikasi” va “Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” modullarini o‘qitishda fanlar integratsiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tabiiy fanlar” (Science) va geografiya o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiyani o‘qitishda tabiiy fanlarni integrallashtirish, ya‘ni fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish ta‘lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo‘lib, u quyidagi vazifalarni qamrab olish:

1. O‘quvchilar uchun asosiy bilim man-

bai bo'lgan o'quv materialining ilmiyligi va izchilligi, boshqa tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan tushunchalar, obyektlar, nazariya, faoliyatli va amaliy integratsiyalarning mantiqiy bog'liqligini ta'minlaydi.

2. O'quvchilar tomonidan fan asoslariga tegishli bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi, intellektual salohiyati yuksaladi va aqliy rivojlanish tezlashadi.

3. Xalqaro baholash dasturlaridan biri The Programme for International Student Assessment (PISA) – talablari asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini geografik va geologik savodxonlik negizida shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tabiiy fanlarni integrallash, ya'ni o'qitishda fanlararo bog'lanishni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishni hal etishga imkon yaratdi.

O'qituvchi tomonidan fanlararo bog'lanish muvaffaqiyatli amalga oshirilganda, organik olamning yaxlitligi, materiya va harakat shakllarining birligi aniq misollar bilan dalillanganda o'quvchilar ushbu masalalarning tub mohiyatini anglay oladi.

Geografiyani o'qitishda o'rganilayotgan mavzuning mazmuni va manbaiga ko'ra fanlararo bog'lanishni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

geografiya fani tarmoqlari ichidagi fanlararo bog'lanish;

tabiiy-matematik fanlar bilan fanlararo bog'lanish;

ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan fanlararo bog'lanish.

Tabiiy fanlar bo'lgan geografiya, fizika, kimyo va biologiya fanlarining jadal rivojlanishi, ular o'rtasida integrallashgan


fanlarning vujudga kelishi, uzluksiz ta'lim tizimi turlarida o'qitiladigan o'quv fanlari mazmunini ham integrallashni taqazo etdi.

STEAM ta'limi asosida tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy (kreativ) fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda nafaqat ularning o'zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan fanlarning rivojidagi so'nggi yutuqlar, ularning fan va texnika, xalq xo'jaligi va inson hayotidagi ahamiyatini anglashi, ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zahiralariga monand holda didaktik qayta ishlashi hamda mavzularning mazmuniga kiritish yo'llarini belgilashi lozim.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda fanlar integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari jadval tarzida berilmoqda. (1-rasm).



1-rasm Fanlararo bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlari

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda fanlar integratsiyasi mazmun-mohiyatiga ko'ra tabiiy, aniq, pedagogik-psixologik va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyani amalga oshirishi lozim.

Fanlar integratsiyasi davriyligiga ko'ra avvalgi semestrda o'rganilgan modul bilan, bitta semestrda o'rganilgan va kelgusida o'rganiladigan modul ajratildi.

Fanlar integratsiyasi harakteriga ko'ra gorizontaal va vertikal, sinxron va asinxrona ajratildi.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirishda mantiqiy metodlar induktiv, deduktiv, tahlil, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirishdan foydalanish orqali sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlash nazarda tutildi.

XXI asr ko'nikmalaridan bo'lgan kognitiv, adaptiv, funksional va kreativ ko'nikmalarni o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali mustaqil hayot va kelgusi kasbiy faoliyatda vujudga keladigan muammolarni hal etishga imkon beradigan vitagen (hayotiy) tajribalarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda geografiyadan tashkil etiladigan dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va o'quv sayohatlari mashg'ulotlarida o'quv tadqiqotlari o'tkazishda fundamental fandagi nazariya, qonun, qonuniyatlardan foydalanish, tajribalarni o'tkazishda fanlar integratsiyasini amalga oshirish, ekologik va geografik muammolarni hal etish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini loyihalashtirishga e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim mazmuniga bog'liq holda tabiiy fanlarni o'qitishda obyektga doir integratsiya (bir obyektning masalan, atmosfera, biosfera turli fanlardagi timsollari) tushunchaga oid integratsiya (ekologiya, ekotizim, flora, fauna), nazariyaga oid integratsiya (geologiya, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya) muammoli integratsiyada fanlararo muammolar qamrab olinadi va hal etish yo'llari, faoliyatga oid integratsiya (muammoni hal etish yuzasidan munozara o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash, fanlararo tadbirlar rejasini tuzish, loyihalar tayyorlash) amaliy integratsiya (STEAM ta'limida ahamiyatga molik bo'lgan jarayonlar asosida texnik mahsulotlarni yaratish) kiritilishi nazarda tutildi.

Tadqiqot davomida geografiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar integratsiyasi alohida mazmun va mohiyatga ega ekanligi aniqlandi va bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish zarurati kelib chiqdi. Tadqiqot davomida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar integratsiyasining quyidagi shakllaridan foydalanildi. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda fanlar integratsiyasini amalga oshirishda quyidagi didaktik maqsadlar nazarda tutildi:

o'quv modullari bo'yicha me'yorlangan DTS bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida mutaxassislik, pedagogik-psixologik, xususiy metodika modullari integratsiyasi vositasida talabalarning pedagogik tasavvur va tafakkurini

kengaytirish, kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirish;

talabalarda ilmiy dunyoqarash, tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish, amaliy va vitagen ko'nikmalarni tarkib toptirish.

Integratsiya ko'lamiga ko'ra:

bitta modul miqyosida (kichik modullar, boblar, bo'lim, mavzular)gi integratsiya-asinxron;

bitta semestrda o'rganiladigan modullar miqyosida (modullararo) integratsiya – gorizonttal;

avval o'rganilgan modullar miqyosida (modullararo) integratsiya – vertikal;

keyin o'rganiladigan modullar miqyosida (modullararo) integratsiya – vertikal.

Integratsiya mazmuniga ko'ra:

fundamental (biologiya, ekologiya, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, informatika) fanlar bilan integratsiya – vertikal;

ijtimoiy-gumanitar (falsafa, iqtisod, pedagogika, psixologiya, pedagogik texnologiyalar) fanlar bilan integratsiya – gorizonttal va vertikal;

ta'lim sohasidagi xorijiy ilg'or tajribalar bilan integratsiya – sinxron.

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

Geografiyani o'qitishda biologiya, fizika, kimyo o'quv fanlariga tegishli tushunchalar mavzu mazmuniga bog'liq holda umumlashgan va mantiqiy bog'langan tarzda berilishi o'quvchilarning olamni yaxlit tasavvur qilishi hamda dunyoqarashini kengaytirishga zamin yaratdi.

Tabiatda sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar, fizik-kimyoviy o'zgarishlar, hodisalar, shu jumladan, energiya va modda almashinuvining uzluksizligi, energiya-ning saqlanishi va bir turdan ikkinchi turga aylanishini aniqlashda kimyo va fizika qonuniyatlari asosida tushuntirish didaktik zarurat ekanligi isbotlandi.

Geografiyani o'qitishda fizika, kimyo va biologiya o'quv fanlari o'rtasidagi bog'lanish o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish, ularni kasbga yo'llash imkonini berdi.

Zamonaviy ishlab chiqarish va ilmiy-texnik asoslarini fanlar integratsiyasi asosida yoritilishi ularni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim sharti ekanligi aniqlandi.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, bilim zaxiralarini hisobga olish, tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashga e'tibor qaratish, tabiiy-ilmiy tushunchalarni egallash va ular o'rtasidagi aloqalarni tushunishga yordam berdi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar integratsiyasidan foydalanish talabalarning mustaqil ta'limi va ish salmog'ining ortishiga olib keldi. Shu sababli, tadqiqot davomida mazkur jarayon tizimli va maqsadli o'rganildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi, tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchilar zimmasiga yuklandi va bu muammolarni hal etish bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son).
2. Amonov X.N. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi: Ped.fan.dok....diss.-T., 2023.- 300 b.
3. Максимова В.Н. Межпредметные связи в процессе обучения. – М.: Просвещение, 1988 – С. 192.
4. В.Н. Федорова, Д.М. Кирюшкин. "Межпредметные связи". – Москва: Педагогика, 1972. – С. 152.
5. Скаткин М.Н., Совершенствование процесса обучения. – М.: Педагогика, 1971. – С. 208.
6. Черкес-Заде Н.М. Межпредметные связи как условие совершенствования учебного процесса. – Москва: 1968. – С. 30.
7. Верзилин Н.М., Корсунская В.М. Общая методика преподавания биологии. – 3-е изд. – М.: Просвещение, 1976. – С. 384.
8. Abdullayeva B.S., Fanlararo aloqadorlikning metodologik – didaktik asoslari: ped. fan. dok. diss.... – Toshkent: TDPU, 2006. – 264-b.
9. Tolipova J. Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2006, 280-b.
10. Turdiqulov E.O., Turdiqulov U. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. – T.: Fan, 2005. – 309-b.
11. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс... док.пед.наук. – Тошкент, 1995. – С. 43.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV KADRLARNI TANLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING BA'ZI MASALALARI

Xurramov Sanjar Ravshanovich,

*Toshkent viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi direktori, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor*

Maxsudov Shofozil Raushanbekovich,

*Toshkent viloyati Parkent tumani 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
shofozilmaxsudov@gmail.com*

Annotasiya: ushbu maqola ta'lim tizimida zamonaviy kadrlarni tanlash mexanizmini takomillashtirish yo'llariga bag'ishlangan. Kadrlarni tanlov va saralash jarayonining bosqichlari bilan bog'liqligi, tashqi tanlash zarurati yoki muassasaning maqsadlari va mavjud muammolarga qarab xodimlarni tanlashning ichki manbai, kadrlar siyosati tahlil qilingan. Ishga qabul qilishning eng maqbul usullari va kadrlarni tanlashning samarali usullari haqida takliflar berilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmlari xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan. Ta'lim tizimida ishga qabul qilish va tanlash tartibining bosqichlarini qamrab olishi, kadrlarni tanlashning tashqi yoki ichki manbaini tanlash zarurligini tahlili, muassasa maqsadlari va kadrlar siyosatidagi mavjud muammolar, takliflar berilgan hamda optimal tanlash usullari va kadrlarni tanlashning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tashkiloti, xodimlarni boshqarish, kadrlarni tanlash, kadrlar tanlash mexanizmi, ishga qabul qilish manbalari, kadrlarni jalb qilish usullari, kadrlar siyosati.

**Некоторые вопросы совершенствования
механизма подбора управленческого
персонала в современной системе
образования**

Хуррамов Санжар Равшанович,
директор Национального центра
по обучению педагогов новым методикам
Ташкентской области, доктор
экономических наук (PhD), профессор

Максудов Шофозил Раушанбекович,
Ташкентская область Паркентский район
Заместитель директора по
духовно-просветительской работе
13-й общеобразовательной школы

Аннотация: в данной статье рассматриваются пути совершенствования современного механизма подбора персонала в системе образования, рассматриваются вопросы, связанные с этапами процесса подбора и отбора персонала, необходимостью внешнего отбора или внутреннего источника подбора персонала в зависимости от целей учреждения и имеющихся проблем, анализируется кадровая политика, даются предложения о оптимальных методах подбора персонала и эффективных методах подбора персонала. Он также посвящен выявлению особенностей подбора и механизмов управленческого персонала в современной системе образования. Освещаются этапы процедуры подбора и отбора персонала в системе образова-

ния, анализ необходимости выбора внешнего или внутреннего источника подбора персонала, текущие проблемы в целях и кадровой политике учреждения, даны предложения, а также оптимальные методы подбора и эффективные методы подбора персонала.

Ключевые слова: образовательное учреждение, управление персоналом, подбор персонала, механизм подбора персонала, источники подбора персонала, методы подбора персонала, кадровая политика.

Some issues of improving the mechanism of selection of managerial personnel in the modern education system

Khurramov Sanjar Ravshanovich,
Director of the Andijan Regional National Center
for Teacher Training in New Methods,
Doctor of Economics (PhD), Professor
Maksudov Shofozil Raushanbekovich,
Tashkent region Parkent district, Deputy
Director for Spiritual and Educational Work
The 13th comprehensive school

Abstract: this article discusses ways to improve the modern recruitment mechanism in the education system, discusses issues related to the stages of the recruitment and selection process, the need for external selection or an internal source of recruitment, depending on the goals of the institution and existing problems, analyzes personnel policy, makes suggestions on optimal methods of recruitment and effective methods of recruitment. It is also devoted to identifying the features of the selection and mechanisms of managerial personnel in the modern education system. The stages of the recruitment and selection procedure in the education system are highlighted, the analysis of the need to choose an external or internal source of recruitment, current problems in the goals and personnel policy of the institution, suggestions are given, as well as optimal selection methods and effective recruitment methods.

Keywords: educational organization, personnel management, personnel selection, personnel selection mechanism, recruitment sources, personnel recruitment methods, personnel policy.

Kadrlar xarakteristikasidagi yetakchi Komillarni o'rganish uchun kadrlar tanlash va tayinlashda asrlar davomida to'plangan va hayotda amaliy tajribadan o'tgan, milliy dunyoqarash va boshqaruvga muvofiq keladigan xarakter-xususiyatlar, tanlov uslublari, shart-sharoitlari, qonuniyatlari va yo'nalishlarini o'rganish, sara-lash, umumlashtirish va bugungi hayotga muvofiqlashtirish talab etiladi. Shuning-dek, rahbar kadrlar tanlash va tayyorlash tajribasi milliy, tarixiy, tarixiy-evolyutsion, tarixiy tajriba nuqtayi nazaridan hali juda kam o'rganilgan soha. Uni tadqiq etish rahbar kadrlar tanlash masalalarida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ayni damda aytish kerakki, o'tgan davrlardan yurtimiz hududlarida rahbar kadrlarni tayinlashning o'ziga xos tamoyillari shakllangan bo'lib, asrlar davomida u takomillashib borganligini ko'rishimiz

mumkin. Rahbar kadrlarni tayinlash va baholash tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarni inobatga olish zarur: "Avesto"da keltirilishicha davlat va mahalliy mansabdorlarni tayinlash va saylashda din peshvolarining o'rni yuqori bo'lgan. Nomzodlar esa o'z navbatida davlat va jamiyatni boshqarish tartiboti, jinoyatni jazolash, yaxshilikka mukofot berish kabi qoidalarni yoddan bilishi kerak bo'lgan. Umuman olganda, bugungi kunda ham rahbar bo'lish istagini bildirgan nomzodlardan, eng avvalo, o'z sohasining huquqiy bilimlarini bilish talab qilinadi. Xuddi shunday nomzod rahbar bo'lib tayinlangandan so'ng, tashkilotning rivojlanishi uchun xodimlar motivatsiyasini oshirish uchun harakat qilishi va agarda xodimlar tashkilot ichki tartib qoidalarini buzadigan bo'lsa, adolatli intizomiy jazo bera olishi ham kerak.

Zamonaviy bozor sharoitida kadrlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish birinchi o'ringa chiqadi va bu muhim ahamiyatga ega, chunki har qanday tashkilot nafaqat raqobat muhitida muvaffaqiyatli ishlashga intiladi, balki yetakchi o'rinni egallashni istaydi, bu esa mehnat resurslarisiz vujudga kela olmaydi. Zamonaviy menejmentda shaxs – tashkilot xodimi, tashkilot xodimi-tashkilotning asosiy subyekti tuzilmalar hisoblanadi. Odamlarga e'tibor berish butun boshqaruv tizimiga insonparvarlik ma'nosini beradi, shaxs (xodim) tashkilotning qayta tiklanmaydigan resursi sifatida qoraladi. Zamonaviy ta'lim muassasalari amaliyotida zamonaviy innovation salohiyatli kadrlarni topish va tanlash usullari va usullaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Ta'lim tizimining kadrlar siyosatidagi muammolar, kadrlar almashinuvi va umumiy ish sifatining pasayishiga olib keladi. Xodimlarni boshqarish masalalari, boshqaruv kadrlarini tanlash va saralash masalalari juda muhim masaladir.

Xodimlarni boshqarish va boshqaruv kadrlarini tanlash zamonaviy ta'lim oldidagi dolzarb masaladir. Chunki bu inson resurslari salohiyati, muassasaning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun asos hisoblanadi.

Ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tanlash xususiyatlarini aniqlash va zamonaviy ta'lim muassasasi boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha talab va takliflarni ishlab chiqish, boshqaruv kadrlarini tanlash xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi, eng istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlash, oldindan ilmiy bashorat qilish va nomzodlarning professional muvaffaqiyati – bu boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun asos bo'ladi.

Har bir nomzodni bir qancha kuzatuv-

chilar baholaydi va tanlaydi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, baholash rejasiz tuzilayotganda quyidagi holat inobatga olinishi lozim. Ya'ni, tanlanayotgan kadr har bir mashqni bajarishi davomida nomzodni baholash va tanlash imkoniyatlari tengliga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tanlashga oid masalalar xorijlik olimlardan M.Meckon, T.Caati, I.Karishin, T.Shklyar, M.Devanna, C.Fombrun, N.Tichey, G.Vebb, L.Faey Laym, R.Rendell, V.Popov, O.Vixanskiy, A.Naumov, Yu.Rucanova, T.Bazarov, K.Krechetnikov, Z.Rumyanseva, N.Colomantina, A.Raduginlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan.

Mahalliy olimlardan: C.Gulyamov, A.Shermuxamedov, Q.Abduraxmonov, D.Suyunov, D.Raximova, M.Saidov, F.Ravshanov, S.Usmonov, N.Komilov, X.Djuraev, S.Turg'unov, Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.Ahliddinov, U.Inoyatov, X.Axmadvjayev, K.Mirdadayev, O.Kozokov, O.Safarovlar tomonidan ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmi bevosita va bilvosita tadqiq qilingan.

Nomzodni baholayotganda va tanlayotganda, avvalo, ma'lumotnomada keltirilgan mehnat faoliyatini tizimli tahlil qilib chiqish darkor. Uning mehnat faoliyati va lavozimda o'sish darajasining bog'liqligi tahlil qilib chiqiladi. R.F.Ravshanovning fikricha, rahbarlikka tanlanayotgan va baholanayotgan nomzod haqida yuqoridagi hujjatlar ahamiyatga molik natija bera olmaydi. Ularning ayrimlarigina rahbarning o'zi kelajakda bajarishi kerak bo'lgan lavozim bilan bog'lanishi mumkin, ayni vaqtda bo'lajak rahbarning sohani boshqarish, tashkilot faoliyatini rivojlanisiga qobiliyatining bor yoki yo'qligini yoritib berolmaydi. Demak, rahbarlikning asl mohiyati ochilmay qoladi. T.Bazarovning fikriga ko'ra, baholashning hamma usullari

ham nomzod haqida kerakli ma'lumotlarni bera olmaydi.

Bugungi kunda, rahbarlikka nomzod tanlash va uning malakasini aniqlashning bir qancha turlari shakllangan bo'lib, ulardan biri sifatida u yoki bu lavozimga yuqori darajadagi rahbarlar tomonidan nomzodni tavsiya etish usuli hisoblanadi.

O'zidan quyi darajadagi rahbarlik lavozimiga kadr tanlayotgan rahbar, avvalo, tanlanayotgan shaxsdagi xususiyatlarga o'z maqsadidan kelib chiqib yondashadi. Asosiy hollarda u shaxs xarakteriga singgan tarzda yuzaga chiqib, uning amaliy ish jarayonida ham sezilib turadi. Tanlovchi rahbardagi maqsad-manfaat ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: xususiy **maqsad-manfaatlar**, tashkilot yoki **xodimlar maqsad-manfaati**.

Rahbar degani kuzatuvchi yoki ishxo-nasidagi kresloda o'tirib buyruq beruvchi emas, balki barcha ishlarga bosh qosh bo'ladigan, mas'uliyat va javobgarlikni o'ziga oladigan, og'ir paytda boshqalarga namuna ko'rsata oladigan, tashkilotchi kerak bo'lsa, odamlarni o'z ortidan ergashta olishi, sog'lom, kuch-qudratli va irodasi baquv-vat inson bo'lishi shart. Boshqarish uchun rahbardan katta bilim va tajriba, tashkilotchilik salohiyati, eng muhimi, ko'p millatli bu sohada odamlar bilan til topishib ishlay olish talab qilinadi, lekin rahbar nomzodning lavozimga mos yoki mos emasligini aniqlashda zarur xususiyatlarning hammasini tekshirish imkoniga ega emas. Shu sababdan, nomzodga xos xislatlar haqida ma'lumot, odatda, u bilan birga ishlaydiganlar yoki nomzodni yaxshi biladiganlar, bevosita bo'ysunuvchi o'rta bo'g'in rahbarlari o'rganiladi, ulardan tavsifnoma, tavsiyanoma olinadi. Hozirgi an'analarga ko'ra, rahbar tomonidan so'ralgan shaxs haqida faqat ijobiy tomonlar va ba'zi arzimas kamchiliklargina ko'rsatiladi. Bu esa hozir-

gi vaqtda amalda qo'llanilayotgan asosiy uslubdir. Buning oqibatida nomzod shaxs haqida obyektiv ma'lumotlar yetib kelmaydi va rahbar ko'proq nomzod to'g'risidagi o'z kuzatishlariga tayanishiga to'g'ri keladi. Nomzodga xos, rahbar tomonidan kuzatilgan xarakterli xususiyatlar esa hamma vaqt ham haqiqiy bo'lib chiqavermaydi.

Buni quyidagi 1-jadvaldan tahlil qilsa ham bo'ladi:

1.	Assessment markazi	70-80%
2.	Kasbga oid testlar	60%
3.	Umumiy qobiliyatlarni aniqlash testlari	50-60%
4.	Biografik testlar	40%
5.	Shaxs testlari	40%
6.	Intervyu (suhbat)	30%
7.	Tavsiyalar	20%

1-jadval. Nomzodlarning rahbarlik kompetentsiyalarining baholash usullari

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, nomzodlarni baholashda eng yuqori assessment markazi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, aynan shu uslub orqali nomzodni 80% lavozimga mos kelishini aniqlash mumkin ekan. Testda esa 60% natija bilan nomzod haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Maktab ta'limi tizimida bugungi kunda rahbarlarni lavozimga tayinlashda eng ko'p qo'llaniladigan suhbat uslubi esa nomzod haqida deyarli 30% ma'lumot berish imkoniyati bor, xolos.

Ishga qabul qilish va saralash faoliyatini tashkil etish ta'limning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ta'lim tizimining asosiy missiyasi va maqsadlariga erishish uchun boshqaruv kadrlarini to'g'ri tanlash muhim rol o'ynaganligi sababli xodimlarni boshqarish tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Bunda boshqaruv kadrlari-

ni va ishchi kuchini shakllantirish lozim bo'ladi.

Boshqaruv kadrlarini aniqlash va tanlash jarayoni talablarni solishtirishdan iborat. Ish beruvchi va nomzodning bilim va ko'nikmalari ish beruvchi kafolat beradigan joyni ta'minlaganligi sababli ma'lum moliyaviy mukofot, nomzod aniq javob berishi kerak talablar hisobga olinadi. Nomzodlarni tanlash bosqichida ta'lim tizimi tomonidan amalga oshiriladigan mavjud jarayon quyidagilardan iborat:

- bir nechta nomzodlar orasidan mavjud bo'lganlar uchun eng mos bo'lgan bir yoki bir nechta nomzodlarni tanlash;

- bo'sh ish o'rinlari uchun mezonlarni aniq ishlab chiqish. Shuni esda tutish kerakki, boshqaruv uchun kadrlar qobiliyatlarining mavjudligini aniqlash yoki rivojlantirish;

- arizachi uning manfaatlarini, erkin raqobatni, ochiqlik siyosatini ta'minlashi va hisobga olishi;

- ishga qabul qilish, bo'sh ish o'rinlarini to'ldirish jarayonidagi birinchi qadam bo'lib, bu tadqiqotni o'z ichiga oladi;

- bo'sh lavozimning xususiyatlarini tegishli nomzodlarni jalb qilish shartlarini hisobga olgan holda belgilash;

- talabgor va nomzodlar bilan bog'la-

nish va ulardan to'ldirilgan ishga ariza shaklini olish;

- kadrlarni tanlashni samarali yo'li bu ehtiyojlarni qondirish uchun oldindan kadrlar zaxirasini yaratish, zaxira kadrlarni tashkil etish;

- bo'sh lavozimni to'ldirish uchun taklif va talabga mos nomzodni topish;

- bo'sh lavozimga munosib nomzod topish turli usullar bilan amalga oshiriladi, to'g'ri qaror qabul qiladigan boshqaruv kadrlarini tanlashda asosan bir yoki bir nechta nomzodlarni tanlash, saralash;

- kadrlarni tanlashning maqsadi talablarni qondirish uchun nomzodning kasbiy va shaxsiy muvofiqligini baholashdir;

- iqtisodiy, huquqiy va axloqiy jihatdan asoslangan vositalar va usullardan kelib chiqib, bo'sh lavozim, kerakli testlar, suhbatlar, menejerlik sertifikatlar yordamida imkon qadar tezroq amalga oshiriladi;

Boshqaruv kadrlarini munosib tanlash va saralash mexanizmi, funksiyasi ta'lim tizimidagi ma'sul rahbarlar tomonidan vijdonan, adolatli tarzda amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Boshqaruv kadrlarini ishga qabul qilish va tanlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

Boshqaruv kadrlarini ishga qabul qilish va tanlash jarayoni bosqichlari

T/r	Boshqaruv kadrlarini ishga qabul qilish va tanlash jarayoni bosqichlar nomi	Boshqaruv kadrlarini ishga qabul qilish va tanlash jarayoni bosqichlarda amalga oshiriladigan ishlar
1.	1-bosqich. Maqsadni aniqlash	Ta'lim tizimidagi tashkilotning boshqaruv kadrlarini tanlash bilan bog'liq bosh maqsadni aniqlash
2.	2-bosqich. Boshqaruv kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash	Menejment tomonidan amalga oshirilayotgan strategiyani va asosiyni hisobga olgan holda xodimlarga, boshqaruv kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash
3.	3-bosqich. Talablarni aniqlash	Bo'sh lavozimga qo'yiladigan talablarni aniqlash

4.	4-bosqich. Malaka talablarini belgilash	Ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan malaka talablarini belgilash
5.	5-bosqich. Kasbiy kompetensiyalarni bilish	Kasbiy kompetensiyalarning mazmunini bilish
6.	6-bosqich. Manbalarni aniqlash	Kerakli kadrlarni tanlash uchun zarur bo'lgan manbalarni aniqlash
7.	7-bosqich. Tanlash usullarini aniqlash	Nomzodlarning bo'sh lavozimga muvofiqligini baholashga imkon beruvchi xodimlarni tanlash usullarini aniqlash
8.	8-bosqich. Nomzodlarni tanlash	Mos va kerakli nomzodlarni tanlash
9.	9-bosqich. Testdan o'tkazish	Nomzodlarni bo'sh lavozimlarga muvofiqligini aniqlash uchun testdan o'tkazish
10.	10-bosqich. Kasbiy yaroqliligi va salohiyatini aniqlash	Nomzodning aniq vazifalarni bajarish uchun kasbiy yaroqliligi va salohiyatini aniqlash
11.	11-bosqich. Ishga qabul qilish	Ishga qabul qilish va tanlash tartibining yakuniy bosqichini amalga oshirish
12.	12-bosqich. Yaxshi sharoit bilan ta'minlash	Yangi xodimlarni tashkilotda ishlashga moslashtirish uchun yaxshi sharoitlarni ta'minlash
13.	13-bosqich. Foydali ish koeffitsientga erishish	Foydali ish koeffitsientiga erish va ishlash ko'rsatkichlarining kerakli darajasiga imkon qadar tezroq erishish

Nomzodga qo'yiladigan talablar ro'yxati esa quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

- ta'lim tizimi tomonidan qo'yiladigan talablar;
- ta'lim, mutaxassislik va malaka talablari;
- boshqaruv lavozimida ish tajribasi;
- taklif etilayotgan ishning o'ziga xos xususiyatlari;
- ish joyiga qo'yiladigan maxsus talablar;
- xizmat safarlari, ishning sayohat xarakteri, tungi ish vaqti, tartibsiz ish vaqti;
- maxsus sog'liqni saqlash talablari (agar kerak bo'lsa);
- nomzodning orzu-istaklar, umidlarini qondirish (tashkilot kutilganlarni qay darajada qondirishi mumkin);
- nomzod kompensatsiya paketining hajmi, kasbiy rivojlanish va mansab o'sishi (ishning barqarorligi va ish jadvali nuqtayi nazaridan);

- zamonaviy ta'lim tashkilotida menejerga bu jarayonda ishga qabul qilish manbalarini tanlash, tashqi yoki ichki, asosan ta'lim tizimi maqsadlari bilan belgilanishi muhim rol o'ynaydi;

Xodimlarni tanlashda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar va tartiblarni bilish va qobiliyat, fikrlash, ta'lim tashkilotida bashorat va strategik kabi muhim boshqaruv ko'nikmalari rejalashtirish menejering kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismidir.

Menejer uchun kadrlarni tanlash manbalarini bajarish bo'yicha boshqaruv qarorini qabul qilishda ta'lim tashkiloti ijobiy va salbiy holatlarni hisobga olishi kerak. Boshqaruv kadrlarini tanlash boshqaruvning ham tashkiliy, ham iqtisodiy tarkibiy qismlariga taalluqlidir.

Ichki manbalardan foydalanish – bunda bo'sh boshqaruv lavozimga xodimni tanlash usuli quyidagi 2 ta komponentga bog'liq:

1. Tashkiliy komponent: kuchli boshqaruv kadrlarini saqlash, martaba o'sishi uchun imkoniyat yaratish, rahbar xodimlarni maqsadli rivojlantirish. Shu bilan birga, hozirgi kadrlar holatini nazorat qilish darajasi;

2. Iqtisodiy komponent: xodimlarni jalb qilishning past xarajatlari, bunda rivojlangan ish haqi darajasini saqlab qolish va tashkilotlar, mehnat unumdorligini oshirish. Biroq, tashkilot rahbari kuchlanishning yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olishi kerak yoki bo'sh lavozimga bir nechta da'vogarlar bo'lsa, jamoadagi raqobat masalalarini hal qilishda tanish bilishi paydo bo'lishi mumkin.

Tashqi manbalardan davlat bandlik markazlari (mehnat birjalari), qayta tayyorlash markazlari, yoshlar bandligiga ko'maklashish markazlari, institut va universitetlarda, xususi ishga qabul qilish agentliklari, mehnat yarmarkalari, ommaviy axborot vo-

sitalari, internet, tashkilot mijozlari, tavsiyalar asosida nomzodlarni tanlash, saralash, ishga qabul qilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kadrlarni tanlashning tashqi manbalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimi madaniyatiga ta'siri;
- tanlovning keng doirasi, tashkilot rivojlanishi uchun yangi impulslarning paydo bo'lishi;
- xodimlar almashinuvining ko'payishi, tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik iqlimning yomonlashishi;
- tashkilot xodimlari uchun martaba o'sishi imkoniyatlarini blokirovka qilish.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan tashqi manbalardan foydalanishning kamchiliklari ko'proq xodimlarni jalb qilishning yuqori xarajatlari bilan bog'liq.

Boshqaruv kadrlarini tanlash va jalb qilish usullari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Boshqaruv kadrlarni tanlash, jalb qilish usullari va amalga oshiriladigan ishlar

T/r	Boshqaruv kadrlarini jalb qilish usullari	Boshqaruv kadrlarni jalb qilish uchun amalga oshiriladigan ishlar
1.	Ommaviy axborot vositalari orqali tashqi reklamani joylashtirish	Treningda bevosita ishga qabul qilish muassasalar, raqobatchilar, hukumat bandlik xizmati, ommaviy axborot vositalari, internet va elektron tizim, mehnat birjalari orqali amalga oshiriladi
2.	Tashkilot taqdimotlarini tashkil etish	Treninglar, uchrashuvlar, seminarlar orqali amalga oshadi
3.	Ta'lim tizimidagi tashkilot haqida maqolalar orqali va u yerda ishlashning afzalliklari, bevosita reklama va e'lonlar orqali berib borish	Rasmiy ma'lumotlar, mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali, bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarida ishtirok etish, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda kerakli kadrlarni jalb qilish uchun kasblar tanlovlarini o'tkazish
4.	Yuqori malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, konferensiyalar o'tkazish va kasblar festivallariga taklif etish	Sohaga taalluqli boshqa tashkilotlar va muassasalari bilan ijtimoiy tadbirlar, uchrashuvlar, konferensiyalar o'tkazish va kasblar festivallarini o'tkazish
5.	Murojaat va takliflarni qabul qiluvchi yagona elektron tizimini joriy qilish	Sohaga oid muammo va kamchiliklarni barataf etish uchun murojaat va takliflarni qabul qiluvchi yagona elektron tizimini joriy qilish

Pedagog kadrlarni tanlash ko'pincha ish haqining yetarli emasligi bilan murakkablashganligi sababli, mehnat sharoitlari, mehnat bozorida malakali va g'ayratli kadrlar yetishmasligi, boshqaruv rahbarlari lavozimi uchun ish haqqini oshirish kerak deb o'ylaymiz.

Kadrlarni tanlashning optimal usullari quyidagilardan iborat:

1. To'g'ridan-to'g'ri maqsadli qidiruv (eksklyuziv qidiruv) – boshqaruv blokini qidirish va tanlash bunda sifatli mutaxassislar va har qanday sharoitlarda ishlaydigan yuqori malakali vatanparvar xodimlar bo'sh lavozimlarni birlashtirish.

2. Ishga qabul qilish - bunda tayyor kadrlarni "almashtirish" uchun to'g'ridan-to'g'ri boshqa tashkilotdan malakali mutaxassis olib kelinadi.

3. Talabalar va yosh mutaxassislarni jalb qilish (oldindan o'tkazish) – tanlash va ishga qabul qilish yosh mutaxassislar (talabalar, bitiruvchilar) uchun amaliy mashg'ulotlar va amaliyot o'tash orqali o'rta kasb-hunar ta'lim tizimi va oliy o'quv yurtlari bilan bo'sh ish o'rinlari uchun hamkorlik qilish.

Zamonaviy ta'lim tashkilotida kadrlar muammolari paydo bo'lishining asosiy sababi pedagog kadrlar tarbiyasida psixologik omillar e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun, boshqaruv kadrlarini tanlash bosqichi eng muhimi, chunki bu to'g'ri amalga oshirilgan taqdirdagina tartib-qoidalar nafaqat muassasani zarur mehnat resurslari bilan, balki ko'p jihatdan ham tashkilotning ijtimoiy-psixologik iqlimini shakllantirishga hissa qo'shishi va ta'minlashi mumkin. Ijtimoiy-psixologik iqlimini shakllantirishga jamoada shakllanadigan halollik, oshkorlik, ishonch darajasi, faoliyat darajasi bo'yicha xodimlar, ularning maqsadlarga erishishdagi hissasi, qadriyatlarga rioya qi-

lish, natijalar uchun javobgarlik tadbirlar ta'sir qiladi va kadrlarni shakllantiradi.

Zamonaviy usullar orqali ya'ni, internet texnologiyalarini qo'llash, so'rovnomalar o'tkazish, nomzodlardan test olish, tanlov jarayonidagi talabgorlarning psixologik diagnostikasi, shaxsiy fazilatlar, aql-zakovati, salomatligi, xulq-atvori haqida tasavvurga ega bo'lish uchun suhbatlar, nomzodning qiziqishlari, mas'uliyat hissi, muloqot qobiliyatlari, ish beruvchiga munosib nomzodni tanlash imkonini beradi.

Xodimlarni tanlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri yakuniy bosqich uchun eng muhimi pirovard natijada mavjud nomzodlar orasidan eng yaxshi xodimni tanlashdir:

1. Bo'sh lavozimni egallash uchun tanlov tamoyillarini shakllantirish.

2. Kelajakdagi xodimga qo'yiladigan talablar ro'yxatini ishlab chiqish va tahlil asosida amalga oshiriladi, ish tavsiflari, shaxsiy xususiyatlar ham hisobga olinishi kerak.

3. Eng munosib nomzodlarni aniqlashga qaratilgan tanlov jarayonini o'tkazish.

4. Komissiya va ekspertlar tomonidan tanlov natijalarini muhokama qilish va yakuniy qarorga kelish.

Zamonaviy ta'lim muassasasida kadrlarni tanlash usullari, bizning fikrimizcha, muassasaning o'ziga xos xususiyatlarini (pedagogik profilini), xizmatlar ko'rsatishning murakkabligi va texnologik samaradorligini hisobga olish hamda jarayon shaffof va ishonchli bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Ta'limda eng samarali tanlash usullari sifatida psixologik anketalar, suhbatlar, testlar, sinov topshiriqlari (mashqlar)ni ko'rsatish mumkin. Zamonaviy ta'lim muassasasining xodimlarini tanlash uchun anketalardan foydalanish kerak bo'ladi.

Anketalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- oldindan tayyorlangan maxsus javoblarni o'z ichiga olgan umumiy va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan;

- nomzodning ma'lum fazilatlarini bilvosita baholashga yordam beradigan savollardan tuzilgan.

Birinchi turdagi anketalarga kelsak, unda ular shaxsiy ma'lumotlarni (ism, manzil, oilaviy ahvoli, yashash sharoitlari, yoshi, ta'lim, martaba, sog'liq, manfaatlar, kafillarning nomlari haqida ma'lumotlar berilishini ta'minlash kerak.

Anketalar ikkinchi tur menejerga ishga joylashish motivlari haqidagi quyidagi ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi:

- sifatlarni aniqlashga boshqaruv kadrlining psixologik xususiyatlarini aniqlash unda (odamlarni o'ziga e'tibor qarata oladigan, atrof-muhitga e'tibor qaratgan, aralashgan turlari) xususiyatlarini aniqlash;

- vazifani bajarishga yondashuv va munosabat (mustaqil, ehtiyotkor, vijdonli, sidqidildan bajarish);


- layoqatini ko'rsata bilish va hamkasblar bilan o'zaro munosabatda bo'lish tendentsiyasi (samimiy, ishbilarmon, analitik, do'stona);

- tashkilotdagi ishga munosabat (ijrochi, rahbar, neytral).

Savol berish orqali ta'lim muassasasi-ning samarali faoliyati uchun shart-sharoitlarni aniqlash imkonini beradi va uning natijalarini talqin qilish, kadrlarning xatti-harakatlarini muvaffaqiyatli modellash-tirishga yordam beradi va har bir xodim o'zaro aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish va jamoa bo'lish samarali ishlash imkonini beradi.

Suhbatni o'tkazishning ko'plab usullari mavjud. Ammo umumiy qilib olganda har

Suhbat quyidagi to'rt qismdan iborat bo'ladi:



- xodimning menejerga bo'ysunish tendentsiyasi (mustaqil, neytral, qaram)-ligini;

- ishning afzalliklari (maqsadga yo'naltirilgan, vazifaga yo'naltirilgan);

qanday tanlov jarayoni suhbatdan boshlanadi.

Suhbat kadrlarni tanlash usuli sifatida nafaqat darajani aniqlash imkonini beradi, balki arizachining kasbiy malakasi, sa-

marali muloqot qobiliyatlari, ko'nikmalari, individual va guruhli aks ettirish, hissiyotlar, shaxsiyat va munosabat jihatlari kabi sohalarni bilish imkonini beradi.

Murojaatchilarni ish sharoitidan tashqarida menejer baholaydi hamda boshqaruv kadri bo'lishi mumkin shaxsning qaysi xususiyatlari kuchliroq ekanligini va bu o'zaro ta'sir va samaradorlikka qanday ta'sir qilishini aniqlash vazifalarini bajarishdan iborat.

Biroq, tanlov suhbatini o'tkazishda, idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak va muloqotda quyidagi xatolarga yo'l qo'ymaslik kerak:

- "proyeksiya" – baholanayotgan shaxsga o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini bog'lash;

- "echo" – nomzodning har qanday faoliyat sohasidagi muvaffaqiyatini boshqa mutaxassisga o'tkazish va u hali ish tajribasiga ega bo'lmagan sohani o'rgana olishini aniqlash;

- "atributsiya" – boshqa shaxs qayd etgan xususiyatlarni nomzodga bog'lash;

- "aksincha" – nomzodlar suhbatdoshning fazilatlarini uni avvalgilari bilan taqqoslash asosida aniqlash;

- "bir qarashda" – birinchi taassurot har doim to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilishlik.



Agar bo'sh lavozimga tanlangan nomzod suhbat davomida olingan ma'lumotlar to'liq portret yaratish uchun yetarli bo'lmasa, keyin tanlov testlari qo'llaniladi. Sinov olish imkonini beradigan nisbatan aql-idrok, shaxsiy fazilatlar, qobiliyat va bilim darajasining kuchliroq va ishonchli dalillarini intervyu berishi mumkin. Bu yerda alohida psixologik testlar qo'llaniladi. Kasbiy malaka bo'yicha aqliy qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlar, kasbiy yaroqlilik va amaliy sinovlar, testlar olinadi.

Haqiqiy faoliyatni tadqiq qiluvchi jarayonlarda nomzodlarni baholash tashkiliy jihatdan murakkab va ancha qimmat usul hisoblanadi.

Yakuniy xulosa nomzodning o'zi haqida ma'lum qilgani asosida emas, balki uning harakatlari samaradorligi asosida beriladi. Shuningdek quyidalarga amal qilish lozim:

1. Ta'lim tizimida rahbar kadrlarni lavozimga tayinlashda nomzod haqida dastlabki ma'lumotlar olish bilan bog'liq "ekspertlar bahosi" usuli nomzod haqida haqqoniy ma'lumotlar olish va ularni tahlil qilish uchun sharoit yaratadi.

2. Ta'lim tizimida salohiyatli nomzodlarni baholashda uch bosqichli: korrelyatsion tahlil, sinovdan o'tkazish, suhbat kabi uslublar umumlashtirilib, salohiyatli nomzodlarni aniqlash dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkin, rahbar kadrlarni lavozimga tayinlash va baholashda ijobiy natijalarga erishishda kamchiliklarni bartaraf etish va xolisona yondashishni kuzatish mumkin. Ya'ni rahbarlarni lavozimga tayinlashda nomzod bilan bo'ladigan suhbat jarayonida subyektiv yondashuv saqlanib qolmasligi, jumladan, suhbat komissiya a'zolari uchun yagona mezon ishlab chiqilishiga qaratilgan.

4. Nomzodlar bilan bo'ladigan suhbat jarayonida savollar mazmuni, soni va bu jarayon qancha vaqt davom etishi kerakligi aniq yoritilishi lozim. Shuning uchun ham rahbar kadrlarni lavozimga tayinlash va baholashda xorijiy tajribalarni inobatga olish va ularni bugungi kunda qo'llash muhim hisoblanadi.

- Real ish sharoitlariga imkon qadar natija ko'rsata olish.

- Har qanday sharoitda ham vaziyatni oldindan baholashni amalga oshira olish.

- Qobiliyatni aks ettiruvchi turli mashqlar yoki topshiriqlarni (guruh va individual) bajara olish.

- Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish, audito-

riya bilan ishlash va o'ziga jalb qila olish.

- nomzodning shaxsiy fazilatlarini, jumladan, o'z fikrini ifodalash va asoslash qobiliyati, psixologik munosabatni tahlil qilish imkonini berish.

Ta'lim muassasasi xodimlarini ishga olish va tanlashning zamonaviy tartiblari-ga rioya qilish kadrlar almashinuvini oldini olishga imkon beradi, tashkilotning ijobiy imijini shakllantiradi, unga asos yarata-di, samarali ishlashi va rivojlanishiga olib keladi. Optimal tanlangan kadrlar rivojlanishiga hissa qo'shadigan tashkilotning innovatsion salohiyati, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, poydevor yaratish bizning jamiyatining iqtisodiy va ma'naviy farovonligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ravshanov F.R. O'zbekiston Respublikasida rahbar kadrlar tanlash asoslari. Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: 2009. 251-b.
2. Xurramov S.R. Ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmini takomillashtirish. Avtoreferat – T.: 2023-yil. 13-b.
3. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000. – 272-b.
4. Sagdullayev A., Malonov O. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: Akademiya, 2006. – 37-56-b.
5. Каришина И.Е. Подбор кадров-важная задача современной государственной службы. // Журнал. Наука и современность. Выпуск №27. 2014.
6. Maxmudov I. Boshqaruv professionalizmi. Psixologik tahlil. – T.: 2011. – 19-b.
7. Xojiyev E.T., Ismailova G.S., Raximova M.A. Davlat xizmati. O'quv qo'lanma. – T.: 2015. 112-b.
8. Jamoat etiketi yoxud uddaburonlar imiji. – T.: 2011. "Yangi asr avlodi". 75-b.
9. Беляева Ж.А. Оценка персонала в системе менеджмента организации. Экономика труда и управление персоналом. Энгельсский технологический институт (филиал) ГОУ ВПО "СГТУ", г. Энгельс.
10. Э.Ф. Зеер, Ю.Л. Русанова. Психологические исследования. Психологическая оценка персонала: теория и практика. Образование и наука. 2005 № 3 (33). 106-б.
11. Парабеллум А., Меркулов А., Мрочковский Н. Кузница кадров. Как создать очередь желающих работать у вас. – Москва. 2014. – С. 73.
12. Шкляр Т.Л. Анализ профориентации персонала при проведении собеседования. // Журнал. Экономика и современный менеджмент: теория и практика. № 40/2014.
12. Базаров Т.Ю. Управление персоналом. – М.: 2006. – С. 173.

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ASOSIY JIHLTLARI

Ilmurodova Feruza Shakirovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
feruzailmurodova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarining uslubiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan konseptual g'oyalari tasvirlangan. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda umumiy uslubiy va xususiy uslubiy bilimlarning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy sharoitda tarixni o'qitish metodologiyasini o'rganish amaliyotga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lib, tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: uslubiy kompetensiya, uslubiy madaniyat, umumiy va uslubiy bilim, xususiy uslubiy va kasbiy faoliyat, o'quv moduli.

Основные аспекты профессиональной подготовки будущих учителей истории

*Ильмуродова Феруза Шакировна,
Чирчикский государственный
педагогический университет*

Аннотация: в статье описаны концептуальные идеи, направленные на формирование методической компетентности будущих учителей истории. Подчеркивается значение общеметодических и специальных методических знаний в подготовке будущих учителей истории к профессиональной деятельности. Констатируется, что изучение методики преподавания

истории в современных условиях носит практико-ориентированный характер и является важной составляющей профессиональной подготовки учителя истории.

Ключевые слова: методическая компетентность, методическая культура, общие и методические знания, конкретная методическая и профессиональная деятельность, образовательный модуль.

Main aspects of professional training of future history teachers

Ilmurodova Feruza Shakirovna,
Chirchik State Pedagogical University

Abstract: the article describes conceptual ideas aimed at developing the methodological competence of future history teachers. The importance of general methodological and specific methodological knowledge in preparing future history teachers for professional activities is emphasized. It is stated that the study of methods of teaching history in modern conditions is practice-oriented in nature and is an important component of the professional training of a history teacher.

Keywords: methodological competence, methodological culture, general and methodological knowledge, specific methodological and professional activities, educational module.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi bu o'qituvchiga qo'yiladigan talablarning oshishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatlardagi tub o'zgarishlar sharoitida mutaxassis sifatida uning mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorgarlik sifati tushuniladi. Zamonaviy fanda "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi quyidagilar bilan bog'liq kasb-hunar ta'limi va bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini aks ettiradigan mustaqil kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar:

- tezlashtirilgan kasb-hunar ta'limi tizimi talabalar tomonidan ma'lum bir narsani bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va bilim, malakalarni egallash jarayoni tushuniladi. Kasbiy tayyorgarlik tizimini tashkil etuvchi elementlarning o'zaro bog'liqligi pedagogika universiteti talabalarini integratsiyaga asoslangan o'qituvchini tayyorlashdir. Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tuzilishini belgilaydi va bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi maqsadini hisobga olgan holda zamonaviy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim tizimi, asosiy yo'nalishi shakllanishiga qaratilgan. Tarix ta'limi, o'rta maktabda

tarixni o'qitish masalalari bugungi kunda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga zamonaviy talablarni qo'yadi [1]. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilganligi pedagogik hamjamiyat oldiga uning kasbiy tayyorgarligining maqsadlari, mazmuni va tashkil etilishini qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ydi.



Tadqiqotchilar bo'lajak o'qituvchining kompetensiya modeli tarkibida fan, ijtimoiy, psixologik, pedagogik va uslubiy kompetensiyani ajratib ko'rsatishadi. Uslubiy kompetensiyani shakllantirish "tarix o'qitish metodikas" o'quv fanini o'rganish jarayonida talabalarni kasbiy tayyorgarligining maqsadi va natijasi sifatida ko'rib



chiqilishi kerak. Pedagogika universitetlari bitiruvchilarining uslubiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi tarix o'qituvchisining malaka xususiyatlariga qo'yiladigan yangi talablar sharoitida dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda [2]. U nafaqat yaxshi o'qituvchi bo'lishi, balki turli xil ilmiy va pedagogik yondashuvlarga amal qilishi kerak. Jumladan, tayyor uslubiy materiallardan foydalanish, balki yangilarini ham yaratishi, darsliklar, ishlanmalar va tavsiyalar, elektron o'quv vositalarini yarata olishi lozim. Bu o'qituvchining uslubiy kompetensiyasi unga ongli ravishda loyihalashtirishga imkon beradi va o'qitishning samarali uslubiy tizimini ishlab chiqishda ko'makchi bo'lib xizmat qiladi [3].

N.A.Morozova va boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ilmiy va uslubiy yordam ta'lim tizimini pedagogika fani va amaliyotining zamonaviy talablariga javob beradigan uslubiy, didaktik va uslubiy ishlanmalar bilan qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi, bu talabalarning ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishga bevosita ta'sir qiladi. M.K.Gorbatov va M.A.Nazimova talabalarning amaliy ishlarining ulushini oshirish, mustaqillikni ta'minlash talabalarga kelajakdagi kasbining amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonida ko'makchi bo'lishini bayon etadilar. Tarix o'qituvchilarini tayyorlashda bu muammo kelajakka yo'naltirilgan faol o'qitish usullarini joriy etish orqali hal qilinadi. Ye.E.Vyazemskiy va O.Y.Strelova, M.M.Korotkova, D.V.Kuzin, A.T.Stepanishchev, M.T.Studenikin, V.V.Shogan ushbu mavzuni chuqur va mazmunli o'rganishdi: ular diqqatlarini uslubiy jihatlariga qaratdilar. O'qituvchilarning tarix darsiga tayyorgarligi, tayyorgarlik jarayonining pedagogik tarkibiy qismiga ehtiyoj borligini ta'kidlab, ulardan foydalanish muhimligini ko'rsatdi

va tarix darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanishni afzalligini yoqladilar. Zamonaviy dars o'qituvchidan diqqatini jamlashni, barcha bilim salohiyatini safarbar qilishni talab qiladi. U.N.Gushchina, S.N.Kovalenko, Ye.V.Kruglova, O.S.Kuchurina, Yu.P.Lobova, I.I.Morozova, Ye.I.Sadriyeva, N.V.Chekanova, M.Yu.Yaroslavseva tarix darslari, pedagogik tajriba tayyorlash, ularning uslubiy ishlanmalar bilan baham ko'rish, yangi o'quv va uslubiy vositalar, tarix va ijtimoiy fanlar darslarida texnik o'qitish vositalaridan foydalanishni usullarini tadqiq etishdi [4]. A.A.Vagin, P.V.Gora, N.G.Dairi, I.Ya.Lerner uslubiy kompetensiya kasbiy vazifalarni samarali hal qilishga tayyorligi va qobiliyatini belgilashini aytib o'tishdi. O'qituvchining uslubiy kompetensiyasi bilan biz uslubiy vazifalarni samarali va sifatli hal qilishni ta'minlaydigan o'qituvchining bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini tushunamiz. Uslubiy kompetensiya – bu tizimli ta'lim. Uning tarkibiy qismlari uslubiy savodxonlik, uslubiy fikrlash va uslubiy ijodkorlikdir. V.A.Adolfning so'zlariga ko'ra, “vakolatli o'qituvchini o'qitish metodikasini yaxshi biladigan va bundan tashqari, uning turli uslubiy tizimlarga munosabatini aniq belgilaydigan va metodikada o'ziga xos faoliyat uslubiga ega bo'lgan kishi deb atash kerak” [5].

Uslubiy kompetensiyaning asosini umumiy uslubiy va xususiy metodologiyaga bo'lish mumkin bo'lgan uslubiy bilimlar tashkil etadi.

Birinchi bo'lim guruhiga quyidagi elementlar kiradi:

- o'qitish metodikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi.

- Tarixni o'rganish;

- metodologiya fani va amaliyotining dolzarb muammolarini bilish;

- tarix o'qitishning zamonaviy metodikasining asosiy g'oya va tamoyillarini bilish;

- fan va o'quv intizomi sifatida tarixning umumiy xususiyatlari;

- maktabda tarix o'qitishning zamonaviy yondoshuvlari;

- zamonaviy tarix ta'limini tartibga soluvchi davlat me'yoriy hujjatlari;

- maktabda tarixni o'rganishning maqsad va vazifalari;

- maktab tarixi kursining tuzilishi va mazmuni;

- tarixni o'rganish usullari, texnikasi, o'qitish vositalari, shuningdek usullari;

- ta'limni tashkil etish va nazorat qilish shakllari.

Xususiylar uslubiy bilimlarga quyidagi guruhlar kiradi:

- umumiy va o'quv (sinfdan tashqari) sinflarda tarixni o'qitishni loyihalash bilan bog'liq bilimlar;

- uslubiy o'quv tizimni yaratish bilan bog'liq bilimlar;

- o'z uslubiy mahsulotlarini yaratish bilan bog'liq bilimlar: ish dasturi, tematik reja, o'quv-uslubiy majmua, uslubiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy materiallar (shu jumladan, elektron).

Umumiy uslubiy va xususiylar uslubiy bilimlar bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiylar tayyorlash tizimida "tarix o'qitish metodikasi" mualliflik o'quv kursining mazmunini aniqlaydi. Shu bilan birga, o'quv va kasbiylar vazifalarni hal qilishda ilmiylar va uslubiy bilimlardan foydalanish kelajakdagi tarix o'qituvchilarining uslubiy savodxonligi haqida gapirishga imkon beradi. Ushbu qoida talabalarining uslubiy kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan murakkab ko'nikmalar tizimini aniqlashga imkon berdi. O'qituvchining uslubiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi-bu o'qitishning samarali usullari va vositalari-

ni doimiy ravishda izlash va tanlash, shuningdek, paydo bo'layotgan o'qitishning uslubiy tizimini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradigan uslubiy fikrlashni shakllantirish darajasi. Har qanday uslubiy bilim va ko'nikmalarni qo'llash samaradorligi o'qituvchining sinfdagi o'quvchilarning individual xususiyatlari, o'quv jarayonining moddiy-texnik va o'quv-uslubiy imkoniyatlari bilan belgilanadigan ma'lum bir pedagogik vaziyatga singdirish qobiliyatiga bog'liq. O'qituvchining harakatchanligi va moslashuvchanligi uning uslubiy tafakkurining shakllanishi va rivojlanish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Tarix o'qituvchisining uslubiy tafakkurini ilmiylar-uslubiy bilimlar va aniq pedagogik vaziyatlarga muvofiq tarixiy ta'lim maqsadlarini amalga oshirishning samarali usullarini tushunishga va izlashga qaratilgan fikrlashdir. Uslubiy fikrlashni ko'p darajali hodisa sifatida tushunish kerak, chunki u o'ziga xos munosabat, bilim, kasbiylar va shaxsiylar fazilatlar va o'qituvchilarning munosabatlarini aks ettiradi. Uslubiy tafakkurning shakllanish darajasi uning kasbiylar harakatchanligini oshiradi, uslubiy kompetensiyaning rivojlanish dinamikasini ta'minlaydi. Talabalarining fanni o'qitish metodologiyasini o'rganish jarayonida uslubiy tafakkurini shakllantirish quyidagi asosiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida tipik va o'ziga xos o'quv-uslubiy vazifalarni hal qilishda izchil tayyorgarlikni o'z ichiga oladi: analitik, semantik, modellash-tirish, loyihalash, konstruktiv. Seminarlarda va mustaqil amaliylar jarayonida talabalarining o'quv faoliyatini tashkil etish vazifalar tizimi orqali amalga oshiriladi:

- tarix bo'yicha o'quv materiallarini tahlil qilish va tanlash, uning axloqiy va mafkuraviylar g'oyalarni shakllantirish bilan bog'liqligini aniqlash;

- o'qitish usullari, texnikasi va vositalarini tanlash;

- faoliyatning uslubiy mahsulotlarini tahlil qilish;

- muayyan o'quv-uslubiy vaziyatlarda o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi pedagogik o'zaro munosabatlarni loyihalash va boshqalar. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi ishi samaradorligining yaxlit ko'rsatkichi uning faoliyati va ijodiy mustaqilligining yuqori shakli sifatida tushunilgan uslubiy madaniyat bo'lishi mumkin, bu yangi uslubiy g'oyalar paydo bo'lishi va ularni amalga oshirish yo'llari uchun zarur shartdir [6]. Bo'lajak tarix o'qituvchisi ma'lum bilimlarga ega bo'lishi va uning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar ko'p madaniyatli makon, shuningdek, unga imkon beradigan ko'nikmalar shaxsiy qarorlar va umumiy maqsadga erishish uchun jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Zamonaviy tarix o'qituvchisini tayyorlash yuqoridagi talablarga javob berishi kerak va ma'lum bir kasbiy madaniyatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda tarixni o'qitishda ijobiy tendensiyalar paydo bo'ldi:

- kundalik tarixga e'tibor qaratildi, madaniyat tarixi, tarixda shaxsning o'rni; mualliflik o'quv dasturlari, darsliklar, muqobil darsliklar paydo bo'ldi. Biroq, an'anaviy ko'plab kamchiliklar hali ham saqlanib qolmoqda: milliy siyosiy hukmronlik tarixi, faktik materiallar bilan darsliklarning haddan tashqari yuklanishi voqealar va iqtisodiy tarix, dunyo va mahalliy tarix o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yetarli emas hikoyalar, faktlarni yodlashga yo'naltirish talabalarining tanqidiy fikrlashi va boshqalar. Bu tizimni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Texnologik komponent o'qituvchining harakatlari ketma-ketligiga, unga turli xil uslubiy vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi-

gan chora-tadbirlar majmuiga asoslanadi. O'qituvchining uslubiy madaniyati uning kasbiy faoliyatining subyektiv tomoni sifatida, umumiy uslubiy bilimlarni, o'z faoliyatida umumlashtirilgan uslubiy tajribani sindirish qobiliyati sifatida ishlaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, uslubiy madaniyat ijodkorlikning maksimal namoyon bo'lishi bilan shakllanadi. Shuning uchun shaxsiy va ijodiy komponent o'qituvchining ijodiy o'zini o'zi anglash o'lchovini aks ettiradi. Uslubiy ijodkorlik o'z ishining yuqori natijalariga intilish, yangi narsalarga doimiy qiziqishga asoslangan. O'qituvchidan qat'iyatlilik, ijodiy tashabbuskorlik, individual yorqinlik, mustaqillik va mas'uliyat kabi fazilatlarini namoyish etish talab etiladi. Uslubiy savodxonlik, uslubiy fikrlash va uslubiy ijodkorlikni birlashtirgan o'qituvchi nafaqat o'quv-uslubiy, balki ilmiy-uslubiy faoliyatni ham muvaffaqiyatli amalga oshirishi, yangi innovatsion uslubiy mahsulotlarni yaratishi mumkin, bu kompleksda butun o'quv jarayoni sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir qiladi. Tarix fakulteti talabalarining uslubiy tafakkuri va ijodining asosiy asoslarini shakllantirish fanni o'qitish metodologiyasini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Bu uslubiy mahsulotlarni yaratish bo'yicha mustaqil amaliy ishlarni tashkil etish orqali:

- tarix fanidan o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv materiallari, darslar va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tahlil qilish;

- mantiqiy va tarkibiy tahlil va ta'lim mazmunini tanlash;

- tarix fanidan o'quv-uslubiy kompleks, tematik rejalashtirish, darslar va darsdan tashqari tadbirlarni ishlab chiqish;

- multimedia taqdimotlarini yaratish, interfaol doska uchun topshiriqlar;

- aniq uslubiy vazifalarni hal qilish uchun tarix darslarining tarixiy obrazlar va tasvirlarni shakllantirish, sabab-oqi-

bat munosabatlarini shakllantirish; tarixiy tushunchalarni shakllantirish, kartografik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va boshqalar. Tarix fakulteti talabasining uslubiy tayyorgarligining asosiy maqsadi, qiymati va natijasi sifatida uslubiy kompetensiya tushunchasi va mohiyatini aniqlash mualliflik modulli kursini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. "Tarixni o'qitish metodikasi" fanining mualliflik o'quv dasturi modulli yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim mazmunini o'zlashtirish belgilangan maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan yirik mustaqil modullarga bo'lishni o'z ichiga oladi:

- Tarixni fan sifatida o'qitish metodikasi.

- Tarixni o'qitishning maqsadlarini belgilash.

- Tarix o'qitish metodikasi. O'qitish usullarini tanlash.

- Tarix o'qitishning tashkiliy shakllari.

Barcha modullar mantiqiy munosabatlarda birgalikda qurilgan. Modullarni izchil o'rganish kelajakdagi tarix o'qituvchisining uslubiy kompetensiyasining boshlang'ich darajasini shakllantirishni ta'minlaydi, chunki zamonaviy malaka talablariga muvofiq kasbiy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati va tayyorligi bo'lishi lozim [6]. Tarix darsiga tayyorgarlikning har bir bosqichi bir qator funksiyalarni bajaradi.

Gnostik funktsiya dars tayyorlashning quyidagi bosqichlarini amalga oshirishni ta'minlaydi:

- 1) o'quv materialining mazmunini tushunish;

- 2) bo'limni va mavzuni, umuman kursni o'rganish maqsadlariga muvofiq didaktik maqsadni shakllantirish;

- 3) dars turini aniqlash;

- 4) darsning tuzilishini aniqlash;

- 5) o'quv materialini tanlash [7].

Talabalar bilimni baholash mezonlari qanday?

- 1) obyektivlik, baholash talabalarning bilim, ko'nikma va o'qishga bo'lgan munosabatiga mos kelganda;

- 2) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda har tomonlama baholash, tarixiy mazmun, tasvir va emotsionallik, nutq madaniyatini chuqur, ilmiy va mazmunli ochib berish;

- 3) baholashda shaffoflik va ravshanlik, uning haqiqiyliги talabaga yetkazilganda, muvaffaqiyat uchun axloqiy ohang saqlanib qoladi, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi [8].

Shunday qilib, quyidagi xulosalarni chiqaramiz:

1. Dars doimiy takomillashtirish va modernizatsiya qilishni talab qiladi. Pedagogika, psixologiya va ilg'or tajribalar sohasidagi yangi yutuqlarni hisobga olgan holda darsga ijodiy yondashishgina o'qitishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun yuqori sifatli dars berish hatto tajribali o'qituvchi uchun ham oson ish emas.

2. Tarix darsi tarixiy va ijtimoiy fanlar ta'limi mazmunining bir qismi bo'lib, u maktab tizimida muammoli-xronologik prinsipga muvofiq ma'lum o'rinni egallaydi.

3. Yuqori sifatli dars o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi birgalikdagi faol ish va yaqin ijodiy o'zaro ta'sir bilan tavsiflanadi, buning asosida uch tomonlama maqsadga erishish mumkin.

4. Darsning mazmuni tarixiy va psixologik-pedagogik fanning zamonaviy talablariga javob berishi kerak. Tarix darsi mantiqiy ravishda aniq qurilishi kerak va materialning taqdimoti majoziy hissiy bo'lishi kerak, ishonchli umumlashmalar va xulosalar bilan ajralib turishi kerak. Darsning har bir bosqichi o'z vaqtini majburiy ko'rsatgan holda rejalashtirilgan. Har

qanday turdagi dars uning metodologiya-sining o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi.

5. Har bir dars o'z tuzilishiga ega. An'anaga ko'ra, kombinatsiyalangan dars o'qitishda, ayniqsa, o'rta sinflarda ustunlik qiladi. Darsni rivojlantirish shartlaridan shakllarning xilma-xilligi o'quvchilarning tarixga fan sifatida qiziqishini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish shartlaridan

biridir. Darsning asosiy xususiyatlari yuqori ilmiy, nazariy va uslubiy darajalar, o'qituvchining yetakchi roli va o'quvchilarning faol o'quv faoliyatining uyg'unligidadir. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda tarixni o'qitish metodologiyasini o'rganish amaliyotga yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lib, tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулгалимов Г.Л. Модель готовности современного учителя к профессиональной деятельности // Стандарты и мониторинг в образовании. 2009. № 5. – С. 44-47.
3. Белявский И. В., Павлов Л. С. Методика преподавания истории в школе: Пособие для учителей и студентов. – М.: Гуманит. Изд. центр “Поматур”, 2001.
3. Сорокина И.В. Компетентностная модель будущего учителя истории / Актуальные вопросы регионального образования. Саратов: ГАОУ ДПО “СарИПКиПРО”, 2012. № 7. – С. 102-108.
4. Морозова Н.А. Компетентност и проблемы её формирования в системе непрерывного образования современного учителя. Красноярск: Изд-во (школа-вуз-послевузовское образование) //Материалы Красноярского гос. университета, 1998. – С. 309.
5. Адольф В.А. Профессиональная компетентность. – Челябинск: Изд-во “Образование”, 2007. – С. 190-196.
6. Карпова К. А. Интегрированные уроки истории//Преподавание истории в школе. – 2004. – №5.
7. Степанищев А. Т. Методика преподавания и изучения истории: Учебное пособие для студ. Высш. учеб. заведений: в 2 ч. – М.: Гуманит. изд. центр “Владос”, 2002. – ч. 1.
8. Н.В. На пути к профессиональному совершенству. – М., 1990.
9. Илмуродова Ф.Ш. Requirements of the modern teacher “ПЕДАГОГ” международный исследование. 24 Апрель 26, 2022.p-63-6711.
10. Илмуродова Ф. The foundation of the era of awakening in Central Asia: alchemy, succession, and historicism //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 213-216.
11. Шокировна И. Ф. Trends in the Formation and Development of Professional Competences of a Future History Teacher //World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 27-31.
12. Shokirova I.F. Zamonaviy o'qituvchi davr talabi //“PEDAGOGS” jurnali. – T.: 2022.– №. 3. – S. 68-72.
13. Shokirova I. F. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies. – 2023.
14. Sadullayeva Mahfuza Husenovna. (2022). THE SIGNIFICANCE OF MNEMONIC TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF SPECIALIZED SCIENCES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 270-277.
15. Sa'dullayeva, M.X. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.021>
16. Sa'dullayeva Mahfuza Husenovna Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O'zbekiston tarixi” kafedrası o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 189-195.

DAVLAT XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

(Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari misolida)

Muxamedov Sherzod Nurmuxamedovich,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i,
shnmuxamedov@gmail.com
Najmiddinov Ulug'bek Abdurashid o'g'li,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bosh mutaxassisi,
ulugbek919919@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi rahbar va xodimlar faoliyati samaradorligini oshirish, faoliyati natijalarini baholash hamda kadrlarning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari zarurati va baholash mezonlar to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi organlari, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi, rahbar kadrlar, samaradorlik, baholash, Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK), funksional vazifalar, maqsadli ko'rsatkichlar.

Правовая основа оценки эффективности государственных служащих
(В случае работников системы дошкольного и школьного образования)

Мухамедов Шерзод Нурмухамедович,
Начальник управления Министерство
дошкольного и школьного образования
Республики Узбекистан,

Нажмиддинов Улугбек Абдурашид угли,
Главный специалист Министерство
дошкольного и школьного образования
Республики Узбекистан

Аннотация: в данной статье рассматриваются необходимость и критерии оценки повышения эффективности руководителей и работников систем дошкольного и школьного образования, оценки результатов их деятельности, а также важнейшие показатели эффективности работы персонала.

Ключевые слова: органы государственного управления, система дошкольного и школьного образования, руководящий персонал, лидерство, эффективность, оценка, ключевые показатели эффективности (КПЭ), функциональные задачи, целевые индикаторы.

Legal basis of evaluating the efficiency of public servants
(In the case of preschool and school education system employees)

Mukhamedov Sherzod Nurmukhamedovich,
Head of the Department of the Ministry
of Preschool and School Education
of the Republic of Uzbekistan
Najmiddinov Ulugbek Abdurashid ugli,
Chief Specialist of the Ministry of
Preschool and School Education
of the Republic of Uzbekistan.

Abstract: this article discusses the need and evaluation criteria for improving the effectiveness of leaders and employees in preschool and school education systems, evaluating the results of their activities, and the most important performance indicators of personnel.

Keywords: state administration bodies, pre-school and school education system, management personnel, efficiency, evaluation, Key Performance Indicators (KPI), functional tasks, target indicators.

So'nggi besh yilda respublikamizda davlat boshqaruv organlari va xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, ularning vazifalari, vakolatlari va javobgarlik sohalarini aniq belgilash bo'yicha keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda, tarmoqlar va hududlarda ishlarining haqqoniy holatini chuqur hamda har tomonlama tanqidiy o'rganish davlat boshqaruv organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari zimmasiga yuklangan funksional vazifalarni lozim darajada hamda mas'uliyat bilan bajarish borasidagi shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq bir qator jiddiy kamchiliklar va tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning amaliy yechimi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 22-yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida quyidagilarni alohida ta'kidlagan:

“Amaliy natijadorlik va xalq manfaatlarini ro'yobga chiqarish har bir Hukumat a'zosi faoliyatini baholashning asosiy mezonlari bo'lishi shart.

Bosh vazir va Hukumat a'zolaridan boshlab ijro hokimiyati organlarining barcha darajadagi rahbar va xodimlari faoliyatiga natijadorlik mezonlari (KRI) asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tizimni xalqaro reyting va indeks ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Binobarin, ulardagi baholash mezonlarining barchasi xalqimizning mushkulini oson etishga xizmat qiladi.” [1]

Ushbu sohada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish hamda davlat xizmatchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK) asosida

baholash tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi “Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida” PQ-5189-sonli qarori [2] tasdiqlandi.

Mazkur qaror asosida mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida “Yangi O'zbekiston”ni barpo etish uchun amalga oshirilayotgan shiddatli va keng ko'lamli islohotlar jarayonida ustuvor, strategik va dolzarb vazifalarni tezkor hal qilishda davlat boshqaruv organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari va ularning o'rinbosarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari orqali baholashning yangi tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi “Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida” PQ-5189-son qaroriga muvofiq [2] davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyatini baholash tizimi joriy etilgan (1-rasm).

Ushbu qaror bilan rahbarlar o'rinbosarlarining faoliyati ko'rsatkichlari ijrosi ustidan monitoringni amalga oshirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy tizimli va ustuvor masalalar aniq belgilangan.

Agar xalqaro tajribani ko'radigan bo'lsak, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkilotiga a'zo 31 ta davlatda davlat xizmatchilari samaradorligini baholash tizimi joriy etilganligini inobatga olinsa,

ushbu tizim rivojlangan davlatlarda davlat xizmatchilarining faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishning asosiy mezon sifatida qabul qilinganini ko'rish mumkin.

Xususan, o'tgan asrning 90-yillariga kelib Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada va AQSH kabi rivojlangan davlatlarda yuqori va o'rta bo'g'in davlat xizmatchilarini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga erishishiga ko'ra moddiy rag'batlantirish joriy etila boshlagan bo'lsa, 2004-yildan Yevropa Ittifoqining barcha davlatlarida mazkur tizim yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Koreya boshqaruv tizimida 2 xil baholash usuli: o'z-o'zini baholash va maxsus baholash amaliyoti joriy qilingan. O'z-o'zini baholashni bevosita har bir vazirlikning o'zi tomonidan baholab boriladigan bo'lsa, maxsus baholash davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Shu o'rinda, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini zarurati, mazmun-mohiyati va uni shakllantirish to'g'risida to'xtalib o'tsak.

Ushbu tushuncha xalqaro hamjamiyatda – Key Performance Indicator (KPI) jumlasini orqali ifodalanadi.

Boshqaruv, umuman olganda faoliyat samaradorligini baholash borasida rivojlangan davlatlarda KPI (Key performance indicator) [3] yoki boshqacha aytgandi, Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK) tizimidan foydalaniladi. Boshqaruv kadrlar tizimida KPI tushunchasidan keng foydalaniladi.

EMSK – bu ma'lum bir maqsad uchun belgilangan vaqt davomida bajarilgan ishlarining samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. EMSK jamoalar uchun maqsadlarni belgilashga, progressni aniqlash va tashkilot xodimlarini vazifasini yaxshiroq va sifatli bajarishga undovchi vosita sifatida ko'riladi.

Ushbu ko'rsatkichlarni qo'llash moliya va inson resurslaridan (HR) tortib marketing, savdo, tadbirkorlik hamda barcha sohadagi boshqa tashkilotlarning oldiga qo'ygan strategik maqsadlariga erishishda yuqori darajada bajarilishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5189-son qaroriga asosan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va samaradorligini baholash tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi [2].

Nizomga ko'ra vazirliklar, davlat qo'mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik birlashmalari (*keyingi o'rinlarda – davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari*) rahbarlari o'rinbosarlarining (*keyingi o'rinlarda – rahbar o'rinbosarlari*) funksional vazifalari asosida ularning faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, tasdiqlash hamda ularga baho berish tartibi belgilandi.

Shu bilan birga, 2022-yil 8-avgustida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonunida davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichini baholash haqida maxsus band nazarda tutilganligi ushbu yo'nalishda amaliy ishlar yanada jadal olib borilishini ifodalaydi.

Qonunning 36-moddasida quyidagilar ko'zda tutilgan: "Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatining samaradorligini baholash tartibi belgilangan. Unga ko'ra, "Davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etiladi.

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining birinchi rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, xo'jalik birlashmalari boshqaruv organlari	1. Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlarining o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni tanlash. 2. Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni kelishish va tavsiya etish. 3. Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarini lavozimga tayinlash.	Doimiy ravishda (zaruratga ko'ra)
2-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari birinchi rahbarlari	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining funksional vazifalari, vakolatlari doirasi hamda javobgarlik sohasini belgilash.	Belgilangan muddatlarda
3-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari	Tasdiqlangan faoliyat samaradorligi mezonlaridan kelib chiqib, davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining tegishli yil uchun faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda kollegial organlarida muhokama qilgan holda tasdiqlash.	Har yili 10 yanvarga qadar
4-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining birinchi rahbarlari	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining kollegial organlari tomonidan tasdiqlangan faoliyat ko'rsatkichlarining amalda joriy etilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borish hamda uning natijalarini tanqidiy tahlil qilib borish, zarur hollarda boshqa davlat organlari, Davlat statistika qo'mitasidan rasmiy statistik va idoraviy ma'lumotlarni so'rab olish.	Doimiy ravishda
5-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining kollegial organlari	Hisobot davri yakuni bo'yicha rahbar o'rinbosarlari faoliyatining yakuniy natijalarini ko'rib chiqish uchun kollegial organ majlisini o'tkazish hamda har bir rahbar o'rinbosariga baho berish.	Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 3 sanasiga qadar

6-bosqich	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining birinchi rahbarlari	Har bir rahbar o'rinbosariga berilgan baho natijalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar, shu jumladan, tegishli o'rinbosarlar mas'uliyati yuzasidan takliflar hamda boshqa tahliliy materiallarni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o'rinbosarlari va maslahatchilariga kiritish.	Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5 sanasiga qadar
7-bosqich	Bosh vazir o'rinbosarlari va maslahatchilari	Tahliliy materiallarni tegishli rahbarlar va ularning o'rinbosarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilgan holda har bir rahbar o'rinbosari faoliyatiga shaxsiy baho berish, ularni rag'batlantirish choralari yoki o'ziga biriktirilgan soha va tarmoqlarda asosiy ko'rsatkichlarga erishishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygani uchun lavozimga loyiqligi masalasini ko'rib chiqish rahbar o'rinbosarlarining lavozimiga loyiqligi masalasini ko'rib chiqish hamda bu to'g'risida aniq takliflar bilan birga O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziriga hisobot berish.	Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 10 sanasiga qadar
8-bosqich	Vazirlar Mahkamasi apparati boshqaruvchisi, Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmalari	Davlat boshqaruvi organlari hamda xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlari faoliyatini baholash yakunlari bo'yicha yakuniy tahliliy materiallar, shu jumladan, ularni rag'batlantirish yoki intizomiy choralar qo'llash, shuningdek, zaruratga ko'ra, o'z faoliyatida tizimli kamchiliklarga yo'l qo'yib kelayotgan rahbar o'rinbosarlari lavozimini qisqartirgan holda ularga yuklangan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli departament faoliyatini tashkil etish yuzasidan aniq takliflarni umumlashtirish hamda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga yuborish.	Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15 sanasiga qadar

1-rasm. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlariga nomzodlarni tanlash, lavozimga tayinlash va ularning faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va samaradorligini baholashning tashkiliy sxemasi

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash uslubi maxsus vokatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash uslubi muvofiq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z ichki tartibini belgilaydi." [4]

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ma'muriy islohotlar amalga oshirildi.

Xalqchil va demokratik davlat barpo etilishida davlat organlarining faoliyatini sarhisob qilish "davlat xizmatchilarining faoliyati samaradorligini baholash davlat organlari uchun ham, jamiyat uchun ham zarur. Samaradorlikni baholashning bunday turi jamiyatga davlat muassasalari faoliyatining sifatini nazorat qilish imkonini beradi." [5]

"Yangi O'zbekiston" sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston Ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonda "respublika ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari va uning o'rinbosarlari mas'uliyat doirasi hamda respublika, viloyat va tuman darajasidagi bo'linmalarining vazifa va funksiyalarini aniq chegaralash, shuningdek, hududlar kesimida faoliyat samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ish ko'rsatki-

chlari (indikatorlari) belgilansin." [6] deb ko'rsatib o'tilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida faoliyat samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ish ko'rsatkichlari (indikatorlari) belgilanib, maktabgacha, maktab hamda maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishlarini qamrab oluvchi 57 ta asosiy ko'rsatkichni o'z ichiga olgan vazirlikning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar maktabgacha va maktab ta'limi tizimida vertikal ravishda taqsimlanib, yo'nalishlar bo'yicha tizimdagi tashkilotlar (*respublika tashkilotlari, hududiy boshqarma va bo'limlar*) rahbarlari, ularning o'rinbosarlari va xodimlari uchun EMSK amaliyotga joriy etilmoqda.

Bu o'z navbatida davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish, xolisona va adolatli mezonlar asosida xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur asosda vazirlik tizimida har bir rahbar va xodimning EMSKlari nazorat qilinadi, baholanadi hamda tegishli choralar ko'rib boriladi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, vertikal boshqaruvda markaziy va quyi tizim yo'nalishlari bir-biriga mutanosib bo'lishi ta'minlanishi zarur. Markaziy apparatdagi departament, boshqarma, bo'lim quyi tizim xodimi bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki faoliyat samaradorligi, topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarilishi hamda yangi tashabbuslarni amalga oshirilishi shunga chambarchas bog'liq.

Shuning uchun, Markaziy apparatdagi departament, boshqarma, bo'lim va sho'balarda avvalombor, bugungi dolzarb yo'nalishlarda transformatsiya qilinishi kerak. Shuning natijasida hududiy bosh-

qarma va bo'limlardagi kadrlar optimizatsiya qilish orqali moslashtirish zarur.

Ikkinchidan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda lavozim yo'riqnomalari va funksional vazifalarini qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, asosiy urg'uni har bir holat (keysarlar) bo'yicha ko'rsatmalar majmuasini ishlab chiqish orqali barcha hududlarda bir vaziyatni hal etish yo'li birxillashtirishga qaratilishi lozim.

Shuningdek, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rahbar va xodimlarni lavozim majburiyatlaridan kelib chiqqan holda to'g'ri taqsimlash katta ahamiyatga ega. Bundan kelib chiqadiki, tizim xodimlarini lavozim majburiyatlari va huquqlarini aniq chegarasini belgilash talab etiladi. Bu har bir xodimning o'zini roli va hissasi bo'lishi hamda daxldorligini belgilab beradi.

Uchinchidan, rahbar va xodimga yuklatilgan vazifalar asosida ularning maqsadli ko'rsatkichlarini aniq sonda (o'lchovli) akslantirish kerak.

Masalan, normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladigan ishlar, ko'rsatkichlarni belgilash mumkin.

Bu natijaga erishishi borasida aniq maqsadlarni belgilab beradi va ularni baholash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda tuman va shaharlarning salohiyati va joriy holatidan kelib chiqqan holda differensiallashgan ko'rsatkichlarni belgilashni taqazo etadi. Bu umumiy natijaga erishishda har bir hududning individual ko'rsatkichi bilan ishtirok etishi hamda ortda qolayotgan tuman (shahar)larning rivojlantirish bo'yicha xulosa qilishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi globalashuv davrida tizimga qo'yilayotgan talablar asosida maqsadli ko'rsatkichlarni doimiy ravishda o'zgarib borayotganligini inobatga olish kerak. Bu ko'rsatkichlarga erishishda kadrlar, xususan, boshqaruv kadrlari tizimida KPI mexanizmini to'g'ri qo'llash, kutilayotgan natijaga erishishda davlat va jamiyatning rivojlanishida ijobiy samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish strategiyasida belgilangan ko'rsatkichlar, Prezident va Hukumat topshiriqlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalar eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari orqali o'z muddatida va eng asosiysi yuqori natijadorlik asosida amalga oshiriladi.

Bu borada tizimdagi xodimlarning EMSKlarini to'g'ri va shaffof tarzda monitoringini olib borish hamda muammoli tomonlarini barvaqt aniqlash va uni bartaraf etib borish asosiy omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/3310>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-5189-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5189/0688-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.
3. <https://www.forbes.com/advisor/business/what-is-a-kpi-definition-examples>
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" O'RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son
5. "Jamiyat va boshqaruv" 2020 №2 (88) – T.: 2020, 64-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2022-y., 06/22/269/1117-son.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK QARASHLARI

Saidqulov Sodikjon Botirovich,

*A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot
instituti, stajyor-tadqiqotchi, "Ta'lim menejmenti"
kafedrası katta o'qituvchisi
saidqulovsodikjon@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq mutafakkir olimlarining ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga oid ijtimoiy-psixologik qarashlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, ta'lim, ijtimoiy-psixologik, menejment.

**Социально-психологические
отношения восточных мыслителей
к административной деятельности**

Саидкулов Содиқжон Ботирович,
*Национальный исследовательский
институт профессионального развития
и обучения педагогов новым методикам
имени А.Авлони, стажер-исследователь,
старший преподаватель кафедры
"Менеджмент образования"*

Аннотация: в данной статье раскрываются социально-психологические взгляды восточных мыслителей на управленческую

деятельность руководителей образовательных учреждений.

Ключевые слова: образование, социально-психологическое, управление.

**Socio-psychological relations
of eastern thinkers to administrative
activity**

Saidqulov Sodikjon Botirovich,
*National Research of Professional
Development and Teaching New
Methodologies to Teachers named after the
A.Avloni, Intern researcher, Senior Lecturer at
the Department of Education Management*

Abstract: this article reveals the socio-psychological views of Eastern thinkers on the management activities of the heads of educational institutions.

Keywords: education, social-psychological, management.

Boshqaruv bilimlari ko'p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, jamoadagi sog'lom va ijodiy muhitni yaxlitligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.


Mustaqil O'zbekistonimiz o'zining boy tarixi, buyuk o'tmishi hamda ajdodlarining yuksak ilmiy merosiga egadir. Xususan, boshqaruv faoliyatiga xos ajdodlarimizning ham sharqona qarash va yondashuvlari mavjud bo'lib, bunda boshqaruv faoliyatining nazariy va tahliliy jihatlariga to'xtalinib, adolatli hamda adolatsiz munosabatlar yuzaga kelishi rahbar shaxsiga bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlar keltirib o'tilgan.

"Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqanini, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, Islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga



ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi" [5].

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, ya'ni rahbar shaxsiga bog'liq ekanligini, uning turli fazilatlarini bu borada unga yordam berishini uqtiradi. Uning fikricha, rahbar shaxsi uchun gumanistik, insonparvarlik xususiyatlari muhimdir: "Kimki bironi baxt va saodatga erishtirish uchun zarur bo'lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobili-



yatiga ega bo'lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa, bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi. Ular yo'l-yo'riqlarni o'tmishda yashab o'tgan qarab o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni boshliqlardan o'rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o'tmishdagi rasm-rusum, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi" [4].

Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinadiki, rahbar shaxsi birinchi navbatda o'zini yomon odatlardan ozod qila olishi, o'zini-o'zi boshqara olishi (Self menejment) va shu

bilan bir qatorda qo'l ostidagi xodimlarni olib borayotgan mehnat faoliyatiga ruh-lantira olishi kerak ekan. Bu fikrlarning bugungi kunimiz uchun ham naqadar muhim ekanligini, zarracha bo'lsada o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rishimiz mumkin.

O'rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan biri bo'lmish Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida o'zining bir qator fikr-mulohazalarini bayon etgan. Beruniy har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi: "Har bir odamning bahosi o'z ishini ajoyib bajarishidadir" [3].

Beruniy o'zining "Hindiston" asarida ushbu g'oyani ilgari suradi: "Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo'lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o'zidan keyingilarga qoldirib, ularning o'z ota-bobolariga qarshi bo'lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg'un tog'lar singari mahkam bo'lib, u buyruqqa ko'p vaqtlar va uzoq zamonlar o'tsa-da, keyingilar ham bo'y-sunadilar" [3].

Uning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo'lgan hokim o'z fikri va qarashlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg'or mulohazalarga bo'ysunishi, boshqaruv hamda siyosatga qiziqishi lozim. Adolatli rahbarning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o'rnatish, bu orqali esa jamoada sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishdan iboratdir. Rahbarning muhim vazifalaridan yana biri esa ilm-fan taraqqiyotiga, olimlarga, ilmiy izlanuvchilarga g'amxo'rlik qilishdir.

Demak, Beruniy o'z insonparvarlik

g'oyalari bilan boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi ta'limotlari rivojiga, rahbarlarning ilk navbatda bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini aniq belgilab berish borasida o'z so'zini ayta olgan. U insonlar orasida o'zaro tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu fikrlar bugungi kundagi boshqaruv hamda rahbar faoliyatini tashkil etilishida ham muhim ahamiyatga egadir.

XI asrning yirik allomalaridan Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig", ya'ni "Saodatga boshlovchi bilim" asarida boshqaruvchi shaxsi, ya'ni podsho xalq bilan birga, adolatli bo'lishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. Uning o'git va nasihatlarini hokimlarga qaratilgan bo'lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo'lgan kishilar bo'lgandagina, u to'g'ri ishlar qilishi, to'g'ri farmonlar chiqarishi, shundagina mamlakat farovon bo'lib ravnaq topishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, "Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo'lib qolishi lozim" [6].

Buyuk sarkarda, sohibqiron bobomiz Amir Temur ham katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish va rahbarlik masalalariga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. U o'zining "Temur tuzuklari" kitobida 12 ta ijtimoiy tabaqani farqlab beradi: (1) sayidlar, ulamo, mashoyix, fozil odamlar; (2) ishbilarmon, donishmand odamlar; (3) xudojo'y, tarki dunyo qilgan kishilar; (4) noyonlar, amirlar, mingboshilar; (5) sipoh va raiyat; (6) maxsus ishonchli kishilar; (7) vazirlar, sarkotiblar; (8) hokimlar, tabiblar; (9) tafsir va hadis olimlari; (10) ahli hunar va san'atchilar; (11) so'fiylar; (12) savdogar va sayyohlar.

Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida asarda to'xtalib, yana shunday yozadi: "Saltanat ishlarida to'rt narsaga

amal qilish lozim: (1) kengash; (2) mashvaratu maslahat; (3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; (4) ehtiyotkorlik". Uning fikricha, "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir" [2].

Bundan tashqari, o'rta bo'g'in rahbarlarini tanlash, ulardan hukumatni boshqarish ishlarida samarali foydalanishda uni nafaqat sinab ko'rish lozimligi, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy yo'nalganligi, e'tiqodi, ehtiyoji, motivi, qadriyatlari tizimini inobatga olish, bu rahbarlarni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga ko'tarish yoki jazolash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ham Amir Temur tuzuklarida bayon etilgan.

Boshqaruv faoliyati doirasida ko'plab atoqli shoir va davlat arboblari ham o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq"ga oid asarida:

"Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikdagi qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir, bu idora qiluvchi shax-

siy ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmini mustaqil organlari harakatidan kelib chiqadigan vazifalarni bajaradi" [1], degan fikrlari keltirilgan bo'lib, to'g'ri rahbarlik qilish uchun oldindan ko'ra bilish, ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarish va qiyinchiliklarni oldindan payqash va nazarga olish zarurligi uqtiriladi. Zamonaviy menejmentga oid bir nechta adabiyotlarda ham rahbarning uzoqni ko'ra olishi, jamoani muvaffaqiyatga yetaklovchi strategiyani ishlab chiqishi lozimligi ko'p bora takrorlanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, keltirib o'tilgan adabiyotlardan ham tashqari Respublikamizning boy tarixida bir nechta asarlarida aynan boshqaruvga oid bo'lgan nazariy hamda amaliy ma'lumotlar taqdim etilgan. Jamoani boshqarish, unga rahbarlik qilishdagi sharq olimlarining bir nechta asarlari, kitoblari mavjudki, bu adabiyotlar bilan tanishish, ularni o'rganish yosh ilmiy izlanuvchilarga, bo'la-jak rahbarlarga juda samarali asqatadi. Bu meroslardan rahbarlar bugungi kun muammolarini bartaraf etish chog'ida ham foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Risola. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. A.Temur. Temur Tuzuklari. Tarixiy-huquqiy tadqiqot. – S.: "Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti Ilmiy kengashining qaroriga muvofiq nashr etilgan, 2008, 73-b.
3. A.Beruniy. Indiya. – T.: Fan, 1963, 8-b.
4. A. Forobiy. Fozil odamlar shahri. Risola. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 89-b.
5. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: "Fan", 1972, 163-b.
7. <https://www.ziyouz.com/>

ZAMONAVIY MAKTAB RAHBARINING FUNKSIYALARI

K.O. Matnazarova,
Qo'qon Universiteti "Ta'lim kafedrası"
dosenti p.f.f.d (PhD)

Annontatsiya: ushbu maqolada zamonaviy maktab rahbarining ish vazifalari, funksiyalari, hayotiy ko'nikmalari haqida fikrlar yoritilgan bo'lib, bugungi kunda rahbari nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo, o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamnafas bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ko'nikma, zamonaviy, rahbar, shaxs, intellektual, faoliyat, mahorat, o'qituvchi.

Функции современного руководителя школы

К.О. Матназарова,
Кокандский университет, д.ф.п.н. (PhD),
доцент кафедры "Образование"

Аннотация: в данной статье освещены представления об обязанностях, функциях и жизненных навыках современного школьного руководителя. Сегодня руководитель является не только обладателем определенной профессии, но, прежде всего, он заслуживает доверия людей. его деятельность и человечность, у него вы-

сокий интеллектуальный склад ума, он видит далеко, всегда Дается информация о том, что это настойчивый человек, который стремится к новому и живет в ногу со временем.

Ключевые слова: Образование, обучение, мастерство, современный, лидер, личность, интеллектуал, деятельность, мастерство, учитель.

Functions of a modern school director

K.O. Matnazarova,
Kokand University, d.p.p.s. (PhD), docent
of the Department of Education

Abstract: this article highlights ideas about the responsibilities, functions and life skills of a modern school leader. Today, a leader is not only the owner of a certain profession, but, above all, he deserves the trust of people. his activity and humanity, he has a high intellectual mindset, he sees far, information is always given that he is a persistent person who strives for something new and lives in step with the times.

Keywords: education, training, skill, modern, leader, personality, intellectual, activity, skill, teacher.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchi kasbining ahamiyati va nufuzini ko'tarish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar izchillik bilan ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bu e'tibor va g'amxo'rlik barcha pedagoglarning bilim, tajriba va mahoratini muntazam oshirib borish yo'lida o'z ustida ishlashi, tinmay izlanishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etishga mas'ulligini yanada chuqur anglashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, sohaga yetuk yosh mutaxassislarining kelib qo'shilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, maktab rahbarlari oldiga ham yangi yangi vazifalar qo'ymoqda. Ma'lumki inson har doim o'sish va rivojlanish jarayonida bo'ladi. Shunday ekan, kadrlar salohiyatini yuksaltirishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim.

Tabiiyki, bunday sharoitda ta'limni boshqarish tizimida pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, faoliyatda vujudga kelayotgan muammolarni ijobiy hal etish borasida izlanishlar olib borish kabi dolzarb vazifalar yuzaga keladi. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ta'lim tizimini boshqarayotgan har bir yurtdoshimizga, ayniqsa, boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan mas'ul rahbarlarni yanada hushyorlikka undaydi. Biz XXI asr – intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, XXI asr direktori qanday hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim.

- Ma'suliyat va moslashuvchanlik ko'nikmasiga;
- Muloqot ko'nikmasi;
- Ijodiylik va qiziquvchanlik ko'nikmasiga;

- Tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash ko'nikmasiga;

- Axborot va ommoviy axborot vositalaridan foydalanish ko'nikmasiga;

- Shaxslararo va hamkorlik ko'nikmasiga;

- Muammolarni aniqlash, shaklga solish va yechimini topish ko'nikmasiga;

- O'z-o'zini yo'naltirish ko'nikmasiga;

- Ijtimoiy ma'suliyat ko'nikmasiga;

- Mustaqil ijod qilish ko'nikmasiga.

Darhaqiqat, maktab direktori ham ta'lim muassasasi boshqaruvini zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa ilg'or tajribalarni va fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib, o'z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvni talab qiladi. Agar umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarida boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha zarur bilim, tajriba, pedagogik mahorat, ko'nikma va malakalar yetarli bo'lmasa, ta'lim jarayonini boshqarishda vujudga keladigan turli muammolarning o'z vaqtida, oqilona yechimini topishda uning o'jizligi sezilib qoladi. Ularning oldini olish hamda pedagogik xodimlar faoliyatini takomillashtirish va natijada o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri boshqaruv faoliyatining ilmiy asosda tashkil etilishidir.


Xalqimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga sharqona yondashuvning boy tarixiy-madaniy an'analari mavjud. Buning isboti sifatida Abu Nasr Forobiy tomonidan bildirilgan rahbarning fazilatlarini to'g'risidagi fikrlarni keltirish mumkin.

Unda rahbarning tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy ahvol qandayligini aniq ravshan tasavvur qila olishi, voqea-hodisalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan, zehni o'tkir, zukko, o'z fikrini chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ravshan tushuntira oladigan, ta'lim olishga,

bilim va ma'rifatga havasli bo'lib, uning mashaqqatlaridan qo'rqmay, haqiqatni gapiradigan, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, o'z qadrini biluvchi, oriyatli, tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblaganda chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi kabi insoniy hislatlar ta'kidlab o'tilgan.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, bugungi kunda ham maktabni boshqarish ishlari samaradorligida rahbarning shaxsiy fazilatlarini muhim o'ringa ega.

Ma'umki, direktor shaxsi va uning ma'naviy sifatlarini qandayligi jamoa a'zolarining hamkorlikdagi innovatsion faoliyati hamda sog'lom ijodiy muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishga bog'liq. Zamonaviy maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim muassasasidagi barcha xodimlarning o'z mehnat faoliyati natijalaridan birdek qoniqish hosil qilishlari, jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarning o'z vazifalariga nisbatan ma'suliyat hissining shakllanishi, o'quv jarayonining hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarining quyidagi funksional vazifalariga bog'liq: Bularga quyidagilar kiradi:



Axborot-tahlil funksiyasi boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlarni olish va tahlil qilish boshqaruv tizimining poydevori hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqsad – pedagogik tizimlar to'g'risida muntazam ravishda axborotlar to'plab borish, ularni chuqur o'rganish hamda obyektiv baholashdan iborat. Olingan xulosalar asosida boshqaruv faoliyatining, rivojlanish omillarini, aniq chora-tadbirlarini belgilash, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilib borishni yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, axborotlar ishonchli, yangi va foydali bo'lishi zarur.

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasi amalga oshirishda, avvalo, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad umumiy ekanligini, mavjud shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish zarur. Shuningdek, vazifalarni taqsimlashda maqsadlarning birligini saqlash, topshiriqlarning bajaruvchilar tomonidan o'z vaqtida va samarali bajarilishi uchun maqsadni belgilash jarayoniga ularni ham jalb etish, kutilayotgan natija yuzasidan oldindan tushunchaga ega bo'lish, topshiriqlar tahlil qilinib, ularning bajarilish muddatini aniq belgilash zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni ularning qaysi biri boshqaruv faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga, qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik tizim va uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, tartibga solishga imkoniyat yaratadi. Demak, rahbar tomonidan ta'lim muassasasining holatini, erishgan natijalarini, rivojlanish imkoniyatlari dinamikasini aniqlash, jamoadagi ruhiy muhit,

o'zaro munosabat va ehtiyojlarni o'rganish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish strategiyasini belgilash oldindan ko'rish - rejalashtirish funksiyasining asosini tashkil etadi.

Tashkiliy-ijrochilik funksiyasi boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Ya'ni u kadrlar tanlash va ijrochilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Buning natijasida ma'lum bir pedagogik boshqaruvga xos tarkibiy tizim vujudga keladi. Uni samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni emas, balki unga erishish mezonlarini ham belgilash, xodimlarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etish uchun sharoitlar yaratish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va har bir xodimning mehnatini obyektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitning vujudga kelishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Nazorat-tashxis funksiyasi nazorat boshqaruv jarayonida amalga oshiriladigan barcha funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan ma'lum bir ma'no-

da og'ishlar ham vujudga kelishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda yo'l qo'yilayotgan xatolarning sababini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish usullarini belgilashda nazoratning o'rni muhim.

Tartibga solish – muvofiqlashtirish funksiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatolarni tuzatish hamda ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Mazkur funksiya yordamida pedagogik tizim subyektlarning faoliyati o'zaro muvofiqlashtiriladi. O'z navbatida, muvofiqlashtirish pedagogik tizimning harakat yo'nalishi bilan birga barcha bo'g'inlarning o'zaro uyg'unlashuvida yuqori darajadagi tezkorlikni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy maktabni boshqarish murakkab, ko'p komponentli tashkiliy tuzilishlarga ega bo'lib, bunda asosiy maqsadga, ya'ni o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularni mehnatga va murakkab ijtimoiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta'minlashga erishishda ta'lim muassasasidagi barcha subyektlarning sa'y-harakatlari shu maqsad yo'lida birlashtirish, o'zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R.A., Rahmankulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.T., Shirinov M.K. "Umumiy pedagogika" Darslik. – T.: "Navro'z", 2016.
2. Xaydarova R.A. "Umumiy pedagogika". O'quv qo'llanma. TDShU 2021.
3. Mavlonova R.A., Rahmankulova N.H., Matnazarova K.O., Xafizov S., Shirinov M.K. "Umumiy pedagogika" Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2018.
4. Mavlonova R.A., Rahmankulova N.H., Matnazarova K.O. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU, 2014-yil.

XALQARO TADQIQOTLARDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI BAHOLASH BO'YICHA ISHLAB CHIQILGAN TOPSHIRIQLAR MAZMUNI

Axmedova Zulnura Allayarovna,
*Andijon viloyati pedagoglarni yangi
metodikalariga o'rgatish milliy markazi
katta o'qituvchisi*
axmedovazulnura1974@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada xalqaro tadqiqotlar doirasida o'quvchilardagi matematik savodxonlikni baholashga doir ishlab chiqilgan topshiriqlar va ularning mazmuni yuzasidan fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro tadqiqotlar, savodxonlik, matematik savodxonlik, topshiriq, mantiqiy, tanqidiy, kreativ, ijodiy fikrlash.

**Содержание заданий для оценки
математической грамотности
в международных исследованиях**

Ахмедова Зулнурс Аллаяровна,
старший преподаватель Андижанского
областного национального центра
подготовки педагогов новым методам

Аннотация: в данной статье собраны мысли и мнения о задачах, разработанных в рамках международных исследований по оценке математической грамотности студентов и их содержанию.

Ключевые слова: международные исследования, грамотность, математическая грамотность, задание, логическое, критическое, креативное, креативное мышление.

**Content of tasks used for assessment
of mathematical literacy in international
research**

Akhmedova Zulnura Allayarovna,
is a senior teacher of the Andijan region
national center for training pedagogues
in new methods

Abstract: this article contains thoughts and opinions about the tasks developed in the framework of international research on the assessment of students' mathematical literacy and their content.

Keywords: international studies, literacy, mathematical literacy, assignment, logical, critical, creative, creative thinking.

“**T**a’lim to’g’risidagi” qonun talablari asosida o’quvchilarni ma’naviy yetuk, mustaqil bilim olish, o’rganish va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda maktabda o’qitiladigan matematika fanining o’rni beqiyosdir. Fan va texnika jadal suratlar bilan rivojlalib borayotgan bugungi kunda jamiyatimizning ixtiyoriy sohasida faoliyat olib borayotgan har qanday mutaxassis matematikadan chuqur bilimlarga ega bo’lishi kerak.

O’quvchilarni chuqur, puxta va sifatli bilim olishlarida o’quv jarayonini tashkil qilish muhim o’rin tutadi. O’qituvchi matematikani o’qitish jarayonida didaktik tamoyillarning eng asosiysi bo’lgan nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyilidan muntazam foydalaninishi kerak. Matematika fanini o’qitish jarayonida nazariy bilim berish, ya’ni matematik tushunchalarni, masalan, protsent, o’rta qiymatlar, hosila, integral va boshqa tushunchalarni kiritish, asosan, ma’ruza orqali amalga oshiriladi. Matematik tushunchalarni qiziqarliroq, amaliy masalalar bilan hamda ijtimoiy hayotda uchraydigan masalalar bilan bog’lab tushuntirish zarur.

Funksiya, hosila integral kabi fundamental tushunchalarni shakllantirishda o’quvchilarda o’rganilayotgan yangi tushuncha moddiy dunyo faktlarining umumlashtirilishi ekanligini ongli ravishda tushunishlari ularning keyingi faoliyatlarida katta yordam beradi.

Moddiy dunyoning miqdoriy tomonlarini tushunchalar shaklida bilishimiz tufayli ta’lim jarayonida yangi tushunchalarni kiritishda tatbiqiy xarakterdagi misol va masalalarni qarash katta ahamiyatga ega. Zero, tushunchaning mazmuni va haj-

mi faqat shunday misol va masalalar orqali ochib beriladi. Masalan, hosila tushunchasining paydo bo’lishida manba bo’lib XVII asrdagi fan va texnika maydoniga tashlangan ixtiyoriy berilgan egri chiziqqa urinmani topish kabi masalalar xizmat qilgan. O’quvchilar hosila tushunchasining mazmunini puxta o’zlashtirishlari uchun faqatgina hosila tushunchasi bilan bog’liq bo’lgan misol va masalalarni qarash bilan chegaralanmasdan, balki uni qo’llash mumkin bo’lgan boshqa tatbiqiy misol va masalalarni ham qarashlari lozim. Xususan, ishlab chiqarishga doir masalalarning o’rni beqiyosdir. Ishlab chiqarishga doir masalalarni yechish nafaqat hosila tushunchasini ishlab chiqarishning amaliy qo’llash malakalarini balkim konkret vaziyatlarda amaliy ravishda qo’llash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan bilan birga ta’limning tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi. O’quvchining matematika fanini o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi.

Bugungi kunda dunyo miqiyosida matematika ta’limini takomillashtirish bo’yicha intensiv ishlar amalga oshirilmoqda: matematika o’qitishning maqsadlari, o’quv materiali mazmunini tanlash tamoyillari aniqlashtirilyapti, darsliklar va boshqa o’quv vositalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda, o’qitishning samarali shakllari va metodlari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon hozirgi vaqtdagi fanning, fan va texnika o’rtasidagi o’zaro aloqalarning rivojlanishi, jamiyatning barcha sohalariga yangi axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga asoslangan ilmiy-texnik revolyutsiyaning natijalarini o’z ichiga qamrab oladi. Shu bilan bog’liq ravishda maktabda matematika o’qitishning maqsadlari ham o’zgarmoqda. Tegishli axborotlarni egallashning kuchayishi esa o’quv materiallari strukturasini o’zgartirishni, taraqqiy ettirishni talab etmoqda.

Bu esa o'quvchilarning matematikaning umumiy prinsiplari va qonunlarini o'zlashtirish darajalariga va ularni nazariy fikrlash metodlari asosida egallashlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'pgina mamlakatlarda matematika o'qitishga qo'yiladigan maqsadlar deyarli bir xil: o'quv fani bo'yicha ilmiy va amaliy savodxonlik asoslarini shakllantirish; ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'minlash, ilmiy fikrlashni shakllantirish, turli manbalar (adabiyotlar, eksperimentlar va h.k.) yordamida mustaqil bilim egalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Deyarli barcha mamlakatlarda o'qituvchilar faoliyati xarakterini o'zgartirish harakatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda: bilimlarni oddiy usulda berishdan bilish jarayonini boshqarishga o'rgatishga o'tilmoqda. Asosiy e'tibor o'quvchilar bilish faoliyatlarini ta'minlovchi darsliklar mazmunini o'zgartirishga (eksperimentlar, turlicha mustaqil topshiriqlar va boshqalarni ko'paytirish), o'quv jarayonini tashkil qilishning shakllari, usullari va metodlariga qaratilmoqda. Bu usullardan ongli va keng foydalanish, ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganish, o'qitish metodlaridan samarali foydalanish va boshqalar metodologik bilimlar sifatida muhim o'rin tutadi.

Dunyoning ko'pgina davlatlariga xos bo'lgan matematika kursining strukturasifatida quyidagi o'qitish tizimini qarab chiqishimiz mumkin: boshlang'ich maktab, o'rta maktabning birinchi bosqichi, o'rta maktabning ikkinchi bosqichi, o'rta maktabning yuqori bosqichi, to'liqsiz o'rta maktab (ta'limni birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlari; har bir bosqich uch sinfdan), gimnaziya (gumanitar, aniq, tabiiy-ilmiy bo'lim va boshqalar; odatda 2-3 yillik ta'lim). 50% vaqt tayanch fanlarni (til, adabiyot, matematika va boshqalar) o'qitishga ajratiladi. Integrallashgan kurslardan foydalanish keng tarqalgan, yuqori

sinflarda esa – maxsus kurslar ko'proq o'qitiladi. Boshlang'ich maktabda matematika aniq-tabiiy fanlar doirasida o'rganiladi.

Matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish ko'plab mamlakatlarda ushbu fanlarning o'quv dasturlarining eng muhim maqsadlaridan biridir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar quyi sinflarda matematika fanini o'rganish boshlaganlarida darsda o'rgatiladigan dastlabki mavzularga qiziqish ko'rsatadilar, o'qituvchining savollarini muhokama qilishda faol ishtirok etishadi. Biroq, vaqt o'tgan sari matematikaga hali ham ishtiyoqli bo'lgan 3-4 gina o'quvchi qoladi. O'qituvchilarning ish uslublarining bir xilligi o'quvchilar orasida qiziqishning pasayishiga olib keladi.

1995-yildan boshlab singapurlik o'quvchilar matematikadan o'tkazilayotgan turli xalqaro olimpiadalar g'olibi bo'lib kelishmoqda. Buning siri nimada? Ko'pgina davlatlar Singapur matematikasini butunligicha joriy etishga yoki undan nusxa olishga urinib kelishmoqda. AQSH, Yaponiya, Isroil, Rossiya va Koreya davlatlarida ham bu yondashuvni asos qilib olib, Singapur matematikasi uslubiyotini matematika fanini o'qitishda joriy etib kelishmoqda.

Singapur matematikasining biznikidan farqli bo'lgan asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Ta'lim jarayonining mohiyati katta hajmdagi o'quv materialini o'rganishga emas, balki kiritilayotgan matematik atama va faktlarni tushunish chuqurligiga e'tibor qaratiladi. Odatdagi, xususan, bizning maktab matematika fani o'quv dasturlarimizda buning aksi: dasturlarning o'quv yuklamasi juda katta, o'rganilishi kerak bo'lgan mavzular juda ko'p, vaqtimiz esa cheklangan. Buning oqibatida bu mavzularni chuqur o'rganish imkoniyatlari

cheklangan. Buning natijasida o'quvchilarimizda matematik tushunchalar to'g'risida yuzaki fikrlar saqlanib qoladi.

2. Ta'lim jarayoni muayyan amaliy tajribadan boshlanadi va abstrakt tushunchalarga tomon boriladi. Tushunchalarni o'rganish uch bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich (enactive stage)da o'quvchilar kiritilayotgan tushunchaga doir turli moddiy narsalarni ushlab, shuningdek, tishlab ko'radilar. Sanoq cho'plari, kubchalar, qog'ozlar va plastilindan yasalgan turli shakllar va predmetlar hamda boshqa turli maxsus o'quv qurollarini qo'llari bilan ushlab ko'radilar yoki ulardan turli modellarni yasaydilar. Ikkinchi bosqich (iconic stage) da yangi tushunchani timsollar yordamida tasvirlaydilar. Ularni turli rasmlarda, diagramma yoki chizmalarda ifodalaydilar. Shundan keyingina uchinchi bosqich (symbolic stage)ga, yangi tushunchaga oid abstrakt ta'rif, matematik timsol va belgilashlarga qaratiladi. Boshqacha qilib aytganda matematik tushunchalar bilan tanishish qiziqarli, ko'rgazmali o'yinlardan boshlanadi, uning asosida abstrakt tushunchani "ushlash" va "ko'rish" imkoniyati beriladi. Ta'limning amaliy tajribadan abstrakt tushunchalarga tomon borishi o'quvchilarda har bir mavzu bo'yicha muayyan, yorqin, xotirada chuqur va mustahkam o'rnashuvchi taassurotlar hosil qilinadi. Bu taassurotlar eslanganda mavzuning turli jihatlarini yodga tushishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonining boshidan amaliy ishga yo'naltirilganligi u yoki bu matematik tushunchaning nima sababdan o'rganilayotganligi va uning hayotiy vaziyatlarda qachon va qayerda kerak bo'lishini oldindan bilishga va ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Bu esa, matematika fani hayotda kerakli va foydali bo'lishi bilan birga, uning jozibador fan ekanligini ham ko'rsatadi.

3. Juda katta e'tibor (model drawing) modellashtirishga qaratiladi. Bu bilan berilgan masala sharti ko'rgazmali qilib vizuallashtiriladi. Masala modellashtiriladi va berilganlardan qulay ravishda foydalanishga erishiladi hamda bosqichma-bosqich masalani yechishga kirishiladi. Bizning darsliklarimizda esa yasashga oid masalalar deyarli yo'q. Hozirgi kunda matematika darslarimizda isbotlashga, keltirib chiqarishga ham e'tibor susaygandek.

4. Hamkorlikda o'rganish va o'zaro muloqotga katta e'tibor beriladi. Singapur matematikasidagi ko'pgina masalalar shartida "Qara!" va "So'zlab ber!" so'zlari uchratish mumkin. Bu masalalarni yechishda o'quvchilarga matematik tushunchalarni va masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishi, ularni birgalikda muhokama qilish va boshqalar fikrini ham tinglash imkoniyati yaratiladi. Natijada o'quvchilar tushunchani yaxshiroq o'zlashtirishadi, matematika tilidan to'g'ri foydalanishga o'rganishadi, ba'zi hollarda u yoki bu masalaning bir necha yechimi bo'lishi mumkinligini tushunib yetishadi. Darslikdagi masalalarning deyarli ko'pchiligida masala sharti, uni yechish usullari va yechimi haqida har safar sinfdoshlariga yoki o'qituvchiga ovoz chiqarib so'zlab berishga undov bor. Bu esa o'z navbatida mavzuni, masalani yechish yo'llarini yaxshiroq eslab qolishlarini ta'minlaydi.

5. Har bir mavzu chuqurroq o'rganiladi. O'quvchilar oldin o'rganilgan mavzuga uni takrorlash uchun emas, balki chuqurroq o'rganish maqsadida qayta-qayta murojat qilishadi. Ya'ni mavzuga uni jiddiyroq darajada chuqurroq o'rganish uchun yana qaytiladi. Bizda esa barcha matematik tushunchalar hamda ularning xossalari yodlab qolishiga, formulalarni keltirib chiqara olmasa ham shunchaki yoddan aytishi yoki yozishiga e'tiborni qaratamiz.

O'quvchilarni eslab qolishga emas, masala yechish (problem solving)ga o'rgatiladi.

PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilar bilimini baholash xalqaro dasturi, 15 yoshli bolalarning matematika, tabiiy fanlar va ona tilidan hayotiy ko'nikmalarini egallaganligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori natajalarga olib keladi. Ta'lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini kuchaytirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash zarur. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishiga erishadi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Matematika fanidan o'quvchilar qanday muammolarga duch kelishi mumkin?

1. Darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi va shuning uchun o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida ularning natijalari past bo'lishi mumkin.

2. PISA topshiriqlari odatda rasmlar, uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ular-dagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning

qaysi bo'limiga murojaat qilish haqida ko'rsatmalar yo'q.

3. PISA topshiriqlari (matnli, rasml, diagramma va jadvallar, real bog'lanishlar grafiklari) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni matematik tilga o'girish va yechim topilgandan so'ng uni yana real sharoit bilan bog'lab baholash va sharhlash talab qilinadi.

4. Ko'pincha matematika darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya'ni o'quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma'lum algoritmlar asosida yechishga o'rgatiladi. Nostandart yoki ijtimoiy vaziyatlarda o'quvchilar bunday masalalarni yechishga qodir bo'lmay qoladilar.

5. Odatda matematika darsliklaridagi masalalar muayyan bo'limda beriladi va bu bilan ularni yechish usullari ham shu bo'limda ko'rilgan usullarga bog'langan holda beriladi, ya'ni muayyan bo'limning masalalari qanday yechilishi haqida ko'rsatma beriladi.

6. Bundan tashqari, darslikdagi masalalar sof matematik masalaning tavsifidan iborat bo'lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo'ladi.

Bizning darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalar juda kam yoki umuman yo'q. Masalalarda ko'rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko'p yangi matnli ma'lumotlarning borligi – masalani tushunish va uni yechishni yana og'irlashtiradi. Ma'lumot turli shakllarda taqdim etiladi: matn, raqam va ma'lumotlar shaklida. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar matnning turli qismlaridan olinishi kerak. Ba'zi masalalarda "aylana" so'zi topshiriq matnida qayd etilmasada, o'quvchilarning o'zlari obyektning aylana shaklida ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

XXI asr hayotiy ehtiyojlarning bunday kun sayin o'zgarib borishi, o'z navbatida matematik savodxonlik tushunchasining kengayib, takomillashib borishini taqozo etmoqda. Matematik savodxonlik adabiyotlar va tadqiqotlarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnomaning 1-qismida qayd etilishicha, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammo-ning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini-o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan, asosli hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi [3].

Matematik savodxonlik maxsus tuzilgan topshiriqlar yordamida baholanadi va tadqiq qilinadi. Bu topshiriqlarning mazmuni, tuzilishi va shakli tadqiqot mohiyatidan kelib chiqib qabul qilingan muayyan talablarga javob berishi lozim bo'ladi.

Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni “matematika tilida ifodalash (matematik modellashtirish)”, “matematikani qo'llash”, “topilgan matematik yechimni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash” kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Qisqacha qilib, bu faoliyat turlarini “mulohaza yuritish”, “ifodalash”, “qo'llash” va “talqin qilish” va “baholash” deb yuritiladi. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning

ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar-ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Matematik savodxonlikni aniqlash turli yillardagi ko'rinishda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqotga ko'ra unga quyidagi ta'riflarni berish mumkin:

1. Tanqidiy fikrlash;
2. Ijodkorlik;
3. Tadqiqot va tahlil qilish;
4. Mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik;
5. Ma'lumotlarni jo'natish;
6. Tizimli fikrlash;
7. Muloqot qilish;
8. Mulohaza yuritish.

Shu o'rinda xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, bu orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shish maqsadida avvalgi tayyorlangan metodik qo'llanmalar, topshiriqlar to'plami, mashq daftarlarining mantiqiy davomi sifatida axborotnoma tayyorlandi.

Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o'rganiladi va tahlil etiladi. O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar mobaynida tadqiqotda ishlatilgan, ammo konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin [4].

Matematik savodxonlik bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammo-ning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga

oladi. U insonlarga matematikaning olam-dagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini-o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limning yangi ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Maktab ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy yo'naltiruvchi nuqtasi sifatida maktab o'quvchilari funksional savodxonligini rivojlantirish ularning jamiyatda faol ishlash, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda integratsion ta'limni rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barcha fanlarning o'rnini muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hamda mahoratli pedagoglarni har tomonlama barkamol inson sifatida ko'rish, ularning o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qo'shimcha bilimlar berish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qilish-

lariga shart-sharoitlar yaratib berish maqsad qilib olingan.

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan XXI asr fuqarosi uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy ravishda asoslangan nazariy bilimlar amaliy misol va masalalarni yechish bilan birga olib borilsa, nazariyadan amaliyotga yoki amaliyotdan nazariyaga o'tish o'quvchilarning matematikadan bilimlarini yanada chuqurroq bo'lishi va ongini ravishda o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarga ko'proq kundalik faoliyat bilan bog'liq masalalarni yechishga o'rgatish dolzarb bo'libgina qolmay, ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olishga ham o'rgatish zarurdir. Darsliklarda ham mavzularning chuqurroq berilishiga e'tibor qaratilgan holda, PISA, TIMSS topshiriqlariga o'xshash masalalar berilsa foydadan holi bo'lmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiya. – T.: "O'qituvchi", 2004.
2. Основные результаты международного исследования PISA – 2015. Rossiya Federatsiyasining ta'lim va fan vazirligi. 2015-yil.
3. Kudratova A. Matematik savodxonlik. PISA 2003 va 2012-yillardagi topshiriqlar to'plami (tarjima). – Samarqand, 2019.
4. Kudratova A. "PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlik" uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2020.
5. PISA – 2012 Results: What students know and can do. Students performance in mathematics, reading and science (Volume 1), PISA, OESD Publishing, 2013.
6. PISA – 2012 Assessment and Analytical Framework. Mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy, PISA, OESD Publishing, 2013.
7. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta'lim markazi sayti

XALQARO BAHOLASH VA TA'LIM SIFATINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Qurbonova Saodat Ismatqulovna,
Qashqadaryo viloyati Nishon tumani
18-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
saodatqurbonova1978@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq etishning cho-ra-tadbirlari, muammolari va xalqaro baholash tizimlaridan PISA, PIRLS va TIMSS dasturlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Konsepsiya, PISA, TIMSS, PIRLS, Stesting.*

**Международная оценка качества
образования и научных проблем**

Курбанова Саодат Исматкуловна,
*Нишанский район Кашкадарьинской
области, Учитель начальных классов
школы № 18*

Аннотация: *в данной статье представ-лена информация о международной оценке и исследовании качества образования, а также о мерах, мероприятиях, проблемах*

программ PISA, PIRLS и TIMSS из междуна-родных систем оценки.

Ключевые слова: *Концепция, PISA, TIMSS, PIRLS, месм.*

**Problems of international evaluation and
research of the quality of education**

Kurbanova Saodat Ismatkulovna,
*Kashkadarya region Nishan district,
primary school teacher
at school No18*

Abstract: *this article deals with the PISA, PIRLS and TIMSS programs from international assessment and education quality research measures, issues and International Assessment Systems.*

Keywords: *Conception, PISA, TIMSS, PIRLS, stesting.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham barcha rivojlangan davlatlardagi kabi ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida 2030-yilga borib PISA o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo'yicha vazifalar belgilangan [1].

PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan "Stesting" loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va "Stesting" platformasi ishga tushirildi [2].

Bu platformada 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan bo'lib, ushbu testlar o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlarida berilgan topshiriqlarni ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Eng muhimi ushbu platformadan foydalanish mutlaqo bepul.

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklar nafaqat ota-onalarni balki biz

o'qituvchilarni ham ruhlantirmoqda. Hurmatli prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "O'qituvchini hurmat qilmaganni, men ham hurmat qilmayman" degan iboralari biz o'qituvchilarga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini o'rganib biz uchun foydali bo'lgan jihatlarini yurtimiz ta'lim tizimiga qo'llab ko'rilmoqda. Ta'limdagi barcha yangiliklar ustida jadal ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Hilola Umarova "Ta'limdagi islohotlarni yanada tezlashtirib, innovatsiyalarni eng chekka hududlarga yetib borishini ta'minlashimiz lozim" deya o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ygan holda shahd bilan ishlamoqda. Bugungi kunda o'quvchilar bilim salohiyatlarini, o'qish savodxonligini, yozish, so'zlash, tinglash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida xalqaro baholash dasturlaridan PIRLS, PISA, TIMSS, TALIS ta'lim maskanlarida amalda qo'llab ko'rilmoqda. Barcha o'qituvchi va o'quvchilar xalqaro baholash dasturini katta qiziqish bilan ijobiy kutib olishdi. O'zbekistonlik o'quvchilar o'z bilim salohiyatlarini namoyish etib xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni olib kelmoqda. O'zbekistonlik bilimlilar o'z iqtidorlari bilan dun-



yoni zabt etmoqda. Yangi avlod darsliklari joriy etilib, maktablarga qo'llanib kelinmoqda. Yangi avlod darsliklarini yaratishda Finlyandiya tajribasi joriy qilindi. Ushbu darsliklar o'rganish uchun juda qulay, rang-barang sur'atlari bilan o'quvchilarni o'ziga jalb etadi [3].

Har bir fan uchun ikkita kitob, katta-kichik mashq daftarlaridan iborat. Kitob muqovalarida har bir mavzu o'rganish uchun qulay usulga berilgan, ayrim mavzularni mukammal o'rganish uchun QR-kodlar bilan berilgan. Ta'lim sohasidagi so'nggi yangiliklardan biri "maktabda olingan yakuniy baholar OTMga kirish uchun hisobga olinishi" o'quvchilarni juda quvontirdi. Ushbu qaror yuqori sinf o'quvchilari uchun ayni muddao bo'ldi. Ta'lim tizimida yangi islohotlar chekka qishloqlarga ham yetib borsa ayni muddao bo'lardi. Chunki chekka hududlardagi maktablarda hali kamchilik juda ko'p. Barcha maktablar ham oxirgi texnologiyalar bilan jihozlanmagan. Zamon bilan hamnafas bo'lish uchun barcha sinf xonalar proyektor yoki smart televizorlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bir sinfda 30-35 ta o'quvchi o'qiydi. O'quvchilarni kichikroq 10-15 nafarlik guruhlariga bo'lib o'qitilsa, o'quvchiga ko'p yuklama berilmasagina ta'limda biror natijaga erishish mumkin.

Ta'lim sifatini baholash va tadqiq qilish bilan bog'liq masalalar xalqaro sohada dolzarb va ahamiyatlidir.

PISA – The Programme for International Student Assessment – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

TIMSS – Trends in International Mathematics and Science Study – 4- va 8-sinf o'qituvchilarining matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash.

PIRLS – Progress in international Re-

ading and Literacy Study – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash.



PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlari ta'lim sifatini o'lchashning muhim vositalaridir. Ular bizga turli mamlakatlardagi talabalarning yutuqlari haqida ma'lumot beradi va ta'lim tizimida muammoli yo'nalishlar va tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu dasturlar talabalarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ko'nikmalarini baholaydi va o'rganish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. PISA, PIRLS va TIMSS adolatli va obyektiv vositalar bo'lib, mamlakatlarga o'z natijalarini solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tizimlar tufayli biz xalqaro miqyosda ta'lim sifatini oshirish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishimiz mumkin [4].

Bunday baholash bilan bog'liq muammolar natijalarni o'lchash va obyektivlashtirishning qiyinligini o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimlari va madaniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, standart baholash usullari har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasligi mumkin. Shuningdek, baholash natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olish muhimdir.

Yana bir muammo - bu ta'lim sifatining yagona mezonini belgilashning qiyinligi, chunki har bir davlatning o'ziga xos maqsadlari va ustuvorliklari bo'lishi mumkin.

Baholarni xalqaro taqqoslash ham qiyin, chunki kontekstdagi farqlar va resurslardan foydalanish imkoniyati hisobga olinishi kerak.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, o'qitishning yondashuvlari va usullarini solishtirish va takomillashtirish uchun ta'lim sifati bo'yicha xalqaro baholash va tadqiqotlar zarur.

Xorijda ta'lim sifatini o'rganish va uni xalqaro baholash borasidagi tadqiqotlar ayrim qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Natijalarning adolatlilik va qiyoslanishini ta'minlash uchun yagona baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bu turli mamlakatlar va ta'lim tizimlari o'rtasidagi hamkorlikda qiyinchiliklarga olib keladi.

Muammolardan biri turli xil ta'lim tizimlari faoliyat yuritadigan madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstlarning xilma-xilligidir. Bu esa obyektiv taqqoslash va ta'lim sifatining universal ko'rsatkichlarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, ma'lumotlarni to'plash va tadqiqot qilishning yagona metodologiyasi va standartlari yo'qligi ham to'siqlarni keltirib chiqaradi. Turli mamlakatlar va tashkilotlar turlicha yondashuvlarni qo'llashi mumkin, bu esa natijalarni solishtirish va ta'lim sifati haqida umumiy tushuncha yaratishni qiyinlashtiradi.

Yana bir qiyinchilik – mavjud va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi. Hamma mamlakatlar ham o'z ta'lim tizimlari haqida to'liq ma'lumot berish imkoniyatiga va xohishiga ega emas. Bu ta'lim sifati bo'yicha tadqiqotlarni xalqaro baholash ko'lamini cheklaydi.

Nihoyat, kontekstual va madaniy farqlar natijalarni talqin qilish va ta'lim sifatini baholashga ham ta'sir qiladi. Muvaffaqiyatli ta'lim tizimining ta'rifi mahalliy qadriyatlar va ustuvorliklarga qarab farq qilishi mumkin.

Umuman olganda, ta'lim sifati bo'yicha xalqaro baholash va tadqiqotlar kontekstlarning xilma-xilligi, uslubiy farqlar, ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi va madaniy farqlar bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Biroq, bu muammolar bunday tadqiqotlarni befoyda qilmaydi, balki butun dunyo bo'ylab ta'lim sifatini oshirish uchun ushbu muammolarni birgalikda hal qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholash va tadqiq qilish bilan bog'liq muammolar jahon ta'lim hamjamiyatiga jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ta'lim har bir mamlakat taraqqiyotida asosiy o'rin tutadi va ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Asosiy muammolardan biri – turli mamlakatlarda qo'llaniladigan ta'lim tizimlari va yondashuvlarining xilma-xilligi. Bu turli milliy kontekstlarda ta'lim sifatini taqqoslash va baholashda qiyinchiliklar tug'diradi. Turli mamlakatlar o'zlarining ta'lim tizimlaridan turli standartlar va kutishlarga ega, bu esa yagona baholash usulini yaratishni qiyinlashtiradi. Yana bir muammo – ko'plab mamlakatlarda ta'lim sifati haqida yetarli ma'lumotlarning yo'qligi. Ta'lim sifatini muvaffaqiyatli baholash va tadqiq qilish ishonchli va to'liq ma'lumotlarga kirishni talab qiladi, bu har doim ham yetarli emas. Bu to'liq bo'lmagan yoki ishonchsiz baholash natijalariga olib kelishi mumkin, bu esa mamlakatlar o'rtasida solishtirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun samarali tadbirlarni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, turli mamlakatlardagi ta'limga ta'sir qiluvchi madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlardagi farq ham muhimdir. Bu omillar ta'lim sifatini baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va mamlakatlar o'rtasidagi taqqoslashni murakkablashtirishi mumkin. Bundan tashqari,

har bir mamlakatning turli sharoitlari va xususiyatlari hisobga olinmasa, ta'lim sifatini baholash subyektiv bo'lishi mumkinligi xavfi mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish uchun ta'lim sifatini baholash va tadqiq qilishda yanada yaxlit va kompleks yondashuvni yo'lga qo'yish zarur. Bu har bir mamlakatning kontekstdagi farqlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada mustahkamroq ma'lumotlarni yig'ish va tadqiqot usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha hamkorlikda ishlash uchun turli mamlakatlar o'rtasida ilg'or tajriba va tajriba almashish uchun platformalar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijada ta'lim sifatini xalqaro baholash va tadqiq etish muammolari ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari o'rtasida tizimli yondashuv va hamkorlikni taqozo etadi. Faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar va samarali strategiyalarni ishlab chiqish orqali biz butun dunyoda yuqori sifatli ta'limga erishishimiz mumkin.

Ta'lim sifatini baholash va tadqiq qilish xalqaro miqyosdagi muhim masala hisoblanadi. Muammo ta'lim tizimlarining samaradorligini aniqlash, zaif tomonlarini aniqlash va ularni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Har qanday davlat taraqqiyotida ta'lim asosiy rol o'ynaydi, shuning uchun uning sifatini o'lchashning ishonchli usullariga ega bo'lish zarur.

Umumiy standartlarning yo'qligi tahlilni murakkablashtiradi, shuningdek, turli mamlakatlar o'rtasidagi natijalar va xulosalarni solishtirishni qiyinlashtiradi.

Yana bir muammo - turli mamlakatlardagi ta'lim holati to'g'risida obyektiv ma'lumotlarning yo'qligi. Ma'lumotlarni to'plashda qiyinchiliklar paydo bo'ladi, chunki har bir mamlakat ma'lumot

to'plash va tahlil qilishning o'ziga xos usullaridan foydalanishi mumkin. Bu natijalarni solishtirish va ta'lim holatining to'liq va to'g'ri tasavvurini yaratishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, ta'lim mazmuni va tashkil etilishiga ta'sir etuvchi mamlakatlar o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy farqlarni ham hisobga olish zarur. Turli kontekstlarda bir xil baholash va tadqiqot tizimini qo'llash har doim ham mumkin emas, bu esa natijalarni taqqoslash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi.



Bunday qiyinchiliklarga qaramay, ta'lim sifatini xalqaro baholash va tadqiqotlar ta'lim tizimini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular muammoli joylarni aniqlashga, kerakli o'zgarishlarni aniqlashga va ta'limni yaxshilash siyosatini amalga oshirishga yordam beradi. Barcha uchun sifatli ta'limni ta'minlashda yanada aniq va xolis baholash va tadqiqot usullarini ishlab chiqish ustida ishlashni davom ettirish muhim.

PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlari ta'lim sifatini o'lchashning muhim vositalaridir. Ular bizga turli mamlakatlardagi talabalarning yutuqlari haqida ma'lumot beradi va ta'lim tizimidagi muammoli yo'nalishlar va tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu dasturlar talabalarning o'qish, matemati-

ka va tabiiy fanlar bo'yicha ko'nikmalari- ni baholaydi va o'rganish muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi. PISA, PIRLS va TIMSS adolatli va obyektiv vosi- talar bo'lib, mamlakatlarga o'z natijalarini solishtirish va tahlil qilish imkonini bera- di. Ushbu tizimlar tufayli biz xalqaro miq- yosda ta'lim sifatini oshirish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishimiz mumkin.

Darslar eskicha usulda o'tilmasdan, in- terfaol o'yinlarni qo'llab, erkin usulda olib borilsa o'quvchilarga tezroq yetib borardi. Hozirda maktablarda kundalik.com ilovasi bilan ishlayapmiz. Ushbu ilova o'quvchi va o'qituvchilar uchun juda qulay zamonaviy texnikalardan mohirona foydalanish orqali baholash tizimi. Ammo barcha ota-onalar ham ushbu ilovaga kirib farzandlarining olgan baholarini kuzatib borayotgani yo'q. Hozirda barcha maktablar internet bilan to'liq ta'minlanganligi va internet tezligi yuqori bo'lganligi bois biz o'qituvchilar o'z

vaqtida *e.maktab* ilovasiga kirib bermalol ishlay olamiz. Ammo chekka tog'li hudud- lardagi ayrim maktablarda internet mavjud bo'lsa ham tezligi juda pastligi bois o'qi- tuvchilar va ota-onalar elektron kundalik bilan ishlashga biroz qiynalishadi.

Barcha tizimdagi kabi ta'lim tizimida ham yaxshi yangiliklar, muammo va kam- chiliklar mavjud.

Ustozlari ulug'lagan yurtida, albatta, yuksalish bo'ladi. O'qituvchilar qadr-qim- matini yuksakka ko'tarish uchun yurti- mizda ko'pgina islohotlar olib borilayot- gan bizni quvontiradi. Ta'limga tikilgan sarmoya hech qachon befoyda ketmaydi. Chunki barcha soha vakillariga o'qituv- chi ta'lim-tarbiya beradi. Biz ta'lim soha- sida ishlaydigan o'qituvchilar kelajakda ta'lim tizimini yuksaltirish borasida jo- riy etiladigan yangi metod va yangiliklar- ni amalda qo'llab, ta'lim sifatini oshirish yo'lida o'z hissamizni qo'shishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari".
3. PISA – 2018. "Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam – Axborot-tahlil markazi AQ.Astana. 2016. 126-b.
4. "O'zbekistonda ta'lim" jurnali (12)-son. 2022.
5. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanma. – T.: "Sharq", 2019.
6. [http:// markaz.tdi.uz/](http://markaz.tdi.uz/) - Ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi.
7. www.ziynet.uz
8. www.kitobxon.com

MAKTAB TA'LIMIDA

RAQOBAT MUHITINI YARATISH BO'YICHA XITOIY TAJRIBASI

Botirov Hamid Hakimovich,

*A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy
rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish
milliy-tadqiqot instituti, bo'lim boshlig'i
Huquq fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
hamidbotirov@inbox.ru*

Annotatsiya: *Xitoy tajribasida maktablar-
ning raqobatbardoshligini baholash mezonlari
va usullari tahlil qilindi, tadqiqot natijasida
Xitoy tajribalarini milliy qonunchilikka joriy etish
zarurligi yuzasidan xulosalar qilindi.*

Kalit so'zlar: *raqobatbardoshlik, baholash
mezonlari, usullari, ta'lim tizimi, o'quv jarayoni.*

**Китайский опыт создания
конкурентной среды в школьном
образовании**

Батиров Хамид Хакимович,
*Национальный исследовательский
институт профессионального развития
и обучения педагогов новым методикам
имени А. Авлони, заведующий отделом,
доктор философии (PhD) в области права.*

Аннотация: *проанализированы крите-
рии и методы оценки конкурентоспособ-
ности школ на китайском опыте, в ре-
зультате исследования сделаны выводы
о необходимости внедрения китайского
опыта в национальное законодательство.*

Ключевые слова: *конкурентоспособ-
ность, критерии оценки, методы, обра-
зовательная система, образовательный
процесс.*

**Chinese experience in creating
a competitive environment in
school education**

Botyrov Hamid Khakimovich,
*National Research OF Professional
Development and Teaching New
Methodologies to Teachers named after the
A. Avloni, Doctor of Philosophy (PhD) in Law,*

Abstract: *the criteria and methods for as-
sessing the competitiveness of schools on the
basis of Chinese experience are analyzed; as a
result of the study, conclusions are drawn about
the need to introduce Chinese experience into
national legislation.*

Keywords: *competitiveness, evaluation
criteria, methods, educational system, educa-
tional process.*

Sharq mamlakatlarining maktablarida ham raqobat muhitini shakllantirishda samarali tajribalar mavjud. Sharq mamlakatlarida o'ziga xos an'analar bilan ta'lim sifatini ta'minlashda yangi usul va vositalarni, innovatsiyalarni qo'llash va rivojlantirish borasida raqobat muhiti bir necha yillardan buyon shakllangan.

Xususan, **Xitoyda** maktab ta'limi, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar bo'yicha dunyodagi eng ilg'or ta'lim hisoblanadi [2]. Davlat maktablarida o'qitish xitoy tilida, xususiy maktablarda ingliz tilida olib boriladi. Ba'zi maktablarda ikki tilli dasturlar ham mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktablarda ta'lim olish yuki juda yuqori. Raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida bolalar kuniga 14 soat o'qishadi, doimiy ravishda test va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishadi. Maktabda, yakuniy imtihonga tayyorgarlik ko'rayotganda o'qish juda qiyinlashadi. Shu sababli, xitoylik maktab o'quvchilarining 10 foizida ruhiy toliqish alomatlarini kuzatiladi [3].

Xalqaro maktablarda o'quv dasturi va o'qitish usullari G'arb standartlariga moslashtirilgan [4]. Xususiy va eng yaxshi davlat maktablarida xalqaro IB va A-level dasturlar mavjud. Ularni tugatgandan so'ng, AQShga yoki Buyuk Britaniyaga o'qishga kirish ancha oson bo'ladi. Bu esa maktablar o'rtasida eng yaxshi dasturlarni taklif qilish va iqtidorli o'quvchilarni jalb qilishda raqobatga olib keladi.

Xitoyning yirik shaharlarida ta'lim darajasi juda yuqori. PISA xalqaro baholash dasturiga kora, Pekin, Shanxay, Jiangsu va Guandun provinsiyalaridagi maktab o'quvchilari o'qish, matematik va ilmiy savdonlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan [2].

Universitetga qabul qilishda raqobat

yuqori bo'lib, so'nggi 3 yillikda intensiv o'qishni talab etadi. Bu vaqtda o'quvchilar Gaokao yakuniy imtihoniga tayyorgarlik ko'rishadi. Imtihon qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik tayyorlanish jarayonlari keskinlashadi, bolaning kelajagi Gaokaoning natijalariga bog'liq bo'ladi [5].

Tahlil va natijalar. Xitoyda maktab ta'lim 3 bosqichga bo'linadi – boshlang'ich, o'rta va yuqori maktab. Boshlang'ich va o'rta maktab hamma uchun majburiydir. Ularga 10 ta fandan dars beriladi. O'rta maktabni bitirganlar to'g'ridan-to'g'ri ishga borishi yoki yuqori maktabda o'qishni davom ettirishi mumkin [6].

Nº	Ta'lim darajasi	Yillar	Sinflar
1.	Maktabgacha ta'lim	2-5	yearly years
2.	Boshlang'ich maktab	6-12	1-6
3.	O'rta maktab	12-15	7-9
4.	Yuqori maktab	15-18	10-12

Umumta'lim maktablari bolalarni 1-12-sinf gacha o'qitadi. O'rta maktabda asosiy maqsad kollejga tayyorgarlik ko'rishdan iborat.

Xalqaro maktablar asosan yirik shaharlarda joylashgan: Shanxay, Pekin, Guanchjou. Ular turli xil milliy va xalqaro dasturlar asosida o'qitishadi, bu AQSH, Buyuk Britaniyaning IB va A-Levels dasturlariga muvofiq tuzilgan.

Xitoyda xususiy maktablar soni juda katta, ular barcha maktablarning 35 foizini tashkil qiladi [7]. Shuning uchun ulardagi dasturlar juda farq qiladi. Xususiy umumta'lim muassasalarini 2 turga bo'lish mumkin: xalqaro va xususiy xitoy maktablar.

Xalqaro maktablarda ta'lim dasturi AQSh yoki Buyuk Britaniya modelida qurilgan va ingliz tilida o'qitiladi. Kurs oxirida o'quvchilar IB va A-Levels imtihon-

larini topshiradilar. Boshqa milliy tizimlar asosan yapon, koreys va nemis maktablari mavjud.

Xalqaro maktablarga kirish uchun raqobat juda yuqori va ko'pincha navbatlar paydo bo'ladi [8]. Xalqaro maktablar turli xorijiy tashkilotlardan akkreditatsiyadan o'tadilar. Masalan, Yangi Angliya maktablari va kollejlari assotsiatsiyasi, G'arbiy maktablari va kollejlari assotsiatsiyasi, chet el maktablarining Sharqiy Osiyo mintaqaviy kengashining akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalari dasturi XXRdan tashqarida ham tan olinadi. Shuning uchun, boshqa maktabga o'tish va chet elda o'qishni davom ettirish ancha oson bo'ladi.

Testlar va imtihonlar Xitoy ta'lim tizimining barcha bosqichlarida kiritilgan. Boshlang'ich maktabga qabul qilingandan so'ng, o'quvchilar arifmetika va xitoy tilidan boshlang'ich bilimlari uchun sinovdan o'tkaziladi. O'quvchilar har kuni kichik testlarni yechishadi va 6-sinf oxirida matematika va xitoy tilidan kerakli imtihonlarni topshiradilar [9].

Xitoyda o'qitish metodikasi mukofotlar va raqobatlar asosida qurilgan. O'quvchilarni sinf, fan va maktab bo'yicha reytingi yuritiladi. Reytingi yuqori o'quvchilar turli mezonlar asosida rag'batlantiriladi. Xususan, qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlari, mamlakat va mamlakatdan tashqari sayohatlarga chiqariladi. Bu esa o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi.

Xitoy maktablari darajaga asoslangan baholash tizimiga amal qiladi, bunda o'quvchi ta'limdagi yutuqlari asosida sinfda daraja beriladi. Raqobat ta'limning barcha darajalarida qat'iyydir, chunki Xitoy jamiyatida akademik yutuq juda qadrlanadi. Xitoyda reytingga asoslangan baholash tizimi raqobatbardoshdir. O'qituvchilar

o'quvchilarga ma'lum bir bahoni faqat bir necha marta qo'yishga ruxsat beriladi. Bu raqam ma'lum bir sinfdagi o'quvchilarning umumiy soni bilan belgilanadi. Shunday qilib, o'quvchilar sinfda eng yaxshi baholarga erishish uchun bir-biri bilan bevosita raqobatlashadilar, chunki sinfning faqat belgilangan qismiga eng yuqori baholar berilishi mumkin. Xitoy asosan 5 yoki 4 shkalali baholash tizimiga amal qiladi.

Xitoydagi maktablar 5 yoki 4 shkalali baholash tizimiga amal qiladi. 5 shkalali baholash tizimida quyidagi baholarni olishi mumkin:

A darajasi bu 85-100 foizgacha ball to'plagan o'quvchilarga beriladi, shunda 90-100 foizgacha A darajasi, 85-89 foizgacha ball olgan o'quvchilar A darajasi beriladi;

B darajasi bu 75-84 foizgacha ball to'plagan o'quvchilarga beriladi, 82-81 foizgacha B darajasi, 75-80 foizgacha bo'lganlarga esa B- beriladi;

C darajasi bu qoniqarli baho 64-74 foizgacha ball to'plagan o'quvchilarga beriladi. 70-74 foizgacha ball olganlarga C daraja, 64-69 foizgacha ball olganlarga esa C beriladi;

D darajasi bu baho imtihonlar yoki testlarni topshira oladigan o'quvchilarga beriladi. Foiz miqyosida 60-63 foizgacha ball olganlarga ushbu baho beriladi;

F darajasi 0-59 foizgacha bo'lgan foizni olgan o'quvchilarga F bahosi beriladi.

4 shkalali baholash tizimi quyida keltirilgan:

A darajasi bu baho imtihonlarida 85-100 foizgacha to'plagan a'lochilar uchun mo'ljallangan;

B darajasi bu o'quvchilarning yaxshi ekanligini va akademik testlarda 75-84 foizgacha erishganliklarini ko'rsatadigan bahodir.

C darajasini olgan o'quvchilar uchun

60-74 foizgacha. Ushbu bahoga ega bo'lgan o'quvchilar o'rtacha yoki qoniqarli deb hisoblanadi.

D darajasi bu baho o'quvchilarning muvaffaqiyatsizligini bildiradi. 0-59 foizgacha ball olgan o'quvlarga D bahosi beriladi.

Xitoy ham boshqa baholash tizimlariga amal qiladi. Xitoyda ta'limni baholashning yana bir shakli o'quvchi malakali yoki muvaffaqiyatsiz deb e'lon qilinadi. Biroq, Xitoyning ayrim boshqa ta'lim muassasalaridan ajratib turadigan o'ziga xos baholash shaklidan foydalanadi. Bunda o'tish balli 60 foizni tashkil etadi va u nafaqat imtihonlarga, balki darsdagi ishtiroki va uy vazifalariga ham asoslanadi [10].

Maktabni tugatgandan so'ng o'quvchilar Zhongkao yakuniy imtihonini topshiradilar. Imtihonda asosiy fanlar xitoy tili, ingliz tili va matematikadan savollar bo'ladi. Shuningdek fizika, tarix, kimyo, jismoniy tarbiya, siyosiy savodxonlikdan test savollari bo'lishi mumkin.

Xitoyning barcha yuqori maktablari 2 qismga bo'linadi:

Akademik – o'quvchilarni universitetga kirishga tayyorlash;

Kasb-hunar - ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mutaxassis sifatida tayyorlash.

O'quvchilar o'rtasida aynan yuqori maktabda o'qishni davom ettirish maqsadida raqobatlashishadi. Shuning uchun Gaokao imtihoni – bu o'rta maktab natijasi hisoblanadi. Ular bunga uch yil tayyorgarlik ko'rishadi va undan foydalanib universitetga borishadi [11].

Xitoyning baholash tizimlarida o'quvchilarning yutuqlari bilan bog'liq bo'lgan islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri sifatida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini rag'batlantiruvchi tashqi baholash tizimi bosqichma-bosqich shakllana boshladi. Milliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini tashqi baholash tizimini shakllan-

tirish jarayonida uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Baholash mazmunining keng qamrovlilik bilan ajralib turadi. Baholashning mazmuni nafaqat darslikdagi materialni yod olgani yoki olmagani, balki muammoni tahlil qilish, muammoni o'rganish jarayonida hamkorlik qilish, gipoteza qo'yish, eksperimentni hayotiy tajribaga asoslangan holda tashkil etish, rejalashtirish, o'tkazish qobiliyatini ham hisobga oladi.

2. Baholash faoliyati shakllari va usullari bilan farqlanadi. Test sinovlari bilan bir qatorda vaziyatni tahlil qilish, ishbilarmonlik o'yinlari, muhokamalar, muvaffaqiyatlarni namoyish qilish, o'quv kundaliklari, portfellar va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari faol o'rgatilmoqda.

3. Yakuniy baholashda sifat va miqdoriy usullarning o'zaro bog'liqligi belgilangan. Miqdoriy baholash darajalar tizimiga (masalan, yuz ballik tizim yoki alifbo tartibida – ABC) asoslansa, sifatli baholash esa turli sharhlarga asoslanadi. Asosiysi, o'quvchini bilim olish uchun raqobatga undaydi va erishgan yutuqlarini o'z vaqtida qayd etish natijasida o'quvchini bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi va o'ziga ishonch hosil qiladi.

Xitoy pedagogik ta'lim tizimi ilmiy-tadqiqotlarning muhimligi va butun tizimning takomillashuviga o'qituvchilar o'tkazgan tadqiqotlarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Samaradorlik loyihasining ko'rsatkichi – bu erishilgan natijalarni boshqa maktablarda boshqa o'quvchilar bilan takrorlash qobiliyatidir. Bu maktablarning bir muncha tajribali o'qituvchilari keyinchalik yangi tajribalarning samaradorligini baholash tadqiqotlariga jalb etiladi. Yaxshi o'qituvchilar maktab miqyosida dars ishlanmalari jarayoniga boshchilik qiladilar. Tajribali o'qituvchilar pedagogik faoliyatini endi

boshlayotgan o'qituvchilarga o'rgatishda va ba'zi o'zlashtirishi past o'quvchilar boshidan kechirayotgan qiyinchiliklarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadilar [1; 109]. Shuning uchun agar maktab direktor o'rinbosari direktor lavozimiga da'vogarlik qilsa, unda avvalo kuchsiz maktab natijalarini ko'tarishi lozim [1; 136].

Xitoyning Shanxay shahri o'quvchilari birinchi marta PISA-2009 tadqiqotida ishtirok etganlarida, ular darhol barcha uchun yo'nalish – o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha reyting cho'qqisini egalladilar. 2015-yilda Pekin, sziansu va Guandun ham Shanxay bilan birga tadqiqotda ishtirok etishga qaror qilishdi, ularning aholisi birgalikda 232 milliondan oshib ketdi. Bu shaharlarning barchasi matematika, tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha top 10 talikka kirdi. Shanxay maktab tizimi shunday tashkil etilganki, bunda ana shunday yaxshi

natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Eng yaxshi o'qituvchilarni bunday o'qituvchilarga muhtoj maktablarga jo'natishadi. Kuchli maktablar kuchsiz maktablarga yordam beradi. Bu jarayonining maqsadi – standartni birgalikda ko'tarishdir. Bu o'quvchilardan mumkin bo'lgan maksimum darajani olishning meritokratik tamoyilga asoslangan tizimli yondashuvdir. Shanxaydagi ta'lim – o'ta raqobatga asoslangan muhitdir. O'quvchilar ko'p hollarda o'z tayyorgarligini uyda yoki repetitor mashg'ulotlarida to'ldirishadi [1; 161-162].

Xulosa qilish mumkinki, Xitoy maktab ta'limidagi raqobatning o'ziga xosligi, asosan, o'quvchilarni baholash tizimiga ko'proq urg'u berilgan bo'lib, o'quvchilarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni jamoaviy bo'lib raqobat qilishga ko'proq undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreas Shlyaxer. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?/ Andreas Shlyaxer; so'z boshi Sh.Shermatov, H.Umarova; umumiy tahrir D.Norboyeva. – Toshkent: "Zamin Nashr" nashriyoti 2022. – 109-b.
2. <https://factsmaps.com/pisa-2018-worldwide-ranking-average-score-of-mathematics-science-reading/>
3. <http://pacificprime.cn/blog/mental-health-awareness-chinese-schools/>
4. <https://www.international-schools-database.com/articles/comparing-the-cost-of-international-schools-2018>
5. <https://www.nytimes.com/2016/07/31/world/asia/china-college-education-quality.html>
6. <https://www.prnewswire.com/news-releases/china-pre-school-education-kindergarten-industry-research-report-2014-283459641.html>
7. <http://www.chinadaily.com.cn/a/201907/28/WS5d3d0279a310d830564015c3.html>
8. <https://www.isb.bj.edu.cn/admissions/admissions-criteria-policies>
9. <https://hal.archives-ouvertes.fr/hal-01949253/document>
10. <https://www.chinaeducation.info/Education-System/grading-system.html>
11. <https://internationalednews.com/2019/03/06/new-gaokao-in-zhejiang-china-carrying-on-with-challenges/>

TABIIY FANLARNI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA

Badalova Maqsuda Umarovna,
*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri, iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD);*
Azamatova Dilafruz Saydig'aniyevna,
*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
ilmiy-tadqiqot bo'limi katta ilmiy xodimi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Singapur-ning Tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha tajribasi tahlil qilingan, milliy tajriba bilan taqqoslanib, taklif va xulosalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy fanlar, o'quv dasturi, ta'lim sifati, samaradorlik, o'quv-uslubiy majmualar.

**Международный опыт
совершенствования преподавания
естественных наук**

Бадалова Максуда Умаровна,
*Заведующая научно-исследовательского
отдела Национального
исследовательского института
имени А.Авлони, доктор
философии (PhD) по экономике;*
Азаматова Дилафруз Сайдиганиевна,
*старший научный сотрудник
научно-исследовательского отдела
Национального исследовательского
института имени А.Авлони*

Аннотация: в статье анализируется опыт Сингапура в области естественнонаучного образования, сравнивается с

национальным опытом, приводятся выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Естественные науки, учебные планы, качество образования, эффективность, учебно-методические комплексы.

**International experience
in improving science teaching**

Badalova Maqsuda Umarovna,
*Head of Research Department of the A.Avloni
National Research Institute, Doctor
of Philosophy (PhD) in Economics,*
Azamatova Dilafruz Saidiganieva,
*National Research Institute named after
A.Avloni Senior Researcher,
Research Department*

Abstract: this article analyzes Singapore's experience in science education, compares it with the national experience, and provides suggestions and conclusions.

Keywords: Natural sciences, curriculum, quality of education, efficiency, teaching-methodical complexes.

Hozirgi kunda dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalar shiddatli va barqaror taraqqiyotning mustahkam poydevori hisoblanadi. Jahonning tobora ko'proq mamlakatlari axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan, "axborotlashgan jamiyat", "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot"ni bunyod etishga qaratilgan rivojlanish modelini tanlayotgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ijodiy fikrlash, axborotni tanqidiy idrok etish va odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati nafaqat o'qish va ishda, balki hayotda ham muhimdir. Ular maqsadlarga erishish strategiyasini yaratishga, inson oldida turgan turli muammolar va vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

PISA tadqiqotlarining eng muhim kashfiyotlaridan biri yetakchi o'rinlarni egallagan Singapur, Kanada, Finlandiya kabi davlatlarda ta'lim tizimi o'zgarib va yaxshilanib borganini ko'rsatadi. Ertangi kun talablarini o'rgatadigan ta'lim asosida o'qitadigan, sinovdan o'tib ijobiy natijalarga erishgan xalqaro tajribani o'rganish umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi.

2023-yil 15-avgustdan 15-noyabrgacha bo'lgan muddatda bir qator xorijiy nashriyotlar, jumladan Singapurning "Marshall Cavendish Education Group", "Star Publishing Pte Ltd", "Shing Lee Education"; Buyuk Britaniyaning "Cambridge University Press", "Hodder Education"; Germaniyaning "Klett-Verlag", Finlandiyaning "Otava", Janubiy Koreyaning "Visang Education", Yaponiyaning "Keirinkan Publishing Company" va "Seishinsha Publishing Company", Turkiyaning "ÖZGÜN matbaacilik, Ankara", "Caglayan matbaasi-Izmir" nashriyotlarining darslik va o'quv-metodik majmualari Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markaz tomonidan tashkil etilgan

ekspertlar guruhi tomonidan o'rganib tahlil qilindi. Mazkur ekspert guruhda A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot bo'limi ham faoliyat yuritdi.

Tahlillardan Singapur tajribasiga to'xtalsak. Singapur ta'lim tizimi 3 bosqichni qamrab oladi. Bular, maktabgacha ta'lim (3-6 yosh), maktab ta'limi (6-18) va oliy ta'lim. Singapurda tizim olti yillik boshlang'ich maktabni, keyin 4-6 yillik o'rta maktabni va bir yildan uch yilgacha o'rta maktabdan keyingi ta'limni o'z ichiga oladi. Singapur maktablarida tabiiy fanlar turkumidagi kimyo, biologiya, fizika fanlari ta'limning 10-yilidan boshlab alohida fan sifatida o'qitiladi.

Quyidagi 1-jadvalda Singapur va O'zbekistonning ta'lim tizimi tahlili aks ettirilgan bo'lib, tabiiy fanlarni o'qitishda ahamiyat berilgan ma'lumotlar keltirilgan.


Singapur fan o'quv dasturi asosi ilmiy izlanish ruhi va amaliyoti asosida tuzilgan hamda fan amaliyoti uchun muhim bo'lgan uchta ajralmas sohani belgilaydi: bilim, tushunish va qo'llash; ko'nikmalar va jarayonlar; qadriyat va munosabatlar. O'quv dasturi o'quvchilarga fanga intilish mazmunli va foydali ekanligini tushunishga imkon beradi, chunki u fanning kundalik hayotda, jamiyatda va atrof-muhitdagi orni bilan bog'liq bilimlar, muammolar va savollarga asoslangan [1]. Bu bog'liqlik model orqali ifodalangan (1-rasm).

Tabiiy fanlar ta'limi mazmunini fandagi asosiy tushunchalar; tadqiqotlar; qadriyatlar tizimi (milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq va fanni o'rganishga ijobiy munosabat) tashkil etadi. Tabiiy fanlar ta'limi o'quvchilarda kreativlik, odillik, xolislik (obyektivlik), ochiq fikrlik, o'ziga ishonch, mulohazalilik qat'iyatlilik, qiziquvchanlik kabi jihatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Rasmda tasvirlangan qo'llar o'quvchilarning tadqiqotchilik

T/r	Ta'lim tizimlari	O'zbekistonda maktab ta'limi	Singapurda maktab ta'limi
1	Maktab yosh davri	7 yoshdan 18 yoshgacha	6 yoshdan 18 yoshgacha
2	Boshlang'ich ta'lim	1-4-sinf	1-6-sinf
3	O'rta ta'lim	5-11-sinf	7-12-sinf
4	Maktabdan keyingi ta'lim		1-3 yilni qamrab oladi
5	Tabiiy fanlarning o'qitilishi qamrab olingan sinflar	1-6-sinflarda tabiiy fanlar o'qitiladi	1-9-sinflarda tabiiy fanlar o'qitiladi
6	Tabiiy fanlar turkumiga kiruvchi fanlar alohida fan sifatida o'qitiladigan sinflar	7-sinf dan boshlab alohida fan sifatida o'qitiladi	10-sinf dan boshlab alohida fan sifatida o'qitiladi

1-jadval. Singapur va O'zbekistonning ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitilishi tahlili.

rolini, o'qituvchi esa o'quvchilarning o'rganishiga yordam beruvchi (fasilitator) rolini bajarishini ifodalaydi.



1-rasm. Singapurda tabiiy fanlarni o'qitish modeli

Tabiiy fanlarning hayotga tatbiqi o'quvchilar muammoli vaziyatlarni muhokama qilayotganda ilmiy dalillardan foydalanib o'z nuqtayi nazarini asoslash, ilm-fan va texnologiya yutuqlaridan foydalanishning yashash hududidagi atrof-muhitga ta'sirini muhokama qilish, ilm-fan yutuqlari hayotda qanday qo'llanilishi, odamlarning tabiat, atrof-olam haqidagi bilimlari tadqiqotda to'plangan dalillar tufayli vaqt o'tishi bilan o'zgarganini bayon etish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi [2].

Dastur tahlili. Boshlang'ich va o'rta ta'lim sinflari bo'yicha o'quv dasturi o'quvchilar kundalik tajribalarida va tabiatda kuzatiladigan hodisalar bilan bog'lanadigan mavzular asosida ishlab chiqilgan. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlardagi asosiy beshta bo'lim - xilma-xillik, sikllar, energiya, o'zaro ta'sirlar va tizimlar qamrab olingan. O'rta ta'lim sinflarida o'quv dasturi boshlang'ich bosqichdagi bo'lim mavzularini davom ettiradi. O'rta maktab o'quvchilar egallagan bilimlarini qo'llashni rivojlantirish uchun ilmiy ishlar bilan tanishtiriladi va kundalik sharoitlarda amaliy topshiriq yoki topshiriqlar orqali o'rganish imkoniyatlari bilan ta'minlanadi. Bu o'quvchilarga fanning hayot va atrof-muhit bilan bog'lanishini anglash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda boshlang'ich va o'rta ta'limda Tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mavzular qisqacha ko'rsatilgan.

O'quv-uslubiy majmualar tahlili. Har bir sinf uchun yaratilgan darsliklarda mavjud tushunchalar ilmiy asoslangan dalillar, tabiatda uchraydigan jarayonlar, kundalik hayotdagi misollar bilan tushuntirilgan, mavzulardagi asosiy tushunchalar "Tayanch iboralar" ruknida berilgan.

Boshlang'ich sinflarda Tabiiy fanlar (3-6-sinlar)	O'rta ta'limda Tabiiy fanlar (7-8-sinlar)
Xilma-xillik	
- Tirik va jonsiz mavjudotlarning xilma-xilligi (umumiy xususiyatlari va tasnifi) - Materiallarning xilma-xilligi	- Moddalarning fizik xossalari bo'yicha xilma-xilligini o'rganish; - Kimyoviy tarkibi bo'yicha moddaning xilma-xilligini o'rganish; - Ajratish usullaridan foydalangan holda materiyaning xilma-xilligini o'rganish; - Tirik mavjudotlarning xilma-xilligini tushunish.
Sikllar	
- O'simliklar va hayvonlardagi sikllar (hayot aylanishlari va ko'payish) - Modda va suvdagi sikllar	
Energiya	
- Energiya shakllari va ishlatilishi (yorug'lik, issiqlik va fotosintez) - Energiya almashinuvi	
O'zaro ta'sirlar	
- Kuchlarning o'zaro ta'siri (magnit, ishqalanish kuchi, prujinadagi og'irlik va tortishish kuchi) - Atrof-muhit ichidagi o'zaro ta'sir	- Kuchlarni qo'llash orqali o'zaro ta'sirlar - Energiya va bajarilgan ish - Ovoz energiyasini tebranishlar orqali uzatish - Issiqlik ta'siri va uni uzatish - Kimyoviy o'zgarishlar - Ekotizimlar ichidagi o'zaro ta'sirlar
Modellar	
	- Hujayralar modeli – hayotning asosiy birliklari - Moddaning modeli – materiyaning zarracha tabiati - Moddalar modeli – atomlar va molekularlar - Yorug'likning nurli modeli
Tizimlar	
- O'simlik tizimi (o'simlik qismlari va funksiyalari, nafas olish tizimlari) - Inson tizimi (ovqat hazm qilish tizimi, nafas olish va qon aylanish tizimlari) - Hujayra tizimi - Elektr tizimi	- Tirik organizmlardagi transport tizimi - Insonning ovqat hazm qilish tizimi - Inson reproduktiv tizimi - Elektr tizimlari

2-jadval. Boshlang'ich va o'rta ta'limda Tabiiy fanlar bo'yicha o'rganiladigan mavzular.

Topshiriqlar turli usullar: matn, jadval, grafik shaklida berilgan, ba'zi mavzular uchun loyiha ishlari kiritilgan. Loyiha ishi orqali o'quvchilarning ixtirochilik qobiliyatlari rivojlanishi fanni amaliy ahamiyatini oshiradi.

Mavzu mazmunidagi jarayonlar va ho-

disalarning borishi vizual sxema, grafik va jadvallardan foydalanilgan, bu esa ma'lumotlarni turli shaklda qabul qilish va bir-lashtirishni rivojlantiradi. Barcha sinflarda mavzularni yoritishda fanlararo integrat-siyadan foydalanilgan.

Tabiiy fanlarga oid barcha darsliklar

tuzilishida: darslikdan foydalanish uchun yo'riqnoma, har bir yangi bob boshlanishida o'rganadigan tushunchalar, QR kodlar orqali online resurslardan foydalanish imkonini berilgan. Mavzuga oid boshqa fanlar bilan bog'liq tushunchalar kiritilib, mazmun boyitilgan, bob so'ngida turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlar, klaster usulida umumlashtirish kabi bir qancha muhim elementlar mavjud. Darslikda ilmiy tushunchalar, jarayonlar va ko'nikmalarni egallashga yordam beradigan, o'quvchiga yo'naltirilgan yechimni taklif qilish uchun konstruktiv-kognitiv yondashuvdan foydalanilgan.

Mavzularni o'rganish tabiiy fanlarni tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun fotosuratlar, infografika, savollar, topshiriqlar va amaliy tadqiqotlar bilan boyitilgan. O'quvchilar uchun tabiiy fanlarga oid bilimlarini hayotga tatbiq etishi va tabiiy fanlarni o'rganishning ahamiyatini tushunishi uchun interaktiv kengaytirilgan haqiqat (AR) modellari kiritilgan.

Darslik bilan birga o'quvchi uchun mashq daftari, o'qituvchiga metodik qo'llanma ham tayyorlangan. Bunday o'quv-uslubiy majmualar tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Mashq daftarida darsda o'rganilgan mavzu yuzasidan mustahkamlashga oid amaliy topshiriqlar berilgan. O'qituvchi

uchun metodik qo'llanmada bobni o'qitishda soatlar taqsimoti, beriladigan savollar va topshiriqlarga javoblar keltirilgan.

Yuqoridagi kabi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Singapurning Tabiiy fanlar ta'limi o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq va fanni o'rganishda ijobiy munosabatni shakllantirishga imkon beradi. Spiralsimon o'qitishdan foydalanish o'quvchilarga bilimida mustahkam poydevor qo'yishda sinflar kesimida chuqurlashib boradigan tushunchalar va ko'nikmalarga qaytish imkonini beradi. Singapur ta'limi Barqaror rivojlanishning o'quvchilarida ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda asosiy vositasi ekanini ta'kidlash mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda o'quvchi uchun mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanmalarni joriy etish tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mavzularni o'rganish va mustahkamlashga doir topshiriqlarni tuzishda matn, grafik, jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday topshiriqlarni bajarish o'quvchining fikrlash, izlanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy tajriba va tadqiqotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu jarayonlar o'z navbatida o'quvchilarning o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, tabiiy-ilmiy savodxonligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Science Ahead International. Lower Secondary. Student book. Authors: Alexander Gray. Consultants: Dr Roy van den Brink-Budgen va Dr Teo Tang Wee © Marshall Cavendish Education, 2020, p-280.
2. Cambridge Primary Science. Teacher's Guide. Consultants: Dr Roy van den Brink-Budgen and Authors: Jasvinder K. Randhawa and Dr Natasha Mehta Dr Teo Tang Wee © Marshall Cavendish Education, 2020, p-148.
3. Mullis I.V.S., Martin M.O., Goh S., & Cotter K. (Eds.) (2016). TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS. pp. 1-40
4. mceducation.com – Marshall Cavendish Education | Education Solutions Provider | MCE – Marshall Cavendish Education Pte Ltd -Singapur ta'lim nashriyoti platformasi

TA'LIM SIFATI: BUGUN VA ERTA!

Muradov Ikrom Turdiboevich,

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining katta ilmiy xodimi. e-mail: muradov_ikrom@mail.ru

Ostanova Xurshidabonu Gafurovna,

Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi metodisti, mustaqil tadqiqotchi

Niyozova Ra'no Maxmudovna,

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: maqolada dolzarb muammo – ta'lim muassasasida ta'lim sifatini oshirish muhokama qilinadi. Butun dunyoda ta'lim sifati insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti hamda oxir-oqibat davlatning nufuzini oshirishning hal qiluvchi omili sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, kompetensiya, mehnat bozori, marketing, repetitor, sinf, xususiy maktab.

Качество образования: сегодня и завтра!

Мурадов Икром Турдибоевич,
Национальный исследовательский институт профессионального развития и обучения педагогов новым методикам имени А.Авлони, старший научный сотрудник,

Останова Хуршидабону Гафуровна,
Национальный центр подготовки учителей по новым методикам города Ташкента, методист,

Нийёзова Раъно Махмудовна,
Национальный институт профессионального развития и обучения педагогов новым методикам научно-исследовательского института имени А.Авлони, научный исследователь.

Аннотация: в статье рассматривается актуальная проблема – повышение качества образования в образовательном учреждении. Во всем мире качество образования признано решающим фактором развития творческого потенциала человека, экономического и социального прогресса общества и, в конечном итоге, повышения престижа государства.

Ключевые слова: Качество образования, компетентность, рынок труда, маркетинг, репетитор, класс, частная школа.

The quality of education: today and tomorrow!

Muradov Ikrom Turdubaeovich,
National Research OF Professional Development and Teaching New Methodologies to Teachers named after the A.Avloni, Senior Researcher,
Ostanova Khurshidabona Gafurovna,
National Teacher Training Center for new methods of the city of Tashkent, Methodist,

Niyozova Rano Makhmudovna,
National Research OF Professional Development and Teaching New Methodologies to Teachers named after the A.Avloni, scientific researcher.

Abstract: the article deals with an urgent problem – improving the quality of education in an educational institution. All over the world, the quality of education is recognized as a decisive factor in the development of human creativity, economic and social progress of so-

ciety and, ultimately, increasing the prestige of the state.

Keywords: Quality of education, competence, labor market, marketing, tutor, class, private school.

Bugungi kunda ta'lim sifatini baholash yangi mazmun va ahamiyat kasb etdi. Zero, ta'lim sifati ilm oluvchilar (talabalar, malaka oshiruvchilar) va o'qituvchilarning akademik harakatchanligini ta'minlaydi.

Mehnat bozorida tez o'zgarib borayotgan zamonaviy talab ta'limga ma'lum bir kasb bo'yicha zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lgan va shuning uchun ularga yuklangan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan talabga mos keladigan malaka darajasiga ega bitiruvchilarni tayyorlashga buyurtma beradi. Odatda ish beruvchi vakili bo'lgan jamiyat ta'lim sohasi "mahsulotlari" uchun buyurtmachi bo'lib, mehnat bozori marketingini amalga oshirish orqali ushbu ehtiyojni qondirishi kerak.

"Ta'lim sifati" konsepsiyasi faol muhokama qilinayotganiga qaramay, hozirgi vaqtda u haqida umumiy tushuncha mavjud emas. Ta'lim rivojlanishining har bir bosqichida yangi shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar paydo bo'ladi. Sifatni baholash mezonlari o'zgarmogda, sifat menejmenti muammosi kuchayib bormogda va yana bu muammoni o'rganish hamda hal qilish zarurati tug'iladi.

Jahon tajribasida ta'lim sohasidagi davlat siyosati 3 ta asosiy ustuvor yo'nalishga asoslanadi: ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash, sifatni ta'minlash va ta'lim muassasalarining moliyaviy samaradorligini oshirish [1]. Ta'lim sifatini oshirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bugun maktab ta'limini qaraydigan bo'lsak, o'z-o'zidan og'riqli savollar tug'iladi. Jumladan, o'quvchilar orasida repetitor xizmatidan foydalanmaganlar bormi? Nima uchun yoshlar 11 yil maktabda o'qib, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun yana repetitora murojaat etishga majbur bo'lmoqda? Nimaga ota-onalar repetitor topib, bolasini oliy ta'limga kiritayapti-yu, davlat bu sohaga qancha pul ajratmasin, maktab bitiruvchilarining 50 foizi ham oliy ta'limga kiraolmayapti?

Ta'lim sifati pastligidan, albatta! [2]

Ta'lim tizimi amalda "tubdan isloh qilinish"ga muhtoj sohalardan hisoblanaadi. Chunki: 1-sinfdan to 11-sinfgacha ona tili fani o'qitiladi. Lekin yurtimizda savodli, imlo qoidalarini yaxshi biladigan odamlar necha foiz deb o'ylaysiz? Bu savolga ko'chalardagi reklama-e'lonlar matnidagi xatoliklar javob bo'ladi.

Huquqshunoslik fanini ham yillab o'qiganmiz-u, deyarli hech birimiz o'z haq-huquqimizni yaxshi bilmaymiz. Iqtisod darsida "5" baho olgan bo'lsak ham, pulni qayerga sarflashni, tejab-tergab xarj qilishni tushunmaymiz. Qiziq-a?!

Maktabda 2-sinfdan 11-sinfgacha rus tili fani o'qitiladi. Lekin aksar o'quvchi bu tilda muloqot qilish u yoqda tursin, do'kon-dagi rus sotuvchidan non so'rashni ham bilmaydi, ikkita jumlani eplab gapirolmaydi. Ingliz tilida ham ahvolimiz shu! Nima maktabning vazifasi o'quvchini ma'lum vaqt oralig'ida binoda ushlab turishdan iboratmi?

Qachon o'qituvchining jamiyatdagi

mavqeyini tiklaymiz, qachon uning maoshi yaxshilanadi, qachon yoshlar o'qituvchiga havas qiladi, ustoziday bo'lishga intiladi? Qachon o'quvchilar ustoziga rahmi kelib qaramaydi?

2030-yilga borib o'qituvchilarning oyligi 1000 AQSh dollari bo'lar ekan. Shu joyda bir narsani unutmaylikki, faqatgina munosiblariniki ushbu summaga yetkazilar ekan. Bugun ta'limning ahvoli qanday bo'lsa, ertaga kelajagimiz ham shu ko'rinishda bo'y ko'rsatadi. Bundan ham battar tus olishi hech gap emas. Ta'lim sifatini oshirish, buning uchun kurashish ijtimoiy harakatga aylanishi lozim.

Afsuski, chekka hududlardagi ayrim maktablarimizning ahvoli nihoyatda ayanchli. Bu yerda eng birlamchi sharoitlar ham yo'qligi, kommunikatsiya, maktab jihozlari, hattoki o'quvchilar uchun joy yetarli emasligini ko'rish og'riqli hisoblanadi.

Yurtimizda tug'ilishlar soni hamon yuqori. Yildan yilga 1-sinfga qabul qilinyotgan o'quvchilar soni ortib bormoqda. Hozir yurtimizda 10 mingdan ziyod maktablar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga har yili 700 mingdan ziyod o'quvchi 1-sinfga qabul qilinadi.

“Ba'zi maktablarda bitta sinfda 40 nafargacha o'quvchi o'tirgani ham bor gap. Hali yana ko'plab o'quvchi o'rinlari barpo etilishi kerak. Bu og'ir jarayon. Lekin bu muammolarni hal etmaslikning iloji yo'q, o'quvchilarga sharoit yaratmasdan turib, ta'lim sifati haqida gapirish befoyda”, deya ta'kidladi Saida Mirziyoyeva. [3]

Maktab ta'limiga chuqur islohotlar darakor. Ishlarni muvozanatni saqlagan holda, parallel ravishda olib borish kerak: maktablarning to'liq ta'mirlanishi, ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, zarur o'quv-laboratoriya uskunalari bilan ta'minlangani holda yangi ta'lim dasturini joriy etish, o'qituvchilar saviyasi ham oshi-

rib borilishi lozim.

Avvallari fanlar o'quv kabinetlarida o'tilardi. Hozir bu usulda dars berishda amalda voz kechib yuborilgan. Tan olish kerak, ko'plab maktablarda hozir buni ta'minlash ham qiyin. Chunki o'quvchi soni ko'paygani sababli maktablar o'quvchilarni ikkinchi, hattoki, ayrim joylarda uchinchi sinflarda o'qitishga majbur. Sinflarda ham bizning yoshligimizdagidek 25-28 o'quvchi emas, 45-50 nafardan o'quvchi o'qimoqda. “Ko'rpaga qarab oyoq uzatish” kerak: bu sharoitda kabinet tizimi o'zini oqlamaydi.

Ammo 45 daqiqalik dars mobaynida 45 nafar o'quvchiga sifatli ta'lim berish, ularning bilim darajasini tekshirib ko'rish amalda imkonsiz. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish uchun sinfxonalarni ko'paytirish, bitta sinfda o'quvchilar sonini maksimum 30 nafar qilib belgilash lozim. Mo'ljalni shunga qarab olaverish kerak.

9-sinfgacha umumiy ta'lim berib, 10-11-sinflarda o'quvchilarni bilim, ko'nikmalari va qiziqishlariga qarab ma'lum bir yo'nalishda chuqurlashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish kerak.

Avvallari maktablarni bitirgan o'quvchilar 9-sinfdan so'ng litsey yoki kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishardi. Bu usuldan negadir voz kechildi. 10-11-sinflar uchun maktablarda kimyo-biologiya laboratoriyalari, fizika-matematika, tarix va geografiya uchun jihozlangan sinflar kerak. Albatta, 10 mingdan oshiq umumta'lim maktablari uchun geografiya va tarix fanlari uchun qog'oz xaritalar yasashning imkonibordir, fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarni yanada tushunarli qilib o'tish uchun laboratoriya namunalari yasab bo'lmaydi. Masalan, fizika darsida optika, elektr mexanikasi mavzularini tushuntirish uchun laboratoriya uskunalari, kimyo darsida kimyoviy reagentlar bo'lardi, reaksiyalar o'tkazardi. Biologiya darsida biologiya kabine-

tida insonning skeleti, turli jonivorlarning shishaga solingan namunalari bo'lardi.

Hozir 10 mingdan ortiq maktab uchun bunday namunalar tayyorlashning amalda imkoni yo'q. Vaziyatdan chiqishning usuli bor. Ya'ni, maktab o'quvchilari uchun darsliklar tayyorlashga katta urg'u qaratilishi lozim. Maktabda o'qitiladigan tarix, geografiya, matematika, geometriya, adabiyot, chet tili, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlardan har bir mavzu bo'yicha video-darsliklar tayyorlanishi kerak.

Maktablarga doska yonida ulkan interaktiv monitorlar o'rnatilib, videodarsliklar slayd ko'rinishida namoyish etilishi lozim. Maktab sinfxonalarini interaktiv doskalar bilan ta'minlash, ularning benuqson faoliyat ko'rsatishini ta'minlash kerak bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu borada chuqur izlanib, mutaxassislarni jalb qilib, har bir fan uchun ishchi guruh tuzib, xorijning eng ilg'or tajribalaridan foydalangan holda maxsus dastur tuzib olinishi kerak. Bu ishlarni bir kunda, bir haftada yoki bir yilda ham yo'lga qo'yib bo'lmaydi, albatta. Yo'lga qo'yilganda ham, u ertasi kuniyoq yoki kelgusi yiliyoq mevasini bermaydi, albatta.

Maktablarda ta'lim tizimini rivojlanti-

rishning muhim besh yilligi e'lon qilinib, birinchi yo'nalishda yangi maktablar qurish, borlarini yaxshilab ta'mirlash, zaruriyat mavjud joylarda qo'shimcha sinfxonalar qurish, ularni muqobil energiya manbaiga o'tkazish, isitish tizimini sozlash, moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, interaktiv doskalar bilan to'liq ta'minlash kabi ishlar bilan shug'ullanish kerak. Bunga parallel ravishda ikkinchi yo'nalishda o'qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy ta'lim dasturi ishlab chiqish, sifatli darslik kitoblari va interaktiv darsliklar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish kerak.

Ta'lim sifatini oshirish uchun mamlatimizda davlat sherikchiligi asosidagi maktablar, xorijiy sherikchilik asosidagi maktablar, xususiy maktablarni ko'paytirish kerak. Oliy ta'lim muassasalar qoshida, yirik korxona va tashkilotlar qoshida maktablarni, ta'lim klasterlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ularni qurish uchun bizda joy ham, tadbirkorlar ham yetarli. Biroq nima uchundir hamma o'zini do'kon yoki to'yxona qurishga uryapti. Buning o'rniga tadbirkorlar bitta bo'lsa ham xususiy maktab qursa, yuzlab bolalarning sifatli ta'lim olishiga hissa qo'shgan bo'lardi [4] desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жук А.И. Качество в системе приоритетов государственной политики в области образования в Республике Беларусь / А. И. Жук // Белорусская система образования [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://bel-educ.narod.ru/БЕД011.хтм>. – Дата доступа: 09.01.2014.
2. Ta'lim sifati qanday oshiriladi? (yoshlarovozi.uz)
3. Maktablardagi ta'lim sifati: o'quvchilarga malakali muallim, yaxshi sharoit va interaktiv darsliklar kerak (kun.uz)
4. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun xususiy maktablarni ko'paytirish kerak – Uzbekistan News | DARYO.UZ
5. Radjiyev A, Karimov F, Ibragimov A.G., Axmedov M. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami 1-2-to'plamlar // – Toshkent, 2022 yil.
6. www.uzedu.uz
7. www.stat.uz
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
9. <https://www.statistics.com>

INKLYUZIV TA'LIMDAGI O'QUVCHILARINING TA'LIMDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Qodirova Dilafruz Odiljonovna,
*Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani,
16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi,
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish, kreativlik ko'nikmalarini yuzaga chiqarishning ahamiyati bayon etilgan. Unda asosiy e'tiborni kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlanganligini aniqlash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Interaktiv o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida o'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimini takomillashtirish, kreativlik qobiliyatlarning rivojlanganlik darajalarini aniqlash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, shaxs, qobiliyat, interaktiv metodlar, ijodkorlik, texnologiyalar, mezonlar, darajalar, omillar.

Современные методы развития образовательной деятельности учащихся инклюзивного образования

Кадырова Дилафруз Одильжоновна,
Наманганская область Янгикурганский район, Средняя общеобразовательная школа № 16, Учитель начальных классов

Аннотация: в данной статье описывается значение развития творческой деятельности младших школьников на основе современных педагогических технологий и интерактивных методов, вывода на поверхность творческих умений и навыков. Основное внимание в ней уделяется совершенствованию критериев и механизмов определения развития творческих способностей у младших

школьников на основе компетентностного подхода. Речь идет о совершенствовании комплексной методической системы развития творческих способностей учащихся средствами интерактивных методов и технологий обучения, выявлении уровней развития творческих способностей.

Ключевые слова: креативность, личность, способности, интерактивные методы, креативность, технологии, критерии, уровни, факторы.

Modern methods of development of educational activities of students of inclusive education

Kadyrova Dilafruz Odilzhonovna,
Namangan region Yangikurgan district, Secondary school No. 16, Primary school teacher

Abstract: this article describes the importance of developing the creative activity of younger schoolchildren on the basis of modern pedagogical technologies and interactive methods, bringing creative skills to the surface. It focuses on improving the criteria and mechanisms for determining the development of creative abilities in younger schoolchildren based on a competence-based approach. It is about improving the comprehensive methodological system for the development of students' creative abilities by means of interactive teaching methods and technologies, identifying the levels of development of creative abilities.

Keywords: creativity, personality, abilities, interactive methods, creativity, technologies, criteria, levels, factors.

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan hozirgi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a'zolarining kreativ faollik darajasi e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan Xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, qat'iyat va jonbozlik, shijoat ko'rsatishni talab etmoqda.

Xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini quyidagi yondashuv asosida shakllantirishni tavsiya etadi: 1) kasbiy bilimga ega bo'lish; 2) loyihachi bo'lish; 3) konstruktiv bo'lish; 4) maslahatchi bo'lish; 5) tashkilotchi bo'lish. Mazkur komponentlarning ma'nosi quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-nazariy bilimni egallashi, mustaqil fikrga ega bo'lishi va mudom o'zi ustida ishlab borishi kerak; uning loyihachiligi har bir darsni o'ziga xos tarzda o'tkazishi bilan belgilanadi; konstruktivligi o'quvchilar bilan til topisha olishi va bolaparvarligi bilan namoyon bo'ladi; maslahatchiligi ta'lim oluvchilar va ularning manfaatdor shaxslari bilan kirishimligidir; tashkilotchiligi esa yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasida quyidagilar namoyon bo'lishi kerak:

- bolaparvarlik;

- o'z kasbini sevishi;
- pedagogik faol bo'lish;
- o'z ustida doimiy ishlashi.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mapqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;

- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurollantirish;

- v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish;

- g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish. Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir.

Ayni paytda, har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo'lmaydi. Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malaka bo'lishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik vazifani qo'ya olishi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo'lishi shart;

- o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash. O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblana-di. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ular-da zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan soha-lari vakillarining jamiyatimizdagi o'rne va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharo-itlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlari-ni ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda no-davlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'lim-ni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini ya-ratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluv-chilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy ha-rakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidor-li yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilot-lar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot dav-rida ma'naviy-ma'rifiy ishlarining samara-li va ta'sirchanligini oshirish, ko'lam va miqyosini yanada kengaytirish mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik his-sini kuchaytirish, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlar ilmiy va tad-qiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoi-y-ma'naviy muhit barqarorligini mustah-kamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifa-tida belgilab olingan.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamo-naviy kasbiy ta'lim mazmunini internat-sionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsi-on ta'lim muhitini shakllantirish, interfa-ol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmla-rini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkuri-da, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Krea-tivlik shaxsni yaxlit holda yoki uning mu-ayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuning-

dek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. P.Torrens fikricha, "Kreativlik" tushunchasi negizida quyidagicha yoritiladi:

muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

farazni tekshirish va o'zgartirish;

qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni bildiradi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) singari kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, ammo, bu holat bolalarning kelajakdagi ijodiy yutuqlarga erishishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari lozim degan ehtimolni ifodalaydi.

O'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1) o'quvchilar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) ularning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirib borish;

3) o'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish lozim deb topildi.

O'quvchi yoshlarning kreativlik faoliyatlari rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagicha mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarining shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish.

Interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari o'quvchilarning kreativ faoliyatining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi hamda o'quvchilarda kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayoni o'zining muayyan mazmuni, vositalari, xususiyatlari, usullari va pedagogik shart-sharoitlariga ega. Ta'lim oluvchilarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida duch keladigan pedagogik-psixologik to'siqlarni bartaraf etishning samarali usullarini belgilab chiqish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. / "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 27-mart, №2 (7842).

2. Toshtemirova S.A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). – S. 5.

3. Ibragimova G. (2015). Pedagogik innovatsiyalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim, 1(3), 50-54.

4. Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiri, 1(1). 56-61.

INKLYUZIV TA'LIM – MUVAFFAQIYAT TA'LIMI

To'xtamatova Maftuna Ismonjanovna,
*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi, metodik xizmat ko'rsatish
bo'limi Boshlang'ich ta'lim metodisti,
maftunatoxtamatova@gmail.com*
To'yqulova Gavharoy Mavlonovna,
*Namangan viloyati Norin tumani 18-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi, Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligi, inklyuziv ta'limda zamonaviy metodlarni qo'llash samaradorligi va istiqbol-lari yoritilgan. Maqola imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, raqamli texnologiya, kreativ fikrlash, rag'batlantirish, masofaviy ta'lim va interaktiv xizmatlar, elektron pedagogika.

Инклюзивное образование – успешное образование

Тохтаматова Мафтуна Исмонжановна,
*Наманганский областной национальный
центр подготовки педагогов новым
методикам, отдел методического
обслуживания, методист начального
образования.*

Тойкулова Гавхарой Мавлоновна,
*Наманганская область Нарынский район
средняя общеобразовательная
школа № 18, Учитель начальных классов*

Аннотация: в данной статье освещается эффективность применения цифровых технологий в инклюзивном образовании, эффективность и перспективы применения современных методов в инклюзивном образовании. Статья посвящена обучению

и воспитанию учащихся с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, креативное мышление, мотивация, дистанционное образование и интерактивные услуги, электронная педагогика.

Inclusive education – successful education

Tokhtamatova Maftun Ismonzhanovna,
*Namangan Regional National
Center for teacher training in new methods,
department of methodological services,
primary education methodologist.*

Toikulova Gavkhara Mavlonovna,
*Namangan region Naryn district, secondary
school No. 18, Primary school teacher*

Abstract: this article highlights the effectiveness of the use of digital technologies in inclusive education, the effectiveness and prospects of using modern methods in inclusive education. The article is devoted to the education and upbringing of students with disabilities.

Keywords: inclusive education, digital technologies, creative thinking, motivation, distance education and interactive services, electronic pedagogy.

Inklyuziv ta'lim nima?

O'quvchilaringiz, farzandlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor. Bizning sog'lom o'quvchilarimiz ular bilan do'stlashib, birga dars tayyorlaydimi, birga o'ynaydimi?

Axir ular ham biz kabi jamiyatda baxtli bo'lishga haqli, shunday emasmi? Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi va kafolatlaydi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola bilan sog'lom bolalar bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga doim qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangandir.

Xo'sh, nega inklyuziv ta'lim bugungi kunda zarur?

Ba'zan o'quvchilarimiz tengdoshlari, maktabdoshlari orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko'rib qolsa, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo'yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qiladi. Bu noto'g'ri, aslida ular bilan o'rtoq bo'lib, bir jamoa bo'lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo'shishimiz mumkin.

Jamiyatda har bir bola baxtli bo'lishga haqlidir!

Ma'lumot uchun: Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o'quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim oladilar. Hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingandir. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi kerakligi rejalashtirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 12-oktabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. 2020-2025-yillarda maktab ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:



alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek, tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;

inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari. Shuningdek, quyidagilar tasdiqlandi: Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslash-

tirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom.

Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Inklyuziv ta'limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan "nogiron" degan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasida ham davlat siyosat darajasiga ko'tarildi. Natijada inklyuziv ta'limga doir xalqaro huquqiy meyoriy hujjatlar, rivojlangan chet el davlatlarining inklyuziv ta'lim tajribalari o'rganib chiqildi va ularga asoslangan holda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi, "Inklyuzi ta'lim" deb nomlanib, "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan"ligi qonuniy asos bilan mustahkamlandi.

Inklyuziv ta'lim masalasi Respublikamiz Prezidenti tomonidan davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi sifatida qaralib, PQ-4860-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda Vazirlar Mahkamisining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarorida o'z aksini topdi. Mazkur ishlarning natijasi sifatida inklyuziv ta'limning barcha jihatlari, joriy etish yo'llari, maqsad va vazifalari, bu sohadagi islohatlar "Umimiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020–2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "YO'L XARITASI"da belgilab olinib, amaliyotga joriy etish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmogda.

Inklyuziv ta'limdagi bir o'quvchi bilan ishlangandagi tajriba va xulosalar:

- unga ko'proq yaxshi ko'rishingizni kelajakda ota-onasi uchun u kop ishlar qilishini uqtirish kerak;
- ularni tez-tez rag'batlantib borish samarali natija beradi;
- ularda kuzatuvchanlik yaxshi rivojlangan bo'ladi;
- ular ko'p taqlid qiladi, qolgan o'quvchilarga qarab Alifbe bilan ishlaydi;
- ko'proq she'r yod oldirasiz (uni she'riga hech kim tushunmasa ham) nutqi rivojlanadi. Umuman gapirmaydiganlar sekin-sekin gapiradi.

Inkluziv o'quvchilar bilan ishlashda:

- Ularga mehr ko'rsatasiz, ular sizni qalb kechinmalaringizni sezadi soxtalikni yoqtirmaydi.
- Quchoqlab turasiz.
- Unga e'tiborli bo'lishingiz kerak, ya'ni ko'zdan qochirmaysiz.
- Jamoa bilan ishlashda, albatta, uni yoningizga qo'yib har bir o'yinda ishtirok ettirasiz.
- Tez-tez rag'batlantirib turishingiz lozim, arzimagan biror buyumni, o'quv qurolini, masalan, yozuv taxtachalar, ruchka, rangli qalamlar, shashka, biror bir shirinliklar bilan taqdirlab turishimiz ularga yoqadi.

Undan tashqari onasini umidi kattaligini, uni nimalar qilishi kelajakda ota-onasi uchun zarurligini vazifalarini, jamiyatga ular kerakligini vatan hissini ko'proq qo'shiqlar orqali tushuntirib boriladi. Undan tashqari rasm, fotosuratlar orqali ular ongiga singdiriladi.

Ularda nutq o'stirishni yana bir usuli she'r yod oldirish kerak. Ular ko'proq qisqa, 4 qatorli: hayvonlar, buyum, narsa, transportlar, mevalar, sabzavotlar haqidagi she'rlarga qiziqadi.

Tadbirlarda doim bolalar o'rtasida ishtirok ettirish zarur. Ayniqsa, o'yin va raqslarga harakatli musobaqalarga.

Hozirgi XXI asr bolalari telefonni yaxshi o'zlashtiryapti, shu sababdan shu inklyuziv ta'limdagi o'quvchilarga planshet sovg'a qilinishi taklif etiladi. Sababi ular uchun qulay va qiziqarli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr (<http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm>)
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING METODIK TA'MINOTI

Mahkamova Dilafruz Aliyevna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
"Ta'lim menejmenti" kafedrasida o'qituvchisi
e-mail: mahkamovadilafruz943@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash darajasi, kasbga yo'naltirishda qo'llaniladigan interfaol usullar, bu usullardan foydalanish mexanizmlari, kasbiy shakllanish jarayoni, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda kasbiy ijtimoiylashuvning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kasb, kasbga yo'naltirish, o'quvchi, maktab, kasbiy shakllanish, usul, kasbiy mahorat.

Методическое обеспечение по профессиональной ориентации для учащихся общеобразовательных школ

Махкамова Дилафруз Алиевна,
Преподаватель кафедры
"Менеджмент образования" Кокандского
государственного педагогического
института

Аннотация: в данной статье рассмотрен уровень подготовки учащихся общеобразовательных школ к выбору профессии, интерактивных методах, используемых в профориентационной работе, механизмах использования этих методов, про-

цессе профессионального становления, значении профессиональной социализации в профориентационной работе учащихся.

Ключевые слова: профессия, профориентация, учащиеся, школа, профессиональное становление, метод, профессиональные навыки.

Methodological support for professional guidance for students of general education schools

Maxkamova Dilafruz Aliyevna,
Teacher of the "Educational Management"
department of the Kokand State Pedagogical
Institute


Abstract: this article talks about the level of preparation of students for choosing a profession, interactive methods used in career guidance, mechanisms of using these methods, the process of professional formation, the importance of professional socialization in career guidance of students.

Keywords: profession, career orientation, student, school, professional formation, method, professional skills.

Kasb-hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodning ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali o'quvchilarda egallamoqchi bo'lgan kasbi bo'yicha qaror qabul qilish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o'quvchi shaxsini kasbga yo'naltirishda individual xususiyatlarni ham xalq xo'jaligi manfaatlarini nuqtayi nazardan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olish kerak.

Lekin bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o'quv qo'llanmalar, dars ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me'yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan biridir.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq.



Jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi [1].



Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. O'quvchilarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblarga doir bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz [2].

Ma'lumki, mehnat va kasb-hunarga bo'lgan muhabbat, e'tiqod, barcha o'quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta'lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Texnologiya fani o'qituvchisining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o'quv fanlari o'qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Buning uchun:

- turli o'quv fanlari, fan to'garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

- texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko'nikmalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

- o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;

- jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o'quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

- o'quvchilarni munosib kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida maktab o'qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo'lga qo'yish. Bunday hamkorlik natijasida o'quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo'lgan kasblar targ'ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo'ladi [3].

Texnologiya o'qituvchisi, maktab amaliyotchi psixologi o'z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- o'quvchilarni jamiyat hayoti va ta-

raqqiyoti uchun zarur bo'lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish;

- kasblarning demokratik xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

- o'quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo'yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

- o'quvchilarni o'z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini bilan tanishtirish;

- o'quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o'рни haqida ma'lumot berish;

- o'quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha suhbatlar o'tkazish;

- o'quvchilarni noto'g'ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

- o'quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va sinab ko'rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;

- o'quvchilarni kasbga yo'llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko'rgazmalar, anjumanlar, uchrashtirishlar tashkil etish;

- o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o'tkazish va h.k [4]. Keltirib o'tilgan chora-tadbirlar o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga doir

metodik ta'minotni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishi doirasida qo'yilgan muammo yuzasidan variativ metodlar ishlab chiqildi. Quyida mazkur metodlarning tavsifi hamda tatbiq etishga doir didaktik tavsiyalar keltirib o'tiladi.

I. "Mening orzularim" metodi

Motivatsiya – insonni biror bir faoliyatni ijobiy va qoniqarli darajada amalga oshirish uchun muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qaysi kasblar o'quvchilarni o'z-o'zidan rag'batlantirishini ("intrinsic", ichki) aniqlash muhimdir. Bu holda o'quvchining mazkur kasbga bo'lgan motivatsiya manbai hech qanday "senzurasiz" uning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi [5].

Mashg'ulot turi: kichik guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: kasb tanlash uchun o'quvchilarda yangi motivatsiya manbalarini topish.

Metodning tavsifi: O'qituvchi o'quvchilardan o'zlari bajonidil bajarishni xohlaydigan 2 yoki 3 kasbga doir faoliyatni amalga oshirish tajribasini tasavvur qilishni va ularni yozishni so'raydi. Misol tariqasida, "yo'l patrul xizmati xodimi sifatida avtomobillarni nazorat qilaman" kabi. O'quvchilar cheksiz ravishda tasavvur qilishi, hatto "utopik" g'oyalarni ham yozishlari mumkin bo'ladi. Bunda kasbiy faoliyatga doir muayyan holatlar va imkoniyatlar dastlab e'tiborsiz qoldiriladi. Keyin ikki kishilik guruhlarda o'quvchilar navbatma-navbat bir-biridan intervyu olishadi. Intervyu savollari mazmuni quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi:

1. Ushbu kasbga doir faoliyat tajribasidan nimani kutmoqdasiz?

2. Sizningcha, bu tajribadan nimani o'rganish mumkin?

3. Mazkur tajribaga o'xshash tajribani avval ham sinab ko'rganmisiz?

4. Mazkur tajribada eng muhim jihat nima?

5. O'zingiz xohlagan kasbiy faoliyatga doir tajribani qanday tasniflagan bo'lar edingiz? (kasbga doir yoki xobbi (qiziqish); moddiy va ideal; ijtimoiy va izolyatsiya, havasga asoslangan yoki an'anaviy; real yoki noreal va hokazo.)

6. Qanday qiyinchiliklar bo'lishi mumkin?

7. Ushbu tajriba qanday kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini beradi?

8. Mazkur kasbiy faoliyatga doir tajribani amalga oshirish haqida o'ylaganizda qanday tasavvurlar shakllanadi?

9. O'zingizni qaysi qobiliyatlaringiz yoki qiziqishlaringizni mazkur kasbiy faoliyatga munosib deb hisoblaysiz?

10. Siz mazkur kasbni egallashingiz uchun nimalar qilishingiz zarur deb hisoblaysiz? Va boshqa savollar.

Intervyu yakunlagan so'ng o'quvchilar o'zlari xohlagan kasblari bo'yicha umumiylik va farqlarni taqqoslaydi. Har bir o'quvchi qisqa xulosani shakllantiradi. Mazkur xulosada kasb bilan bog'liq qanday me'yorlar, xususiyatlarni o'rganganligi ifoda qilinadi.

Tayyorgarlik uchun kerakli materiallar: qog'oz, ruchka

Didaktik ko'rsatma: mazkur metod sinfdagi o'quvchilarning o'zaro bir-biriga nisbatan ishonchi hosil bo'lgan davrda o'tkazish tavsiya etiladi. Agar sinf o'quvchilari bir-biri bilan qisqa vaqt oldin tanishgan bo'lsa mazkur metoddan foydalanish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, ayrim guruhlardagi natijalar sinfdan muhokama qilinishi, natijalari taqdimot qilinishi mumkin.

Maqsadli guruh: umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari.

Davomiyligi: 3 soat.

II. "Aqlli, biroq muvaffaqiyatsiz" metodi

Vaynerning atribut nazariyasiga ko'ra, muvaffaqiyatsizlik va muvaffaqiyat tashqi muhit omillari yoki ichki shaxsiy omillar bilan bir qatorda barqaror yoki beqaror xususiyatlarga ega bo'ladi [6]. Bu albatta, tubdan o'zgaruvchan omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu ikki o'lchamning kombinatsiyasi to'rtta maydon sxemasini yaratadi (1-jadval).

Vaynerning atribut nazariyasiga ko'ra muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik shaxsning tashqi muhitga bog'liq omillarga yoki ichki shaxsiy omillariga, shuningdek prinsipial jihatdan o'zgaruvchan (barqaror va beqaror) omillarga bog'liq bo'ladi. Keltirilgan ikki omil hisobiga 4 ta maydonga ega yuqoridagi sxema vujudga keladi.

Muvaffaqiyatni o'z qobiliyatiga bog'lash o'z-o'zini hurmat qilishni oshirishga olib kelsa, muvaffaqiyatsizlikni o'z qobiliyatiga bog'lash o'zini o'zi qadrlashning pasayishiga olib keladi. Agar shaxs muvaffaqiyatsizlik uchun tashqi sabablarni ayblasa, imkoniyatni yutqazadi. Agar uni ichki sabablar bilan bog'lagan holda topsa, chora ko'rsa keyingi safar muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Mashg'ulot turi: yakka tartibda ishlash, jamoaviy ish.

Mashg'ulot maqsadi. Mashg'ulotning ikki maqsadi mavjud:

1) salbiy tajribalarni refleksiya va tahlil qilish;

2) salbiy tajribalarni kelajakka tayyorgarlik ko'rish uchun ijobiy o'rganish natijalariga aylantirish.

Metodning tavsifi: o'qituvchi o'quvchilardan biror kasbga tegishli bo'lgan muvaffaqiyatsizliklarni bir varaq qog'ozga yozishni so'raydi. O'quvchilar mazkur holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozib chiqadi. Bunda shaxs va holat ajratilib ko'rsatilishi lozim.

Ushbu holatda quyidagi savollar yordam beradi:

1. Men nimani o'zgartirgan bo'lar edim va nimani o'zgartirmas edim?

2. Nima uchun muvaffaqiyatsizlikka aybdorman va nima uchun aybdor emasman?

Shundan so'ng o'qituvchi Vayner modelini taqdim etadi. O'quvchilar o'zlari-ning muvaffaqiyatsizlik haqida yozgan sabablarini refleksiya qilishi, tahlil qilishi, keltirilgan jadvalga muvofiq muvaffaqiyatsizlikning sabablarini tushuntirishi va faoliyat, xatti-harakatlarini taxmin qilishi mumkin bo'ladi.

Tayyorgarlik, zaruriy materiallar: qog'oz, ruchka.

	ICHKI		TASHQI	
	<i>barqaror</i>	<i>beqaror</i>	<i>barqaror</i>	<i>beqaror</i>
nazorat qilish mumkin emas	iste'dod	diqqatni jamlash qobiliyati	topshiriqning murakkabligi	omad yoki tasodif
nazorat qilish mumkin	bilim	intilish (harakat)	doimiy resurslar (o'rtog'ining yordami)	vaqtinchalik resurslar (begona shaxs yordami)

1-jadval. Veiner nazariyasiga ko'ra o'rganishning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bo'lishi omillari [7]

Didaktik tavsiyalar: metodning vazifasi o'quvchilarga kasbiy faoliyatga doir muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlash va bu bo'yicha tizimli bilimga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat. Bunda o'quvchilar o'zgartirish mumkin bo'lgan va bo'lmagan omillarni o'rganadilar. Muvaffaqiyatsizlikni inkor etmaslik lozim, aksincha buni ijobiy rivojlanish potentsiali sifatida qaralishi mumkin bo'ladi.

Maqsadli guruh: 11-sinf o'quvchilari

Davomiyligi: 2 soat

III. "Fotosuratning mazmuni" metodi

"Fotosuratning mazmuni" metodi dastavval psixologik treninglarda o'zini-o'zi anglash mashg'ulotlari uchun ishlab chiqilgan. O'zini-o'zi anglash o'z ko'rinishi, mimikasi, hislari, xarizmasini baholash hisoblanadi. Fotosuratdagi assotsatsiyalar o'ylash va munosabat bildirish uchun shart-sharoit yaratadi [8]. Metod o'zini yoki boshqalar bilan o'zaro yaxshi tanishib olishda qo'llaniladi. Fotosuratni qo'llashdan maqsad u vositachi vazifasini o'taydi va bir tomondan tasvir orqali fikrlarni shakllantirsa, boshqa tomondan g'oyalar shaklida rivojlanadigan doira yaratadi.

Fotosurat tasavvurni uyg'otadi va turli xil fantaziyalarni beradi.

Mashg'ulot turi: kichik guruhlarda ishlash.

Mashg'ulot maqsadi: kasbiy faoliyatga doir mehnat sharoitlari haqida fikr almashish. Bunda fikrlar yoki ilk g'oyalar shakllanishida fotosuratlar yordam beradi.

Metodning tavsifi: o'qituvchi turli kasb egalariga doir bir qancha fotosuratlarni stol ustiga qo'yadi. O'quvchilar qo'yilgan fotosuratlarni ko'rib chiqadi va bir yoki ikkitasini tanlab oladi. Ular quyidagi savollarga javob izlaydilar:

1. Qanday mehnat sharoitlari menga yoqadi?

2. Qanday mehnat sharoitlari menga yoqmaydi?

O'quvchilar kichik guruhlariga (5-6 o'quvchidan iborat) bo'linadi. Har bir o'quvchi tanlagan fotosuratini keltirilgan savollar bo'yicha javobini guruhda bayon qiladi. Boshqa o'quvchilar savol berishi yoki fotosuratda tasvirlangan mehnat sharoitlariga doir mehnat shartlari bo'yicha fikrlarini bildirishlari mumkin.

Metodni qo'llashda quyidagicha fotojamlanma qo'llanilishi mumkin:



1-rasm. Fotojamlanma

Bu metod o'quvchilarda individual va jamoaviy fikr, g'oyalarni shakllantirish hamda bayon qilishga undaydi. Kichik guruhda tashkil etilishi esa har bir o'quvchining fotosurat haqidagi fikr va g'oyalari subyektiv xarakterga ega ekanligini anglashi va boshqalarning shu bo'yicha bildirilgan fikrlarini idrok etishga yordam beradi.

Tayyorgarlik / kerakli materiallar: fotosuratlar jamlamasi.

Maqsadli guruh: umumta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari.

Davomiyligi: 2 soat.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ilk kasbiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Kasbiy madaniyatda hamisha uni shakllantiruvchi ma'naviy asos mujassam bo'ladi va u g'oyalar, bilim-

lar, inson maqsadlarining ramziy ifodasi-dir. G'oyasiz, bilimsiz, maqsadsiz, kasbiy madaniyat ham shakllanmaydi. Ma'naviy madaniyat mahsuli esa moddiy shakldagina o'z ifodasini topadi, shu tarzda moddiylashadi va ijtimoiy, kasbiy faoliyatga ko'chadi. Kasb madaniyati mohiyatini aniqlashtirib, aytish mumkinki, kasb madaniyatining har qanday tashqi ifodalinishini insonning rivojlanish yoki kamoloti darajasini ko'rsatadi.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishiga mos kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur. Bunda yuqorida keltirilgan metodlar didaktik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. – 14 b.
2. Yusupova F.I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. – 90-93-b.
3. Maxmudova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagog faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash. Xalq ta'limi jurnali. 2022. №3. – 57-58-b.
4. Pelletier D., Bujold C., Noiseux G. Kasbiy ta'lim modeli A.D.V.P. (Kasb va kadrlar rivojlanishini faollashtirish). Parij, 2003. – 12-19-b.
5. Veyner B. Motivatsion psixologiya. Vaynxaym: Belts. 1994. – 71-79-b.
6. Krelhaus L. Mashhur tushunchalar asosida trening marshrutlari orqali ishlab chiqish. (2004): Men kimman – kim bo'lishni xohlayman? O'z-o'zini tahlil qilish uchun ish kitobi. Frankfurt-Mayn, 2014. – 162-b.
7. "Qizlarning mehnat bozoriga integratsiyalashuvi" tarmoq tizimida Trier mintaqasida ishlash: Qizlar ishida kasbga yo'naltirish usullari, Trier. 1999. – 34-35-b.
8. Sacher K. "Yashashga arziydigan martaba" – maktabni erta bitiruvchilar bilan ishlash bo'yicha amaliy qo'llanma, Berlin, Vaksman, 2015. – 26-b.
9. Rabenstein R., Reichel R., Thanhoffer M. The Method Set, 4th Reflect, 11th edi., Myunster, 4. 2014. – 14-b.
10. Maxkamova D. International Journal of Yearly Childhood Special Yeduction (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.73 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022, 708-711-b.
11. Maxkamova D. Kasb ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2023-yil №8
12. Maxkamova D. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiri' №4 2023 iyul 76-81-b.
13. Maxkamova D. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. №3 218-222-b.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TABIY FANLARNI STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Kuychiyeva Mo'jizaxon Abdumannobovna,
*Andijon viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrası
mudiri, p.f.f.d.,(PhD), dotsent
mujizaxon88@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni STEAM ta'lim texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy usullardan foydalanish yuzasidan fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiya, tabiiy fanlar, kichik guruhlarda ishlash, keys texnologiyasi, muammoli vaziyat, kreativ, tanqidiy fikrlash.

Использование современных методов совершенствования методики преподавания естественных наук на основе образовательных технологий steam в процессе повышения квалификации

Куйчиева Мужизахан Абдуманнобовна,
*Андижанский областной национальный
центр подготовки педагогов новым
методикам, заведующая кафедрой
"Методика точных и естественных наук",
(PhD), доцент*

Аннотация: в данной статье представлены мнения и соображения по применению современных методов совершенствования методики преподавания естественных наук на основе технологий обучения

STEAM в процессе повышения квалификации.

Ключевые слова: STEAM технологии, естественные науки, работа в малых группах, кейс-технологии, проблемная ситуация, креативное, критическое мышление.

The use of modern methods to improve the methodology of teaching natural sciences based on educational technologies steam in the process of professional development

Kuychiyeva Mo'jizakhan Abdumannobovna,
*Andijan Regional National Center for Teacher
Training in New methods, Head of the
Department "Methodology of Exact and
Natural Sciences" (PhD), Associate Professor*

Abstract: this article presents thoughts and opinions on the use of modern methods in improving the teaching methodology of natural sciences based on STEAM educational technologies in the process of professional development.

Keywords: STEAM technology, natural sciences, working in small groups, case technology, problem situation, creative, critical thinking.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda STEAM ta'limi asosida malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni o'qitish metodik kompetentligini rivojlantirish, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonini axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetentli mutaxassis va metodik kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilmoqda.


“Maktab ta'limi sifatini oshirish hamda pedagog kadrlarning bilim va malaka darajalarini xalqaro darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratildi” [1]. Natijada, STEAM ta'limi asosida malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni o'qitish metodik kompetentligini rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kasbiy-pedagogik faoliyatini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaymoqda.

STEAM o'ziga tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik san'ati, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini umumlashtirib integratsiyalashni nazarda tutadi (1-rasm).

xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha veb-saytida keltirilgan so'rov natijalariga ko'ra, STEAM texnologiyasi Xitoyning ta'lim tizimida taqdim etilgan barcha ta'limlardan eng mashhuri hisoblanadi [2].

2017-yil 17-sentabrda Xitoy ta'lim vaziri Chen Baosheng kollejga kirish imtihonini va Xitoy talabalarining asosiy sifatlarini rivojlantirish dasturini e'lon qildi. 2018-yilda Pekin Xalqaro Fangkaodi maktabida boshlang'ich sinflar uchun birinchi STEAM o'quv qo'llanmasi taqdim etildi. Pekin, Shanxay, Shenchjen maktablaridagina to'liq joriy etilgan. 58,3% “Ta'lim texnologiyalari” (EdTech – Education Technology) o'quv-tadqiqot tashkiloti bilan birgalikda o'quv dasturi tashkil qilindi [3].

STEAM ta'limi asosida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning tabiiy fanlarni o'qitish metodik kompetentligini rivojlantirishda, avvalo, o'quvchilarda olamni bilib olishning birinchi bosqichi bolalarning barcha yangiliklarni qarab chiqishga, iloji bo'lsa ushlab ko'rishga qaratilgan tug'ma intilish ekanligi uqtiriladi. Shunga ko'ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishda o'quvchiga o'rganish obyekti bilan bevosita muloqotda



1-rasm. STEAM ta'limining mohiyati.

Equal Ocean xalqaro kompaniyasining investitsiya tadqiqotlari va Xitoyda axborot

bo'lish imkoniyatini berishni talab qiladi (2-rasm).



2-rasm. Tabiiy fanlarni shakllantiruvchi xususiyatlar.

STEAM ta'limi asosida malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni o'qitish metodik kompetentligini rivojlantirishining xususiyatlarini anglashda tabiiy fan tushunchalari juda katta ahamiyatga ega. Tabiiy fan tushunchalari - bu umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan obyektlar, hodisalar, jismlarning butun guruhi to'g'risidagi umumlashgan bilimlardir.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hukmronligini saqlab kelayotgan an'anaviy ta'lim, o'quvchilarni yalpi o'qitishni va o'quvchilarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi mo'ljalgaga olinadi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi.

Tizimli fikr yuritish (o'rganilgan obyektni qismlarga ajratish, uning yaxlitligini, o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash ko'nikmasi).

Tizimli fikr yuritish o'quvchilarning o'rganilayotgan obyektni qismlarga ajratish, uning yaxlitligini, o'zaro bog'liqligini aniqlash va tavsiflash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi [4].

lantirishga asoslanadi [4].

O'qituvchi o'quvchilarda tizimli fikr yuritishni rivojlantirish uchun muayyan mavzularda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishi va tegishli o'quv topshiriqlarini tuzishi lozim.

Jumladan, 9-sinf biologiya fani darsligidagi "Hujayraning tuzilishi va funksiyasi" mavzusida o'quvchilarga quyidagi o'quv topshiriqlarini tavsiya etish maqsadga muvofiq.

Topshiriqning didaktik maqsadi: Hujayraning tuzilishi va funksiyalarini o'rganish orqali, hujayraning yaxlit tizim ekanligi, organoidlarning tuzilishi va funksiyasi, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash.

Hujayra organoidlari	Tuzilishi	Funksiyasi

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritish tahliliy, bog'lanishli, mustaqil, mantiqiy, tizimli fikr yuritishni mujassamlashtirib ular o'rtasida ichki va tashqi, muayyan va nisbiy bog'lanishlar mavjud.

O'quvchilarda, ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchi yuqorida qayd etilgan tahliliy fikr yuritishning tarkibiy qismlaridan, xususan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalaridan foydalanishi mumkin. Shuni qayd etish kerakki, o'quvchilarda ta'kidlab o'tilgan fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirmay turib ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.

Ijodiy fikr yuritish ko'nikmalari ijodiy faoliyat tajribalarining asosini tashkil etadi. Ijodiy faoliyat tajribalarini egallashda o'quvchilar aqliy faoliyat usullari bo'lgan o'rganilayotgan obyektni tahlil qilish, taqqoslash, tarkibiy qismlarga ajratish, sintezlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilish, umumlashtirish va xulosa yasashni egallagan bo'lishlari lozim.

Masalan, taniqli geograf va sayohatchi A.Gumboldt "Odamga o'rmon hamrohlik qiladi, cho'l kuzatib qo'yadi", degan fikrni aytgan. Olimning bu fikrini izohlang [3].

Bitta fakt yuzasidan qarama-qarshi fikr bildirish orqali muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish.

Ushbu usulda o'qituvchi o'rganilayotgan jarayon yuzasidan qarama-qarshi faktlarni bayon etish orqali o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga undaydi. Masalan, quyidagi faktlar yuzasidan o'z fikringizni bayon eting. Ma'lumki, odam jismoniy ish bajaranda arterial qon bosimi muayyan darajada ortadi.

1-o'quvchi: "Odam jismoniy ish bajaragan muskullar tomonidan ajratilgan modda qon tomirlarining torayishiga olib keladi. Shu sababli qon bosimi ortadi".

2-o'quvchi: "Odam jismoniy ish bajaranda bosh miya muskullarga signal yuboradi va ular muayyan ish bajaradi. Shu bilan birgalikda ushbu signal qon tomirlarga ham boradi, ular qisqarishi natijasida qon bosimi ortadi". Ushbu bahsda qay-

si o'quvchining fikri haqiqatga yaqinligini aniqlang.

Organizmlarning moslashishi, yashovchanlik, raqobat, hayvonot va o'simliklar olamidagi moslanishlar, ularning nisbiyligi.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

2. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

3. Yangi mavzuni o'rganish.

O'qituvchi yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilarni teng sonli 4 ta guruhga ajratadi va ularga muayyan sohada faoliyat ko'rsatadigan "olimlar" maqomini beradi.

Jumladan, 1-guruh olimlari "Biologlar" maqomini olib, matndagi moslashish, yashovchanlik, raqobatchilik, nasl qoldirish haqidagi ma'lumotlarni o'rganib ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar:

Tirik organizmlarning xususiyatlari	Tirik organizmlar hayotidagi ahamiyati
Moslashish	
Yashovchanlik	
Raqobatchilik	
Nasl qoldirish	

2-guruh olimlar "Zoologlar" maqomiga ega bo'lib, matndagi hayvonot olamidagi moslanishlar, himoya rangi, niqoblanish, ogohlantiruvchi rang bo'yicha materiallarni o'rganib chiqib ma'ruza tayyorlaydilar va quyidagi jadvalni to'ldiradilar:

Hayvonot olamidagi moslanishlar	Mazkur moslanishlarning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati
Himoya rangi	
Niqoblanish	
Ogohlantiruvchi rang	
Mimikriya	

Qirqquloqlar, ochiq urugʻlilar va yopiq urugʻlilarning tuzilishini taqqoslang. Ularning tuzilishidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlang.

umumiy degeneratsiya haqida maʼlumot beradi va oʻquvchilarga misol keltirishni tavsiya etadi. Oʻquvchilar oʻzlari toʻldirgan jadvaldan foydalanib yopiq urugʻlilar va

Taqqoslanadigan jihatlar	Qirqquloqlar	Ochiq urugʻlilar	Yopiq urugʻlilar
Hayotiy shakli			
Ildizi			
Poyasi			
Bargi			
Koʻpayish organlari			
Koʻpayish jarayonining tashqi muhit omillariga bogʻliqligi			

1. Oʻsimliklar olamida nima sababdan yopiq urugʻlilar hukmronligini aniqlang.

II topshiriq.

Suvda hamda quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar va qushlarning tuzilishini taqqoslang. Ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlang.

qushlardagi aramorfozlarni aniqlaydi [6].

Shu tarzda oʻquvchilarda bogʻlanishli fikr yuritish koʻnikmalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Xulosa. STEAM taʼlimi asosida malaka oshirish jarayonida tabiiy fanlarni oʻqitish metodik kompetentligini rivojlantirishga

Taqqoslanadigan jihatlar	Suvda hamda quruqlikda yashovchilar	Sudralib yuruvchilar	Qushlar
Tana qoplar			
Hazm qilishi			
Qon aylanishi			
Yuragi			
Nafas olishi			
Ayirishi			
Nerv sistemasi			
Sezgi organlari			
Koʻpayishi			

2. Qushlar hayvonot olamida nima sababdan hukmronligini aniqlang.

Oʻquvchilar ushbu topshiriqlarni bajarib boʻlganlaridan soʻng, oʻqituvchi biologik progress, aramorfoz, idioadaptatsiya,

oid va faoliyatli munosabatlarning shakllanishiga taʼsir qiladi. Natijada, insonning umuman biosferaga moddiy, energetik va axborot jihatidan yanada kuchliroq taʼsir koʻrsatishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktabr 2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
3. Strauss S. How cognitive development and science education theory and research can conjoin. I S. Strauss, W. Dammon - Handbook of Child Psychology: Child Psychology in Practice. 5th Edition, New York: John Wiley & Sons, Inc. – 1998. – Vol. 4. – pp. 365-377.
4. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info. – P.485-489. (№10. ISSN:0010-8189). (subscription@converter-magazine.info)
5. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, – P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)
6. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extracurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, – P. 617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (<https://wos.academiascience.org>)

PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH VA METODIK TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Tojiboyeva Iroda Tursunbayevna,
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish va kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish, kasbga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish, innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagoglar, kasbiy metodik tayyorgarlik, innovatsion kasbiy faoliyat, innovatsiya, kompetensiya, kompetentlik, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ilg'or tajriba.

**Приоритетные направления
профессионального развития
и методического обеспечения
учителей**

Тожибаева Ирода Турсунбаевна,
Наманганская область Янгикурганский
район, Средняя общеобразовательная
школа № 16, Учитель начальных классов

Аннотация: в статье рассматриваются специфические педагогические и психологические особенности процесса развития компетентности будущих педагогов и совершенствования их профессионально-методической подготовки, повышения внимания к профессии, подготовки их к ин-

новационной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: будущие педагоги, профессионально-методическая подготовка, инновационная профессиональная деятельность, инновация, компетентность, компетентность, творческий подход, педагогические ситуации, передовой опыт.

**Priority areas of professional
development and methodical
provision of teachers**

Tozhibayeva Iroda Tursunbayevna,
Namangan region Yangikurgan district,
Secondary school No. 16,
Primary school teacher.

Abstract: this article discusses the specific pedagogical and psychological features of the process of developing the competence of future pedagogues and improving their professional methodological training, increasing attention to the profession, and preparing them for innovative professional activities.

Keywords: future pedagogues, professional methodological training, innovative professional activity, innovation, competence, competence, creative approach, pedagogical situations, advanced experience.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Dunyo sahnalarida o'zining munosib o'rniga ega, kuchli bilimli, mehnat bozorida raqobatbardosh, salohiyatli, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kadrlar, shuningdek, bo'lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, o'qitish sifati va samaradorligini ko'tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar eta-

miz”, deb bejizga ta’kidlamaganligini aytib o‘tamiz.

Ta'lim muassasalarida aynan shunday nuqtayi nazar bilan yondashilib kelina-yotganligi, barkamol shaxs, innovatsion kasbiy va shaxsiy kompetentlik masalasi diqqat markazda ekanligi o'z samarasi ni beradi, albatta. Bo'lajak pedagoglar-ning kasbiy faoliyatiga oid kompetentligi-ni rivojlantirishda, eng avvalo, o'qitishda talabaning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maq-sadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ular-dan foydalanish va ko'zlangan maqsadga erishish muhim sanaladi. Kompetentlik kasbiy bilim va ko'nikmalarning mavjud-ligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilansa, innovatsion kasbiy kom-petentlik esa talabaning shaxsiy imkoni-yatlari yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatda o'rinli va maqsadli qo'llay olish qobiliyatidir. Inno-vatsion kasbiy kompetentlikning shaklla-nishida asosiy o'rinni talabaning mustaqil faoliyati egallaydi. Mustaqil faoliyat tala-baning kasbiy faoliyatini yanada chuqur-



roq egallashi uchun xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil faoliyat talabani har qanday sharoitda va holatda o'zining salohiyatlarini to'laqonli ishga solish, amaliy faoliyatlarga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning takomillashib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Mamlakatimizda shaxsning har tomonlama kamol topishi, uni ta'lim jarayoniga to'liq jalb etish, ulardagi shijoatni yanada oshirish, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ta'limda noan'anaviylik, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, turli xildagi o'qitish metodlarini, dasturlarni amaliyotda maqsadli ravishda qo'llagan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish, talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Talabani kasbiy faoliyatida kreativlik muhim tavsif hisoblanadi. Kreativlik bu - talaba o'zining ijodiy faolligini namoyon etish qobiliyatidir. Qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir ishning yoki narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Odatda bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilishi, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Bu qobiliyati doimiy ravishda o'qib-o'rganishlar, yangilikka intilish, izlanishlar, muntazam harakatlar orqali shakllantiriladi va takomillashib, mukammallashib boradi. Bu o'z navbatida talabaga yaratilga muhitga ham bog'liqdir. Bunda talaba o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, maqsadli harakatlarga erishishi, natija-

dorlikni qo'lga kiritishi va bu faoliyatlarni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijodkorlik, yaratuvchanlikka alohida e'tibor qaratishi zarur. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlanadi Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – ta'lim oluvchining yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik bir xillikdan qochish, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma'lum bir narsaga yangicha yondashish ko'nikmasidir. Aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat samaradorlik ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va pedagoglarning o'zlashtirgan kasbiy kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatidagi amaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog'liq. Mashhur amerikalik psixolog, gumanistik psixologiya asoschisi A.X.Maslou kreativlikni 2 turga ajratadi:

1. Iste'dodning kreativligi;
2. Shaxsning o'zini-o'zi aktuallashtirish kreativligi.

Shaxsning o'zini-o'zi aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli biz unga kundalik hayotimiz davomida va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelamiz. Psixolog A.X.Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini aytib o'tadi:

- ixtiyorsiz kreativlik
- ixtiyoriy kreativlik.

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatiga xos deb ta'riflaydi. Ya'ni barcha inson-

lar layoqat bilan dunyoga keladi, olingan bilimlar, izlanishlar, o'rganishlar asosida qobiliyatga aylanadi va uning ustida mukammal, kengroq ishlash oqibatida iste'dod yuzaga chiqishini bilamiz. Qobiliyat, iste'dod layoqatligicha qolib ketishi ham mumkin. Bu har bir insonning o'ziga bog'liq bo'lgan jarayondir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati eng avvalo o'zini anglash, mustaqil va maqsadli qarash, tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil etishdagi qobiliyatlilik, analitik fikrlash, olingan bilimlarni amaliyotda qollay olish, yaratuvchanlik ko'nikmalarida namoyon bo'lishi mumkin.

Ta'lim oluvchining kreativlikni rivojlantirishda – ta'lim jarayonlariga, berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga va o'zlashtirish darajasiga, ta'lim manbalari va vositalariga, topshiriqlar va ularning ijrosiga e'tibor qaratish, ta'lim jarayonlarini munosib tashkil etishga diqqat qaratilishi lozim. Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud:

- kreativ fikrlash va faollikni shakllantirish
- yaratuvchilik, muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantirish
- talabalarning kreativ faoliyatini yanada kuchaytirishga erishish
- talabalarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish, mustaqil ijodiy

faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish ko'nikmasini shakllantirish

- qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Bo'lajak pedagoglarni har tomonlama salohiyatli, raqobatbardosh, intellektli etib tayyorlashda yuqoridagi barcha sifatlarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bilab birga bo'lajak pedagog o'z kasbi uchun mumkin bo'lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarni yenga bilishi shart:

- rasmiyatchilik;
- befarqlik, loqaydlik;
- jizzakilik;
- qarorlarni qabul qilishda bir tomonlamalilik.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak pedagog o'zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlashi va aniq innovatsion pedagogik faoliyat maydonini aniqlashi lozim. Ta'lim oluvchining diqqatini jalb eta olishi, uning his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi, har bir mashg'ulot uchun material tanlay bilishi, uni murakkablashtirishi, ta'lim jarayonini integratsiyalashgan holda tashkil eta olishi, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan o'rinli va maqsadli foydalanishi, umumiy va aniqroq qilib aytganda ta'limni bolaga moslashtira bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2016.
2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016. – 77 b.
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. – С. 285.
4. Yo'ldoshev O.J. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017-y. – 376-b.

O'QITUVCHI MALAKASI

YUQORI BO'LGAN JOYDA ZAKIY AVLOD VOYAGA YETADI

Alkarov Elyor Maxmudovich,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
bo'limi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent,
e-mail: mralkarov@gmail.com

Annotatsiya: maqolada soha xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimida islohotlarning zarurati, "Hayot davomida o'qish" tamoyili, maktab ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etishga innovatsion yondashuvlar va uzluksiz kasbiy rivojlanishga innovatsiyalarni joriy etishning afzalliklari va o'ziga xos murakkabliklari. Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining istiqbollari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Hayot davomida o'qish" tamoyili, uzluksiz kasbiy rivojlanish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi, kasbiy kompetensiya, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish.

Там, где учителя обладают высокой квалификацией, растёт умное поколение

Алкаров Элёр Махмудович,
Заведующий отделом Национального
исследовательского института
им. А.Авлони, д.ф.п.н. (PhD), доцент

Аннотация: в статье рассматривается необходимость реформирования системы профессионального развития работников сферы, принцип "Обучение на протяжении всей жизни", инновационные подходы к организации непрерывного профессионального развития работников школьного образования, а также преимущества и специфические трудности внедрения инноваций в систему непрерывного образования. профессиональное развитие. Обсуждены перспективы системы непре-

рывного профессионального развития работников школьного образования.

Ключевые слова: принцип "Обучение на протяжении всей жизни", непрерывное профессиональное развитие, специальная электронная платформа "Непрерывное профессиональное образование", профессиональная компетентность, индивидуальная траектория профессионального развития, обучение, основанное на потребностях.

**Where teachers are highly qualified
a smart generation is growing up**

Alkarov Elyor Makhmudovich,
Head of Department, National Research
Institute named after A.Avloni,
d.p.p.s. (PhD), docent

Abstract: the article discusses the need to reform the system of professional development of workers in the field, the principle of "Lifelong learning", innovative approaches to organizing continuous professional development of school education workers, as well as the advantages and specific difficulties of introducing innovations into the system of lifelong education. Professional Development. The prospects for the system of continuous professional development of school education workers were discussed.

Keywords: principle of "Lifelong learning", continuous professional development, special electronic platform "Continuing professional education", professional competence, individual trajectory of professional development, needs-based training.

Har bir mamlakatning rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olishi mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Innovatsiyalar, moslashuvchanlik, doimiy o'zgarishlarga tayyorlik va yuqori malaka mehnat bozorining kuchli raqobatdosh ustunliklari hisoblanadi. Zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega kadrlar esa eng avvalo maktabda shakllanishini inobatga olsak, bunda, shubhasiz, bilimli va fidoyi o'qituvchilarning o'rni beqiyosligi ayon bo'ladi.

Darhaqiqat, o'quvchilar muvaffaqiyatini na sinfdagi bolalar soni, na sinf xonalarining jihozlanishi, na dars davomiyligi aniqlaydi, uni aniqlovchi asosiy omil muallimning salohiyatidir. Qachonki, o'qituvchi bolaning ma'naviy quvvati, ta'lim olish istagini qo'llab-quvvatlasa, unga zarur bilim va ko'nikmani bera olsagina o'sha yerda zakovatli bolalar yetishib chiqadi.



O'quvchida o'qish, o'rganish istagi majburan shakllantirilmaydi, faqat o'qituvchisining unga bo'lgan ishonchi va malakali yondashuvigina ko'mak berishi mumkin. Bu esa o'z o'rnida pedagogdan yuksak kasbiy mahorat va malakali bo'lishni talab etadi.

Prezidentimizning 2021-yil 25-yanvarda qabul qilingan "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] hamda Vazirlar Mahkamasi-

ning 2022-yil 17-yanvarda qabul qilingan "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi [2] qarorlari bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Xalq ta'limi xodimlarining, jumladan, pedagog kadrlarning 5 yillik davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimi "hayot davomida o'qish" tamoyiliga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad pedagogning malakasi zamon talabiga mos ravishda rivojlaniishi uchun shart-sharoit yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirishdan iborat.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga o'tish pedagoglarni har yili malaka oshirishga jalb qilish va bunda ularning istagi, sharoitini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishni esa faqatgina intellektual dasturiy vositalar yordamida amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ham "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi ishlab chiqildi. Mazkur platformadan foydalangan holda 2021-yildan boshlab, umumta'lim maktablari pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi amaliyotga joriy etildi.

Uzluksiz o'qishning afzalliklari

Avvalo, bu tizim pedagogning kasbiy qobiliyatini rivojlantiradi, ta'limda bo'layotgan islohot va o'zgarishlar haqida vaqtda xabardor bo'lishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi. Kasbiy ehtiyojlari asosida bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik mahoratini oshirish va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Hayoti davomida ta'lim olish xodimlarga o'z kasbiy sohala-

ridagi tendensiyalardan xabardor bo'lishga yordam beradi, bu esa raqobatbardosh mutaxassis bo'lishning muhim shartidir.

Malaka oshirish tizimi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilingandan so'ng tizim xodimlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma davriylikka asoslangan oldingi hamda amaldagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimlarini qiyoslash, bu bo'yicha xodimlar fikrlari va takliflarini aniqlashga qaratildi.

Mazkur so'rovnomada jami 14 249 nafar, jumladan 1 544 nafar maktab direktori, 12 526 nafar o'qituvchi va 179 nafar hududiy malaka oshirish markazlari xodimlari ishtirok etdi. Javoblarni ketma-ketlikda tahlil qilar ekanmiz, **“Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” tizimi haqida umumiy fikrlar so'ralganda, 73,4 foiz** respondent axborot kommunikatsion texnologiyalari rivojlangan bir paytda pedagoglarning o'z ustida ishlashi va malakasini muntazam oshirishi hamda ishdan ajralmagan holda, yil davomida, qulay vaqtda ta'lim olish imkoniyatini beradi, degan.

Shu bilan birga, **malaka oshirish o'quv mashg'ulotlarining qaysi shaklida ishtirok etish afzalligi** bo'yicha **78 foiz** ishtirokchi har yilgi (rahbarlar uchun 30 soat, o'qituvchilar uchun 36 soat) malaka oshirish kurslarining qulayligini ta'kidlagan.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasida tashkil etilgan kurslarning mazmuni haqida fikr so'ralganda, **66,7 foiz** respondent platformadagi kurslar mazmuni ta'lim oluvchilarni kasbiy rivojlantirishga xizmat qilishi va joylashtirilgan kontentlar zamon talablari asosida yaratilganini ta'kidlagan.

O'tkazilgan so'rovnoma natijasi bo'yicha ishtirokchilarning **80,4 foizi** “Uzluksiz

kasbiy rivojlantirish” tizimi o'qituvchilarning o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmasini rivojlantirishi, yil davomida va qulay vaqtda, ish faoliyatidan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniyatining mavjudligi, ushbu tizim hozirgi davr talabi ekanini e'tirof etgan.



Bugungi o'quvchilarning diqqatini darsga qaratish, mavzularni oson o'zlashtirishi uchun qalbiga, ongiga yo'l topish oson emas. Ularning xayolini gadgetlar band etgan davrda favqulodda yangilik yoki noodatiy uslub bilangina hayratga solish mumkin. Malaka oshirish bu borada pedagoglarga ko'makchi bo'la oladi.

Tizim o'qituvchilarga qanday qulayliklar taqdim etyapti?

Davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimida o'qituvchilar bir oy davomida o'zining ish joyidan, oilasidan uzilgan holda hududlarda joylashgan malaka oshirish institutlariga kelib, malakasini oshirib ketgan bo'lsa, endilikda yangi tartib bo'yicha malaka oshirishning bir necha shakllari joriy etildi. Ya'ni ish joyidan ajralgan, ish joyidan ajralmagan, mustaqil ta'lim, dual ta'lim, qolaversa, muqobil malaka oshirish shakllari orqali ham ularga malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikatni berish tizimi yo'lga qo'yildi.

Masalan, ish joyidan ajralmagan holda

malaka oshirish bu mustaqil malaka oshirish shakli sifatida qabul qilinadi. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali o’qituvchilar xohlagan joyida, xohlagan vaqtda bemalol kompyuter va mobil qurilmalarida internetdan foydalangan holda belgilangan dasturlar asosida yaratilgan kontentlarni o’zlashtirish orqali malakasini oshiradi. Dual ta’lim ham shunga o’xshash: malaka oshirishning ma’lum bir qismini, ya’ni amaliy qismini o’zining maktabida, nazariy qismini malaka oshirishga ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlarida o’tashi nazarda tutilgan.

Muqobil malaka oshirish shakli

O’qituvchi kasbiy faoliyati davomida ma’lum bir yutuqlarga erishadi. Masalan, o’quvchilari respublika, xalqaro olimpiada g’olibi bo’lishi mumkin. Yoki o’zi respublika ko’rik tanlovida ishtirok etgan, biror darslik yaratgandir, ehtimol. Davlat tomonidan ta’sis etilgan turli mukofot va unvon sohibidir?! Pedagog ayni shu natijalarni maxsus platformaga kiritadi. Platforma kredit bali berish orqali malaka oshirganlik to’g’risidagi sertifikatni to’g’ridan-to’g’ri taqdim etadi.

O’qituvchi malaka oshirish jarayonida kasbiy faoliyati davomida erishgan natijalari rag’batini ko’radi.

Malaka oshirish tizimida nodavlat ta’lim sektori

Malaka oshirish tizimida nodavlat ta’lim sektorining kirib kelishi natijasida raqobat muhitining shakllanishi ta’lim sifatini oshirishga sabab bo’ldi.

2022-yildan boshlab faqatgina hududiy markazlarda emas, balki xususiy sektor va-killariga ham o’qituvchilarning malakasini oshirish bo’yicha yo’llar ochib berildi. Bu o’qituvchiga tanlash imkoniyatini beradi.

Agar hududlardagi malaka oshirish bilan shug’ullanuvchi Pedagogika markazlaridagi o’quv dasturlarining sifati va mazmuni qoniqtirmasa, o’qituvchining ehtiyojini to’la qondirib bera olmasa, u xususiy sektorga, ya’ni nodavlat ta’lim tashkilotiga borib, o’z malakasini oshirishi mumkin. Har ikki joyda ham olgan sertifikatining darajasi bir xil hisoblanadi, o’quv dasturlariga ajratilgan soatlar ham teng miqdorda taqsimlangan. Bu o’qituvchilarimizga yaratilgan qulayliklardan biri. Qolaversa, hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalariga ham bu bo’yicha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ya’ni 29 ta oliy ta’lim muassasasiga to’g’ridan-to’g’ri maktab o’qituvchilarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug’ullanishi uchun ruxsat berilgan. O’qituvchi endilikda oliy ta’lim muassasasiga borib ham malakasini oshirishi mumkin.

Qars ikki qo’ldan chiqadi

Malaka oshirish borasida e’tiborga molik ishlar yo’lga qo’yilayotganini o’qituvchilar e’tirof etyapti. Institutlar ishlayapti, joylarda o’qishlar tashkil qilinyapti. Yangilanishlar bilan baravar qadam tashlagan pedagog faoliyatida samaradorlik ko’rin-yapti. Avvalgi davriylikka asoslangan malaka oshirishda bir oy davomida 144 soat o’qish o’rniga har yili tashkil etiladigan bir haftalik o’qish joriy etildi. O’qish muddati kam. Shuning uchun ham hozir 36 soatli o’quv dasturiga o’qituvchilarning bilim, malaka va ko’nikmasini takomillashtirishga yo’naltirilgan dars mashg’ulotlari qo’yilgan. Mana shundan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Aks holda u bir yilda egallashi kerak bo’lgan bilimni yetarlicha o’zlashtirmaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogga tanlash imkoniyatini yaratish “stress” holatlarini kamaytiradi. Misol uchun, o’qituvchiga oila davrasi va o’z jamoasidan

ajralmagan holda malaka oshirish qulay. Bu vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlarini to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmalari shakllanadi.

Mutaxassislik fanlariga doir axborot resurslari hamda ma'lumotlar bazasini izlashga doir muammolar bartaraf etiladi. Onlayn ta'lim orqali, professional professor-o'qituvchilarning audio, video va vizual materiallari o'zlashtiriladi. Tinglovchilar va professor-o'qituvchilarning o'z-o'zini baholash, bilim, malaka va ko'nikmalarini taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

Afsuski, malaka oshirishga majburiyat deb qarab, o'qishga kelayotgan o'qituvchilar ham borligini inkor eta olmaymiz. Bunga imkoniyat, deb qarash kerak. "Ishlashga, saviyamni oshirishga imkoniyat berildi. Shundan unumli foydalanishim zarur. Buning uchun davlat meni darslardan ozod qilib qo'yibdi. Malaka oshirish davrimga ham maosh yozilyapti, bu ishonchni oqlashim shart", degan fikrda bo'lishi lozim. Bu bir tomondan o'qituvchining ijtimoiy himoyasi ham demakdir.

Elektron platformaning mobil ilovasi yaratiladi

Bugungi kunda maxsus platformaning tatbiq etilishi AKT savodxonligi yetarli darajada bo'lmagan o'qituvchilarimizda bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarishi bor gap. Shu tomonlama o'qituvchilarga biroz muammo tug'dirishi mumkin. Hozirgi kunda bu masala deyarli bartaraf etildi. Tizimda 500 mingdan ziyod o'qituvchi faoliyat yuritayotgan bo'lsa, platformamizdan hozir shularning barchasi ro'yxatdan o'tgan. O'zlarining shaxsiy akkauntlariga ega. Bemalol platformaga kira oladi, fanlar bo'yicha berilgan kontentlardan foydalanib, o'zlariga kerakli bo'lgan bilimni olish kompetensiyalariga ega.

Joylarda o'qituvchilarda elektron plat-

formadan foydalanish uchun barcha sharoitlar yetarli. Lekin ba'zi chekka hududlarda internet tarmog'iga ulanishdagi muammolarni istisno qila olmaymiz. Qolaversa, o'qituvchi elektr energiyasi muammosiga duch kelishi mumkin. Bu o'z vaqtida onlayn malaka oshirish kurslarida qatnashish imkoniyatini cheklaydi.



Oldimizda qiladigan ishlarimiz hali ko'p. Jumladan, Google kompaniyasida har bitta elektron platformaning hisoboti yuritib boriladi. Unga ko'ra, mavjud o'qituvchilarning telefondan foydalanish darajasi baland bo'lishiga qaramay bugungi kunda platformaning mobil ilovasi mavjud emas. Endilikda o'qituvchilarga yanada qulay imkoniyat yaratish maqsadida platformaning mobil ilovasini ishlab chiqyapmiz. Bu bo'yicha takliflarimizni tegishli vazirliklarga taqdim etganmiz. Tez kunlarda ishlar yakuniga yetsa, o'qituvchilarga yana qulay bo'ladi. Malaka oshirish, kasbiy rivojlanish jarayonlari yanada osonlashadi.

Bilamizki, har bitta dasturiy vosita vaqt o'tgan sari eskirib boradi. Agar zamon talblariga mos ravishda takomillashtirib borilmasa, ma'nan eskirib qolishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qo'shimcha qulayliklar (vazifalar) kiritish orqali platformani takomillashtirib borish muhim masala.

Platformadagi ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida uni o'zaro boshqa ichki va tashqi elektron tizimlar bilan integratsiya qilish masalalari ham ko'zda tutilmoqda.

Yana bir yangilik. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi ishga tushirilishi bilan foydalanuvchiga ish faoliyatida uzilish bo’lmaydi. Xodimning yashash va ishlash joyidan bir oyga ajralishiga hojat qolmaydi. Mustaqil ta’lim shaklida “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o’qish muddatlari va sur’atlarini xodimning o’zi belgilaydi. Malaka oshirishning turli muqobil shakllari joriy etilishi natijasida o’qituvchi kasbiy ehtiyojlari asosida xohlagan kursni tanlab, malaka oshirishi mumkin.

Ta’lim berishdagi uzilishlarning oldi olindi. O’qituvchi kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyati (o’quvchisi fan olimpiadalari-da o’rin olsa, ilmiy faoliyat yuritisa, xalqaro kurslarda o’qisa) malaka oshirishning muqobili sifatida tan olinadi. Tizimning eng yaxshi amaliyoti va eng sifatli hamda jozibador ta’lim kontentlari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Bir vaqtning o’zida platformadan kompyuter, planshet yoki telefon orqali foydalanish imkoniyatini beradi.

Bu ta’lim tizimiga nima beradi?

Xodimlarning ishdan ajralmagan holda doimiy malakasini oshirish imkoniyati yaratildi. Tizimda korrupsiya holatlari bilan bog’liq bo’lgan bitiruv malaka ishi, yakuniy attestatsiya va chiqish testi, turli oraliq imtihonlaridan voz kechildi. Ularning o’rniga tinglovchilarning bilimini diagnostika qilish va o’zlashtirish darajasini aniqlashning avtomatlashtirilgan mexanizmlari joriy qilindi.

O’qituvchilar malaka oshirishga boranda o’rnini boshqa o’qituvchi bilan qoplash muammosi bartaraf etildi. Har bir tuman xalq ta’limi bo’lim rahbarlari hamda fan metodisti o’ziga biriktirilgan hudud va fan kesimida o’qituvchilarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish va baholash imkoniyati yaratildi. Amaliyotda pedagoglarning malaka oshirishdan chetda qolib ketishi holatlari mavjud edi. Platformada tizimdagi barcha xodmlarining ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Har bir pedagog muntazam ravishda malakasini oshirishga jalb etiladi. Biror pedagog e’tibordan chetda qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ- 4963-son Qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-sonli qarori.

USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI – TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGI KAFOLATI

Sobirova Shahnoz Shavqiddinovna,
*A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish
va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot
instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada ustoz-shogird an'anasining ahamiyati, ta'lim sifat samaradorligini oshirishdagi o'rni, ilm-fan sir-asrorlarini egallashda ustozning o'rni, ustoz va shogirdlik rishtalari hamda milliy qadriyat-larni ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ustoz, shogird, ta'lim sifat samaradorligi, milliy qadriyat, an'ana, ustoz va shogird rishtalari va vazifalari, ta'lim-tarbiya.

**Традиционное наставничество –
это гарантия качества
и эффективности образования**

Собирова Шахноз Шавкиддиновна,
*Национальный исследовательский
институт профессионального развития
и обучения педагогов новым методикам
имени А.Авлони независимый
исследователь,*

Аннотация: в данной статье рассма-
тривается значение традиции “настав-
ничества”, ее роль в повышении качества
образования, роль наставника в овладе-
нии секретами науки, взаимоотношения

между наставником и учеником, а также
воспитательное значение национальной
ценности.

Ключевые слова: наставник, ученик,
качество образования, национальная цен-
ность, традиция, взаимоотношения и за-
дачи у наставника и ученика, образование.

**Tradition mentoring is a guarantee of the
quality and effectiveness of education**

Sobirova Shahnoz Shavkiddinovna,
*National Research of Professional
Development and Teaching New
Methodologies to Teachers named after the
A.Avloni, Independent researcher*

Abstract: this article examines the impor-
tance of the teacher-student tradition, its role in
improving the quality of education, the role of
the teacher in mastering the secrets of science,
the relationship between teacher and student,
as well as the educational significance of natio-
nal sentiments, highlighted in this article.

Keywords: teacher, student, quality of edu-
cation, national value, tradition, relationships
and tasks of teacher and student, education.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan pedagoglarni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib voyaga yetkazish ustoz-shogird tizimining muhim va dolzarb masalasidir.

Ikkinchi ming yillikning so'ngiga kelib, mamlakatimizning mustaqillikka erishi-shi ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. So'nggi yigirma besh yildan ortiq davr mobaynida zamonaviy ta'lim olishning yetakchi talablari inobatga olingan holda, mamlakatimizda ta'lim tizimining muntazam takomillashtirib borilayotganligini amalga oshirilgan ishlar va erishilgan yutuqlar misolida ko'rib turibmiz.

Bugun jahonda kechayotgan global-lashuv va modernizatsiyalash jarayoni na-faqat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotni, balki millat ma'naviyati, ertangi kun istiqboliga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda ta'limda ustoz-shogird tizimi sifat va samaradorlik kafolati mavzusida o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy onlayn konferensiyalar hozirga qadar ta'lim tizimida ustoz-shogird munosabati yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning sarhisobi, rejalashtirilayotgan keyingi ishlarning davomchisi sifatida tashkillashtirilmoqda.

Xalqimizda "ustoz otangdek ulug'" degan hikmatning mohiyatini donishmand-lar quyidagicha izohlaydilar: ota farzand uchun ne'matlarning aslidir, ustoz-shogird uchun fazilatlarning aslidir. Ota farzand-ni dunyoga kelishiga, ustoz esa barkamol bo'lishiga vositachi. Farzand ota o'giti bilan

zaminda ulg'aysa, ustoz o'giti bilan osmon qadar yuksaladi.

Maktabda bu tizimni to'la joriy etish uchun har qanday o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi shogirdning imkoniyati va bilimi ko'lamini to'g'ri baholay olishidir. Ustoz shogirdga o'z maqsadi sari intilishi-da har qanday metodik yordamni ko'rsata olishi lozim. Ustoz-shogird an'analari doirasida bir qator pedagogik ko'rsatmalar: o'z xatti-harakatlari rejalarini shakllan-tirish, o'z rivojlanish bosqichlarini kuza-tib borishi, suhbatdoshini tinglay olish malakalari, o'z rivojlanishini tushunish, imkoniyatlarini baholay olish, yangi usul va metodlarini amaliy egallash, samarali rejalashtirish ko'nikmalari o'zlashtiriladi hamda tizim uchun po'ydevor bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, maktab ta'limi ti-zimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning lavozim majburiyatlari, ular-ni kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan umu-miy malaka talablari asosida pedagog kadrlarning ta'lim muassasasida "Ustoz-shogird" usulida uzluksiz malakasini oshirishni tashkil etish hamda O'zbekis-ton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xo-dimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qa-rori asosida "Ustoz-shogird" metodi bo'yi-cha ta'lim muassasasida o'qitish (innovat-siya metodi)ni amalga oshirish tartibini belgilaydi [2].


Xalqaro ilg'or tajribalar o'rganilgan-da TALIS tadqiqotida ishtirok etadigan mamlakatlarning o'rtacha 56% yosh o'qi-tuvchilarni kasbga o'rgatish bo'yicha ras-miy dastur joriy etilgan. Kasbga kirish dasturida – maktab jamoasi yosh o'qituv-chining kasbiy faoliyatga moslashishi yoki maktabdagi tajribali o'qituvchilar tomo-

nidan birinchi marta muayyan faoliyatni boshlagan o'qituvchini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator vazifa va yo'riqnomalar kiritilgan. Bu faoliyat rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etilishi yoki alohida tadbirlar shaklida norasmiy tashkil etilishi ham mumkin. Besh yildan ortiq yuqori tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar kamroq tajribali hamkasblariga qaraganda kasbga kirishning rasmiy va norasmiy dasturlarini o'tash bo'yicha ko'proq foydali ekanligini bildirishgan.

Xalqaro PISA-2015 tadqiqoti natijalariga ko'ra, Singapurda aksincha holat kuzatilgan: yosh o'qituvchilar, ayniqsa, maktablarga ishga joylashish oldidan, kasbga ko'nikma hosil qilish bo'yicha ko'plab maxsus dasturlarda ishtirok etishganini ma'lum qilishgan [4].

da yosh o'qituvchilar uchun kasbga kirish bo'yicha rasmiy va norasmiy dasturlar mavjud ekanligini ma'lum qilishgan. Umuman olganda, kasbga kirish dasturini joriy etish bo'yicha o'qituvchilar va maktab direktorlarining so'rovnomasi ma'lumotlari bir-biridan juda farq qiladi: oddiy o'qituvchilarga nisbatan maktab direktorlari maktablarda o'qituvchilik kasbga kirish o'quv dasturining joriy etilishi keng tarqalgan deyishadi (2-rasm). Bu xulosa nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda, shu jumladan, PISA xalqaro tadqiqot-o'rganishlari o'tkazilgan mamlakatlarning aksariyat maktab direktorlariga xos bo'lgan natija deb baholash mumkin.


Tadqiqot vaqtida maktablarda kasbga kirish amaliyotidan o'tgan o'qituvchilar



1-rasm. O'qituvchi sifatida birinchi marta ish boshlaganlarida maktabda kasbga kirishish bo'yicha tajribalarda ishtirok etgan o'qituvchilar foizi

Tadqiqotimizda ishtirok etgan maktab direktorlarining 9,1%i o'z maktablari ustoz-shogird an'anasi bo'yicha, kasbga kirishish dasturi joriy etilmaganini tan olishgan. Singapurda maktab direktorlari o'zlari rahbarlik qilayotgan maktablar-

ko'pincha boshqa yangi ishga kelgan o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishni (89%), direktor yoki tajribali o'qituvchilar bilan rejalashtirilgan uchrashuvlarda (90%), ustoz-murabbiy rahbarligida ishlashga (87%), kunduzgi kurslarga vaqt ajratishni



2-rasm. O'qituvchilik kasbiga kirish dasturiga kiritilgan faoliyat turlari(o'qituvchi va maktab direktorlarining javoblari asosida)

(88%) maqbul ko'rishlari aniqlangan. Mazkur tadbirlarning O'zbekistonda tatbig'i TALIS tadqiqotida ishtirok etadigan mamlakatlarning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligi ma'lum bo'lmoqda. Ushbu maqsadlar uchun eng kam ishlatiladigan uchrashuv uslubi bu onlayn tadbirlar (masalan, 32% virtual aloqalar) va o'qituvchilarning o'quv yuklamasini kamaytirish (21%) deb hisoblashadilar [4].

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kasbga kirishning rasmiy yoki norasmiy dasturini bajargan o'qituvchilar o'z qobiliyati va malakalarida o'sish bo'lganiga ishonadilar hamda aynan ular orasida o'z tanlagan kasblaridan qoniqish ortgani aniqlangan.

Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarga amaliy-metodik yordam berish, ayniqsa, maktablarda endi ish boshlagan o'qituvchilarga ish jarayonini to'g'ri tashkil etishi uchun maslahatlar berish, pedagogik jamoalardagi

tajribali o'qituvchilarga izdoshlarini biriktirish maqsadida maktab ta'limi tizimida "Ustoz-shogird maktabi" tizimli ravishda tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

4-modda. Murabbiylik

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi.

Murabbiylikni amalga oshirganligi uchun pedagogning bazaviy lavozim maoshiga qo'shimcha haq to'lanishi ko'rsatib o'tilgan.

Murabbiylikni amalga oshiruvchi pedagogga qo'yiladigan talablar va uning faoliyatini tashkil etish tartibi qonunchilik hujjatlarida belgilanadi.



Milliy an'analarimiz va qadriyatlarimizning qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida malakali yosh pedagoglarni tayyorlashda nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning iqtidorlari, qiziqishlari va intilishlarini inobatga olgan holda jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishda ustoz-shogird an'alaridan foydalanish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanadi. Ustoz-shogird tizimi yoshlar-

da kasbiy mahoratni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, o'z ustida mehnat qilish, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Ustozning eng buyuk burchi mustaqil yurtimiz ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, ilimli, aql-idrokli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ustoz yordami bilan shogird asta-sekin malakali kadr bo'lib shakllanar ekan, ta'lim jarayonining sifati, samarasi sezilarli o'sib boradi va yoshlar tashabbus ko'rsata olishlari, o'zlarining yangi-yangi fikr va g'oyalari bilan hayotga yangilik olib kira olishlari uchun ko'plab imkoniyat va imtiyozlar yaratiladi. "Ustoz-shogird" tizimi har tomonlama kelajagi bo'lgan yoshlarimizni o'z-o'zini tarbiyalashda, tajriba orttirishda ibrat maktabi bo'la oladi desak aslo xato bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori.
4. Radjiyev A., Karimov F., Ibragimov A.G. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlari talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma va tadqiqot hisobotining ma'lumotlar to'plami 1-2-to'plamlar // A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2022.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

МАКТАВ ТА'ЛИМИ:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2024-yil,
1-son

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. Nashr bosma tabog'i 21,75.
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 05.07.2024.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosmaxonasi
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
olingan matnlar "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" ilmiy-nazariy
va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

© "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" jurnali, 2024.